

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**«TARIX» ta'lim yo'nalishi
II-kurs talabalari uchun**

**O'ZBEKISTON TARIXI
fanidan**

MA'RUZALAR MATNI

**Mazkur ma'ruzalar matni AnDU
O'zbekiston tarixi kafedrasining 2015
yil ____avgust yig'ilishida muhokama
qilindi va ma'qullandi, 1-son majlis
bayoni.**

Andijon-2015

Ajratilgan soatlar: 114 soat

Shu jumladan:

ma'ruzalar: 46 soat

seminarlar: 68 soat

Semestr: III-IV

**Tuzuvchi: Abduraupov O,
Radjapova M**

**Taqrizchilar: tarix fanlari nomzodi,
dosent
M. Abdullayev,
S. Xoshimov**

**1-mavzu: O'zbek xonliklari (XVI-XIX asr birinchi yarmi) Shayboniylar davrida
Movarounnahr. Buxoro xonligining tashkil topishi
(2 soat ma'ruza)**

1. Shayboniylar boskini arafasida Movarounnahr va Xuroson
2. Shayboniixon tomonidan Movarounnahr va Xurosonning bosib olinishi
3. Markazlashgan davlat tuzish uchun kurash, natijalari va okibatlari
4. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi

Buxoro xonligi 16-20 asr boshlarida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yirik davlat bo'lib, unda 3 ta sulola – shayboniylar (16-asr), ashtarxoniylar (17-18 asr o'rtalari) va mang'itlar hukmronlik qilganlar. Bu sulolalar hukmronligi davrida xonlikning siyosiy nufuzi, kuch-qudrati turlicha bo'lganligi sababli ham Buxoro xonligini Shayboniylar davlati, Ashtarxoniylar davlati va Buxoro amirligi deb ajratgan holda alohida ko'rib o'tiladi.

Muhammad Shayboniixon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar 16 asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'ydilar va bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. Bu davlat poytaxti avval Samarqand bo'lgan bo'lsa, 16 asr o'rtalaridan boshlab Buxoroga ko'chiriladi. Shundan keyin bu davlat Buxoro xonligi deb ham atala boshladi. Butun 16 asr mobaynida hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab kelgan shayboniylar sulolasi hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, xuddi shu davrda o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi uchinchi bosqich boshlandi. Dashti Qipchoqlik o'zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy turkiy xalq – o'zining azaliy qon-qarindoshlari bilan qo'shilib ketdi va ularga ham o'zining nomini berdi.

Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan hudud 11 asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshlangan. Qipchoqlar va boshqa turkiy qabilalar hukmronligi ostida bo'lgan bu hududni 1236 yilda Botuxon o'zining turkmo'g'ul qo'shinlari bilan egalladi va tarixga Oltin O'rda nomi bilan kirgan davlatga asos soladi. 14-asr boshlarida ikki qismga bo'linib ketgan Oltin O'rda davlatining sharqiy qismida tashkil topgan davlat Oq O'rda tarixiy manbalarda «O'zbeklar mamlakati» deb ham yuritilgan. 15 asrning o'rtalarida bu hududda Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468) ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Bu davrda Oltin O'rda (Ko'k O'rda)da, Mo'g'ulistonda va temuriylar xukmronlik qilayotgan Movarounnahrda o'zaro feodal urushlar kuchayib ketgan edi. Bundan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olib, temuriylar davlatining yon qo'shnisi bo'lib qoldi. Abulxayrxonning vafotidan keyin inqirozga uchragan bu davlat 15-asrning 80-yillarida Muhammad Shayboniixon (1451-1510) tomonidan qayta tiklanadi. Shayboniixonning hokimiyat tepasiga kelishida Movarounnahr amirlaridan olingan yordam katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xozirgi Qozog'istonning katta qismini, janubi-g'arbiy Sibirni va Xorazmning janubi-g'arbiy qismini o'z ichiga olgan bu davlat bilan temuriylar davlati o'rtasida o'zaro iqtisodiy va siyosiy aloqalar mavjud edi. Temuriy shahzodalarning ko'pchiligi toju-taxt uchun kurashda ko'chmanchi o'zbeklardan moddiy va harbiy yordam olib turganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shohbaxt Shayboniixon (1451-1510) bo'lib, u iste'dodli shoir va zamonasining o'qimishli, bilimdon kishilaridan biri edi. Hokimiyatni qo'lga olgan Shayboniixon tez orada tajribali davlat rahbari va harbiy sarkarda ekanligini namoyish qildi. 15-asrning 90-yillaridayoq Movarounnahrning markaziy viloyatlariga o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan temuriylar davlati hududlariga xujumlar uyushtira boshladi. Bu davrda Movarounnahrda temuriylar saltanati mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Ayniqsa, 1494 yilda Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so'ng o'zaro nizolar kuchayib, mamlakatda ko'p hokimiyatchilik maydonga keladi. Bundan foydalanishga intilgan Shayboniixon 1497 yilda

Movarounnahrda o'zining dastlabki xujumini uyushtiradi. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib katta o'lja bilan qaytib ketdi.

Temuriy shahzodalar Boysunqur Mirzo va Sulton Alilar o'rtasidagi Samarqand taxti uchun bo'lgan urushlardan foydalangan Andijon hokimi Bobur 1497 yilda Samarqand shahrini egallaydi, lekin qisqa vaqt (100 kun) hukmronlikdan so'ng yana Andijonga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Samarqand taxtiga temuriy shahzoda, Qarshi hokimi Sulton Ali o'tiradi. Shayboniixon 1499 yilda katta kuch bilan yana Samarqandga hujum qiladi. Buxoro hokimi Boqi tarxon 10 ming kishilik qo'shin bilan Samarqandga yordamga yetib keladi. Samarqand va Buxoro o'rtasidagi yerda bo'lib o'tgan qisqa jangdan keyin Shayboniixon qo'shinlari himoyasiz qolgan Buxoro shahrini egallaydilar.

Bobur Mirzo 1500 yilda Samarqandga yana yurish qiladi. Lekin Shayboniixon undan oldinroq harakat qilib Samarqandni qamal qiladi. Qamal davomida u shahar hokimi Sulton Ali bilan muzokara olib borib, Samarqand shahrini jangsiz egallaydi. Tez orada Qarshi va G'uzor shaharlari ham shayboniylar tomonidan bosib olinadi. 1501 yilda Shayboniixon asosiy qo'shini bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg'ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib, Toshkent viloyatidagi Shohruhiya va boshqa ko'pgina qal'alarni bosib olishga muvaffaq bo'ladi. Xuddi shu paytda Bobur Samarqanddagi o'ziga xayrixox kishilar yordami bilan shaharni ikkinchi marotaba qo'ga kiritishga erishadi. Qarshi va G'uzorda ham shayboniylarga qarshi isyonlar ko'tariladi. Shayboniixon katta kuch bilan Samarqandga qaytib, shahar yaqinidagi Saripul degan joyda bo'lgan jangda Bobur qo'shiniga qattiq zarba beradi. Shaharga qaytib mudofaaga o'tishga majbur bo'lgan Bobur boshqa temuriy hukmdorlardan yordam ololmaganidan so'ng, uzoq qamalga bardosh bera olmay, Shayboniixon bilan bo'lgan kelishuvga muvofiq Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Zarafshon va Qashqadaryo voxalari yana Shayboniixon qo'lga o'tadi.

Shundan so'ng Shayboniixon Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlarini qo'lga kiritish uchun bir necha yo'nalishda janglar olib bordi. Bu janglarda tajribali sarkardalar Sulton Mahmud Bahodir, Ubaydulla Sulton, Hamza Sulton, Ko'chkunchixon, Suyunchxo'jaxonlar katta rol o'ynadilar. 1501-1502 yillarda Jizzax, O'ratepa, Shosh, Shohruhiya, Sayram kabi shahar va qal'alar egallandi.

1503 yilning oxirida Sulton Mahmud boshchiligidagi shayboniy qo'shinlari Xorazmning bir qismini, xususan, Kat qal'asini egallaydilar. Xorazmni butunlay egallash uchun Shayboniixonning o'zi 1504 yilda ikkinchi marta harbiy yurish qildi. 1505 yilning yozida Urganch shahri egallanganidan so'ng Xorazm to'laligicha bosib olindi.

1504 yilda Shayboniixon Xisor viloyatini ham deyarli jangsiz bosib oladi. Termiz va Amudaryoning so'l qirg'og'ida joylashgan Qunduz, Tolqon, Badahshon va Balx ishg'ol etildi.

Shayboniixon 1504-1508 yillarda Dashti Qipchoqdagi raqiblaridan bo'lgan qozoq sultonlariga qarshi ham harbiy yurishlar olib bordi. 1509 yilning boshlarida o'zbeklarning katta qo'shini Dashti Qipchoq ustiga yurish boshlab, Burunduxon ulusiga hujum qiladi. Bu yurishlar natijasida Sig'oq, Yassi, Savron shaharlari qayta qo'lga kiritiladi.

Movarounnahrning markazida mustahkam o'rnatilgan Shayboniixon Xurosonni zab etishga kirishadi. Bu davrda 1506 yilda Xusayn Boyqaroning vafotidan keyin Xurosonda ham o'zaro taxt uchun kurashlar avj olgan edi. 1507 yilda Xirot shahri qo'lga olinganidan keyin butun Xuroson Shayboniylar davlatiga qo'shib olindi.

Temuriylar davlatining asosiy viloyatlarini o'z ichiga olgan Movarounnahr va Xuroson egallanganidan so'ng, Shayboniixon Eronni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. 1509 yilning aprel oyida Shayboniixon Qarshida qo'shin to'plab, Amudaryodan kechib o'tadi. Lekin Shayboniixon bu yurish paytida asosiy sarkardalarini qo'shinlari bilan Movarounnahrda qaytarib yuboradi. Marv shahrini egallagan Shayboniixon Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi. Mashhad va Tus shaharlari ishg'ol qilinadi. 1510 yilda Erondan orqaga qaytgan Shayboniixon orqadan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan Marv shahri

yaqinida, Movarounnahrda kelayotgan yordamni kutmasdan jangga kirishadi. Bu jangda eronliklar son jihatdan ustun bo'lganliklar bois, Shayboniyxon qo'shinlarini mag'lub etadilar va bu jangda Shayboniyxonning o'zi ham halok bo'ladi.

Shayboniyxon tiriklik chog'idayoq Movarounnahr va Xurosonni o'zbek sultonlariga suyurg'ol sifatida taqsimlab bergan edi. Shayboniyxonning o'limidan keyin taxtga amakisi Ko'chkinchixon (1510-1529) ko'tarildi. Bu xon ona tomondan Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya begimning va ko'chmanchi o'zbeklar davlati asoschisi Abulxayrxonning o'g'li edi. Lekin bu davrda o'zbek sultonlari o'rtasida boshlangan kelishmovchiliklar davlatning zaiflashuviga olib keldi va shayboniylar keyingi janglarda mag'lubiyatga uchray boshladilar. Natijada Xuroson va Xorazm qo'ldan boy berildi. Kobulni egallab turgan Bobur 1511 yilda Eron shohi qo'shinlari yordamida Xisor, Ko'lob, Qunduz, Badahshon va Samarqandni bosib oldi. 1512 yilda Qarshi shahrini qattiq janglar bilan bosib olgan eronliklar shaharda juda ko'p tinch aholini qirib tashlaydilar. Bu hol eronliklarga qarshi g'alayonlarning avj olishiga sabab bo'ldi. Keyingi hal qiluvchi jang G'ijduvon yaqinida bo'lib o'tdi. 1512 yilning noyabr oyida Bobur va eronliklarning birlashgan qo'shini Shayboniyxonning jiyani Ubaydulla Sulton tomonidan butunlay tor-mor etildi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Bobur Movarounnahrda butunlay bosh olib chiqib ketadi.

Ko'chkinchixonning o'limidan so'ng Movarounnahr taxtiga uning o'g'li Abu Saidxon o'tkazildi (1529-1533). Lekin tez orada Shayboniy sultonlar ichida katta mavqega ega bo'lgan Ubaydullaxon oliy hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Ubaydullaxonning hukmronligi davrida (1533-1539) Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati har tomonlama rivojlandi. Xonlikning poytaxti Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Shu davrdan boshlab Shayboniylar davlati rasman Buxoro xonligi deb atala boshladi.

Ubaydullaxonning o'limidan keyin o'zbek sultonlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar yana avj olib, davlat amalda bir necha bo'laklarga bo'linib ketdi. Buxorodda Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandda Abdulatifxon (1540-1551), Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon (1540-1556) hukmronlik qila boshladi.

16-asr o'rtalarida o'z siyosiy faoliyatini boshlagan Abdullaxon 1556 yildan Buxoro taxtini egallash uchun jiddiy kurash boshlaydi. Xonlik taxtiga o'tirgan tog'asi Pirmuhammad yordamida u 1556-1557 yillarda Miyonkol, Kesh, Buxoro va Nasafni egalladi. 1560 yilda u otasi Iskandar Sultonni Buxoroga olib kelib butun o'zbeklarning oliy xoni deb e'lon qiladi. Lekin amalda hokimiyat Abdullaxonning qo'lida edi. Xokimiyat Abdullaxonning qo'lida bo'lsada, taxtda rasman uning otasi Iskandarxon 1583 yilgacha o'tirdi. Abdullaxon uzoq yillar (1557-1583) davomida olib borilgan janglardan so'ng butun Movarounnahrni, Xisorni, Xurosonning katta qismini, Xorazm va Turkistonni qo'lga kiritib, bu ulkan hududda markazlashgan davlat barpo etishga erishdi. Lekin bu davlat ham davrning har qanday sinovlariga bardosh bera oladigan asosga qurilmagan edi. Shu sababli ham Abdullaxonning vafotidan keyin (1598) bu davlat inqirozga yuz tutdi. Abdullaxonning o'limidan keyin taxtga o'tirgan uning o'g'li Abdulmo'min 6 oydan so'ng saroy fitnachilari tomonidan o'ldirildi. Hokimiyatni Shayboniyxonning safdoshlaridan Jonibek Sulton urug'idan bo'lgan Pirmuhammad ibn Sulaymon egalladi (1599-1601). Abdullaxonning jiyani bo'lgan bu xon shayboniylar sulolasining so'nggi vakili bo'lib qoldi.

Abdullaxonning vafotidan keyin Xorazm va Xuroson qo'ldan ketdi. Movarounnahrning markaziy viloyatlariga qozoq xoni Tavakkalxon katta qo'shin bilan bostirib kirib, Farg'ona vodiysini, Toshkent, Samarqand va Zarafshon voxasining katta qismini bosib oldi va Buxoroni qamal qildi. O'zbek sultonlarining birlashgan qo'shinlari qozoqlarga qattiq zarba berib ularni chekinishga majbur qilgan bo'lsalarda, Movarounnahrda siyosiy vaziyat o'nglanmadi. Shayboniylar sulolasidagi o'zaro kurashlar oxir-oqibat bu sulola vakillarining qirilib ketishiga olib keldi va 1601 yilda Pirmuhammadxonning o'limidan keyin Buxoro taxti yangi sulola – Ashtarxoniylar (Joniylar) qo'liga o'tdi.

Shayboniylar davlati o'z mohiyatiga ko'ra yirik davlat bo'lib, oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i – xon tomonidan boshqarilgan.

Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvda amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib-qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun-qoidalariga amal qilingan. Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh – saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va vazir tomonidan boshqariladigan bk mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilangina kuchga kirar edi. Davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xojalarning, xususan, shayxulislom, qozikalon, mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta'siri katta bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo'lida bo'lib, ular ham o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Viloyatlar o'z navbatida kichik ma'muriy birliklar: tuman, qasaba va mavzelarga bo'linib idora qilingan. Mahalliy boshqaruvning eng quyi bo'g'ini oqsoqol (kalontar) tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi.

Buxoro xonligining bu davrdagi asosiy ma'muriy birligi viloyat bo'lib, manbalarda Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Xisor, Balx, Termiz, Karmana, Qorako'l, Miyonkol, Shosh, Turkiston, Farg'ona, O'ratepa, Marv kabi viloyatlar tilga olinadi. Poytaxt shahar va unga tutash tumanlar xonning o'zi tomonidan boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan.

Jamiyat hayotida, davlat boshqaruvida tutgan o'rniga, mavqeiga qarab quyidagi ijtimoiy tabaqalarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Oliy tabaqa (xon va uning yaqinlari, o'zbek sultonlari, yirik saroy amaldorlari). 2. Umaro (harbiy-ma'muriy amaldorlar, yirik sarkardalar, viloyat hokimlari, qo'shin va qabila boshliqlari). 3. Ulamolar (yirik din peshvolari). 4. Fuzalo (olimlar, shoirlar va boshqalar). 5. Raiyat (fuqaro). 6. Qullar.

Mamlakat siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlarining o'rni katta bo'lgan. Shayboniylar qo'shini asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan. Qo'shin urushda o'q-yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy xujum qurollaridan foydalangan. Abdullaxon ikkinchi davrida qo'shin xorijdan keltirilgan piltalarni bilan ham qurollantirilgan. 16-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abdullaxon ikkinchi qo'shinida chet ellardan keltirilgan kichik zambaraklar paydo bo'ldi. Qo'shin tarkibi, uning saflanishi, jang qilish tartibi Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi, urush taktikasiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniylar davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan bir qancha yangi jang usullari kiritilgan. Xususan, Bobur Mirzo Shayboniylar qo'shini to'lg'ama jang usulini mukammal o'zlashtirganligi haqida ma'lumot bergan.

Shayboniylar qo'shini ham Amir Temur qo'shinidek, 10 minglik korpuslar – tumanlarga bo'lingan. Unga no'yon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o'z navbatida minglik, yuzlik, o'nliklarga bo'lingan.

Xonlikda jinoyatni aniqlovchi va jazo beruvchi asosiy mahkama islomiy shariat qonun-qoidalariga asoslanib ish tutuvchi qozilik idoralari edi. Davlatdagi oliy sudya qozikalon bo'lib. viloyatlardagi jinoyatlarni jazolash viloyat qozilari qo'lida bo'lgan. Oliy jazo – o'lim hukmini faqat xonning maxsus farmoni bilangina amalga oshirganlar.

Xonlikda qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va xunarmandchilik iqtisodning asosiy tarmoqlari bo'lgan. Davlatning asosiy boyligi yer bo'lib, Shayboniylar davrida yer egaligining quyidagi asosiy shakllari mavjud edi. 1. Mulki sultoniy – davlatga qarashli yerlar. 2. Mulki xolis – xususiy shaxslarga tegishli yerlar. 3. Vaqf – diniy mahkamalarga, madrasa va masjidlarga, qabristonlarga qarashli yerlar. Yerda mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag'al qishloq aholisi bo'lib, ular o'z yeriga ega bo'lmasdan, ijaraga olingan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan. Dehqonchilikda asosan bug'doy, arpa, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, kunjut, beda, sul, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilgan. Shuningdek, sholi va paxta ham ekilgan. Bu davrda xususiy yer egaligining o'rta asrlarda mavjud bo'lgan iqto, suyurg'ol va tanho kabi shakllari keng tarqalgan.

Shayboniylar davrida dehqonchilikni rivojlantirishga yordam beruvchi islohotlar o'tkazildi, davlat hazinasiga dehqonchilikdan tushadigan daromadni yaxshilashga xizmat qiluvchi ilg'or tartiblar joriy qilindi. Xususan, qarovsiz yerlarni davlat mulkiga kiritib, bu yerlarda dehqonchilik qilganlar soliqlardan ma'lum muddatga ozod qilingan. Shayboniylar davlatida chorvachilik qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. yirik va mayda tuyoqli hayvonlar boqish, yilqichilik, tuyachilik keng rivojlangan. Chorvadorlar ichki va tashqi bozorga chorva mollari, turli mahsulotlar, teri va jun yetkazib bergan.

Xunarmandchilik 16-asrda o'z taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Uning asosiy turlari bo'lgan to'qimachilik, kulolchilik, metallga ishlov berish bilan bog'liq hunarlar, duradgorlik va boshqa sohalarida mehnat qilgan xunarmand-ustalar mahsuloti ko'p hollarda yuksak san'at asari darajasiga ko'tarila oldi. Hunarmandchilikning asosiy markazlari Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qarshi, Balx kabi yirik shaharlar edi. Samarqand va Buxoroda hunarmandchilik turlarining soni 60dan ortiq bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Bu davr xalq hunarmandchiligida o'rta asrlar hunarmandchiligiga xos bo'lgan ilg'or an'analar yangi shakl va ko'rinishda davom ettirildi. Hunarmandlar ijtimoiy jihatdan o'z uyushmalariga ega bo'lib, ular odatda arabcha «kasaba» termini bilan atalgan. Barcha shaharlarda hunarmandlar o'z uyushmalariga ega bo'lib, ular saylab qo'yiladigan rais yoki oqsoqol tomonidan boshqarilgan.

Shayboniylar davrida savdo-sotiq mamlakat iqtisodining muhim tarmog'i edi. Asosiy savdo markazlari bo'lgan yirik shaharlar (Buxoro, Samarqand, Qarshi, Balx, Toshkent, Andijon) dan tashqari ko'pgina katta qishloqlarda ham bozorlar mavjud edi. Savdo bilan shug'ullanadigan kishilar asosan ikki toifaga bo'lingan: savdogarlar va do'kondorlar. Tashqi savdo katta foyda keltirganligi uchun xon va yirik saroy amaldorlari o'z mablag'larini savdo-sotiqqa ham sarflaganlar. Shayboniylar davrida Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar olib borildi. Katta hududga ega bo'lgan xonlikning turli viloyatlari o'rtasidagi yaqin iqtisodiy savdo aloqalari ham mavjud edi. Ayniqsa, abdullaxon ikkinchi hukmronligi davrida Buxoro xonligida ichki va tashqi savdo keng rivojlandi. Karvon yo'llari bo'yida ko'plab inshootlar: karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar barpo etildi, savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Tarixiy manbalar guvohlik beradiki, shayboniylar davrida 40dan ortiq turli soliqlar va jarimalar mavjud bo'lgan. Soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyat) deb atalgan va ulardan turli soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan. Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, u yetishtirilgan mahsulotning 5/1 miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan. Zakot solig'i savdogarlar va chorvadorlardan olinib, uning xajmi 40/1 miqdorida bo'lgan. Shahar aholisi: hunarmandlar va do'kondorlar maxsus soliq – tamg'a to'laganlar. Boshqa dinga mansub savdogarlar o'z mahsulotining 5/1 qismini jiz'ya solig'i tarzida to'laganlar. Bu davrda yana ixrojat, tog'ar, ulufa, qo'nalg'a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuhfa va boshqa soliqlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi butun o'rta asrlar davriga xos edi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda rivojlangan yuksak madaniyat an'analarini shayboniylar ma'lum ma'noda davom ettirdilar. Bu davrda adabiyotning turli janrlarida, tarixnavislik, xattotlik san'ati, epigrafiya, me'morchilik va madaniyatning boshqa bir qator sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda ham boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar hamda diniy va dunyoviy bilimlar beradigan madrasalar asosiy madaniyat dargohlari bo'lgan. xonlikning barcha katta-kichik shaharlarida oliy ta'lim beradigan madrasalar mavjud bo'lib, ularda o'qish uch bosqichli bo'lgan va 21 yil davom etgan.

Shayboniylar davri adabiy muhitida Muhammad Solih, Xoja, Afsadiy, Vosifiy, Majlisiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Aziziy, Nisoriy, Mushfiqiy, Naxliy, Mutrifiy va boshqa ko'plab so'z san'atkorlari o'z ijodi bilan nom qozondilar. Bu davrda ko'plab tarixiy asarlar yaratilib, o'rta asr musulmon tarixnavisligidagi yetakchi an'analar davom ettirildi. Sulola asoschisi Shayboniixonga, uning vorislariga atab bir necha yirik tarixiy asarlar yaratildi. Bular ichida Kamoliddin Binoiyning, Mullo Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ruzbexonning asarlarini, Mirzo Muhammad Xaydarning «Tarixi Rashidiy», Xofiz Tanish Buxoriyning

«Abdullanoma» («Sharafnomai shohiy»), noma'lum muallifning «Tavorixi guzida, Nusratnoma» kabi asarlarini aytib o'tish mumkin.

Shayboniylar davrida shuningdek musavvirlik, xattotlik va musiqa san'atida, fiqh, tibbiyot, mantiq, riyoziyot, xandasa va ilmi-nujum hamda ilm-fan, madaniyatning boshqa sohalarida rivojlanish ko'zga tashlandi. Shayboniy hukmdorlar ham me'moriy inshootlar barpo etishga alohida e'tibor berdilar. Pishiq g'ishtlardan baland poydevor ustiga qurilgan ko'plab binolar bu davr shaharsozligi va me'morchiligi yuksak taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Samarqand, Toshkent, Qarshi, Marv, Balx, Xiva va ayniqsa xonlik poytaxti Buxoroda ko'pgina muhtasham inshootlar barpo etildi. Movarounnahr shaharsozligida temuriylar davri me'moriy an'analari davom ettirildi va boyitildi. Shaharlarda ko'plab madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, yopiq bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar qurilgan bo'lsa, yirik daryolarda ko'priklar, suvayirg'ichlar, savdo yo'llarida karvonsaroylar, rabotlar va sardobalar barpo etildi. Bu davr inshootlari ichida Samarqand yaqinida Shayboniyxon tomonidan Zarafshon daryosi ustiga qurdirilgan ko'priksuvayirg'ichi, Shahardagi Shayboniyxon madrasasi (1515-1516) va masjidini, Abduraxim Sadr madrasasini, Toshkentda Navro'z Ahmadxon qurdirgan Baroqxon madrasasini va Abdullaxon ikkinchi davriga mansub Ko'kaldosh madrasasini, Qarshi shahridagi Abdullaxon madrasasi va Namozgoh machitini, boqibiy madrasasini, hammom va sardobani, Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustidagi ko'priknini (1582), bu shaharda barpo etilgan bir nechta madrasa, xonaqoh, masjidlarni va xonlikning boshqa shaharlaridagi ko'plab binolarni aytib o'tish mumkin. Buxoro shahrida Ubaydullaxon tomonidan Mir Arab madrasasi (1535-1536), Abdulazizxon davrida koshinli xonaqoh, Masjidi Kalon (1540-1541) va boshqa imoratlar barpo etildi. Abdullaxon ikkinchi davrida esa Buxoroda Modarixon, Oyposhsha oyim, Govkushon, Fatxulla qushbegi, Do'stim, Abdullaxon madrasalari, masjidlar, yopiq bozor va savdo rastalari (Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Kitobfurushon), xonaqohlar, hammomlar qurildi.

Umuman, Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ijobiy siljishlar yuz berdi. So'nggi temuriylar davrida kichik-kichik mustaqil boshqariladigan viloyatlarga bo'linib ketgan Movarounnahr yana yagona davlatga birlashtirildi.

Shayboniylar sulolasi hukmdorlari

1. Muhammad Shayboniyxon – 1451-1510 yillar.
2. Ko'chkinchixon – 1510-1529 yillar.
3. Abusaidxon – 1529-1533 yillar.
4. Ubaydullaxon – 1533-1539 yillar.
5. Abdulazizxon – 1540-1550 yillar (Buxoroda).
6. Abdulatifxon – 1540-1551 yillar (Samarqandda).
7. Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) – 1540-1551 yillar Toshkent hokimi.
8. Iskandarxon – 1560-1583 yillar.
9. Abdullaxon Ikkinchi – 1557-1583-1598 yillar.
10. Abdulmo'min – 1598 yilda 6 oy taxtda o'tiradi.
11. Pirmuhammad Ikkinchi – 1598-1601 yillar.

2-mavzu: Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi

(2 soat ma'ruza)

1. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi
2. Ashtarxoniylar olib borgan siyosat
3. Abulfayzxon davrida Ashtarxoniylar

Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini egallagan sulola – Ashtarxoniylar (kelib chiqishi Astraxondan bo'lganligi uchun) yoki Joniylar (sulola asoschisi Jonibek Sulton nomidan olingan) hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Oliy hokimiyatni 150

yildan ortiqroq (1601-1756) davr mobaynida o'z qo'llarida saqlab kelgan ashtarxoniylar davrida markaziy davlat hokimiyati juda zaiflashdi, o'zaro urushlar avj oldi. Abdullaxon ikkinchining sa'y-harakatlari bilan barpo etilgan ulkan Buxoro xonligi hududi qisqarib ketdi. Markaziy hokimiyat mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilolmaganligi, hududiy yaxlitlikni ta'minlay olmaganligi sababli 17-asr boshlaridayoq Xurosonning katta qismi qo'ldan boy berildi. Xorazmda mustaqil Xiva xonligi barpo etildi. 18-asr boshiga kelib esa xonlikning shimoliy chegaralarida Qo'qon xonligiga asos solindi.

Ashtarxoniylar Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodidan bo'lib, 15-asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Xojitarxon)da hukmronlik qilganlar. Bu shahar Ivan Grozniy qo'shinlari tomonidan 1556 yilda egallangach, sulola yetakchisi Yormuhammad o'z yaqinlari bilan Buxoroga kelib o'rinishgan. Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sulton tez orada xonning qizi Zuhro begimga uylanadi va shu tariqa Ashtarxoniylar Shayboniylar bilan yaqin qarindosh bo'lib qoldilar. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad Abdullaxon ikkinchi hukmronligi davrida yuksak mavqega ega bo'lganlar. Shayboniylar o'rtasidagi toju-taxt uchun kurash bu sulola vakillarining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada yirik o'zbek qabilalari boshliqlari tomonidan Buxoro taxti Ashtarxoniylar Jonibek Sultonga taklif etildi. U Xurosonda hokimlik qilayotgan o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Lekin Dinmuhammad Buxoroga kelishida qizilboshlar bilan to'qnashuvda halok bo'lgach, uning ukasi Samarqand hokimi Boqi Muhammad taxtga o'tqazildi (1601-1606). Lekin hokimiyat rasman Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan, uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan.

Boqi Muhammad xonlikdagi ichki siyosiy nizolarga chek qo'yishga harakat qildi, xonlikning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan himoya qilish choralari ko'rildi. Balx viloyatidan eronliklarni xaydab chiqarib u yerga ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. Lekin 17-asr boshlarida Buxoro xonligi hududi Abdullaxon ikkinchi davridagiga qaraganda juda qisqarib ketgan edi. Ashtarxoniylar Xorazmni va Xurosonning katta qismini butunlay qo'ldan boy berdilar. Toshkent uchun qozoq sultonlari bilan ko'plab urushlar olib borishga to'g'ri keldi.

Boqi Muhammaddan so'ng taxtga Vali Muhammad o'tirdi. Uning qisqa hukmronligi davrida (1606-1611) ichki kurashlar yanada kuchaydi, yirik o'zbek qabilalari beklari iqtisodiy-siyosiy jihatdan katta kuchga ega bo'lib, xon hokimiyatiga bo'ysunmas edi. Yangi xonning markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan intilishi unga qarshi fitna bilan yakunlandi va taxtni Boqi Muhammadning o'g'li Imomqulixon egalladi. U o'zining nisbatan uzoq davom etgan hukmronligi davrida (1611-1742) xonlikda hukm surayotgan o'zaro urushlarga chek qo'yishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga muvaffaq bo'lsada, Xuroson va Xorazmni qayta qo'lga kiritishga olmadi. Bu davrda xon hokimiyatining mavqei oshdi, ichki vaziyat birmuncha yaxshilandi. Lekin undan keyin taxtga o'tirgan Nodir Muhammadxon (1642-1645), Abdulazizxon (1645-1681) va Subxonqulixon (1681-1702) davrida mamlakatda siyosiy vaziyat yana izdan chiqdi. Bu xonlar maxalliy feodallarga va tashqi dushmanlarga qarshi to'xtovsiz urush olib borishga majbur bo'ldilar. Bu kurashlarda diniy ruxoniylar juda katta rol o'ynadilar. Mamlakatda diniy mutaassiblik kuchaydi. Bu o'z navbatida dunyoviy ilmlar rivojiga to'sqinlik qildi.

Subxonqulixon davrida Buxoro hududida xivaliklarning uyushtirgan xujumlari iqtisodiy-siyosiy vaziyatni yanada qiyinlashtirdi. Abdulazizxon va uning o'g'li Anushaxon boshchiligidagi Xiva qo'shinlari Zarafshon va Qashqadaryo voxasiga talonchilik yurishlari uyushtirib, shahar va qishloqlarni vayron qildilar. Bu yerlarda xo'jalik izdan chiqib ketdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashdi, xalqning ahvoli yanada og'irlashdi. Soliqlar bir necha barobar oshirildi, hatto, yetti yillik soliqlar birdaniga yig'ib olinib boshladi.

18-asr boshlariga kelib ashtarxoniylar davlatidagi inqiroz yanada kuchaydi. Bu sulola xonlari yirik saroy amaldorlari va qabila boshliqlariga qaram bo'lib qoldilar. Ubaydullaxon (1702-1711) markaziy hokimiyatni kuchaytirishga intilgan so'nggi ashtarxoniylar hukmdori bo'ldi. Uning Xisor, Termiz, Shahrisabz viloyatlarining isyonkor hokimlarini bo'ysundirish uchun qilgan

harakatlari natijasiz tugadi. Ubaydullaxonning 1708 yilda moliyaviy ahvolni yaxshilash uchun o'tkazgan pul islohoti iqtisodiy vaziyatni yanada chigallashtirdi. Zarb etilgan past qiymatli mis pullar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopilib, Buxoro shahrida katta qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsada, siyosiy vaziyat izga tushmadi. Natijada Ubaydullaxon o'ldirilib, taxtni Ashtarxoniylar sulolasining amaldagi so'nggi xoni Abulfayzxon egalladi. Uning hukmdorligi davrida (1712-1747) mamlakatda qabila boshliqlari, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi. Amaldorlar fitnasi avj oldi.

Buxorodagi markaziy hokimiyat amalda bir guruh saroy amaldorlari qo'lida edi. 1722 yilda Samarqandda mustaqil xonlikka asos solindi va bu xonlik 1731 yilgacha saqlab turildi. Mamlakatdagi ikki honkimiyatchilikdan ko'chmanchi qozoqlar unumli foydalandilar. Ular 7 yil (1723-1729) davomida xosildor Zarafshon va Qashqadaryo voxalariga talonchilik yurishlarini uyushtirib turdilar. Shaharlarda hayot izdan chiqdi, butun-butun qishloqlar xuvillab qoldi. Mamlakat iqtisodiy va siyosiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Yirik o'zbek qabila va urug' boshliqlari o'zlariga tegishli hududlarda mustahkam qo'rg'onlar barpo etib, markaziy hokimiyatga umuman bo'ysunmay qo'ydilar.

Bu siyosiy parokandalikdan tashqi dushmanlar ustalik bilan foydalandilar. Eronda yangi sulolaga asos solgan Nodirshoh qo'shinlari 1736 yilda Movarounnahrda bostirib kiradi va Qarshi shahrini qamal qiladi. 1740 yilda Nodirshohning o'zi katta qo'shin bilan kelib Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand va Xisorni egalladi hamda katta boyliklarni olib ketdi. Bu harbiy harakatlar paytida Qarshi hokimi Muhammad Hakimbiyning o'g'li Raximbiy mang'it Nodirshoh xizmatiga kiradi. Bu Muhammad Raximga keyinchalik Buxoro taxtni egallashga yordam berdi. 1747 yilda Nodirshoh Movarounnahrda yana xujum uyushtirib Toshkent, O'tror, Turkistonni egalladi. Shu yili Abulfayzxon saroy fitnasi oqibatida o'ldirildi va hokimiyatni Muhammad Raxim mang'it egalladi. So'nggi Ashtarxoniylardan Abdulmo'min (1747-1751), Ubaydullaxon ikkinchi (1751-1754) va Sherg'oz (1754-1756) Buxoro taxtiga rasman o'tqazilgan bo'lsalarda amalda davlat boshqaruvi butunlay Muhammad Raxim mang'it (1756-1759 qo'lida edi. U 1756 yil dekabrda rasman Buxoro taxtiga o'tqazildi va shu tariqa Buxoro xonligida yangi sulola – mang'itlar hukmronligi boshlandi.

Ashtarxoniylar davlat tizimi o'z tuzilishi, mohiyatiga ko'ra Shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinar edi. Lekin amalda ko'pgina ashtarxoniylar hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo'lida o'yinchoq bo'lib qolgan bo'lsada, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo'lib, u ko'p hollarda mamlakatni inqirozga olib kelardi.

Ashtarxoniylar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo'lib, uni taxt vorisi boshqarardi. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Bu davrda saroyda otaliq mansabi eng yuksak mansab darajasiga ko'tarildi. Lekin, barcha saroy mansablarining nomlanishi va vakolati Shayboniylar davridagidan uncha farq qilmas edi. Otaliqdan tashqari devonbegi, parvonachi, mushrif, xazinachi va boshqa saroy amaldorlari davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edilar.

Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunishi belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turish, xon farmoniga ko'ra xarbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishdan iborat edi xolos.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi hududi juda qisqarib ketdi. 17-asr boshlarida xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat – Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va G'uzor viloyatlari tilga olinadi xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Xisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsada, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar va Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi. Bu davrda shayboniylar davridagidek ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan bo'lsada, ularning mavqeida o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, oliy tabaqa xisoblangan xon va uning avlodlari, saroy amaldorlarining

mavqei birmuncha pasayib, sarkardalar hamda viloyat hokimlarining mavqei oshdi. Shunindek, bu davrda Jo'ybor xo'jalarining avlodlari mavqei juda yuqoriga chiqadi. Asosiy soliq to'lovchi fuqaro – raiyatning ahvoli yanada yomonlashdi. Ashtarxoniylar davrida o'zaro ichki urushlar avj olib, harbiy soxada jiddiy o'zgarishlar, islohotlar qilinmadi. Qo'shin tuzilishi va jang olib borish usuli ashtarxoniylar davridagidek bo'lib, bu usul bu davrga kelganda o'z ahamiyatini yo'qota boshlagan edi. Mamlakatda tashqi va ichki dushmanlarga to'siq bo'la oladigan qudratli harbiy qo'shinning barpo etilmaganligi, uyushgan markaziy qo'mondonlikning yo'qligi sababli Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi xarbiy jihatdan o'ta zaiflashib ketdi. Natijada xonlik xududi qisqarib bordi.

Ashtarxoniylar davriga xos bo'lgan o'zaro urushlar, siyosiy tarqoqlik, soliqlarning muttasil oshib borishi iqtisodiyotni, uning yetakchi tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligini inqirozli ahvolga solib qo'ydi. Bu davr dehqonchiligida o'rta asrlarga xos yer egaligi, iqtisodiy munosabatlar to'la saqlanib qoldi. An'anaviy yer egaligi ham saqlanib kelar edi. Bu davrda ma'muriy va diniy amaldorlarga tegishli bo'lgan suyurg'ol, iqto yerlar hamda vaqf yerlari ko'payib bordi. Bu yerlarda asosan, oddiy dehqonlar ijaraga yer olib ishlardilar.

Qishloq xo'jaligida an'anaviy oziq-ovqat ekinlari yetishtirilgan va bu mahsulot ichki extiyojni qondirgani holda, bir qismi chetga ham chiqarilgan. Ashtarxoniylar davrida chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Xunarmandchilikning asosiy markazlari shaharlar bo'lib qolgan bo'lsada, o'zaro iqtisodiy munosabatlarning zaiflashishi va natural xo'jalikning rivojlanishi sababli, eng kerakli hunarmandchilik mahsulotlarini yetishtirish ko'pgina yirik qishloqlarda ham rivojlana boshladi. Mamlakatning hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan extiyoji asosan mahalliy xunarmandlar mahsulotlari hisobiga qondiriladi edi. Bu davrda to'qimachilik va u bilan bog'liq hunarmandchilik turlari (ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish va boshqalar) rivojlanishda davom etib, bu soha butun o'rta asrlar davrida bo'lganidek xunarmandchilikning yetakchi tarmog'i bo'lib qoldi. Shu bilan birga kulolchilik ham rivojlanib bordi. Bu davr xunarmandchiligida metall va yog'ochga ishov berish, yog'och va ganch o'ymakorligida ham o'rta asr an'analari davom ettirilishi bilan birga ko'pgina o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi.

Mamlakat iqtisodiy hayotida savdo-sotiqning o'rni va ahamiyati xatto urushlar kuchaygan davrda ham birmuncha saqlanib qoldi. Asosiy savdo markazlari sifatida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarning mavqei oshib bordi. Xonlikda dehqonchilikdan, chorvachilik va hunarmandchilikdan olinadigan mahsulotlarning turli-tumanligi ichki savdoning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda tashqi savdo aloqalari rivojlandi. Xususan, Rossiyaning turli savdo shaharlari (Astraxan, Orenburg, Sibirdagi shaharlar), Hindiston, Eron, Qoshg'ar, Turkiya bilan savdo-sotiq olib borildi. Tashqi bozorga asosan turli qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqarilardi. Bu davrda paxta, teri, jun, turli matolarning asosiy xaridori sifatida Rossiya katta ahamiyatga ega bo'la boshladi.

Ashtarxoniylar davrida an'anaviy bo'lgan xiroj, zakot, ixrojt, boj kabi soliqlardan tashqari juda ko'plab katta-kichik soliqlar joriy etildi. Ular asosan o'zaro urushlar sababli bo'shab qolgan xazinani to'ldirishga, qo'shin ta'minotiga, xon va saroy amaldorlarining harajatlarini qoplashga sarflanar edi. Asosiy soliq to'lovchilar dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar va chorvadorlar bo'lib, shahar va qishloq aholisi bu soliqlarni to'lash bilan bir qatorda turli ommaviy ishlarga va majburiyatlarga ham safarbar qilinar edi.

Ashtarxoniylar davriga hos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ziddiyat madaniy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda dindorlar mavqeining oshib borishi madrasalarda dunyoviy bilimlar ahamiyatining pasayishiga, bu paytga qadar erishilgan yutuqlarning unutilib borishiga olib keldi. Natijada ilm-fan, madaniyat beshigi bo'lgan Movarounnahr Ashtarxoniylar davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq bir o'lkaga aylandi. 17-asrda Buxoro xonligidagi yirik shaharlarda oliy ta'lim beruvchi 150 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsada, ulardagi ta'lim tizimi zamon taraqqiyotini belgilab beradigan bilimlarni berishda ojiz edi. Lekin bunga qaramay, bu davrda ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolmadi. Tarixnavislik va

adabiyot sohalarida bir qator qimmatli asarlar yaratildi. Ular ichida Mahmud ibn Valining «Baxr al-asror» asari, Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» asari, xoja Samandar Termiziyning «Dastur al muluk» asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Abdurahmon Davlatning «Tarixi Abulfayzxon» kabi tarixiy asarlari yaratildi. Adabiy hayotda Turdi Farog'iy, Gulxaniy, Sayyido Nasafiy, G'ofur Samarqandiy kabi shoirlar keng xalq ommasiga manzur bo'lgan qimmatli asarlarini yaratdilar.

Ashtarxoniylar davrida ham ko'plab masjid, madrasalar, bozorlar, hammomlar, karvonsaroylar, rabotlar, honaqohlar, sardoba va boshqa inshootlar barpo etildi. Samarqandda 17-asr oxirida bir qancha yirik binolar qurildi. Bular ichida Registon maydonida Yalangto'shbiy mablag'iga qurilgan Sherdor (1661) va Tillakori madrasalarini aytib o'tish mumkin. Bu davrda savdo-sotiq bilan bog'liq inshootlar qurilishi ham ancha rivojlandi. Mahalliy boylar, amaldorlarning mablag'i hisobiga qurilgan ko'plab karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar bunga misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniylar davri (1601-1756) Movarounnahrda o'zaro siyosiy nizolar, markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi bilan xarakterlansada, iqtisodiy hayotda, madaniyatning ba'zi sohaları (me'morchilik, tarixnavislik, adabiyot)da ijobiy siljishlar ham ko'zga tashlanadi.

Ashtarxoniylar sulolasi hukmdorlari

1. Boqi Muhammad – 1601-1606 yillar.
2. Vali Muhammad – 1606-1611 yillar.
3. Imomqulixon – 1611-1642 yillar.
4. Nodir Muhammadxon – 1642-1645 yillar.
5. Abdulazizxon – 1645-1681 yillar.
6. Subxonqulixon – 1681-1701 yillar.
7. Ubaydullaxon – 1702-1711 yillar.
8. Abulfayzxon – 1711-1747 yillar.
9. Abdulmo'min – 1747-1751 yillar.
10. Ubaydulloh II – 1751-1753 yillar.
11. Sherg'ozi – 1754-1756 yillar.

3-mavzu: Buxoro amirligi (XVIII asr ikkinchi yarmi-XIX asrning birinchi yarmi)

(2 soat ma'ruza)

1. Mang'itlar sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi. Muhammad Rahimxonning siyosiy faoliyati.
2. Siyosiy vaziyatning o'ziga xos jihatlari.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy hayot.

Buxoro xonligida 18-asrning o'rtalarida yuz bergan siyosiy voqealar o'zbeklarning mang'it urug'i vakillarini hokimiyat tepasiga olib chiqdi. Hukmron sulola almashuvi davlatning siyosiy maqomida ham o'zgarish bo'lishiga olib keldi. Yangi hukmdorlar hokimiyatni rasman "amir" unvoni bilan boshqara boshladilar va bu davlat Buxoro amirligi nomi bilan tarixda qoldi.

Ashtarxoniylar davrida o'ta zaiflashib qolgan davlat boshqaruvida mang'it urug'i biylarining nufuzi ancha ko'tarilgan edi. Abulfayzxonning o'limidan (1747) keyin taxtga to 1756 yilgacha uning avlodlari chiqqan bo'lsada, amalda hokimiyat mang'itlar sulolasi vakili Muhammad Raxim qo'lida edi. U o'z hukmronligining dastlabki davridayoq markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga kirishadi. Yirik yer egalari, savdogarlar va ulamolar uning bu harakatini qo'llab-quvvatlaydilar. Ishni avvalo saroy amaldorlarini o'zgartirishdan boshlagan Muhammad Raxim keyinroq viloyat hokimligiga ham o'z odamlarini tayinlashga erishadi.

Buning uchun u 1750-1752 yillarda Shahrisabzga 4 marta harbiy yurish qilib, bu voxada o'z hokimiyatini o'rnatdi, G'uzor ham Buxoro hokimiyatini tan oldi. Shuningdek, Miyonqol, Nurota, Urgut, Qabadiyon, Boysun kabi bekliklar ham birin-ketin bo'ysundirildi. 1753-1756 yillarda Zarafshon voxasining yuqori oqimi, Jizzax, Zomin ham Buxoro tarkibiga qo'shib olindi.

1756 yil dekabr oyida Muhammad Raximxon rasman Buxoro taxtiga o'tiradi. U taxtga o'tirgach, bir qancha siyosiy-ma'muriy islohatlar o'tkazildi. Yangi saroy amallari joriy qilindi, mustaqil Yakkabog' hokimligi tuzildi. Shuningdek, Hisor, Denov, Dushanbe, Termiz, Boysun bekliklariga harbiy yurishlar o'tkazilib, bu hududlar yana bo'ysundirildi. O'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Raximni qonuniy hukmdor ekanligini tan olishib, Qo'qon, Toshkent, Marv, Balx va Qunduz bekliklaridan rasmiy elchilar keldi.

Muhammad Raximning vafotidan so'ng Buxoro taxtiga uning tog'asi, Miyonqol hokimi Doniyolbiy mang'it (1759-1784) o'tirdi. Uning hukmdorligi davrida markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlar yana avj oldi. Jumladan, yuz, kenagas, burgut, baxrin, saroy va boshqa yirik o'zbek urug'larining amirlari birlashib katta qo'shin bilan Buxoroga yurish qiladi. Markaziy hokimiyatning kuchayishidan manfaatdor bo'lgan savdogarlar va shahar aholisining yordami bilan qo'zg'olonchilar tor-mor etiladi va uning boshida turganlar qatl etiladi.

Lekin mamlakatda siyosiy vaziyat o'nglanmadi, amirlikning sharqiy qismida hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarildi. Iqtisodiy vaziyat yana nochor ahvolga kelib qoldi. 1784 yilda Buxoroda boshlangan qo'zg'olon taxtga yangi hukmdorni olib keldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'sada. Taxtdan voz kechish payti kelganini anglagan Doniyolbiy 1785 yilda taxtni o'g'li Shohmurodga topshirdi.

Shohmurod mang'it hukmdorlari orasida birinchi bo'lib "amir" unvoni bilan davlatni boshqardi. Tarixda "Amir ma'sum" ("Begunoh amir") nomi bilan qolgan Shohmurodning hukmronlik yillarida (1785-1800) Buxoroda markaziy hokimiyat nisbatan mustahkamlandi. U o'z hukmronligining dastlabki yillarida isyonkor bekliklarga qarshi qattiq kurashlar olib bordi. Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan Karmana, Shahrisabz, Xo'jand va boshqa shaharlar bo'ysundirildi. Amir Shohmurod nafaqat siyosiy vaziyatni yaxshilashga erishdi, balki bir qator ma'muriy, iqtisodiy-madaniy tadbirlarni ham amalga oshirdi. Saroyda kamtarona hayot kechirgan bu hukmdor Zarafshon va Qashqadaryo voxalaridagi, amudaryo bo'ylaridagi sug'orish tizimlarini qayta tikladi, yangi ko'priklar, yo'llar barpo ettirdi.

Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan moliya, sud ma'muriy va harbiy sohalardagi islohotlar natijasida mamlakatda siyosiy-iqtisodiy yuksalish ko'zga tashlandi. Soliqlarning tartibga solinishi, sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishi, mahalliy amaldorlar faoliyati ustidan nazorat o'rnatilishi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning, qishloq xo'jaligining yuksalishiga sharoit yaratdi.

Shohmurodning vafotidan keyin taxtga o'tirgan Amir Xaydar otasi boshlagan siyosatni izchillik bilan davom ettira olmadi. Uning amirligi davrida (1800-1826) mamlakatda siyosiy vaziyatda keskinlik saqlanib qoldi. U Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan Shahrisabz, Urgut bekliklariga, Miyonqolga qarshi janglar olib bordi. Xarbiy kuch ish bermagan vaziyatda kelishuvchilik yo'li tutilib, Shahrisabz mahalliy hokim Doniyor vallomaga mulk sifatida taqdim etildi va Shahrisabz voxasi to 1858 yilgacha deyarli mustaqil ravishda boshqarildi. O'ratepa bekligi ham bo'ysundirildi va amirlik hududi ancha kengaydi.

Bu davrda qo'shni xonliklar bilan munosabatlar ancha keskinlashdi. Xiva xoni qo'shinlarining Buxoroga talonchilik yurishlari davom etdi. Shuningdek, bu davrda tobora kuchayib borayotgan Qo'qon xonligi bilan munosabatlar ham yomonlashdi. Azaldan Buxoroga tobe hisoblangan Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Xo'jand va boshqa shaharlarga qo'qonliklarning tajovuzi avj oldi. Amir Xaydar 1807-1810 yillarda Qo'qon xoni Olimxon bilan Toshkent, O'ratepa, Jizzax, Zomin shaharlari uchun janglar olib borishga majbur bo'ldi va bu shaharlar bir necha bor qo'ldan-qo'lga o'tib turdi.

Amir Xaydar vafotidan keyin taxtni uning uchinchi o'g'li Nasrullo egalladi. O'z akalari Xusayn va Umarni o'ldirib, Buxoro taxtni egallagan Amir Nasrullo Buxoroning eng shafqatsiz

hukmdori sifatida tarixda qoldi. Shu bilan birga u davlat hokimiyatini birmuncha mustahkamlagan, harbiy soxada ancha samarali islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovar xolatini oshirgan, mamlakatning xududiy yaxlitligini birmuncha tiklagan hukmdor edi. Amir Nasrulloning hukmronligi davri (1826-1860) ham ichki va tashqi dushmanlar bilan to'xtovsiz kurashlar bilan o'tdi. Birinchi galda u o'zini taxtga chiqishida yordam bergan kishilarni o'ldirib yubordi. U dushmanlarini qo'rquvga solib turish uchun Buxoroda har kuni ko'plab kishilarni qatl ettirib turar edi. Shuning uchun ham u xalq orasida "qassob amir" deb atalgan. U markaziy hokimiyatni tan olmagan mahalliy bekliklarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Ayniqsa, Shahrisabz bekligiga qarshi olib boilgan urushlar uzoq davom etdi. 1832 yilda boshlangan urushlar 1858 yilda Shahrisabz va Kitob bekliklarining bo'ysundirilishi bilan yakunlandi.

Amirlikning shimolidagi chegara shaharlari (Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax, Zomin) uchun qo'qonliklar bilan bo'lgan nizolar davom etdi va harbiy jihatdan kuchli bo'lgan Buxoro qo'shinlari bu shaharlarni asta-sekin o'ziga bo'ysundirdi. Amir Nasrullo 1842 yilda Qo'qon shahrini ham egallaydi va Qo'qon xoni Muhammad Alixonni oila a'zolari bilan birga qatl ettiradi. Xatto, iste'dodli shoira Nodirabegimga ham shafqat qilinmadi. Bunda Nasrulloga Qo'qon xonidan norozi bo'lgan ba'zi amaldorlar ham yordam berdilar.

Qo'shni Xiva xonligi bilan ham nizoli munosabatlar saqlanib qoldi. Amir Nasrulloning Qo'qon yurishida ekanidan foydalangan xivaliklar Buxoro hududiga xujum qilganligi (1843), Xiva xonining Marv turkmanlarini Buxoro yerlariga xujum qilishga rag'batlantirganligi bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni xarakterlaydigan voqealarga misol bo'ladi.

Amir Xaydar va Amir Nasrullo hukmronligi davrida O'rta Osiyo Rossiya va Angliyaning siyosiy-iqtisodiy manfaatlari to'qnash kelgan o'lkaga aylanib qoldi. Bu davrda Hindistonni egallagan va Afg'onistonda katta ta'sirga ega bo'lgan Angliya O'rta Osiyonining qudratli davlati – Buxoro amirligiga o'z vakillarini yubora boshlaydi. 19-asrning 30-40 yillarida bir qancha ingliz razvedkasi bo'lishib, bu yerda Rossiyaga qarshi Buxoro-Xiva ittifoqini tashkil qilishga urinib ko'rdilar. Lekin bu urinish samarasiz yakunlandi.

Amir Nasrullo davrida chor Rossiyasi qo'shinlarining O'rta Osiyo chegaralariga yaqinlashishi davom etdi. Rossiya hukumati ham Buxoroga o'z ta'sirini o'tkazishga faol intildi. Istilochilik yurishlariga qadar Buxoroga 4 ta yirik rus elchilik missiyasining tashrifi buning dalilidir. Yuborilgan bu missiyalarga mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat, shaharlar va mudofaa qo'rg'onlari, qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar, aloqa yo'llariga oid kerakli ma'lumotlarni yig'ish haqida topshiriqlar berilgan edi. Bu ma'lumotlardan keyinchalik Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarida keng foydalanilganligi ma'lum.

Amir Nasrullo amalda Buxoroning oxirgi mustaqil hukmdori bo'lib qoldi. Nasrulloxondan so'ng Buxoro taxtiga uning o'g'li Muzaffarxon o'tirdi (1860-1885). Uning hukmronligi boshidayoq amirlikning hududi birmuncha qisqardi. Katta qiyinchilik bilan bo'ysundirilgan Shahrisabz-Kitob bekliklari yana Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortadilar. Lekin amirlik uchun eng katta xavf xali oldinda edi.

Mang'itlar hukmronligi davrida ham Buxoroning davlat tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmadi. Garchi oliy hukmdor amir unvoni bilan mamlakatni boshqargan bo'lsada, Buxoro amirligi ham o'z tizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan Movarounnahrda o'rta asr musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxonitylar davlat tizimidan aydarli farq qilmaydi. Davlat mutloq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilar edi. Davlai hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalalarda Buxorodagi bosh qarorgoh – arkda xal etilardi. Vaqti-vaqti bilan Davlat Kengashi chaqirilib turilardi. Odatda 5 tadan 20 tagacha eng yuqori amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashda davlat hayotiga talluqli o'ta muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

Mang'itlar davrida ham davlat boshqaruvi ikki bo'g'inli, ya'ni markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lib, ularning har biri muksulmon davlatlariga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega edi. Mang'itlar sulolasi davrida bosh vazir vazifasini qushbegi mansabini egallagan shaxs bajargan. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxoh,

xudaychi, mirzaboshi va boshqa saroy a'yonlarining hamda shayxulislom, qozikalon kabi diniy rahbarlarning ahamiyati yuqori bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv viloyat beklari qo'lida edi. Ularning ham o'z boshqaruv tizimi bo'lgan. Mang'itlar sulolasi davrida o'tkazilgan ma'muriy islohotlar tufayli davlatning asosiy ma'muriy birligi bekliklar bo'lib qoldi. Amirlik hududi eng kengaygan Amir Nasrullo davrida Buxoro tarkibida asosan 30 ta beklik bor edi. Ular Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Boysun, Denov, Sherobod, Xisor, Qorategin, Darvoza, Baljuvon, Shugnon, Rushon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Qabadiyon, Kalaf, Kerki, Burdalik, Qalaqli, Narazm, Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Urgut, Samarqand bekliklaridir. Ulardan tashqari bu davrda Jizzax, O'ratepa, Toshkent, Turkiston va boshqa qo'shni hududlar ham amirlik tarkibiga vaqtincha kiritilgan edi.

Poytaxt shahar Buxoro va atrofdagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Bekliklar o'z navbatida kichik xududiy bo'linma – amlokdorliklarga bo'lingan bo'lib, ularning boshlig'i amlokdor deb atalgan. Davlat ma'muriy tuzilishidagi eng quyi bo'g'in oqsoqol tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi. Buxoro amirligi tus istilosiga qadar hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining katta qismini o'z ichiga olgan o'rta Osiyodagi yirik davlat edi.

Mang'itlar sulolasi davrida ham avvalgi davrlarga xos ijtimoiy tabaqalar saqlanib qoldi. Bu davrda jamiyat madaniy hayotiga mas'ul bo'lgan ijtimoiy guruhlar: olimlar, shoirlar, mudarrislar, talabalar hayotida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bermadi. Asosiy soliq to'lovchi aholi bo'lgan raiyat (fuqaro) ijtimoiy pog'onaning eng quyi qismida bo'lib, ijtimoiy adolatsizliklarning asosiy og'irligi ularning zimmasida edi. Buxoro amirligida qulchilik bu davrda ham saqlanib qoldi. Qullar asosan rus va eron millatiga mansub bo'lib, ular harbiy talonchilik yurishlari paytida qo'lga olinardi va ko'pincha turkman va qozoqlar tomonidan Buxoro bozorida sotilar edi.

Mang'itlar sulolasi davrida davlatning harbiy salohiyati birmuncha yuksaldi. Harbiy islohotlar qisman sulola asoschisi Muhammad Raxim tomonidan, keyinchalik amir Shohmurod tomonidan olib borildi. Buxoro amirligining harbiy qudrati amir Nasrullo hukmronligi davrida o'zining eng yuqori nuqtasiga yetdi. Uning davrida Buxoroda muntazam armiya – sarbozlar (sipoh) qo'shini tashkil etildi. Ularning soni 40 mingga yaqin bo'lgan. Qo'shinlar otliq va piyoda jangchilardan tashkil topgan bo'lib, ularning qurollari asosan qilich, nayza va o'q-yoylardan iborat edi. Bu davrda Buxoroda zambaraklar yasovchi chet ellik mutaxassislar ham bo'lganligi ma'lum. Lekin qo'shinni zamonaviy multiqlar va zambaraklar bilan qurollantirish sohasida boshlangan ishlar tugallanmasdan qolib ketdi. Oliy harbiy amaldorlar sarkarda unvoniga ega bo'lib, davlat xazinasidan maosh olib turishgan. Eng yuqori harbiy amaldor (amirdan keyin) dodxoh (qo'shin boshlig'i) bo'lib, qo'rg'onbegi, to'qsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar hamda ponsadboshi, churaboshi, yuzboshi, daxboshi kabi xarbiy bo'linma boshliqlari tomonidan qo'shin boshqarilgan.

Bu davrda ham asosiy sudlovchi idora qozilik mahkamalari hisoblanib, qozikalon butun mamlakatning bosh qozisi (sudyasi) edi. Sud ishlari ularning qo'lida bo'lib, fuqarolik va jinoiy ishlarning barchasi qozilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Aybdorlarga aybiga qarab jarima solish, tan jazosi berish, zindonga tashlash, sazoyi qilishdan tortib o'lim jazosi berishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llangan. Qozi hukmidan norozi bo'lganlar qozikalon yoki amirga ariza berishga haqli edi. Qozi chiqargan hukmni qozikalon, uning hukmini amir bekor qilishi mumkin edi. Sud ishlarida a'lam, mufti kabi diniy mansab egalari ham katta rol o'ynaganlar.

Buxoro amirligida dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari edi. Bu davrda ham amir va uning yaqinlariga qarashli davlat yerlari, xususiyl mulkdorlarga tegishli yer mulklar (mulki xolis), diniy mahkamalar, madrasa va masjidlar, qabristonlar harajatlar uchun berilgan vaqf yerlar mavjud edi.

Bu davrda dehqonchilikda sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi. Asosiy mehnat qurollari o'zgarimasdan qolaverdi. Lekin bunga qaramay, 18-asrning oxirlarida boshlangan iqtisodiy yuksalish avvalo dehqonchilikning tiklanishi bilan xarakterlanadi. Odatdagidek sug'oriladigan va

lalmikor yerlarda yersiz dehqonlar ijara asosida dehqonchilik qilishardi. Asosiy ziroatchilik bug'doy, arpa, jo'xori, poliz va sabzavot ekinlari bo'lgan. Bu davrda an'anaviy bog'dorchilik va uzumchilikda rivojlanish ko'zga tashlandi. Shuningdek, amirlikda sholichilik ham birmuncha rivojlangan.

Amirlik hududidagi bepoyon dasht va cho'llar, tog' va tog'oldi tumanlari chorvachilik uchun juda qulay edi. Cho'l zonalarida, xususan, Buxoro, Qarshi atrofidagi dashtlarda qorako'l teri yetishtirishga ixtisoslashgan qo'ychilik rivojlanib bordi. Tashqi bozorda unga talabning kattaligi bu soxaning taraqqiyotini belgilab berardi. Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning tashqi va ichki bozorga tuyoqli mollar, sifatli teri, jun va turli mahsulotlar (shol, namat, arqon va boshqalar) hamda oziq-ovqat (go'sht, sut mahsulotlari) yetkazib berishda o'rni katta edi.

Amirlikda asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta o'rin tutsada, ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning ba'zi sohaları rivojlanib bordi. Hunarmandlar bu davrda ham o'z uyushmalariga ega bo'lib, ularning tashkil topishi ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat o'rnatishga bog'liq edi. Hunarmandchilikning barcha soxalarida bunday uyushmalar mavjud bo'lib, uni saylab qo'yiladigan rais yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar o'z uyushmalariga ega bo'lsalarda, o'zlariga tegishli ustaxonalarda ishlaganlar. Har bir ustaning o'z yordamchilari, shogirdlari bo'lib odatda shogirdlikka ustaning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari olingan.

Buxoro amirligida to'qimachilik hunarmandchilikning yetkchi tarmog'i bo'lib qoldi. Uning taraqqiyoti bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kattaligi tufayli, ikkinchi tomondan mahalliy xomashyo manbalari (paxta, jun, ipak) yetarli ekanligiga bog'liq edi. To'qimachilikning ip yigirish, matolar to'qish, tayyor kiyimlar tikish, gilamchilik va boshqa sohaları ancha rivojlangan edi. Buxoroning zarbof to'nlari, Shahrisabzning iroqi do'ppilari, Samarqand ustalarining ipak buyumlari mashhur edi. Kulolchilik amirlikning ko'pgina joylarida rivojlangan edi. Uning asosiy markazlari G'ijduvon, Qarshi, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlar bo'lib, bu yerlik kulollar mahsulotiga talab katta edi.

Amirlikda metallga ishlov berish va metall buyumlar yasash ham birmuncha rivojlangan edi. Xonlikning tog'lik tumanlari (Shahrisabz, Boysun, Sherobod)da qadim davrlardan boshlab turli ma'danlar qazib olingan bo'lib, bu konlardan foydalanish ba'zi uzilishlar bilan to XX asr boshlarigacha davom etdi. Metallga ishlov berish va metall buyumlar yasash yanada mayda tarmoqlarga bo'linib ketadigan quyidagi to'rtta: temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlik turlarida taraqqiy etdi. Hunarmandchilik turlari ichida zargarlik ham qadimiy an'analarga ega hunarmandchilik turi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Hunarmandchilik turlari ichida ko'nhilik, yog'ochga ishlov beruvchi ustalar, turli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlaydigan ustalar borligini ham aytib o'tish kerak.

Buxoro amirligi garchi siyosiy jihatdan ikkinchi davrajali davlatlar qatoriga tushib qolgan bo'lsada, yirik savdo mamlakati sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning nisbatan ancha rivojlanganligi tufayli bu soha mahsulotlari nafaqat ichki bozorni to'liq ta'minladi, balki ko'p miqdorda tashqi bozorga ham chiqarilardi. Amirlikdagi yirik shaharlar: Buxoro, Qarshi, Samarqand, Shahrisabz, Denov Kattaqo'rg'on va boshqalar asosiy savdo markazlari sifatida yuksalib bordi. Ichki savdoning taraqqiyotida yirik shaharlarning atrofidagi qishloqlar bilan iqtisodiy munosabatlari, shaharlararo savdo aloqalarining rivojlanganligi muhim o'rin tutardi. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi ichki savdoning iqtisoddagi ahamiyatini ko'rsatib beruvchi muhim belgidir.

18-asr oxiri – 19-asr boshlaridan boshlab Buxoroning tashqi savdo aloqalarida Rossiyadagi savdo shaharlari (Orenburg, Astraxan) muhim o'rin tuta boshladi. Amirlikdan tashqi bozorga chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari, xomashyolar (teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak, tolalar, turli matolar va boshqalar)ning asosiy xaridori Rossiya edi. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari, metallar (cho'yan, mis, qo'rg'oshin) keltirilardi. Amirlikning tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo'qon xonliklari, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Qashqar bilan

munosabatlar ham muhim o'rin egallaydi. Ichki savdo rivojida amirlikdagi mavjud pul muomalasining o'zni katta edi. Mang'itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o'rnatildi. Muomalada asosan uch turdagi: tillo, tanga (kumush) va pul (mis) mavjud bo'lib, savdo-sotiq va turli o'lchovlarda ko'pincha tillo va pul ishlatilgan.

18-asrning so'nggi choragida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, xususan soliqlarning tartibga solinishi mamlakat iqtisodining bir qadar yuksalishiga imkon berdi. Bu davrda ham soliqlar sonining va miqdorining belgilanishida shariat qonun-qoidolari va davlat xazinasining extiyojidan kelib chiqilganligini ko'ramiz. An'anaviy bo'lgan yer solig'i xiroj savdogarlar va chorva mollaridan olinadigan zakot, tashqi savdodan keladigan boj solig'i, shuningdek, hunarmandlar to'laydigan turli soliqlar (zakot, tamg'a, taxtajoy) amirlikdagi asosiy soliq turlari edi.

Buxoro amirligi iqtisodining 18-asr oxirlarida bir qadar yuksalishi madaniy hayotda ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Buxoro bu davrda musulmon sharqining yirik madaniy markazi sifatida o'z ahamiyatini saqlab keldi. Asrlar davomida shakllangan maktab va madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaldi. Oliy ta'lim maskanlari bo'lgan madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. 19-asr boshlarida faqat Buxoro shahrining o'zida 108 ta madrasa bo'lib, ularning 60 tasi asosiy ta'lim maskanlari sifatida mashhur edi. Madrasada o'qitish avvalgidek quyidagi uch bosqichda amalga oshirilgan: 1) past qadam; 2) miyona; 3) peshqadam. Madrasalarda talabalar qur'on, fiqh, shariat asoslari, diniy-ahloqiy adabiyotlarni hamda til, adabiyot, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, xandasa va boshqa bir qancha aniq fanlardan ta'lim olishgan. Lekin bu davrda dunyoviy bilim berish birmuncha orqada qolgan edi.

Bu davr madaniy hayoti haqida adabiyot, tarix, xattotlik, musiqa sn'ati yodgorliklari, me'morchilik obidalari muhim ma'lumotlarni beradi. Bu davrda amirlikning turli yerlarida istiqomat qilgan ko'plab shoirlar, tarixnavislar va hattotlar barakali ijod qilib o'zlaridan muhim asarlar qoldirdilar.

18-asr ikkinchi yarmi, 19-asr O'rta Osiyo, xususan Buxoro amirligi me'morchiligida o'ziga xos davr bo'ldi. Garchi bu davrda Amir Temur va temuriylar hamda shayboniylar davridagidek oliy sifatli me'moriy inshootlar ko'p qurilmagan bo'lsada, binolar qurilishi to'xtab qolmadi va qurilayotgan binolarda uslubiy o'ziga xoslik ko'zga tashlandi. Buxoro qarshi, Samarqand, shahrisabz, G'uzor, Kattaqo'rg'on va amirlikning boshqa bir qancha shaharlarida ko'plab masjid va madrasalar barpo etildi. Me'morchilikning rivojlangan yo'nalishlari savdo-sotiq bilan bog'liq inshootlar qurilishida ham ko'zga tashlanadi. Amirlik poytaxti Buxoroda va boshqa shaharlarda ko'plab ixtisoslashgan yopiq bozorlar mavjudligi, shaharlarda karvonsaroylar sonining muttasil oshib borishi, savdo yo'llari bo'yida rabotlar, sardobalar qurilishi fikrimiz dalilidir.

18-asr oxiri – 19-asr birinchi yarmida shaharlarning mudofaa devorlarini, qishloq mudofaa qo'rg'onlarini ta'mirlash ishlari ham olib borildi. Qurilgan binolar odatdagidek davlat xazinesi va ayrim kishilarning xususiy mablag'lari xisobiga amalga oshirildi.

Buxoro amirligi tarixiga xulosa sifatida aytib o'tish kerakki, mang'itlar sulolasi davrida garchi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ba'zi yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsada. Mamlakat hududi muntazam ravishda qisqarib borishi kuzatildi. Shimoliy viloyatlar (Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Xo'jand) Qo'qon xonligiga qo'shib olingan bo'lsa, janubda Balx viloyati butunlay qo'ldan chiqarildi.

Mang'it amirlari sulolasi

1. Muhammad Raxim – 1747 – 1756 – 1758 yillar.
2. Doniyolbiy – 1759 – 1784 yillar.
3. Amir Shohmurod – 1785 – 1800 yillar.
4. Amir Xaydar – 11800 – 1826 yillar.
5. Amir Nasrullo – 1826 – 1860 yillar.
6. Amir Muzaffar – 1860 – 1885 yillar.
7. Amir Abdulahad – 1885 – 1910 yillar.
8. Amir Olimxon – 1910 – 1920 yillar.

4-mavzu: Qo‘qon xonligi (XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmi) (2 soat ma‘ruza)

Reja:

1. Qo‘qon xonligining tashkil topishi va uning siyosiy taraqqiyoti.
2. Xonlikning davlat tizimi.
3. Xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
4. Qo‘qon xonligi madaniy hayoti.

Buxoro xonligiga tobe hisoblangan Farg‘ona vodiysida 18-asr boshlarida yangi davlatga – Qo‘qon xonligiga asos solindi. 18-asrda faqat Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga olgan bu davlat 19-asr boshlarida Toshkent voxasi, xozirgi Qirg‘iziston Respublikasi, Janubiy Qozog‘iston va Shimoliy Tojikiston hududlarini o‘z ichiga olgan yirik davlatga aylandi.

Ashtarxoniy Subxonqulixon vafotidan so‘ng Buxoro taxtiga o‘tirgan Ubaydullaxon hukmdorligi (1702-1712) davrida xonlikdagi siyosiy vaziyat chigallashib markaziy hokimiyat yana zaiflashdi. Bundan foydalangan Chodak xo‘jalari 1709 yilda Farg‘onada qo‘zg‘olon ko‘tarib, vodiyni bir qismini egallaydilar. Natijada mustaqil davlat tuzilganligi e‘lon qilindi va 1710 yilda o‘zbeklarning ming qabilasi boshlig‘i Shohruhbiy hokimiyat tepasiga keladi (1710-1721). Dastlab Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ular atrofidagi qishloqlarni o‘z ichiga olgan bu davlat hududi Shohruhbiyning o‘g‘li va vorisi Muhammad Abduraximbiy (1721-1733) taxtga o‘tirganidan keyin ancha kengayadi. U Andijon va Xo‘jandda o‘z hukmronligini o‘rnatib ma‘lum muddat Buxoroga tegishli Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarini egallab, Shahrisakbzga ham tahdid soladi. Abdurahimbiy Qo‘qon qishlog‘i yaqinida yangi shahar qurdira boshlaydi. U 33 yoshida kasallanib vafot etadi va taxtga ukasi Abdukarimbiy o‘tiradi. U yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Tepaqo‘rg‘ondan Qo‘qonga ko‘chiradi. Shu tariqa yangi shahar – Qo‘qon shahri davlatning poytaxti bo‘lib qoldi va keyinchalik bu davlat shahar nomi bilan Qo‘qon xonligi deb atala boshladi. Abdukarimbiyning hukmronligi davrida davlat ancha mustahkamlandi, hududlari kengaydi. 1745 yilda Farg‘ona vodiysiga hujum qilgan qalmoqlar quvib chiqarilib ular bosib olgan O‘sh, Andijon, Marg‘ilon shaharlari qaytarib olindi.

Abdukarimbiy vafotidan keyin bir qancha vaqt davlat tepasida xonlar tez-tez almashib turdilar. Nihoyat uning nabirasi Erdonabiy ikkinchi bor hokimiyatni qo‘lga kirtiadi. 1755-1769 yillarda taxtni boshqargan Erdonabiydan so‘ng taxtga Shohruhbiyning uchinchi o‘g‘li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o‘tiradi. U 6 oy hukmronlik qilganidan keyin suiqasd natijasida o‘ldiriladi va taxtni 1770 yilda Norbo‘tabek (1770-1801) egallaydi. U markaziy hokimiyatni mustahkamlashda ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Chust va Namanganda ko‘tarilgan g‘alayonlarni bostirganidan so‘ng bu shaharlarga o‘ziga sodiq kishilarni hokim etib tayinladi. U Xo‘jand shahrini ham o‘z hokimiyati ostiga olishga erishadi. 1799 yilda Toshkent shahrini egallashga ham urinib ko‘radi, lekin uning qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi.

Norbo‘tabek 1801 yilda vafot etganidan so‘ng taxtga katta o‘g‘li Olimbek o‘tiradi. Garchi u qisqa vaqt taxtga o‘tirgan bo‘lsada, uning davrida (1801-1810) Qo‘qonning siyosiy mavqei ancha oshdi. Dastlab u harbiy islohotlar o‘tkazib, qo‘shinni ancha kuchaytirdi. Harbiy yurishlar qilib Angren voxasini, Chitmkent va Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirdi. Natijada u Rossiya imperiyasi bilan bevosita savdo-sotiq olib borish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Qo‘qon davlati kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o‘zgardi. Agar Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari “biy”, “bek” unvonlari bilan davlatni boshqargan bo‘lsalar 1805 yildan bu davlat rasman Qo‘qon xonligi deb e‘lon qilindi va Olimxon “xon” unvoni bilan hokimiyatni boshqara boshladi.

Markaziy hokimiyatning kuchayib borishi, davlatni boshqarishda xonning cheklanmagan huquqqa egaligi Olimxonga qarshi fitnalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Olimxon o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun ukasi Rustambekni va bir qancha sarkardalarni, din peshvolarini o‘ldirtirib yuborgan edi. Yuzaga kelgan fitnaga uning ukasi Umarbek boshchilik

qildi. Nihoyat 1810 yilda Olimxon Qo'qonga kelayotganda o'g'li Shohruhxon bilan birga fitnachilar tomonidan otib o'ldirildi va taxtni ukasi Umarxon egalladi. Uning hukmronligi davrida (1810-1822) xonlikda siyosiy vaziyat ancha murakkabligicha qoldi. Chimkent va Turkistonda g'alayonlar ko'tarildi, o'ratepa hokimi xonga itoat etishdan bosh tortdi. Ammo davlatni boshqarishda din peshvolari va sarkardalar bilan ittifoq bo'lib ish tutgan Umarxon bu g'alayonlarni bostirib, xonlik hududini bo'linib ketishdan saqlab qoldi.

Umarxon 1818 yili Qo'qon shahrida katta jome masjidi qurish haqida farmon berib, din homiysi sifatida ham o'z mavqeini oshirdi. Natijada "amir al-muslimin" unvonini va diniy hokimiyatni ham o'z qo'liga olishga erishdi. Umarxon davrida Qo'qonda adabiyot va she'riyat ancha yuksaldi. Xonning o'zi ham yaxshi she'rlar yozardi. 1822 yilda Umarxon kasallanib, vafot etadi va taxtga o'g'li Muhammad Alixon o'tiradi. Tarixda Madalixon nomi bilan qolgan bu hukmdor davrida (1822-1842) Qo'qon xonligi siyosiy jihatdan ancha yuksaldi. Qorategin, Ko'lob, Darvoz viloyatlari va boshqa bir qancha yerlar bosib olinib, xonlik hududi ancha kengaytirildi. 1826-1831 yillar davomida bir necha marta Qashqarga hujum qilib, xitoyliklar bilan urush olib bordi. Qashqarda olib borilgan urushlar paytida 70 ming uyg'ur musulmonlari Andijon viloyatiga ko'chirib keltirildi.

Bu davrda Buxoro amirligi bilan ham chegara shaharlar uchun harbiy to'qnashuvlar bo'lib turdi. Bu esa mehnatkash aholi turmushining qashshoqlashuviga sabab bo'ldi. Natijada bir necha bor qo'zg'olonlar ko'tarildi. Qolaversa, hukmdorligining so'nggi yillarida Madalixon ham ayshishratga berilib ketgan edi. Shu sababli ham unga qarshi fitna yuzaga keladi. Qo'qonda Madalixon o'z o'gay onasiga uylandi va bu bilan musulmonchilikdan chiqdi, degan gaplar tarqatildi. Davlatni boshqarishda katta tajribaga ega bo'lgan va xonning yaqin maslahatchisi Xaqquli mingboshi tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilgani fitnachilarga yanada qo'l keldi. Fitnaga bosh qo'shgan Qozikalon, Isoxo'ja lashkarboshi, Toshkent hokimi va boshqalar Madalixonni taxtdan ag'darib, Olimxonning o'g'li Sheralini yoki Murodbiyning o'g'li Xo'jabiyini xon qilib ko'tarmoqchi bo'ladilar. Ular Buxoro amiri Nasrullo elchi yuborib, madalixonni taxtdan ag'darishda yordam so'raydilar. Qo'qon xonligini zabt etib Buxoroga qo'shib olishni rejalashtirib yurgan amir Nasrullo 1842 yil aprelda katta qo'shin bilan Qo'qonga yurish qiladi. Uning asl maqsadini tushungan Madalixon yashinicha saroy xazinasini, oilasini olib, o'ziga sodiq bo'lgan 1000 kishi bilan Qo'qondan Namangan tomonga qochadi. Jangsiz Qo'qonni egallagan Nasrullo xonning xazinani olib ketganini bilgach, shaharni talash haqida buyruq beradi. Ertasi kuni esa aholidan tortib olingan narsalar majburan yana qo'qonliklarga sotiladi. Faqat kumush, oltin buyimlar olib qolinadi.

Namangan yaqinidagi bir qishloqda tunab qolgan Madalixon ertalab o'zib bilan kelgan ming kishidan faqat 3 kishi qolganini ko'rib sarosimaga tushadi va Qo'qonga qaytib, amir Nasrullodan shafqat so'rashga jazm etadi. U Qo'qonga qaytib kelgach, xibsga olinadi. Turli joylardan uning oila a'zolari: onasi Nodirabegim, ukasi, o'g'illari va xotinlari tutib keltiriladi. Madalixon, onasi, ukasi va katta o'g'li qatl etiladi. Qo'qonda 12 kun turgan amir Nasrullo Qo'qon xonligini Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi etib Ibroxim Dodhoh mang'itni qoldiradi. Unga bir necha amaldorlar va 600 kishilik qo'shin berib o'zi esa sobiq xon xizmatidagi 250 ta amaldorni garov tariqasida Buxoroga olib ketadi. Lekin osonlik bilan qo'lga kiritilgan Qo'qon xonligi yana osonlik bilan qo'ldan chiqariladi. Ibrohim Dodhohning qo'qonliklarga qilgan jabru-zulmi tufayli 1842 yilning yozida qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonchilar qipchoqlar yordami bilan buxoroliklar qo'shinini yengib, taxtga Sheralixonni ko'taradilar. Sheralixon qipchoqlarning katta qo'shini bilan Qo'qonga kirib keladi. Ibrohim Dodhoh va uning ukasi Isoq mang'it Buxoroga qochib qolishga ulguradi. Amir Nasrullo 1842 yil kuzida 20 ming qo'shin bilan yana Qo'qonga yurish qiladi. Qo'shin safida garovga olingan 250 ta qo'qonlik amaldorlar ham bor edi. Qo'qon ahli taslim bo'lish haqidagi taklifni rad etadi. Shunda garovga olingan amaldorlardan biri, Madalixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonqul qipchoq qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirish uchun amirdan ruhsat olib qo'qonliklar huzuriga keladi. Lekin u qo'qonliklarni amir qo'shinlariga taslim bo'lmaslikka

undab, shahar mudofaasini yekuchaytiriga boshchilik qiladi. Amir Nasrullo hujumga o'tadi, lekin qo'qonliklar kattiq qarshilik ko'rsatadilar. Qamal cho'zilib ketadi va bu orada Xiva qo'shinlari Buxoro chegaralariga bostirib kiradilar. Bu habarni olgan amir Nasrullo gaprovga olingan amaldorlarni ozod qilib Buxoroga qaytishga majbur bo'ladi. Bu vaziyatda Qo'qonni Buxoroga tobelikdan saqlab qolgan Musulmonqul qipchoq mingboshi lavozimini oladi. Xonlikdagi boshqa lavozimlar ham qipchoq beklariga beriladi.

1845 yilgacha Qo'qon xonligida xotirjamlik hukm surdi. Asli xivalik bo'lgan Murodbek 1845 yilda Buxoro lashkari bilan Qo'qonga kelib, Musulmonqul va uning qo'shini yo'qligidan foydalanib, Qo'qonni osonlik bilan zabt etadi. Murodbek Sheralixonni qatl etib Qo'qon taxtini egallaydi va o'zini amir Nasrulloning vassali deb e'lon qiladi. Bundan xabar topgan Musulmonqul qipchoq qo'shinlari bilan kelib qo'qonliklar yordami bilan shaharni qo'lga kiritadi. Bor yo'g'i 8 kun taxtda o'tirgan Murodbek qo'lga olinib qatl etiladi va taxtga Sheralixonning 13 yoshli o'g'li Xudoyorxon o'tqaziladi. Lekin amalda hokimiyat uning qaynotasi Musulmonqul mingboshi qo'lga o'tadi. Bu holat 1850 yilning oxirigacha davom etdi. Musulmonqul amalda saroyda cheksiz hokimiyatga ega edi. Bu hol Qo'qondagi boshqa amaldorlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Musulmonqulga qarshi qipchoqlar orasida ham kuchli dushmanlar guruhi yuzaga keladi. Bu guruhga O'ratepa, Ho'jand hamda Marg'ilon beklari birlashib, ularga Toshkent hokimi Nurmuhammad ham qo'shildi. 1852 yilning iyun oyida Musulmonqul mingboshi 30 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga qarshi yurish qiladi. Chirchiq daryosi bo'yidagi hal qiluvchi jangda Xudoyorxon o'z qo'shinining katta bir qismi bilan birga toshkentliklar tomoniga o'tib ketadi. Bu saroyda Musulmonqul qipchoqqa qarshi boshlangan kurashda hal qiluvchi burilish bo'ldi. Musulmonqul qo'shini tor-mor etilib, uning o'zi yaqin kishilari bilan qochib ketishga ulguradi. Bu voqealardan so'ng Qo'qonda Musulmonqulga qarshi kurashgan guruh yetakchilari bosh lavozimlarni egallaydi. Lekin bu hol uzoqqa cho'zilmadi. 1852 yil kuzida xonlikda butun qipchoqlarni qirg'in qilish boshlanib ketadi. Natijada 20 ming qipchoq o'ldiriladi. Bunga Xudoyorxonning o'zi boshchilik qildi. Saroydagi amallarni egallab turgan qipchoqlar ham qatl etilib, ularning mol-mulki tortib olindi. 1853 yili qoraqirg'izlar orasida yashirinib yurgan Musulmonqul qipchoq ham tutilib Qo'qonga olib kelindi va Xudoyorxonning amri bilan qatl etildi.

Bu davrda Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar ancha keskinlashdi. Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidagi katta yerlarni nazorat qilib turgan Qo'qonliklar bilan Rossiya o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar 1850, 1851 va 1852 yillarda sodir bo'ldi. Qo'qon xonligidagi ichki nizolardan foydalangan Perovskiy boshchiligidagi rus qo'shinlari 1853 yili Oqmachit qal'asini bosib oldi. Qo'qonlik sarkarda Yoqubbek boshchiligidagi qo'qonliklar Oqmachitni qaytarib olish uchun ikki marta harakat qilgan bo'lsada, bu natija bermadi. Keyinchalik Yoqubbek Sharqiy Turkistonga ketishga majbur bo'ladi va Qashqar hokimligini qo'lga kiritadi.

Shu tariqa Rossiya imperiyaning Orenburg va Omsk shaharlari bilan chegaradosh bo'lgan Qo'qon xonligi hududiga xavf sola boshladi. Lekin bu tashqi xavf o'zaro ichki nizolar ichida qolgan qo'qonliklar ko'zini ochmadi. Mamlakatda siyosiy nizolar davom etdi. Xudoyorxon 3 marta taxtdan mahrum etilib (1858, 1863, 1865) har gal Buxoro amiri tomonidan taxtga qayta o'tqazilganligi xonlikdagi boshqaruv tizimidagi parokandalikdan darak berar edi. 1858 yilda Xudoyorxonni Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo'lgan o'g'li Mallaxon taxtdan ag'daradi va Xudoyorxon Buxorodan panohtopadi.

1862 yilda Mallaxon o'z vazirlari mulla Olimqul va Olimbek qirg'izlar qo'lida o'ldirilgach, taxtga Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o'g'li Shohmurod o'tqaziladi. Lekin qo'shin boshliqlari va saroydagi ko'pgina amaldorlar unga qarshi fitna uyushtiradilar. Mallaxonning o'limini eshitgan Xudoyorxon Buxoro qo'shini bilan Qo'qonga kelib 1863 yilda taxtni ikkinchi bor egallaydi. Shohmurod Marg'ilonga qochadi. Qirg'iz-qipchoq qabilalarida yashirinib yurgan mulla Olimqul Xudoyorxonga bo'ysunmay, tez-tez g'alayonlar ko'tarib turdi. Natijada 1863 yil o'rtalarida Xudoyorxon yana Buxoroga qochdi. Qo'qon taxtiga Sulton Murod

o'tqazildi.

Bu ichki nizolar tashqi dushmanga qo'l keldi. Vaziyatdan foydalangan chor Rossiyasi qo'shinlari 1864 yilda Turkiston va Chimkentni bosib oldi. 1865 yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib Niyozbek qal'asini ishg'ol qildilar va Toshkentga hujum qildilar. Mulla Olimqul boshliq 6 ming qo'qonlikning yordamga kelishi ham bosqinchilarni to'xtata olmadi. Mulla Olimqul jangda yaralanib Toshkentda vafot etadi. Bir necha oylik qamal va janglardan so'ng 1865 yil 17 iyunda Toshkent chor Rossiyasi qo'liga o'tdi.

Qo'qondagi sarosimalikdan foydalangan Xudoyorxon 1865 yil yozida amir qo'shinlari yordamida so'nggi marta Qo'qon xonligi taxtini qo'lga kiritadi. Qo'qonda amir Muzaffar nomiga xutba o'qiladi. Qirg'iz-qipchoq qo'shinlari ko'magida taxtni egallab turgan Xudoyqulibek (14 kun taxtda o'tirgan) esa xazinani olib Qashqarga qochib ketadi.

Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda o'lkamizda hukm surgan musulmon davlatlaridagi tizimdan deyarli farq qilmas edi. Xususan, temur va temuriylar davrida aniq tartiblar asosida shakllangan va Shayboniylar davrida biroz isloh qilingan davlat tizimini Qo'qon xonligining davlat tizimida ham ko'ramiz. Bu yerda ham xon cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Lekin qo'qonning dastlabki hukmdorlari "biy" unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo'lib, davlat boshlig'i rasman "xon" deb Olimxon davridagina (1805 yildan boshlab) yuritila boshladi. Uning vorisi Umarxon (1810-1822) esa o'zini "amir al-muslimin" deb e'lon qilgan edi. Xon cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lsada, saroy amaldorlari va qo'shin boshliqlarining xonga ta'siri kuchli edi.

Manbalarining guvohlik berishicha, xon saroyida muhim davlat ishlarini ko'rib chiqadigan kengash tuzilgan bo'lib, unga mingboshi boshchilik qilgan. Saroy amaldorlari ichida mingboshi (bosh vazir), amiri lashkar (harbiy vazir), qushbegi – xon maslahatchisi yoki viloyat hokimi, parvonachi (xon maslahatchisi), shig'ovul (vaziri ilmiya), xudoychi, tunqator, noib (sarbozlar boshlig'i), otaliq, dodhoh, mehtarboshi, dasturxonchi, to'qsabo, devonbegi, mirzoboshi, sarkar va boshqalar muhim amallar hisoblangan. Ular o'z hizmatlari evaziga yillik maosh olganlar.

Farg'ona vodiysi Qo'qon xonligining asosiy hududi bo'lib, 19-asr boshlarida Toshkent viloyati, Xo'jand, o'ratepa va tog'liq tumanlar, Janubiy Qozog'iston va hozirgi Qirg'iziston hududlari ham xonlik tarkibiga kiritildi. Shu tariqa xonlik sharqda Sharqiy Turkistondan g'arbda Sirdaryoning quyi sohillarigacha, shimolda Turkistonning Betpakdala saxrosidan janubda Buxoroga tobe Darvoz, Qorategin, Ko'lob bekliklarigacha bo'lgan katta hududni egallab O'rta Osiyodagi yirik davlatga aylandi. Xonlik ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'lib boshqarilgan. Qo'qon davlatining asosiy bekliklari Namangan, Marg'ilon, Andijon, To'raqo'rg'on, O'sh, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Chimkent bo'lgan.

Qo'qon xonligining ijtimoiy tuzumi ham qo'shni davlatlardan farq qilmagan. Yuqori tabaqa hisoblangan saroy amaldorlari va diniy peshvolar katta mol-mulk va yer-suvga ega edi. Jamiyatning eng ko'p sonli va eng kam huquqli tabaqasi oddiy xalq – fuqaro edi. Mamlakatning barcha moddiy boyligi ular mehnati bilan yaratilardi. Xonlikdagi eng yuqori harbiy amaldor amiri lashkar bo'lib, ko'p hollarda bu lavozimga qipchoq urug'idan bo'lgan kishilar tayinlangan. Qo'shinning asosini ham qipchoqlar tashkil qilgan. Qo'shin o'sha davr qoidalariga mos ravishda o'nminglik, minglik, yuzliklarga bo'lingan. Harbiy-ma'muriy amaldorlar uchun saroy xazinasidan belgilangan tartibda yillik maosh va "tanho", "tarxon" shaklidagi yer-mulklar berilgan.

Iqtisodda dehqonchilikning salmog'i juda yuqori edi. Xonlik hududida suv manbalarining yetarli ekanligi dehqonchilikdan yuqori hosil olinishiga asos bo'lardi. Bu yerda donli ekinlar yetishtirish, polizchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, sholikorlik ancha rivojlangan. 19-asrga kelib xonlikda paxta maydonlari ham kengaya boshladi. Paxtaning asosiy xaridori Rossiya edi.

Xonlikdagi asosiy yerlar davlat mulki hisoblangan. Davlatdagi eng katta mulkdor xon bo'lib, u katta yerlarga, yaylovlarga, hunarmandchilik ustaxonalari va savdo do'konlariga egalik qilgan. Chorvachilik ham mamlakat iqtisodiy hayotida muhitm o'rin tutgan soha bo'lib, u ayniqsa ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan tog'liq hududlarda rivojlangan. Xonlikda o'rta Osiyo

mintaqasiga xos bo'lgan barcha hunarmandchilik turlari: to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar mavjud edi. Iqtisodning bu sohasi ayniqsa yirik shaharlar Qo'qon, Toshkent, Andijon, marg'ilon, O'sh, Xo'jand, Turkistonda yaxshi rivojlangan. Xususan, Qo'qon o'z temirchilari, misgarlari, Chust do'ppido'zlari, Rishton kulolchilik mahsulotlari, Shahrixon pichoqlari, Marg'ilon ipak va shoyi matolari bilan shuhrat topgan edi.

Xonlikda murakkab siyosiy vaziyat savdo-sotiq rivojiga to'sqinlik qilganiga qaramay, mamlakt iqtisodida savdo-sotiqning ahamiyati katta edi. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, toshkent, Chimkent, O'ratepa va boshqa shaharlar yirik savdo markazlari sifatida tanilgandi. Shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi iqtisodiy-savdo munosabatlari mamlakatda ichki savdo taraqqiyotini belgilovchi muhim omil edi. Ichki savdo munosabatlarida mahalliy mahsulotlar asosiy o'rin tutardi. Chetdan keltiriladigan mahsulotlar ichida turli metallar, fabrika mahsulotlari (Rossiyadan), choy (Xitoy va Hindistondan) va qo'shni davlatlardan olib kelinadigan ba'zi hunarmandchilik buyumlarini aytib o'tish mumkin. Tashqi bozorga chiqariladigan mahsulotlarning asosini qishloq xo'jalik mahsulotlari (paxta, jun, ip, matolar, quruq meva va boshqalar) tashkil etib, ular 19-asrdan boshlab bevosita Rossiyaga chiqarila boshladi.

Xonlikdagi mavjud soliqlar shariat qonun-qoidalari asosida belgilangan bo'lsada, aholidan ko'plab boshqa mayda soliqlar, jarimalar undirib olish keng tarqalgan edi. Asosiy soliqlar xiroj, zakot va tamg'a bo'lib, ular pul va mahsulot hisobida undirib olingan. Soliqlardan tashqari aholi ko'plab majburiyatlarni bajarishga safarbar qilingan.

Xonlikdagi ilm-fan taraqqiyoti o'z darajasiga ko'ra O'rta Osiyodagi qo'shni davlatlarga yaqin turardi. Asosiy madaniyat o'choqlari yirik shaharlarda bo'lib, oliy ta'lim beruvchi madrasalar asosan shaharlarda joylashgan. Boshlang'ich maktablarda ham, madrasalarda ham asosiy e'tibor diniy ta'lim berishga qaratilardi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida dunyoviy fanlardan adabiyot, tarix, nutq, mantiq, aljabr va xandasa kabi fanlar o'qitilgan. Poytaxt shahar Qo'qonda 19-asrda 15 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, boshqa shaharlarda ham bir necha yirik madarasalar bor edi. Lekin xonlikda Buxoro madrasalarini tugatib kelgan kishilarning mavqei ancha baland hisoblanardi.

19-asr boshida Qo'qon xoni Umarxonning homiyligi Qo'qon adabiy muhitini shakllantirgan va rivojlantirgan qator talantli ijodkorlarni yuzaga chiqardi. Bu davrda faoliyat ko'rsatgan shoirlar va ularning ijodi Fazliy va Mushrif tomonidan tuzilgan "Majmuat ush-shuaro" nomli tazkirada yaxshi yoritib berilgan. Unda 18-asr oxiri – 19-asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod qilgan Maxmur, Gulxaniy, Fazliy, Mushrif, G'oziy, Sodiq, Xijlat, Xoziq, Xotif va boshqa ijodkorlar haqida ma'lumot berilgan. Qo'qon xonligining 19-asr birinchi yarmidagi adabiy hayoti rivojida marg'ilonlik Jahon otin Uvaysiy, Nodira begim, o'ratepalik Dilshod Barno, Mahzuna kabi ijodkor ayollarning alohida o'rni bor.

Qo'qon xonligi tarixnavisligida Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruhiy", Mirzo olim Toshkandiyning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", Otabek Fozil zg'lining "Mufassal tarixi Farg'ona" asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xonlikda butun O'rta Osiyo uchun xarakterli bo'lgan an'anaviy me'moriy uslublar bilan birga mahalliy hususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Xonlikdagi muhim me'moriy inshootlar jumlasiga Umarxon tomonidan Qo'qonda qurilgan jome masjidini, undan keyingi xonlar barpo etgan madrasalarni, Toshkentdagi Mo'yi muborak madrasasini, Tillashayx masjidini, Shayxontohur me'moriy majmuasini, Namangan, Andijonda qurilgan bir nechta madrasa va jome masjidlarini aytib o'tish kerak. Shuningdek, savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan inshootlar, bozorlar, karvonsaroylar qurilishida ham me'morchilikning rivojlangan yo'nalishlari ko'zga tashlanadi.

Qo'qon xonlari

1. Shohruhbiy – 1710-1721 yillar.
2. Abduraximbiy – 1721-1733 yillar.
3. Abdukarimbiy – 1733-1752 yillar.

4. Abduraxmonbiy – 1750-1751 yillar.
5. Erdonabiy – 1751-1753 yillar.
6. Bobobek – 1753-1754 yillar.
7. Erdonabiy (2-marta) – 1755-1769 yillar.
8. Sulaymonbek – 1769 yil 6 oy xonlik qilgan.
9. Norbo‘tabek – 1770-1801 yillar.
10. Olimxon – 1801-1810 yillar.
11. Umarxon (Amiriy) – 1810-1820 yillar.
12. Muhammad Ali (Madalixon) – 1821-1842 yillar.
13. Buxoro noibi Isoq mang‘it – 1842 yil (3 oy).
14. Sheralixon – 1842-1845 yillar.
15. Xudoyorxon – 1845-1858, 1863 (4 oy), 1865-1875 yillar.
16. Mallaxon – 1858-1862 yillar.
17. Shohmurodbek – 1862-1863 yillar.
18. Sulton Murod – 1863-1865 yillar.
19. Nasriddinbek – 1875-1876 yillar.

5-mavzu: Xiva xonligi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi)

(2 soat ma’ruza)

1. Xonlikning tashkil topishi va siyosiy rivojlanishi.
2. Davlat tizimi va uning ma’muriy tuzilishi.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Xiva xonligi amudaryoning quyi oqimidagi qadimiy Xorazm voxasida 16-asr boshlarida shakllangan feodal davlat bo‘lib, 17-asr boshlaridan mustaqil davlat sifatida boshqarilgan. Temuriylar davlati tarkibiga kirgan xorazm voxasi 1505 yilda Shayboniyxon tomonidan bosib olingan bo‘lsa, 1510-12 yillarda Eron shohi Ismoil Safaviy davlati tarkibiga qo‘shib olindi. Lekin Xorazmda eronliklarga qarshi kuchli xalq harakati ko‘tariladi. Xorazmning obro‘li shayxlari Dashti qipchoqlik o‘zbeklar yo‘lboshchisi Elbarsxonga Xorazm taxtini taklif qiladilar. Elbarsxon qo‘shinlari qisqa muddatda eronliklarni Xorazm voxasidan quvib chiqaradi. Elbarsxon (1712-1781) Xorazm poytaxti hisoblangan Urganch shahrini qo‘lga kiritib, amalda xonlikka asos soladi. U tez orada xonlik hududini birmuncha kengaytiradi. Xozirgi Turkmanistonning janubiy qismini, Eronning shimolidagi Seraxs tumanini, Orolni va Mang‘ishloqni egalladi. Vafotidan keyin uning vorislari hukmronlik qildilar. Xususan, 16-asrda Xorazmni uning avlodlaridan Berikach Sulton, sultonhoji, so‘fiyonxon, sultong‘ozi, Avانشxon, Qolxon, Aqatayxon, Do‘stxon, Xojimxon, Nurmuhammadxon kabi xonlar boshqarib turganlar. Shayboniy Ubaydullaxon 1537-1538 yillarda Xorazmga qisqa muddat o‘z hukmronligini o‘rnatishga erishgan bo‘lsada, avانشxon vorislari tomonidan tezda Xorazm ozod etildi. 16-asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon ikkinchi Xorazmni bo‘ysundirish uchun harakat qildi. Bir necha marta harbiy yurishlardan so‘ng 1593 yilda Xorazm ham Buxoro xonligi tarkibiga qo‘shildi. Lekin, Abdullaxon ikkinchining vafotidan keyin Xoroazm yana mustaqil davlatga aylandi.

16-asrning 70-yillarida Xorazm poytaxti Urganchdan Xivaga ko‘chiriladi. Poytaxt Xivaga ko‘chirilganidan so‘ng bu davlat poytaxt nomi bilan Xiva xonligi deb atala boshlagan.

17-asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo‘lgan kurashlardan so‘ng Arab Muhammadxon (1602-1623) taxtga o‘tirdi. Lekin ko‘p o‘tmay, uning o‘g‘illari Xabash va Elbars o‘z otasiga qarshi hokimiyat uchun kurash boshlaydilar va uni taxtdan ag‘darib, avval ko‘ziga mil tortadilar, so‘ngra Xivada qatl etadilar. Shu tariqa taxtga Elbars o‘tiradi. Qisqa hukmronlikdan so‘ng u ham ukasi Isfandiyor tomonidan taxtdan tushiriladi. Isfandiyor hukmronligi davrida (1623-1643) Xiva xonligida siyosiy vaziyat keskinligicha qoldi. Ayniqsa, Amudaryoning quysi oqimidagi Orol hokimligi markaziy hokimiyatga bo‘ysunmadi. Shuningdek, turkman

qabilalarining ham xonga ta'siri katta edi. Ular yordamida Isfandiyorxon o'zbek qabilalari vakillarini davlat boshqaruvidan chetlashtira boshlaydi.

Isfandiyor o'limidan so'ng Xiva taxtiga o'tirgan Abulg'ozixon Xorazm tarixida muhim o'rin tutdi. U 1643 yilda Orol o'zbeklari yordamida Xiva taxtini egallaydi. Uning hukmronlik davri (1643-1663) da markaziy davlat hokimiyati birmuncha mustahkamlandi. Ko'chmanchi turkman qabilalari va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashlar olib borildi. Uning davrida Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari olib borildi. 1662 yilda tuzilgan o'zaprosulxga qaramay ikki xonlik o'rtasidagi nizoli vaziyat keyingi yillarda ham saqlanib qoldi. Abulg'ozixon og'ir dardga chalingani uchun 1663 yilda o'z ixtiyori bilan taxtdan voz kechadi.

Uning vorisi Anushaxon hukmronligi davrida (1663-1687) Xiva qo'shinlari Buxoroga, Samarqandga, Qarshiga yana hujumlar qilib turdilar. Buxoroning yangi xoni Subxonqulixon nafaqat xivaliklar hujumini to'xtatishga, balki Xivada o'z ta'sirini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Uning yordamida Anushaxonning o'g'li Ernak 1687 yilda Xivada hokimiyatni egallash uchun fitna uyushtiradi. Lekin o'z otasi Anushaxonni ko'r qilib taxtni egallagan Ernak hokimiyatni uzoq saqlab qola olmadi. Subxonqulixon 1688 yilda Xiva taxtiga Shohniyozni (1688-1707) o'tqazib, Xivani amalda Buxoroga vassal davlatga aylantirdi.

Ammo bu siyosiy qaramlik uzoq davom etmadi. Shohniyoz Rossiya hukmdori Pyotr birinchiga xat yo'llab, Xivani Rossiya tarkibiga qo'shib olishni so'raydi. 1703 yilda Pyotr birinchining Xiva Rossiya tarkibiga qo'shib olinganligi haqidagi yorlig'i Xivaning yangi xoni Arab Muhammadga (1707-1714) topshirildi. Lekin Xivani o'ziga tobe etish Rossiyaga nasib etmadi. Arab Muhammad va uning vorisi Sherg'ozixon hukmronligi davrida (1715-1728) xonlikdagi siyosiy nizolar mamlakat iqtisodini ham izdan chiqardi. Bu vaziyatda Pyotr 1 tomonidan uyushtirilgan Bekovich-Cherkasskiy rahbarligidagi 6 ming kishilik ekspeditsiya xonlikka kirib keldi. Lekin bu qo'shin xivaliklar tomonidan butunlay qirib tashlanadi.

Tashqi dushman bartaraf etilganiga qaramay, xonlikda ichki nizolar davom etardi. Buxoro xoni Abulfayzxon Xivadagi markaziy hokimiyatga qarshi chiqayotgan Orol hokimlarini qo'llab-quvvatlab turdi. O'zaro urushlar Sherg'ozixon o'limigacha davom etdi. Elbarsxon davrida (1728-1740) o'zaro nizolar birmuncha susaydi. Uning davrida Xiva qo'shinlari Xuroson yerlariga harbiy yurishlar uyushtirib katta o'lja va asirlar bilan qaytdi. Bunga javoban Eron shohi Nodirshoh Xorazmga qarshi hujum uyushtirdi. Bo'lib o'tgan janglarda g'alaba qilgan eronliklar 1740 yilda Xiva xoni Elbarsxonni o'ldirib, Xorazmni butunlay bo'ysundirdilar. Shundan so'ng Xorazmda siyosiy parokandalik boshlandi. Xiva taxtida kichik qozoq juzidan bo'lgan Abulxayrxonning qisqa hukmronligidan so'ng Nodirshoh Xorazmga ikkinchi marta yurish qilib Xivani egallaydi. Xiva Nodirshohning noibi tomonidan boshqarila boshlandi. 1741 yilda Xivada qo'zg'olon ko'tarilib, eronlik noib o'ldiriladi va eronliklar qo'shini qirib tashlandi. Taxtga Nurolixon o'tiradi. Lekin eronliklarning yangi qo'shini Xorazmga kirib kelishi bilan u Dashti Qipchoqqa qochib ketadi. Shundan so'ng Xiva taxtida xonlar tez-tez almashib turdi. 1747 yilda qozoq sultoni Taibxon taxtga o'tiradi (1747-1757). Lekin uning boshqaruvidan norozilik kelib chiqadi va yana qo'zg'olon ko'tariladi. Xon taxtni tashlab qozoq dashtlariga qochib ketganidan keyin hokimiyatni uning ukasi Abdullaxon (1757-1758) egallaydi.

Xivada ko'tarilgan navbatdagi qo'zg'olondan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Raxim Xiva taxtiga o'z odami Temur G'ozixonni o'tqazadi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida o'zbeklarning Qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan inoqlarning hokimiyatdagi ta'siri ortib bordi. 1763 yilda Inoq Muhammad Amin amalda Xivadagi birinchi darajali hukmdorga aylandi. U 1770 yilda turkmanlar hujumini, 1782 yilda buxoroliklar tajovuzini bartaraf etib markaziy hokimiyatni birmuncha mustahkamladi. Mahalliy hokimlar beboshligiga chek qo'yildi, mamlakat iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Xunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq rivojlana boshladi.

19-asr boshlariga kelib inoqlar faqat amalda emas, balki rasman ham Xiva taxtini egalladilar. Eltuzarxon Inoq (1804-1806) Xiva taxtiga o'tirgan qo'ng'iro'tlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Uning vorisi Muhammad Raxim 1 (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Uning davrida bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazildi.

Xon saroyi qoshida Kengash (devon) ta'sis etildi. Islohotlar o'tkazilib, soliqlar tartibga solindi. Ichki muomala uchun oltin va kumush tangalar zarb etildi. 1811 yilda orolliklar – qoraqalpoqlar Xiva tarkibiga qo'shildi.

Muhammad Rahimning vorislari Olloqulixon davrida (1825-18420) va muhammad Aminxon davrida (1845-1855) xivaliklarning Xurosonga talonchilik yurishlari birmuncha kuchaydi. Buxoro bilan Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi. 1855 yilda Seraxsni qamal qilish chog'ida Muhammad Raxim vafot etdi va Xiva taxtiga Abdullaxon o'tqazildi. 6 oydan so'ng u turkmanlar bilan bo'lgan jangda o'ldirilgach, taxtni qutlug'murodxon egalladi. Xiva xonligida siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. O'zaro sulolaviy va qabilaviy nizolar avj oldi.

1859 yilda Xiva taxtiga Said Muhammad Raxim 2 (1865-1910) o'tirdi. "Feruz" taxallusi bilan ijod qilgan bu hukmdor amalda Xivaning so'nggi mustaqil xoni bo'lib tarixga kirdi. Uning davrida xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi yuz berdi. Lekin, 1873 yilda Xiva rus qo'shinlari tomonidan bosib olindi va xonlik Rossiyaga qaram davlatga aylandi.

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat bo'lib, uning boshqaruv tizimi Buxoro va qo'qon xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Buxoro va Qo'qon xonligidan farqli ravishda 19 asr boshlariga kelib xon xuzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) bor edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining va mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini e'tirof etish zarur. Ular amalda davlat boshqaruvida katta kuchga ega bo'lganlar. Ayniqsa, markaziy davlat hokimiyati zaiflashgan davrda bu narsa yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Xonlikdagi barcha mansab va unvonlarni 3 toifaga: harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy amallarga bo'lish mumkin. Saroy unvonlari ichida xondan keyin eng katta nufuzga inoq, otaliq va biy unvonidagilar mansub bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy hayotini nazorat qilgan. Xonlikning siyosiy-iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasovulboshi, udaychi, mingboshi, mirobboshi va boshqa mansabdorlar ham muhim o'rin tutgan. Diniy hokimiyat shayxulislom boshliq din peshvolari qo'lida edi.

Xiva xonligida davlat tili o'zbek tili bo'lib, Buxoro va Qo'qon davlatlaridan farqli ravishda bu yerda ikki tillilik hukmron emas edi. Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o'zbek tilida yozilar edi.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan 16-18 asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, 18 asr oxiri – 19 asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy birlik bekliliklar deb yuritila boshladi. Bu davrda xonlikda 16 ta beklilik va 2 ta noiblik mavjud edi. Ular: Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'xna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shobboz, Shovot, Toshxovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Sho'manoy, Qo'ng'iro't bekliliklari va Beshariq, Qiyot-qo'ng'iro't noibliklaridir. Bu bekliliklar va noibliklarni xon tayinlaydigan beklar va noiblar boshqarar edi. Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq)ning izmida bo'lgan. Umuman, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan edi.

Xonlikda o'troq dehqonchilik tumanlarida asosan o'zbeklar yashar edi va ular ko'pchilikni tashkil qilgan. Shuningdek, xonlik hududlarida turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va kam miqdorda tojiklar, eronliklar, yaxudiylar, armanlar ham istiqomat qilganlar.

O'rta Osiyo davlatlari ichida Xiva xonligi qo'shni mamlakatlarga tez-tez talonchilik yurishlari uyushtirib turuvchi davlat sifatida ma'lum edi. Xonlikda eng oliy bosh qo'mondon xon bo'lgan. Xondan keyingi mavqeda turuvchi inoq ham o'z hizmat vazifasiga ko'ra harbiy-ma'muriy amaldorlarga yetakchilik qilardi. Undan keyingi harbiy mansabdor amir ul-umaro

bo'lib, qo'shinlar boshlig'i sarkarda deb atalar edi. Xonning shahsiy gvardiyasi boshlig'iga yasovulboshi unvoni berilgan bo'lib, u xonni qo'riqlash, tartib-intizomni saqlashga mas'ul bo'lgan. Qo'shinlar otliq va piyoda navkarlardan tashkil topgan. Xonlikda yollangan turkman sarbozlari, turli o'zbek qabilalaridan tuzilgan qo'shinlar asosiy kuch edi. Asosiy hujum qurollari o'q-yoy, qilich va nayza bo'lgan. Qo'shinning miltiq bilan ta'minlanishi past darajada edi. Zambaraklar ham xonlikda keng tarqalmagan edi. Jang olib borish usuli Chingizxon va Amir Temur davridagi harbiy qonun-qoidalariga asoslansada, ammo bu harbiy tartiblar ijodiy rivojlantirilmadi.

Xonlikda asosiy sudlov idoralari qozilik mahkamalari hisoblangan. Bu mahkamalar bir necha pog'onadan tashkil topgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi oliy shaxs xon bo'lib, og'ir jinoiy ishlarni shaxsan u ko'rardi. Undan keyingi o'rinda xonlikda bosh sudya qozikalon bo'lgan. Bundan tashqari har bir viloyat tuman va qasabalarda xon tomonidan tayinlangan qozilar faoliyat olib borgan.

Xonlikda davlat yerlari, vaqf yer egaligi va hususiy yer mulklari mavjud edi. Davlat xazinasiga xonning shaxsiy mulki sifatida qaralgan. Vaqf yerlariga odatdagidek madrasalar va diniy mahkamalar, masjidlar, qabristonlar harajatlar uchun ajratilgan yer-mulklar kirgan. Xususiy shaxslarga tegishli yer mulklar ichida yirik mansabdor va harbiylarga tegishli yerlar katta miqdorni tashkil etgan. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar dehqonlarga odatda 8-12 tanob qilib bo'lib berilgan. Dehqon bu yerda o'z oila a'zolari bilan birga ishlagan.

Voxa iqtisodining asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil qilgan. Dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan Pitnak kanali, Polvon kanali, Qazovot kanali, Shohboz kanali, Yarmish kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Qorako'z kanali, Arna kanali, Bo'zsuv kanali, Suvvoli, Xon kanallari muhim o'rin tutgan. Xonlikda suv manbalarining yetarli bo'lishiga qaramay, dehqonchilik taraqqiyoti Buxoro xonligidagidek emas edi. Dehqonchilikda asosan g'alla ekinlari yetishtirilgan. Paxtachilik esa asosan, Gurlan, Yangi Urganch, Xiva, Xonqa, Shohabbosda rivojlangan edi. Paxta chigitidan yog' olinar, tolasi mahalliy hunarmandlar ehtiyojiga va tashqi bozorga chiqarilardi. Xonlikda bog'dorchilik va polizchilik ham ancha taraqqiy etgan edi. Lekin ipakchilik unchalik rivojlanmagan edi. Xiva xonligida chorvachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Xonlikning hunarmandchilik markazlari sifatida asosan yirik shaharlar – poytaxt Xiva, Urganch, Xazorasp, Toshxovuz, Xonqa va boshqa shaharlar muhim o'rin tutgan. Mahalliy xomashyo manbalari (jun, teri, ipak, paxta va boshqalar) va boshqa mahsulotlar Xorazm voxasi hunarmandchiligi taraqqiyotini belgilab turgan. Xonlikda to'qimachilik, kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik, duradgorlik, ko'ncilik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash bilan bog'liq xunarlar keng rivoj topgan edi. Mahalliy hunarmandlar mahsulotlari ichki bozor ehtiyojini ta'minlab qolmasdan ba'zi mahsulotlar qo'shni Buxoro, Qo'qon xonliklariga ham chiqarilgani ma'lum.

Savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosini tashkil etardi. Geografik jihatdan qulay hududda, yirik karvon yo'llari chorrahasida joylashgan Xorazm voxasi qadim davrlardan beri davom etib kelayotgan tijoratchilik an'anasiga sodiq yurtdir. Bu xonlikda ham ichki va tashqi savdo ancha rivojlangan edi. O'zaro nizolarga qaramasdan xonlik viloyatlari, shahar va tumanlari o'rtasida yaqin iqtisodiy savdo aloqalari mavjud edi. Ichki savdoda asosan mahalliy mahsulotlar katta o'rin tutgan. Xonlikdan chetga chiqariladigan mahsulotlar ichida xivalik hunarmandlarning nafis buyumlarini, turli dehqonchilik mahsulotlarini aytib o'tish mumkin. Rossiyadan qo'rg'oshin, mis, temir, cho'yan kabi turli metallar, Buxoro, Qo'qon, Eron, Rossiyadan oltin, kumush, hunarmandchilik hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari keltirilgan.

Xivalik savdogarlar tranzit savdo aloqalarida ham faol ishtirok etishardi. Xonlik hududi orqali o'tuvchi savdo karvonlari (Rossiya, Buxoro savdogarlari) dan olinadigan boj to'lovlari ham saroy xazinasiga katta daromad keltirgan.

Xonlikdagi soliqlar asosan xiroj, zakot, boj, jiz'ya kabi barcha qo'shni musulmon davlatlariga xos bo'lgan soliqlar undirib olingan. Ularning miqdori shariatda belgilanganidek

bo'lgan. Soliqlardan tashqari aholi turli majburiyatlarni ham bajarishi lozim edi. Xususan, kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun ilk bahorda o'z yeriga ega bo'lgan har bir xonadaondan bir kishi jalb etilib, 15 kun ishlab berishi shart bo'lgan.

Xiva xonligi madaniyati ko'pgina o'ziga xosliklarga ega. Bu adabiyot, tarixnavislik, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xiva xonligida ham asosiy ilm dargohlari madrasalar edi. Quyi ta'lim, ya'ni boshlang'ich maktablarda savodini chiqargan kishilar xonlik poytaxti Xivadagi madrasalarda, shuningdek, Buxoro madrasalarida o'qib ta'lim olardilar. Manbalarning guvohlik berishicha, 19-asrda xonlikda 1500ga yaqin boshlang'ich maktab va 130ta madrasa bo'lgan. Xususan, Xivada 22ta madrasa bo'lib, ular ichida Muhammad Rahimxon, Sherg'ozixon, Raxmonberdiboy, Olloqulixon, Xoja Mahram, Fozilbek, Davlat Qorako'z, Bekniyoz Devonbegi madrasalari katta mavqega ega edi.

Xorazm madaniyatining eng rivojlangan davri 19-asrga to'g'ri keladi. Bu davrda adabiyot, tarixnavislik va xattotlik, musiqa san'ati, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Adabiyot sohasida Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) badiiy merosi katta o'rin tutadi. Shuningdek, shoir, musiqashunos, xattot va taniqli naqqosh Komil Xorazmiy (1825-1899) o'z o'rniga egadir. Xorazm muhitida yaratilgan tarixiy asarlar orasida Abulg'ozixonning "Shajarayi turk" asari yetakchi o'rin egallaydi. Ogahiy tomonidan yaratilgan "Zubdat ut-tavorix", "Riyozi ud-davla", "Jomiy" ul-voqeoti sultoni" kabi tarixiy asarlar ham Xorazm tarixnavislik maktabining nodir namunalaridir. Xiva xonligining tarixiga bag'ishlangan asarlar ichida Muhammad Yusuf Bayoniy (1859-1923) ning "Shajarayi Xorazmshohiy" asari katta o'rin tutadi.

Xiva xonligidagi me'morchilik avvalo shaharlar rivoji bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib bordi. Xiva eng katta shahar bo'lib, u 3 qismdan: xon qarorgohi, saroy (Ichonqal'a, Dishonqal'a), bevosita shahar va shahar atrofi – rabotdan iborat edi. Shaharda 19-asr boshlarida 22ta madrasa, 17ta masjid, bir necha karvonsaroy, hammom va yopiq bozorlar mavjud bo'lgan. Xazorasp, Gurlan, Urganch, Toshxovuz, Vazir, Shohabbos, Xonqa, Xo'jayli, Qo'ng'iro't kabi o'rta kattalikdagi shaharlar, Pitnak, G'azovot, Mang'it va boshqa kichik shaharlar bor edi. Xorazm O'rta Osiyoda o'ziga xos uslubga, o'z me'morchilik maktabiga ega bo'lgan vohadir. Buni Xivada va xonlikning boshqa shaharlarida 16-19-asrlarda qurilgan ko'plab inshootlarida ko'ramiz. Xivadagi me'moriy obidalar ichida 1616 yilda barpo etilgan Arab Muhammad madrasasi, Anushaxon tomonidan qurilgan masjid va hammomlarni (17-asr oxiri), 1719 yilda qurilgan Sherg'ozixon madrasasini va boshqa binolarni misol qilish mumkin. Ular Xiva me'morchilik maktabining birinchi davriga xosdir.

Xiva me'morchiligining eng rivojlangan davri 19-asrga to'g'ri keladi. Bu davr inshootlari ichida Eltuzarxon tomonidan 19-asr boshlarida qurilgan Ko'rinishxona binosini, Olloqulixon davrida qurilgan Toshxovlini (1832), Said biy masjidini (1835), madrasani, karvonsaroy va bozorni, Muhammad Raxim birinchi davrida barpo etilgan Polvon darvozani, Muhammad Aminxon madrasasini, Polvon ota masjidini (1811) va boshqa inshootlarni aytib o'tish mumkin.

Xiva xonlari

2. Arab Muhammadxon – 1602-1623 yillar.
3. Isfandiyor – 1623-1643 yillar.
4. Abulg'ozixon – 1643-1663 yillar.
5. Anushaxon – 1663-1687 yillar.
6. Ernak (Ereng) – 1687-1688 yillar.
7. Shohniyoz – 1688-1702 yillar.
8. Arab Muhammad – 1702-1714 yillar.
9. Sherg'ozixon – 1715-1728 yillar.
10. Elbarsxon – 1728-1740 yillar.
11. Nodirshoh (Eron hukmdori) – 1740-1747 yillar.

12. G'oyibxon (Taibxon) – 1747-1757 yillar.
13. Abdullaxon – 1757-1758 yillar.
14. Temur G'ozixon – 1758-1763 yillar.
15. Abulg'ozixon – 1763-1804 yillar (amalda Inoq Muhammad Amin – 1763-1790 yillar; Avaz Inoq – 1790-1804 yillar)

Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlari

1. Eltuzarxon – 1804-1806 yillar.
2. Muhammad Rahim 1 – 1806-1825 yillar.
3. Olloqulixon – 1825-1842 yillar.
4. Raximqulixon – 1842-1845 yillar.
5. Muhammad Aminxon – 1845-1855 yillar.
6. Abdullaxon – 1855-1856 yillar.
7. Qutlimurodxon – 1856 yil (6 oy xonlik qilgan)
8. Said Muhammadxon – 1856-1865 yillar.
9. Muhammad Raxim 2 – 1865-1910 yillar.
10. Isfandiyor – 1910-1918 yillar.
11. Said Abdullaxon – 1918-1920 yillar (amalda Junaidxon)

6-mavzu: O'rta Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilarga qarshi xalq harakatlari. (4 soat ma'ruza).

Reja

1. Chor Rossiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligi hududlariga hujumi. Mustaqillik uchun kurash.
2. Buxoro amirligining chor Rossiyasi vassaliga aylantirilishi.
3. Xiva xonligining bo'ysundirilishi.

Rus podsholarining Turkiston yerlariga g'arazli maqsadlarda ko'z olaytirishlari shayboniylar hukmronlik qilgan davrlardan boshlangan. Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir va O'rta Osiyo ustidan hukmronlik qilish rus podsholarining azaliy va asriy orzusi bo'lgan. Rus davlati O'rta Osiyo mintaqasini bosib olish uchun bu yerdagi mavjud xonliklar haqida keng ko'lamda josuslik ma'lumotlarini to'play boshladi. Bu holat «Moskva savdo kompaniyasi» deb atalgan tashkilotning vakili Antoni Jenkinson boshiligidagi elchilarning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Ingliz savdogarlari Antoni Jenkinson Richard va Robert Jonsonlar 1558-1559 yillarda, Moskva savdo elchisi Ivan Danilovich Xoxlov 1621 yilda Xiva, Buxoro va Samarqandga asosan o'lkani o'rganish va josuslik ma'lumotlarini to'plash maqsadida kelgan edilar.

Lekin Turkistonni Rusiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri amaliy ochiq harakat Petr I davridan boshlandi. U o'zining Sharqqa nisbatan tajovuzkorlik siyosatini yashirib ham o'tirmadi. «Sharq bilan aloqada Qozog'iston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun millionlab mablag' sarflasa ham Qozog'istonni bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa u yerda Rusiya ta'sirini o'rnatish zarurdir», degandi Petr I. U tajovuzkorlik siyosatini amalga oshirish maqsadida Markaziy Osiyoga 1717 yilda knyaz Bekovich-Cherkasskiyni katta qo'shin bilan yubordi. Ammo Xiva xoni Sherg'ozixon tomonidan bu qo'shin batamom qirib tashlandi. Rusiya bilan Xiva xonligi o'rtasida dushmanlik vaziyati kuchaydi. Petr I Markaziy Osiyo yerlariga bo'lgan o'z tajovuzkorligidan voz kechmadi. U Buxoroga josuslik maqsadlarida elchi qilib italiyalik Florio Benevenini jo'natdi. Bu safar ham missiya muvaffaqiyatsiz chiqdi va Benevenining o'zi zo'rg'a jon saqlab qoldi va faqat Petr I o'limidan so'ng 1725 yilda Rusiyaga qaytdi. Florio Beneveni hali Buxoroda bo'lgan chog'idayoq josuslik ishlari bilan shug'ullandi va rus podshosiga yozgan

xatlarining chetlarida shifrovka bilan maxfiy xabarlarni yubordi. Aytishlaricha, - deb yozadi A.S.Pushkin - Petr I o'limi oldidan ikki narsani amalga oshira olmagan uchun armon bilan ketayotganini aytgan: Prut yonidagi jangda Turkiyadan yengilganini va Bekovichning o'limi uchun Xivadan o'ch ololmagani uchun qattiq afsus chekkan.

Markaziy Osiyoni bosib olish maqsadida Petr I zamonidayoq Qozog'istonning zabt etilgan xududlarida harbiy qal'alar va istehkomlar qurila boshlangan edi. 1717 yilda Omsk, 1718 yilda Semipalatinsk, 1720 yilda Ust-Kamenogorsk, 1742 yilda Orenburg qal'alari qurildi. Faqat XVIII asrning o'zida chor ma'murlari yovuz niyat bilan hozirgi Qozog'iston hududlarida 46 ta katta va 96 ta kichik harbiy qal'a va istehkomlar qurganlar. XVIII asrning boshlarida har uchchala Juzning qozoqlari qalmaq (jungar)larning doimiy bosqini ostida og'ir ahvolga tushib qoldi. 1723 yilda ro'y bergan og'ir ocharchilik qozoqlarning o'z mustaqilliklarini saqlab qolishlarini xavf ostiga solib qo'ydi. Oqibatda Katta Juz jungarlarga siyosiy qaram bo'lib qoldi. O'rta Juz Buxoroga ko'chib borib Buxoro xonligiga, Kichik Juzning bir qismi esa Xiva xonligiga tobe bo'ldi. Bunday og'ir vaziyat Katta va Kichik Juzning xoni Abulxayrxonni o'z hokimiyatini saqlab qolish ilinjida chor hokimiyati bilan yaqinlashuviga majbur etdi. Ana shu tariqa 1731 yilda Kichik Juz, 1731-1740 yillarda esa Katta Juz qozoqlarining aksariyati rus davlatining tobeligiga o'tdi.

Qozoqlarning rus fuqaroligini qabul qilishlari chor mustamlakachi ma'murlarining Turkiston yerlarini egallash borasidagi bosqinchilik harakatlariga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Biroq Yevropadagi davlatlar o'rtasidagi vaziyatning tobora taranglashib va chigallashib borishi, rus-turk urushi (1806-1812), rus-shved urushi (1808-1809), rus-fors urushi (1805-1813) va nihoyat Napoleonga qarshi 1805-1812 yillardagi to'qnashuv, qolaversa, chor samoderjaviyasiga qarshi dekabristlar nomini olgan dvoryanlar qo'zg'oloni va uni bostirish chor hukumatining Turkistonga nisbatan bosqinchilik siyosatini ma'lum muddatga ortga cho'zilishiga sababchi bo'ldi. Biroq 1830 yillardan ma'lum darajada Yevropadagi janjalli voqealardan qo'li bo'shagan chor hukumati yana o'zining ayg'oqchilik va yovuzlik niyatlarini Markaziy Osiyo hududlariga qaratdi. 1839-1840 yillarda podsho Nikolay I ning homiyligi va fatvosi bilan Orenburg harbiy gubernatori V.A.Perovskiy katta qo'shin bilan Xivani bosib olish niyatida yo'lga chiqdi. Perovskiy qo'shini tarkibida 2 ta zambarak, 40 arava, 5325 askar bor edi. Ammo og'ir obi-havo sharoiti, yoqilg'ining yo'qligi, oziq-ovqat tanqisligi, kiyim-kechaklarning yaroqsizligi natijasida Perovskiy qo'shinlari yo'l-yo'lakay katta talofatlar berib Xivaga yurishni to'xtatib orqaga qaytadi.

Chor hukumati XIX asrning o'rtalaridan boshlab o'zbek xonliklarining yerlarini bosib olishga astoydil kirishadi. Buning sabablari avvalo shundaki: birinchidan, o'zbek xonliklari o'zaro davlat va yer talashib bir-birlarining tinka madorlarini shu darajada quritgan edilarki, ular tashqi dushmanga qarshi birlashib kurashish u yoqda tursin, hatto o'zlarini biror bir darajada himoya qilishga ham qodir emas edilar. Bu xol chor ma'murlariga juda qo'l kelar edi. Ikkinchidan, chor Rossiyasining harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli shuni talab qilar ediki, rivojlanayotgan rus kapitalistlari uchun yangi-yangi bozorlar, foyda manbalari kerak edi. Rossiya sanoat korxonalariga esa tabiiy yer osti boyliklari, xom ashyo bazalari; paxta, ipak, qorako'l, teri va boshqalar zarur edi. Uchinchidan, Markaziy Osiyo masalasida ingliz-rus munosabatlarining keskinlashib borishi Rossiya bosqinining tezlashishiga sabab bo'ldi. Rossiya hukmronlik doiralari XIX asrning boshidanoq ingliz josuslarining o'zbek xonliklaridagi hatti-harakatlarini ziyraklik va shubha bilan kuzatib bordilar. Darhaqiqat Hindistonni Angliyaning mustamlakasiga aylantirgan Ost-Hindiston kompaniyasi oltinga boy, hamda iqtisodiy va strategik ahamiyati katta bo'lgan Turkiston o'lkasidagi voqealarni anchadan beri diqqat bilan kuzatib borar va bu o'lkani o'z tasarrufiga olish uchun qulay paytni poylardi. Buni Ost-Hindiston kompaniyasining Markaziy Osiyoga bir necha marta o'z razvedkachilarini yuborganliklaridan bilsa bo'ladi. Jumladan, 1824 yilda mazkur kompaniya ayg'oqchisi Murkfort Buxoroda bo'ldi, biroq u qaytish chog'ida yo'lda xalok bo'ladi. 1831 yilda Buxoroga A.Byorns tashrif buyurdi. 1843 yilda kapitan Ebbot Xivaga yuborildi. O'sha yili Volf Buxoroga kelgan edi. U 1838 yildan buyon Buxoro amiri Nasrulloxon

zindonida saqlanayotgan polkovnik Stoddart bilan mayor Konollini (bular 1842 yili qatl etilgan) qutqarish niyatida edi.

Ost-Hindiston kompaniyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishni taklif qildi va birgalashib Rossiya tajovuziga qarshi kurashishni tavsiya etdi. Lekin bu takliflar amalga oshmadi. Inglizlarning Markaziy Osiyoni bosib olishdan iborat rejasining amalga oshuviga Hindiston bilan o'zbek xonliklari o'rtasida joylashgan Afg'oniston to'siq bo'ldi. Hatto 1838-1842 yillarda va 1878-1880 yillarda inglizlar bilan Afg'oniston o'rtasida ikki marta urush ham kelib chiqdi. Ammo inglizlar afg'on xalqining qarshiligini bostira olmadilar.

Rossiya davlatining Turkiston yerlarini bosib olishga intilishining yangi to'liqini 1847 yilda boshlandi. Shu yili Sirdaryoning Orol dengiziga qo'yiladigan joyi Raim egallanib, Orol harbiy qal'asi barpo qilindi. Orenburgda «Nikolay» va «Konstantin» degan kemalar qurilib, ular bo'lak-bo'lak holda keltirilib Orol dengiziga tushirildi. Oq machit (Qizil O'rda), Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, To'qmoq va boshqa shaharlarda Qo'qon xonligining harbiy istihkomlari mavjud edi. 1852 yilda chor qo'shinlari Oq machitga xujum qildilar, lekin uni qo'lga kiritish olmadilar. 1853 yilda general Perovskiy boshchiligidagi ikki ming askardan ortiq qo'shin Oqmachitga ikkinchi marta xujum uyushtirdi. 22 kunlik qurshov va jangdan so'ng chor askarlari istehkomni egallaganlar. Qal'a himoyachilaridan 74 kishi tirik qolgan xolos. Chor qo'shinaridan bor yo'g'i 25 kishi xalok bo'lgan va 46 kishi yarador qilingan. Istehkomga «Perovskiy forti» nomi berilgan. Oq machitdagi mag'lubiyat Qo'qon xonligini qattiq tashvishlantirdi. Tezlik bilan Toshkentda kuch to'planib hokim Sabdalxo'ja boshchiligidagi 8 ming askarlik qo'shin va ko'ngillilar Oqmachitni qaytarib olish uchun yo'lga chiqdi. Lekin ikki o'rtadagi jangda ular yengiladilar. Vatan himoyachilaridan 192 kishi xalok bo'ldi. Qo'qon xonligi qo'shinlari yaradorlarni 92 tuyaga ortib orqaga chekinishga majbur bo'ldilar.

1853 yilning dekabr oyida Yoqubbek boshchiligidagi 13 ming kishilik qo'shin Oqmachitga kelib yana dushman bilan to'qnashdi. Yurt himoyachilaridan bu jangda mingga yaqini o'ldirildi va yarador qilindi. Bosqinchilar faqat 55 askarlarini yo'qotdilar. Bunday ketma-ket mag'lubiyatlar Vatan himoyachilari ruhini tushirmadi. Ular 1855 yilda yana 15 ming kishilik qo'shin bilan Oqmachitga otlandilar. Ammo chor qo'shinlariga yangi kuchlar kelib qo'shilganini eshitib, orqaga qaytdilar.

1854 yilda Olma-ota o'rnida Verniy harbiy qal'asining qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o'rin tutgan istehkomlardan bo'ldi. 1855-1857 yillardagi Qrim urushi munosabati bilan chor ma'murlari Markaziy Osiyoni zabt etish bo'yicha katta miqyosdagi harbiy harakatlarni olib bormadilar. Qrim urushidagi mag'lubiyat Markaziy Osiyoning Rusiya uchun siyosiy va strategik jihatdan qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu boisdan Rossiya hukmron doiralari o'rtasida Markaziy Osiyo muammosini tezroq hal qilishga chorlovchi da'vatlar 1860 yillarda tez-tez ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. Harbiy vazir D.A.Milyutin harbiy yurishlarning doimiy tarafdori edi. Xullas, 1860 yillar boshlarida Turkistonni bosib olish bo'yicha g'oyaviy tayyorgarlik ko'rildi. Endigi asosiy vazifa bu g'oyani amalga oshirishdan iborat edi.

1860 yilda polkovnik Simmerman qo'shini Qo'qon xonligining 5 ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirib, To'qmoq va Pishpak qal'alarini egalladi. Ili orti vodiysi Alatov okrugi deb o'zgartirildi. Xudda shu yili 21 oktabrda polkovnik Kolpakovskiy otryadi Qora Kostek daryosi yon bag'ridagi Uzunyog'och soyidagi jangda Qo'qon xonligining 20 ming qo'shinini batamom qirib tashladi. 1861-1863 yillarda chor qo'shinlari Qo'qon xonligiga bir necha zarbalar berdi. Bu davrda Qo'qon xonligiga qarashli Yangiqo'rg'on, Dinqo'rg'on, Merka va ikkinchi marta Pishpek egallandi.

1863 yil yozida polkovnik Chernyaev Orenburg general-gubernatori Bezakning roziligi bilan Sirdaryo yoqasidagi So'zoq qal'asini qo'lga kiritdi va uni tevarak-atrofdagi aholisi bilan birga «Rossiyaning mulki» deb e'lon qildi. 1864 yil boshida Verniy (Olma-Ota) istehkomidan chiqqan 2500 kishilik Chernyaev boshchiligidagi chor qo'shinlari 4 iyunda Avliyootani egalladi. Shahar ostonasidagi jangda vatanparvar kuchlarning 1500 kishilik qo'shinlari mag'lubiyatga uchradilar. Himoyachilardan 307 kishi o'ldirildi va 390 kishi yarador bo'ldi. Chernyaev bilan

izma-iz Perovski otryadidan chiqqan polkovnik Verevkin guruhi esa Turkiston qal'asiga yurish qildi va uni 12 kunda bosib oldi.

1864 yil 16 iyulga qadar chor armiyasi qo'shinlari ikki yo'nalishda mustaqil harakatlarni davom ettirdi. Sibir-Yorkend tomonidan 8-g'arbiy Sibir, 21-Sibir kazak armiyasi batareyasi, Orenburg-Xiva yo'nalishi bo'yicha esa 4-Orenburg liniya batoloni, 1864 yildan boshlab 2-Orenburg liniya batolonining I-vzvodi; 1865 yildan 6-va 9-Orenburg liniyalari batoloni, 4-G'arbiy Sibir bataloni janub tomondan o'z harakatini davom ettirib, shahar va qishloqlarni birin-ketin egallab bordi.

Avliyoota va Turkistonning dushman tomonidan zabt etilishi butun Qo'qon xonligini oyoqqa turg'azdi. Toshkent shahri chorizm bosqinchilariga qarshi kurashning markaziga aylandi. Bu yerga Marg'ilondan Yusufbek, Xo'janddan Mirza Ahmad Qushbegi qo'mondonligida qo'shinlar, Andijon, Namangan, O'sh va boshqa joylardan harbiy qismlar keltirildi. To'plangan qo'shin va xalq qasoskorlariga Qo'qon xonligining lashkarboshisi mulla Alimqul boshchilik qildi va ular Chimkent tomon ravona bo'ldilar. Chimkentda bir kecha-kunduz qattiq jang bo'ldi, general Chernyaev boshchiligida chor qo'shinlari urushni davom ettira olmay Turkistonga qaytishga majbur bo'ldi. Jinay degan joyda bo'lgan jangda ham vatanparvarlarning qo'li baland keldi. Vatan ximoyachilari Iqon qal'asi uchun bo'lgan jangda xam g'olib bo'ldilar. Alimqul boshchiligida yurt himoyachilari urushni davom ettirish maqsadida tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarxonning Qo'qonga hujum qilganligi to'g'risida xabar oladi. Natijada lashkarboshi Alimqul qo'shinning katta bir qismini Chimkentda qoldirib o'zi Qo'qonga qaytishga majbur bo'ladi. Albatta bu hol dushmanga qo'l keldi va Chernyaev 1864 yil 21 sentabrda Chimkentni jang bilan egallaydi. Shahar mudofaachilarining ko'pi qirib tashlandi.

Shu paytgacha qadar ikki yo'nalishda mustaqil harakat qilib kelgan chor armiyasining ikki qo'shini Chimkent shahrida tutashdi. Rus qo'shinlari 1865 yil bahorida Toshkentga yaqinlashib Niyozbek qal'asini ishg'ol qiladilar. Mulla Alimqul boshchiligidagi 6 ming qo'qonlikning yordamga kelishi ham bosqinchilarni to'htata olmadi. Mulla Alimqul jangda yaralanib toshkentda vafot etdi. Bir necha oylik qamal va janglardan so'ng 1865 yil 17 iyunda toshkent chor Rossiyasi qo'lga o'tdi.

Istilo qilingan yerlar hisobiga 1865 yilda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etildi; uning tepasiga general Chernyaev qo'yildi. 1866 yil yanvar oyining oxirida Chernyaev Jizzaxga yurish boshladi. Ammo 8-9 ming kishilik shahar ximoyachilarining ko'rsatgan qarshiligi tufayli u orqaga chekinishga majbur bo'ldi. 1866 yil mart oyida Chernyaev Peterburgga chaqirib olindi, uning o'rniga general Romanovski yuborildi. Toshkentga yordam uchun yuborilgan Buxoro amirining 100 ming kishilik qo'shini bilan general Romanovski qo'mondonligidagi Chor Rossiyasi qo'shinlari o'rtasida 8 mayda Erjarda bo'lgan jangda rus qo'shinlari g'alaba qozondi. 24 mayda rus askarlari Xo'jandda ham g'alabaga erishdilar. Avgust oyida Romanovski Toshkent, Xo'jand va Chirchiqorti o'lkasini Rossiyaga qo'shib olish to'g'risida ko'rsatma berdi. Buxoro amiri bilan muzokaralarda kelisha olmagach, Romanovski 2 oktabrda Buxoro amirligiga qarashli O'ratepa qal'asini, 18 oktabrda esa Jizzaxni bosib oladi. Jizzax uchun jang g'oyatda dahshatli bo'lgan. Romanovski 1866 yil 19 oktabrda harbiy vazirga yozgan telegrammasida Jizzax uchun bo'lgan jangda kamida 6 ming kishi o'ldirilganligi va 2 ming kishining asir olinganligini yozgan edi. Qizig'i shundaki, Buxoro amiri rus qo'shinlariga qarshi birgalikda jang qilishni Qo'qon xoni Xudoyorxonga taklif qilganda u turli vaj-karsonlarni bahona qilib bu ishga bosh qo'shmaydi. Amirlik qo'shinlari Xo'jand va Jizzaxda yengilgach, Xudoyorxon rus bosqinchi generali Romanovski tabrik telegrammasi yuboradi.

1867 yilda chor hukumati bosib olgan joylarda Turkiston general-gubernatorligi tuziladi. General K.P.Kaufman bosh qilib tayinlangan bu gubernatorlikning markazi Toshkent bo'lib uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham kirgan edi. K.P.Kaufman podsho Aleksandr II dan katta vakolatlar bitilgan "Oltin yorliq" oladi. U mustaqil ravishda urush e'lon qilish, sulh tuzish va boshqa huquqlarga ega edi. Shu bois Turkiston halqi K.P.Kaufmanni "yarim podsho" deb atagan.

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman O'zi hukmronlik qilayotgan hududlarda rus davlati mavqeini mustahkamlash va Turkiston O'lkasidagi qonli fojealarni niqoblash maqsadida bir guruh mahalliy sotqin tabaqa vakillarini Markaziy hukumat bilan kelishgan holda Peterburgga yuborishga qaror qiladi. Bu vakillar asosan rus davlatiga sodiq, rus qo'shinlariga har tomonlama yordam bergan kishilardan tashkil topgan edi. Turkiston vakillarini xatto podsho Aleksandr II ning o'zi qabul qildi. Ular podshoga go'yo Turkiston aholisining rus davlati tobeligiga olinganligidan baxtiyorligini, mangu sodiqligini izhor etuvchi maktubni topshirganlar. Ana shu tariqa chor ma'murlari Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi aholi o'z ixtiyori va istagi bilan rus davlati fuqaroligiga o'tganligini jahonga namoyish qilishga uringan edi. Turkistonda esa qonli va qirg'inbarot urushni davom ettirdi. Jumladan 1867 yil 7 iyunda rus askarlari Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan Yangiqo'rg'onda 25 ming kishilik Buxoro qo'shini va xalq ko'ngillarini tor-mor keltirdi.

1868 yil 1 mayda Samarqand ostonasidagi Cho'ponota tepaligida shiddatli va beayov jang bo'ldi. 2 mayda Samarqand shahri taslim bo'lishdan o'zga chorani topmadi. Buxoro amiri Muzaffarxon bu habarni eshitgach, shu darajada dahshatga tushdiki, jahl ustida bu "shum habar"ni keltirgan habarchini osib o'ldirishga farmon beradi. Amir Muzaffarning xalqi o'rtasida obro'si tushib ketdi. Xalq g'azabga keldi. Ayniqsa amirning chor hukumati bilan sulh tuzishga moyilligi vaziyatni juda keskinlashtirdi. Xalq amirdan urushni davom ettirishni talab qilib qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olon markazi Cho'li Malik edi. Qo'zg'olonchilar albatta, so'yil, nayza va shuning singari oddiy narsalar bilan qurollangan edilar. Amir Muzaffar qo'zg'olonne butun Zarafshon vodiysiga tarqalib ketishidan qo'rqib uni tezda bostirdi-da, darhol beklar bilan kengash o'tkazdi. Unda sulh tuzish yoki urushni davom ettirish masalasi muhokama qilindi. Kengashda birinchi bo'lib so'z olgan lashkarboshi Usmonbek bunday dedi: "Xonlik xalqi urushni davom ettirishni talab etayotgan bir paytda kofirlarga kontributsiya (tovon) to'lagandan ko'ra bir tomchi qon qolguncha kurashish afzalroqdir". Bu fikrni kengash qatnashchilari yakdillik bilan qo'llab-quvvatladilar. Muzaffar barcha kuchlarini jamlab, Samarqandni qaytarib olishga kirishdi. 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to'pli Buxoro qo'shini Zirabuloq tepaligiga kelib o'rnamshdi. 1868 yil 2 iyunda general K.P.Kaufman qo'mondonligidagi qo'shin va himoyachilar o'rtasida jang boshlanadi. Buxorolik mudofaachilar ko'p talofat ko'rib mag'lubiyatga uchradilar. Bu habar xalq g'azabini battar kuchaytirdi. Amir Qo'rqib Qizilqum tarafga qochib ketadi. Samarqandda chorizmga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlandi. Yurt himoyasiga shahar atrofidagi qishloq va ovullardan minglab kishilar kelib qo'shildi. Naymanlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlar, qirq juzlar va boshqa qabilalar JO'rabek va Bobobek boshchiligida Shahrisabzdan kelayotgan 20 ming kishilik qo'shin qasoskorlarga qo'shilib, Samarqanddagi qo'zg'olonchilar safini to'ldirdi. Natijada Samarqand chorizmga qarshi umumxalq kurashining o'chog'iga aylandi. Bir necha ming kishilik qo'zg'olonchilar shahar qal'asida o'rnamshgan chor qo'shinini qurshab olib jangga kirishadi. Ammo Shahrisabz beklari chor qo'shinlariga yordamchi kuchlar kelayotganidan xabar topib, Samarqandni tashlab chiqdi.

K.P.Kaufman Zirabuloq yaqinida Buxoro amirligi qo'shinlarini tor-mor keltirib, tezlik bilan Samarqandga qaytdi. 8 iyunda u Samarqandni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga va shaharni batamom yoqib yuborishga buyruq berdi. 9 iyunda Samarqandda fojeali qirg'in boshlandi. Qirg'in uch kun davom etdi. Yuzlab odamlar hech qanday so'roqsiz, tergovsiz otib tashlandi. Samarqanddagi qo'zg'olon yakunlariga ko'ra uning boshliqlaridan 19 kishi o'limga va 19 kishi Sibirga umrbod surgunga hukm qilindi. Buning ustiga, qo'zg'olonchilarning aksariyati esa jangu-jadalning o'zidayoq qirilib ketdi. Chor qo'shinlaridan 275 kishi o'ldirildi va yarador bo'ldi. Boshqa joylarda bosqinchilar bunchalik ko'p talofat ko'rmagan edi. Shuning uchun general K.P.Kaufman "Samarqand qal'asidagi talofatni juda katta yo'qotish", deb baholaydi. Bu vaqtda amir Muzaffarning obro' va mavqei tobora tushib, taxtda zo'rg'a ilinib turardi. Amir Karmanaga kelib, o'z amaldorlari ishtirokidagi kengashda chor hukumat bilan sulh tuzishdan bo'lak chora qolmaganini ma'lum qiladi.

1868 yilning 23 iyunida amir Muzaffarning elchilari Samarqandga K.P.Kaufman huzuriga

kelib, sulh tuzishga rozilik bildirdi. Sulhga ko'ra Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi xonlikdan ajratib olinib, Rossiya tarkibiga kiritildi. Amir tovon sifatida 500 ming so'm tilla pul to'lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o'rnatmaslikka rozilik berdi. Shuningdek, Rossiya savdogarlariga xonlik tasarrufida bimalol savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishga hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etildi. Ular to'laydigan boj miqdori buxoroliklar to'laydigandan oshmasligi kerak edi. Xullas, shartnoma tuzilganidan so'ng Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, Rossiya davlatiga tobeligini tan oldi. Amirlikdan tortib olingan hududlarda Zarafshon okrugi tuzilib, unga general-mayor Abramov boshliq etib tayinlandi. Bu esa vatanparvar, hur fikrli odamlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. Xatto amirning o'g'li Abdumalik Katta to'ra va bir necha nufuzli beklar birlashib, Muzaffarxon va chorizm istilochilariga qarshi kurashni davom ettirdi. Ular amirning taxtdan mahrum etilganini e'lon qilib, Shahrisabz va Kitobda katta kuch to'pladi. Kitob va Shahrisabz beklari Jo'rabek va Bobobek Katta to'rani xon deb e'lon qildilar. Natijada amir Muzaffarxonning ahvoli nihoyatda og'irlashdi. Ota-bola qo'shinlari O'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda amir sarbozlari yengildi.

1868 yilning kuzida Buxoro amiri Muzaffar o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun general-gubernator nomiga maktub yo'lladi. Kaufman bu maktubdan shuni angladiki, amirning o'g'li Abdumalik otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Qarshi atrofida katta kuch to'plagan. Kitob begi Jo'rabek, Shahrisabz hokimi Bobobek va Sulton Sodiq Kenisarov otryadlari shahzoda armiyasi tayanchlari ekan. Chor qo'shinlariga qarshi ilgarilari ham bir necha bor qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatgan Sulton Sodiq Kenisarov 1868 yilda Buxoro amiri qo'shini safida Kaufmanga qarshi kurashdi. Zirabuloqdagi jangda amir qo'shinlari bilan qochganida, Sodiq o'z yigitlari bilan jang maydonida qoladi. Keyin u Kaufman bilan sulh tuzgan amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga qo'shilib, Kitob begi Jo'rabek va Shahrisabz begi Bobobek sarbozlari safidan joy oladi.

Kaufman bunday xavfli dushmanlarga qarshi tajribali general Abramovni yuboradi. Qo'zg'olonchilar Qarshi ostonasida rus qo'shinidan yengilib, turli tomonlarga tarqab ketadi. Jo'rabek va Bobobek Shahrisabz va Kitobga qochdilar. 1870 yil 14 avgustda Kitob shahri shiddat bilan qo'lga olingach, Jo'rabek va Bobobek Qashqar tomon yo'l oldilar. Ular Mahram ostonalaridagi Qo'qon sarbozlari tomonidan hibsga olinadi va Xudoyorxon amri bilan Kaufmanga topshiriladi. General Kaufman esa ularni o'z hizmatiga olib rus qo'shini zobitlari unvonini beradi. Sulton Sodiq esa Qizilqum orqali Xiva xonligi xududiga o'tib ketadi. Buxoro amiri Kaufman bilan tuzilgan sulh shartnomasiga ko'ra Samarqand hamda Kattaqo'rg'ondan ajrabgina qolmay, o'zining siyosiy mustaqilligidan ham mahrum bo'ladi. Buxoro amiri rus saltanatining vassaliga aylanib, mamlakat Rusiya saltanati qaramligidagi yurtga-yarim mustamlaka ahvoliga tushib qoladi.

Chor Rossiyasining hukmron doiralari Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi yerlarida tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligini O'rta Osiyodagi harbiy operatsiyalar uchun tayanch markaziga aylantirib istilo tig'ini Xiva xonligiga qaratishdi. 1872 yil oxirlarida peterburgdagi harbiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga usil-kesil qaror qilindi. Rossiyaning tajovuzkor niyati Xiva xoni va amaldorlariga sir bo'lmagan. Muhammad Raximxon 2 ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so'ragandi. Angliya hukmron doiralari Xiva mustaqilligini saqlab qolishdan manfaatdor bo'lsalar ham Rossiya bilan ochiq to'qnashuvdan xavfsirar edi. Xiva endi o'z kuchiga ishonib ish ko'rishi lozim edi. Xonlik qo'shinida 27 eski zambarak, 2 ming otliq, 4 ming navkardan iborat harbiy kuch bo'lib, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi. Rossiya qo'shini ham son ham sifat jihatidan va harbiy qurol-yarog'lar texnikasi bilan ham Xiva qo'shinidan ustun edi. Turkiston otryadiga general Kaufman (22 rota, 1800 kazak va 18 to'p) qo'mondon bo'lib, Orol flotiliyasi ham uning ixtiyorida edi. Kaufman yurish oldidan Xivani siyosiy jihatdan yakka qo'yish uchun Buxoro amiri va Qo'qon xoniga taxdidli maktub yo'llab, ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqiradi.

Xiva xoni masalani tinch yo'l bilan hal qilishga uninishlari behuda ketgach, harbiy

kengash chaqirib mudofaa rejalarini tuzadi va dushmanga qarshi o'z lashkarboshilarini safarbar etadi. General Veryovkin Qo'ng'irotda yurish qilib talofatlar berib bo'lsada Xo'jayli va Mang'it qal'alarini ishg'ol qildi. Keyinchalik Xazorasp ham egallandi. 1873 yil 29 may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldi. Muhammad Raximxon Xivani mavjud kuchlar bilan mudofaa qilib bo'lmasligiga ko'zi yetib turkman ovuliga ketishga majbur bo'ldi. U Xivaga qaytib kelguncha bosqinchilar saroyini talab, barcha qimmatbaho buyumlarni, 300 ta qo'lyozma asarni Peterburgga jo'natdilar.

1873 yil 12 avgustda Gandimiyon qishlog'ida Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan general Kaufman o'rtasida sharmandali sulh bitimi imzolandi. 18 moddadan iborat bu bitim imzolanishi tufayli Xiva xonligi o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotdi. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, xonlik zimmasiga 2 million so'mlik tovon to'lash majburiyati yuklandi. Ruslarga qarshi janglarda shijoati va vatanparvarligi bilan tanilgan Muhammad Murodbegi va Rahmatulla yasovulboshilar Xivadan surgun qilinishi belgilandi. General fon Kaufman muzokaralar bilan bir vaqtda, erksevar turkmanlarni jazolash uchun general Golavachyov qo'mondonligidagi katta kuchni safarbar qiladi. Piyodalar, otliqlar, to'p va raketalar bilan qurollangan Golavachyov jazo korpusining "Bekovich xuni uchun" deya qilgan yaxshiliklari rus harbiy idoralari hujjatlari va mahalliy muarrixlar bitiklarida saqlanib qolgan.

Sulx bitimida Amudaryo va Orol dengizi suvlarida rus kemalari boj to'lamasdan bemaolol yurishi, Buxoro va Xiva kemalariga esa bunday huquqlar rus hukmdorlari ruxsati bilan berilishi qonunlashtirildi. Rus savdogarlari xonlik hududida hech qanday boj to'lamasdan erkin harakat qilish, savdo-sotiq ishlarini olib borish huquqiga ega bo'ldilar, ular boj to'lovlarisiz Xiva xonligi hududi orqali boshqa davlatlarga ham o'tish huquqiga ega bo'ldilar. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Petro Aleksandrovskiy qo'rg'oni (hozirgi To'rtko'l) qurildi. Shunday qilib O'rta Osiyo xonliklari o'z mustaqilliklarini qo'ldan boy berib, chor Rossiyasi tarkibidagi qaram bir davlatga aylandilar.

7-mavzu: Chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlaka ma'muriy boshqaruv tizimi va milliy siyosati

(2 soat ma'ruza)

Reja

1. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.
2. Podsho Rossiyasining Turkistondagi ma'muriy-boshqaruv siyosatining mustamlakachilik mohiyati.
3. Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha nizomlar va ularning mustamlaka tizimini mustahkamlashdagi ahamiyati.

Chor ma'murlari Turkiston o'lkasida qattiq mustamlakachilik siyosatini olib bordilar. Sovet davri olimlari «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilganligini jahonshumul tarixiy ahamiyati»ni yaqin-yaqinlargacha isbotlashga urindilar. Bunday olimlar o'z g'oyalarini asoslash uchun Rossiya bosqinidan so'ng o'lkada ishlab chiqarish kuchlari tez rivojlanib ketdi, kapitalistik munosabatlar shakllana bordi, sanoat korxonalari vujudga keldi, temir yo'llar qurildi, fan-madaniyat o'sdi, mahalliy xalqlar o'z taqdirini Rossiya xalqlari bilan bog'lادilar, Turkiston Rossiyaning bir tarkibiy qismi bo'lib qoldi va hokazo deb isbotlamoqchi bo'ldilar.

Ularning fikricha bu «progressiv oqibatlar» qatoriga iqtisodiy turmushning tartibga solinishi, savdo yo'llarida xavfsizlik ta'minlanishi, muayyan tartibning qaror topishi, temir yo'llar qurilishi, har qanday sanoat rivojini zarur sharti bo'lgan jahon bozoriga chiqishi, shaharlarning ko'payishi, qishloq ho'jaligida, madaniy hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lishi va hokozalar kirgan.

Bu xulosalarni tahlil qilganda Rossiya hukumati O'rta Osiyoni bosib olishni rejalashtirganda va uni amalga oshirishga kirishganda o'zining mustamlakachilik manfaatini

emas, balki o'lkada yashab kelayotgan musulmon xalqlarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yganmidi? degan haqli savol tug'iladi. Yo'q, albatta. Hamma mustamlakachi davlatlar singari Rossiya bosqinchilari ham bizning vatanimizni bosib olish, uning boyliklarini talon-toraj qilish, xalqlarini qul qilish kabi jirkanch niyatlar bilan yashab kelgan edilar. Rossiya Turkiston istilosidan so'ng Petr I vasiyatini bajarib, jahonning eng yirik imperiyalaridan biriga aylangandi.

Rossiya saltanati jahonning qudratli davlatlari Angliya, Fransiya, Germaniya imperiyalari qatori ulkan mustamlakachi davlat edi. Rossiya o'z mustamlakalari hududi jihatidan Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani orqada qoldirib ketgandi. Angliya mustamlakalari 13 million kvadrat kilometr, Fransiyaniki 11 million kvadrat kilometrni tashkil qilsa, Rossiyaning birgina Sibir mustamlakasi hududi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilardi. Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi hududi esa kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avtro-Vengriya imperiyalari maydoniga teng bo'lgan.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va amaliyoti uning bu o'lkada o'z davlatchiligini joriy etish orqali olib borildi. Butun bir boshliq mustaqil Qo'qon xonligi davlati yo'q qilinib bir viloyatga aylantirildi, Turkistonda milliy davlatchilikka barham berildi. Podshohlik Rossiyasi o'zining boshqaruv tizimini joriy etdi. Ammo imperiyaning bu o'lkada o'rnatgan ma'muriyati uning tasarrufidagi boshqa o'lkalar boshqaruvidan o'zining keskin harbiy-mirshablik ruhi bilan ajralib turgan. Mustamlakachi hukumat Turkiston boshqaruviga oid ko'plab qonunlar loyihalarini (1865, 1867, 1873, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916) ishlab chiqdi va ularni tasdiqladi, hayotga tadbiiq etdi. Bu qonunning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgartirishlarda Turkistonni boshqaruvidagi harbiy-mirshablik ruhi aniq o'z ifodasini topgan.

Turkistonda imperiyachilik boshqaruvining mustamlakachilik xarakteri birinchi general-gubernator Konstantin fon-Kaufman tomonidan ifodalangan. U 1868 yil 22 yanvarda Toshkent shahar aholisi bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqida ruslarni O'rta Osiyo xalqlarining katta og'asi deb atagan, Turkistonda rus hokimiyatining mustahkam va doimiy o'rnamashganligini alohida uqtirib o'tgan edi. Kaufman 1868-1876 yillarda o'lkadagi harbiy yurishlarga bosh-qosh bo'ldi va bu yurishlar uning nomini Turkiston o'lkasining omadli zobiti va istilochisi sifatida mashhur qildi.

Kaufmanning hukmronligi davrida Turkiston general-gubernatorlik boshqaruvi uning shaxsiy istibdodi asosida amalga oshirilgan. Mahfiy maslahatchi F.Girs qayd etganidek, general-gubernatorning hokimiyati, qonun bo'yicha ish ko'rilishini taqozo etgan bo'lsa-da, amalda o'zi hohlagancha amalga oshirildi. General-gubernator o'lkadagi hokimiyatning yagona boshqaruvchisiga aylangan edi. Hokimiyatni bunday tartibda markazlashtirish oqibatida ishlar qonun asosida emas, aksincha, general-gubernatorning ko'rsatmasi asosida amalga oshirila boshladi.

1865 yilda Toshkent shahri qo'lga olinganidan keyin, mustamlaka sharoitidan kelib chiqqan holda, Sirdaryo hududi hamda 1864 va 1865 yillarda yangidan qo'lga olingan yerlar hisobiga Orenburg general-gubernatoriga buysundirilgan Turkiston viloyati tashkil etilgan edi.

1867 yil 14 iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan xududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risida farmon e'lon qildi. General K.P.Kaufman Turkiston okrugi qo'mondoni va general-gubernatori qilib tayinlandi. Unga podsho juda katta vakolatlar berdi. Imperatordan olgan «Oltin yorliq»qa muvofiq fon Kaufman biror davlatga qarshi urush e'lon qilishi, diplomatik aloqalar olib borishi yohud sulh tuzishi mumkin edi. Ayni vaqtda Kaufman moliyaviy hamda iqtisodiy masalalarda ham mustaqil hukmdorlardek keng huquqlarga ega bo'lib, faqat podshogagina hisob berardi. Ko'p o'tmay harbiy ma'muriyatdan tashqari fuqarolik, ma'muriy ishlar ham unga to'la bo'ysundirildi. Shu bois ham fon Kaufmanni mahalliy xalq «yarim podsho» deb atardi.

Viloyatlarning harbiy gubernatorlari va uezd boshliqlari ham o'z ixtiyorlaridagi harbiy qismlarning qo'mondonlari bo'lishgan. Shu tariqa, «harbiy xalq boshqaruvi»dagi harbiy

hokimiyat chor zobitlari va generallari qo'lida jamlangan edi. «Xalq boshqaruvi» - volost boshqaruvlari, yuzboshi-oqsoqollar, «xalq sudyalari» - qozilar aholi tomonidan nomigagina saylanar, aslida ular general-gubernator tomonidan tayinlanar edi.

General-gubernatorlik markaziy o'lka boshqaruvida Turkistonda mutlaq hokim bo'lgan. Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat edi. Turkiston general-gubernatori o'z qo'lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o'zida u podsho noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror vazifalarini ham o'tagan. Unga Buxoro amiri va Xiva xoni ham buysungan.

Bosh boshqarmaning ijroiya organi bo'lgan general-gubernator mahkamasi dastlab to'rt bo'limdan iborat edi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat ishlarini boshqargan. Ikkinchisi bosh boshqarmaning moliyaviy-xo'jalik ishlariga qaragan. Uchinchi bo'lim soliqlar, shaharlar mablag'lari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash bilan shug'ullangan. To'rtinchi bo'lim esa maxsus bo'lim hisoblanib, uning faoliyat doirasi g'oyat keng va serqirra bo'lgan. 1886 yilgacha mustaqil ish ko'rgan bu bo'lim harbiy va adliya vazirlari ko'rsatmalaridan mustasno ravishda sud qarorlarini ham qayta ko'rish huquqiga ega bo'lgan.

Turkiston o'lkasi markaziy bosh boshqarmasi tarkibida general-gubernatorga bo'ysunmaydigan markaz vakillari - adliya, moliya va davlat mulklari vazirliklari ham bo'lgan.

Turkiston general-gubernatorligi 1890 yillarga kelib besh viloyatga (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti) bo'lindi.

Podsholik Rossiyasining Turkistondagi asosiy tayanch ma'muriy va majbur qiluvchi tashkiloti - bu politsiya idorasi edi. U juda katta vakolatlarga ega bo'lgan. Politsiya ma'muriyati mustamlakachilik qonun-qoidalariga amal etishni nazorat qilar, mahalliy xalqning istalgan shubhali shaxsni istalgan paytda hibsga olar edi. Ana shu politsiya tuzumiga suyangen podsho hukumati Turkiston o'lkasi idorasini eng quyi bo'g'inidan oliy bo'g'inigacha o'z qo'lida tutgan. General-gubernatorning o'zi bosh mirshab vazifasini o'tagan. Hokimi mutlaq general-gubernator o'lkadagi istagan odamini, xoh o'zbek, xoh rus bo'lishidan qat'i nazar, imperiyaning chekkalariga 5 yil muddatga surgun qilish huquqi qonunan mustahkamlangan edi. U harbiy bo'lmagan fuqarolar ustidan harbiy sudlar hukmini tasdiqlashdek ichki ishlar vaziri vakolatlarini ham o'z qo'lida jamlagan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari, uezd, volost pristavleri ham politsiya generallari va zobitlari vakolatlariga ega bo'lganlar.

Mustamlakachilik ma'muriyatining muhim huquqiy bo'g'ini sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, sudlar va xalq sudlaridan tashkil topgan. Ularning birinchisi sof mustamlakachilik shaklida bo'lsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi qozilik idorasi edi. Sudlar hududiy bo'linishga ko'ra, tuman sudlari, xalq palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, dunyoviy masalalar bo'yicha ish yurituvchi sudlar qurultoylari, harbiy sud komissiyalaridan iborat bo'lgan.

1886 yildagi «Nizom»ga ko'ra mavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O'lkada viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat prokurori va uning yordamchisi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etildi.

Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan ishlar ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini ag'darish maqsadida harakat qilgan siyosiy «jinoyat»chilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi.

Rus imperiyasi Davlat Kengashi tomonidan sud islohoti tizimlari 1893 yil 2 iyunda tasdiqlandi. Toshkent shahrida sud palatasi, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlarida bittadan okrug sudlari ta'sis qilindi.

1899 yil 14 may Toshkent sud palatasining tantanali ochilish marosimi bo'ldi. U o'lkaning barcha sud organlari faoliyatini boshqarar va nazorat qilar edi.

Chor hukumatining siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha fuqarolik ishlari shariat va biy sudlariga topshirilgan edi. Mustamlakachilar shariat qonun-qoidalaridan istibdod negiziga

qurilgan o'z tuzumlarini o'lkada barqaror qilishda unumli foydalanganlar. Shu maqsadda uni uch xil qilib tuzishgan. Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Yettisuv viloyatlarining o'troq aholisi uchun qozilar sudi, shu viloyatlarning ko'chmanchi aholisi uchun biy sudlari hamda Kaspiyorti viloyati uchun maxsus xalq sudlari faoliyat ko'rsatgan.

Avval Toshkentda, so'ngra boshqa shaharlarda shahar dumaslari tashkil etildi. 1877 yilda maxsus Muvaqqat komissiya tuzilib, saylovlar, saylovchilar mulkdorlik darajasiga qarab uch toifaga ajratildi. Bunda shahar ziyolilari, ishchilar va hunarmandlar yetarli miqdorda mulki bo'lmaganligi uchun saylov huquqidan mahrum etildi. Shahar dumasidan ruslar uchun noiblarning uchdan ikki qismi miqdorida o'rin ajratildi. Shuningdek, shahar boshqaruvi faoliyatini nazorat qiluvchi viloyat idorasi ham tuzildi. Uning raisi Sirdaryo harbiy gubernatori edi. 1888 yilda rus imperatori Toshkentni boshqarish ishini ma'qullagani holda uni nazorat qilishni general-gubernatorga topshirdi. Ichki ishlar vaziri huquqi harbiy okrug qo'mondoni zimmasiga yuklandi. Duma oqsoqoli harbiy vazir tomonidan tayinlanardi.

Toshkent shahar dumasining oqsoqoli vazifasini 1877 yildan 1907 yilgacha shahar boshlig'i - hokim to'raning o'zi boshqargani ham mustamlaka ma'muriyatining qiyofasini ko'rsatib turibdi.

Rossiya imperiyasida amalda bo'lgan shaharga oid ikkita nizom (1870, 1892 yilgi) Turkistonda faqat Toshkent va Yettisuvdagi Verniy (hozirgi Almati) shaharlarida qo'llanilib, boshqa shaharlarda joriy etilmadi. Rus ma'muriyati Toshkent tajribasi «bu chorani Turkiston o'lkasidagi boshqa shaharlarga qo'llashning foydasi haqida fikr yuritishga erta» degan tahqiromuz xulosaga kelgan edi. Shahar ma'muriy-politsiya tartib qoidalari asosida boshqarildi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1870 yilda Toshkentda 80 mingga yaqin aholi yashagan. Ulardan 7 mingga yaqin kishi dehqon, 6 ming kishi hunarmand, 4 ming kishi savdogar, 4 ming kishi mardikor bo'lgan.

O'tgan asrning oxirlarida Toshkentda 20 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta hammom, 15 ta karvonsaroy, 11 mingta loy suvoqli paxsa uylar bo'lib, shahar aholisining soni tobora oshib borgan. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy markazi bo'lgan Toshkent shahri o'lkada madaniy hayotining asosiy o'chog'i hisoblangan.

Chor mustamlakachilari qishloqlarni boshqarishda 1867 yilgi Turkiston general-gubernatorligining viloyatlarni boshqarish haqidagi «Vaqtli Nizom-loyihasi» deb atalgan xujjatlar majmuasiga amal qildilar. Unga ko'ra ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqollar) boshqaruv tizimi joriy etildi.

Volost asosini ming xonadondan ikki ming xonadongacha, ovul jamolarini esa yuz o'tovdan ikki yuz o'tovga qadar aholi tashkil etgan. Chorizm bu o'zgarishlar bilan ko'chmanchi aholining urug'chilik asosidagi tarixiy bo'linishini bekor qildi.

1886 yilda kuchga kirgan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» bo'yicha o'troq aholining bir bosqichli boshqaruvi ikki bosqichga aylantirilib, oqsoqollar volostlarga birlashtirildi. Ovul jamoalari va oqsoqollar vakillari yig'ini barcha saylovchilar yig'ilishi bilan almashtirildi.

Shaharlar o'zlarining tutgan mavqeiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy markazlar vazifasini bajarar edi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Ashxobod o'lkani yirik shaharlari edi. Bundan tashqari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan Chimkent, Jizzax, Qarshi, Termiz va Kattag'o'rg'on kabi shaharlarda iqtisodiy hayot rivojlana bordi.

Bosqinchilarning O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantirishlari natijasida yangi shaharlar ham paydo bo'ldi. Jumladan, Kazalinsk, Petro-Alekandrovsk, Skobelev, Chernyaevka kabi shaharlar shu tariqa vujudga keldi. Bosib olingan shaharlarda ruslar uchun maxsus ajratilgan manzilgohlar paydo bo'ldi. Shaharlar ikki qismga bo'linib, biri eski shahar (mahalliy aholi yashaydigan qism) va ikkinchisi yangi shahar (ruslar yashaydigan qism) deb ataladigan bo'ldi. Masalan, Toshkentning rus qismini tashkil qilish uchun maxsus qo'mita tuzildi. Rejaga kirgan joylardan mahalliy aholiga mansub yuzlab oilalar zo'ravonlik bilan ko'chirildi. Ularga yangi

hovli, yer olish uchun yordam berilmadi. Hovlilar buzib tashlanib, Yevropa va rus muhitidagi toifalar bo'yicha zobit va amaldorlar uchun uylar, oromgohlar, keng ko'chalar qurildi. Eski shaharning, ya'ni o'zbeklar yashaydigan qism aholisning mustamlakachilar yashaydigan shahar qismiga o'tishi qat'iyon taqiqlandi. Toshkentning yangi shaharini bunyod etish uchun katta mablag' talab qilinardi. Bu mablag'lar ko'proq eski shahar aholisi daromadi hisobidan qoplanardi.

Shaharlarni ruslashtirish va rus aholiga qulayliklar yaratish maqsadida Seriopol, Kopol, Toshkent, Xo'jand, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Petrovsk, Kazalinsk kabi shaharlarda savdo-sotiq, sanoat va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi rus fuqarolariga juda ko'p imtiyozlar berildi. Ayni choqda musulmonlarning ulardan har tomonlama kuchayib ketmasligi choralari ko'rib borildi.

Chor mustamlakachilari yer egaligi va suvdan foydalanish masalalarini hal etishga dastlabki davrda to'g'ridan-to'g'ri yordamlashmadilar. Chorizm istilo qilgan vaqtda o'lkadagi yer-suv davlat mulki, vaqf va xususiy mulkdan iborat bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik yuritishning asosiy tarmoqlari hisoblangan. Sun'iy sug'oriladigan yerlar dehqonchilik rivojlanishida asosiy negiz edi. Shuning uchun dehqonchilikni rivojlantirishda irrigatsiyaning ahamiyati juda katta bo'lgan. Irrigatsiya rivojlanishida miroblar alohida o'rin tutganlar.

1873 yilda general fon Kaufman rus podshosiga Turkistonda yerga egalik tuzilishini o'zgartirish loyihasini taqdim etdi. Loyihaga ko'ra amlok yerlar uni ishlatib turgan odamlar tasarrufiga o'tishi lozim edi. Bu qoidani vaqf yerlariga ham joriy qilish to'g'risidagi loyiha taklifi esa rad etildi. Ammo fon Kaufman o'z so'zida qat'iy turib oldi. U ma'suliyatni o'z zimmasiga olib, yer masalasiga doir bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, yer haqiqatda kimning qo'lida ekanligini e'tiborga olish to'g'risida farmoyish beradi. Shunga muvofiq juda ko'p yerlar davlat hisobiga o'tkaziladi. Ayni choqda mulkiy yerlarga va hatto vaqf yerlariga ham soliq joriy etiladi. 1886 yilda Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizomga muvofiq yer munosabatlariga doir bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad mahalliy boy-zodagonlarni zaiflashtirish va mustamlakachilar hokimiyatini kuchaytirish edi. Yer munosabatlari sohasidagi tadbirlarning asosiy natijasi shu bo'ldiki, boy yer egaligi tugatildi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko'zlangan bosh maqsad va asosiy yo'nalishlarini Davlat mulklari va zirotchilik vaziri A.V.Krivoshein shunday ifodalagan; «Bu Markaziy Osiyo masalasida uch lavha mavjud. Agar birinchisiga yarqirab turgan yozuv «Paxta» bo'lsa, ikkinchisida «Sug'orish» va nihoyat, uchinchisida soyalanib turgan bo'lsa ham aslida hammasidan muhimi «ruslarni keltirib o'rnashtirish» yozuvi turibdi». Podsho vaziri markazning Turkistondagi mustamlaka siyosatining asosiy yo'nalishlarini juda lo'nda, ya'ni «paxta», «sug'orish», «ruslarni ko'chirib keltirish» kabi uch so'zda ifodaladi.

Chor ma'murlari Turkiston o'lkasida olib borgan mustamlakachilik siyosatlarida o'z oldilariga bosh maqsad qilib ruslashtirish siyosatini qo'ydilar. Bu boradagi eng muhim va boshlang'ich qadam Rossiya hududlaridagi xalqlarni Turkiston yerlariga ko'chirishdan iborat bo'ldi. 1869 yildayoq Yettisuvdagi dehqonlar manzilgohlari to'g'risidagi qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu qoidalar ruslarning turkistonlilar yurtiga ko'plab ko'chib kelishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berardi. 1868-1882 yillarda Yettisuvda har birida 250 aholi bo'lgan 29 rus qishlog'i tuzildi. Shu davrda Sirdaryo viloyatida bunday qishloqlar 19 ta bo'lib 1300 aholini o'z qamroviga olardi. Xususan 1891 yildagi Russiyada ro'y bergan ochlikdan so'ng Markaziy Osiyoga bamisoli vabodek yopirilib kelayotgan rus oilalari oqimi kuchaydi. 1906 yilda o'lkaning besh viloyatida 451 ming tanob yerga ega bo'lgan 136 rus posyolkalari paydo bo'ldi. Har bir xo'jalikning tomorqasi 34,5 tanobdan iborat edi. Turkistondagi eng yaxshi yerlarga egalik qilgan bunday rus xonadonlari 1916 yilga kelganda 2.659 ming desyatina yerni o'zini qilib olgan 336 ming oiladan iborat edi. Bu o'lka umumiy aholisining 4,5 foizini tashkil etardi. Bundan tashqari 14 million desyatina yer bevosita davlat xazinasi ixtiyoriga olindi. 190 ming desyatina yerni esa rus plantatorlari va pomeshchiklari O'zlariniki qilib oldilar. Eng katta yer egasi bo'lgan podsho Nikolay II ning birgina Murg'ob vohasidagi yerlari 104 desyatina teng edi.

1886 yilda chor hukumati yer islohoti o'tkazdi. Mustamlakachilik xarakteridagi bu yer islohoti natijasida barcha serunum va sug'oriladigan yerlar boylar va zamindorlar qo'lga o'tib ketdi, kambag'al dehqon xo'jaliklari yanada qashshoqlashdi va xonavayron bo'ldi. 1889-1893 yillarda bunday xonavayron bo'lgan dehqonlar o'z bisotlaridagi 15.588 desyatina yerni sotib yubordilar.

AQShdan paxta olishdan deyarli mahrum bo'lgan Rossiya hukumati bu qimmatli xomashyoga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojnini asoratga solingan Turkiston hisobidan qondirishga asosiy diqqat-e'tiborini qaratdi. 1869 yili «Rus sanoati va savdosi o'sishiga yordam berish jamiyati» kengashida I.N.Raevskiy «Rossiya va unga qo'shni Sharq mamlakatlarida paxtachilikni rivojlantirish» mavzuida ma'ruza qiladi. Ma'ruzachi Rossiyaga Markaziy Osiyo va boshqa paxtakor joylardan xom ashyo keltirilishi har jihatdan foydali va qulayligini isbotlab beradi. Uning ta'kidlashicha, Rossiyaga jami 3 088 285 pud (42 710 136 so'mlik) paxta keltirilgan bo'lib, shundan 639 ming 192 pud (5 972 491 so'mlik) paxta sharq o'lkalaridan olib kelingan ekan. Bu Rossiyaga keltirilgan paxtaning 21 foizini tashkil etgan. Albatta ko'p miqdordagi paxtani harid qilish uchun millionlab so'm mablag' sarflangan. Rossiyada savdo floti bo'lmaganidan paxta Yevropa mamlakatlari floti va temir yo'llarida olib kelingan, natijada ulovidan tushovi qimmatga tushgan.

Markaziy Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish Rossiya uchun katta foyda ekanini I.N.Raevskiy alohida uqtirib o'tadi. U mahalliy g'o'za navlarining nuqsonlarini gapirib, uni Amerika navlari bilan almashtirishni tavsiya qiladi. 1871 yili I.V.Raevskiyning shaxsan o'zi Toshkentga kelib Amerika paxtasini iqlimlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshiradi. Samarqandda Amerika paxtasi navini ekadi. Toshkentda Amerika paxtasini 1875 yili birinchi bo'lib ekkan kishi Mulla Yo'lchi To'ychiboevdir. Xorijiy paxta navi urug'i Buxoro xonligida, shuningdek, 1878 yilda Andijon, Namangan, Qo'qon va Marg'ilonda ham qadalgan.

XIX asrning 80 yillariga kelib, Amerika paxtasi urug'lari orasida «Upland» navi mahalliy sharoitda sifatli va ko'p hosilli bo'lib chiqdi va to'qimachilik sanoati talablariga har jihatdan mos tushdi. Vaqt o'tishi bilan dehqonlar Amerika paxtasi navi ekilgan maydonlarni oshira borganlar. 1884 yili horijiy navlar 300 desyatina yerga ekilgan bo'lsa, 1890 yilga kelib 58859 desyatini tashkil etgan. Amerika va «malla g'o'za» navidan olingan tola 1890 yilda 2 million pudga, 1896 yilda 2 665 337 pudga yetadi. Tolaning asosiy qismi Amerika paxtasidan olingan. Paxta, asosan Farg'ona vodiysida yetishtirilgan. Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida ham bu qimmatbaho xom ashyo navlari ekilgan. 1900 yilga kelib paxta ekilgan maydon 257 501 gektarni tashkil qilgan.

Turkiston o'lkasida Amerika paxtasining muvaffaqiyatli iqlimlashtirib borilishi va sanoat talablariga mos tushish rus sanoati korxonalari egalarini, savdo ahlini, harbiy xizmatchilarni, qo'yingki, puli bor barcha korchalonlarni hayajonlantirib va shoshirib yubordi. Ular o'lkaga kelib, bevosita paxtachilik bilan shug'ullanishga va paxta zavodlari ochishga kirishdilar. Ular shu tariqa mo'may daromad ketidan quvib, boyligiga boylik qo'shishga mukkasidan tushdilar. Puldor odamlardan Turkiston ma'muriyati nomiga paxta maydonlarini kengaytirish, paxta zavodlarini ochishga ruxsat so'rab yozilgan arizalar birin-ketin tusha boshlaydi. Rossiyada «paxta vasvasasi» avjga minadi. Natijada, o'lkada rus paxta maydonlari va paxtachilikka bog'liq zavodlar miqdori ortib bordi.

XIX asr oxirida, Toshkent shahri atrofida ruslarga qarashli paxtazorlar 4000 desyatina yerni egallab, bu umumiy maydonning 20 foizining tashkil etardi. Masalan, savdogar Belyakov 620, Yaraslavldagi katta to'qimachilik korxonasi 400, tijoratchi Tarsin 200 desyatina yerda dehqonchilik qilgan. Farg'ona vodiysida rus paxta maydonlari 500 desyatina yerni tashkil etgan. 1890 yilda Samarqand viloyatining Xo'jand uezdida Kudrin firmasi va boshqa kishiga tegishli 300 desyatina yerda Amerika paxtasi yetishtirilgan. Hatto o'lkani bosib olishda jonbozlik ko'rsatgan general-mayor Abramovning Samarqandda shaxsiy paxta maydoni bor edi.

Paxta maydonlarida mardikor va chorikorlar ishlatilgan. O'lkani bosib olgan ruslar endi yerli xalqni xo'jayin sifatida o'z yerida ekspluatatsiya qila boshlagan. Paxtachilik rivoji chor hokimiyati xazinasini boyita bordi. XIX asr oxirida boshlangan paxta yakxaxokimligi keyingi

yillarda tobora mustahkamlana bordi. O'rta Osiyo temir yo'lining Andijonga yetkazilishi, Toshkent-Orenburg temir yo'li qurilishiga ham asosan paxtani o'lkadan ko'proq tashib ketish sabab bo'lgan.

Chor hukumati yerning izdan chiqishiga qaramay, paxtachilikni kuchaytirishni o'z vakillaridan talab qilaverdi. Bu xususda Rossiya dehqonchilik noziri Krivoshein shunday degan edi: «Turkistonning har bir pud g'allasi Rusiyaga, rus va Sibir g'allasiga raqobatdir, ortiqcha har bir pud Turkiston paxtasi esa Amerika paxtasiga raqobatdir. Shuning uchun o'lkaga qimmatga tushsa ham g'alla keltirib berish lozimdir». Paxta yakkahokimligini o'rnatish haqidagi bunday g'oyani Turkiston general-gubernatori qo'llab-quvvatlab, bu tadbir hukumatga yiliga 70 million oltin rublni tejashga imkoniyat yaratishini uqtiradi. Bundan chiqqan ma'no shuki, agar Turkiston diyorida g'alla ko'p ekilsa, Rossiyadan keltirilayotgan g'allaga nisbatan talab kamayib, ziyon ko'riladi. Demak, qancha ko'p paxta ekilsa, Rossiya g'allasiga ehtiyoj shuncha oshib boraveradi. O'z navbatida bu Rossiyaning ulovidan tushovi qimmatga tushayotgan Amerika paxtasiga bog'liq muammolarni ham bartaraf etardi.

Rossiya hukumati Turkiston o'lkasida sanoat korxonalari qurgan bo'lsa, u hech qachon og'ir industriya tarmoqlarini yaratishga intilgan emas. U asosan o'z manfaatini nuqtai-nazarini uylab xom ashyo mahsulotlariga birinchi ishlov beradigan yengil-sanoat korxonalarini qurishga e'tiborni qaratgan. Paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, vino, pivo zavodlari, pilla quritish korxonasi, tegirmon, bosmaxona va hakoza ana shunday korxonalardir. Agar 1880 yilgacha bunday korxonalar 21 ta bo'lsa, 1900 yilda ularning soni 195 taga yetdi. O'lkada qurilgan birinchi temir yo'l ham chor Rossiyasining bosqinchilik manfaatlarini ko'zlagan. 1880 yilda boshlangan chor ma'murlari uchun g'oyatda og'ir bo'lgan Axaltaka urushi Rossiyani Kaspiyorti temir yo'lini qurishga majbur etdi. Mixaylovskiy bo'g'ozidan to Qizil Arvotgacha bo'lgan temir yo'l qurilishining birinchi navbati 1881 yil 1 sentabrgacha qurib bitkazildi va 20 sentabrdan doimiy ravishda poezdlar qatnovi boshlandi. Keyinchalik temir yo'l qurilishi davom ettirilib, Ashxobodga, so'ng Samarqandga keltirildi. 1888 yil 15 mayda birinchi poezd Samarqandga keldi. 1889 yilda temir yo'l aloqalari Mari-Kushka orqali Toshkent va Andijon bilan bog'landi. 1890 yilda Rossiya hukumatining yuqori mansabdorlari o'rtasidagi uzoq fikr almashuvlardan so'ng yangi-Orenburg-Toshkent temir yo'l qurilishi boshlab yuborildi va 1905 yil 1 iyulda bu yo'ldan birinchi poezd o'tdi. Chunki Kaspiyorti temir yo'li orqali Turkiston bilan aloqa o'rnatish masofaning uzoqligi tufayli Rossiyaga iqtisodiy jihatdan qimmatga tushayotgan edi. Endi yangi temir yo'li qurilishi munosabati bilan Toshkentdan Orenburggacha bo'lgan masofa ilgarigiga qaraganda ancha qisqa muddatda-ikki kecha kunduzda, Moskvagacha esa to'rt kecha kunduzda bosib o'tiladigan bo'ldi. Har ikkala temir yo'l ham Turkiston xalqlarining manfaatlarini ko'zlab, yoki Turkistonni jahon mamlakatlari bilan bog'lash maqsadida qurilgan emas. Agar Rossiya bosqinchilari qalbida bunday olijanob niyat bo'lganda bunday temir yo'llarni u avvalo turkiy xalqlar etnik, madaniy, diniy hududiy tomondan yaqin bo'lgan va Turkiston bilan chegaradosh Afg'oniston, Pokiston, Eron, Turkiya kabi davlatlar tomon ham qurgan bo'lur edi. Yo'q. Rossiya ma'muriyati bu temir yo'llarni birinchi navbatda va asosan Turkiston o'lkasidagi xalq boyliklarini tezroq, ko'proq va mo'lroq tashib ketish maqsadi bilan qurdi. Bu borada raqamlar tiliga quloq soladigan bo'lsak masala yanada oydinlashadi. 1888 yilda Turkistondan Markaziy Osiyo temir yo'li orqali 873 ming 093 pud paxta jo'natilgan bo'lsa, 1890 yilda 2 million 673 ming 267 pud va 1893 yilda esa 3 million 588 ming 025 pud paxta Rossiyaga yuborilgan. Yoki 1888-1893 yillarda, ya'ni olti yilda Turkiston o'lkasidan 14 million 257 ming 515 pud qimmatbaho paxta xom ashyosi Rossiyaga tashib ketilgan. Bu jarayon yil sayin oshib boravergan. Faqat 1900 yilning o'zida Markaziy Osiyo temir yo'li orqali Rossiyaga tashib olib ketilgan boyliklar hajmi 5 million pudni tashkil etadi. Shundan 60 foizi paxta bo'lib qolganlari quruq meva, ipak tolasi, paxta yog'i, jun, teri va boshqa mahsulotlar edi. 1895 yilning o'zida birgina Farg'onadan Rossiyaga 3 million 399 ming 371 pud paxta, 452 ming 740 so'mlik teri, 192 ming so'mlik pilla tashib ketilgan. Temir yo'l qurilishi bilan bu sohaning ishchilari ham o'sib bordi. 1890 yilda temir yo'llarda 2778 ishchi ishlagan bo'lsa, 1894 yilda - 3222 va 1898 yilda 5044 ishchi ishlagan. Shundan mahalliy

millat vakillari 1890 yilda 728 kishini, 1894 yilda - 863 va 1898 yilda esa 948 kishini tashkil etgan.

Xullas, chor mustamlakachi ma'murlari Turkiston hududiga bosqinchilarcha qadam bosgan dastlabki kundan boshlab, yerli xalqlarga nisbatan ulug' davlatchilik siyosati olib bordilar, mamlakat boyliklarini taladilar, shahar va qishloqlarini xonavayron qildilar, zulm, zo'rovonlik asosida insoniy qadriyatlarni yerga urib oyoq osti qildilar.

8-mavzu. 1873-1876 yillardagi Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari. (2 soat ma'ruza)

Reja

1. XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligi.
2. Po'latxon qo'zg'oloni va uning bostirilishi.
3. Qo'qon xonligining tugatilishi.

Rossiya davlati Buxoro va Xiva xonliklariga qarshi bosqinchilik urushi olib borayotgan yillarda Qo'qon xonligi o'z boshidan chuqur siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy bo'hronni kechirayotgan edi. Bu vaqtga kelib xonlikning Oqmachit, Turkiston, Sayram, Chimkent, Avliyoota, Pishpak, Almati kabi viloyatlari ya'ni davlatning deyarli yarmi Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Qo'qon xonligining hududi Asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qolgandi. Xonlik hududi qisqarib ketganligi uchun ham xazinaga tushadigan mablag'i kamayib ketgandi. Xazinani to'ldirish uchun esa og'ir va xilma-xil soliq va majburiyatlar joriy etiladi.

Qo'qon xoni Xudoyorxon so'nggi 10 yillik (1865-1875) hukmdorligida xalqni ayovsiz taladi, bu davr o'g'rilik va qotilliklarga to'la bo'ldi.

Ayni shu vaqtda chor istilochilari Qo'qon xonligini tugatishga kirishdilar. Qo'qon xoni Xudoyorxon qo'rqqoq va tadbirsiz bo'lganligi uchun vatan himoyasi yo'lida biron arzigulik ish qilmadi. Aksincha chor hukumati panohida o'z taxtida o'tirishni o'ylardi, xolos. U 1868 yili chorizm bilan sulh tuzdi va amalda Rusiyaga qaram bo'lib qoldi. Xudoyorxonning bu siyosati aholining g'azabini toshirib yubordi. Buning ustiga xonning zulmi tobora kuchayib bordi. Natijada 1872 yili xalq qo'zg'oloni ko'tarildi.

1876 yilgacha davom etgan bu qo'zg'olonga Marg'ilonlik Ishoq Mulla Xasan o'g'li boshchilik qildi. 1872 yilda bir guruh norozi zodagonlar Xudoyorning qarindoshlaridan bo'lgan Po'latbekni taxtga ko'tarmoqchi bo'ladilar. U taxtdan voz kechgach, fitnachilar roziligi bilan, Po'latbek ismini olgan Ishoq Mulla g'azovotning boshida turdi. Mulla Isxoq Marg'ilon shahriga yaqin Uxna qishlog'ida tug'ilgan. Mulla isxoq dastlabki ma'lumotni Tunqotar madrasasida olgan. 1867 yili Farg'onaga qaytib kelib, So'xdagi ko'chmanchi qirg'izlar orasida 2 yil yashaydi. Keyinchalik Andijondagi masjidlardan birida imomlik qilgan, ayni paytda savdogarchilik bilan ham shug'ullangan. U soxta Po'latxon bo'lish taklifini Toshkentda qabul qilgan.

Sobiq hukmdor Olimxonning nevarasi sifatida siyosiy kurashga otlangan Mulla Isxoq Po'latbek xalqning Xudoyorxonga va Rossiyaga qarshiligini anglab, Namangan tumanidagi ko'chmanchi qabilalarning yordami bilan atrofiga 500 kishini to'plashga erishadi. Shu tariqa Po'latbek boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni boshlanib ketadi. Bu vaqtgacha ham Mamur mergan boshchiligida Andijon tumanida, Ma'mun Shoumurzoq boshchiligida Chotqolda qo'zg'olon ko'tarilgan edi. Ammo ular xon qo'shinlari yordamida bostirilgan. Po'latxon boshchiligidagi xalq harakati o'sha qo'zg'olonlarning bevosita dvomi bo'ldi.

Po'latxon o'z atrofiga qirg'iz-qipchoqlardan askar to'playdi. 1873 yilda unga Abdurahmon oftobachi (Qo'qonning sobiq hukmdori Musulmonqulning o'g'li), Xudoyorxonning to'ng'ich o'g'li Nasriddinbek (Andijon hokimi) va akasi Murodbek (Marg'ilon hokimi) kelib qo'shiladilar. Xudoyorxon soxta Po'latxonga qarshi qo'shin yuborishga majbur bo'ladi. Ikki o'rtada bo'lgan jangda qo'zg'olonchilar mag'lub bo'lib, chekinadilar. Shundan keyin Po'latxon bir guruh kishilari bilan Chotqol tog'lariga qochadi. Ko'p o'tmay u yangi qo'shin to'plab, 1875

yili O'zgandagi qo'zg'olonga boshchilik qiladi. Bu qo'zg'olonni daf etish uchun Xudoyorxon unga qarshi 4 ming kishilik qo'shin yuboradi. Ammo bu qo'shin 1875 yil 17 iyulda qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketadi. Andijon hokimi Nasriddinbek ham ertasi kuni 5 ming kishilik qo'shini bilan qo'zg'olonchilar safiga kelib qo'shiladi.

Bu orada O'sh, Namangan, Andijon, Asaka shaharlari qo'zg'olonchilar tomonidan ishg'ol etiladi. Ular Marg'ilonni ham egallab, Oltiariqqa yaqinlashadi. Qo'zg'olonni bostirishga ojizligini payqagan Xudoyorxon Rossiya imperiyasi suyanadi va fon Kaufmanga murojaat qilib, Qo'qonga rus qo'shini va zambaraklarini yuborishni so'raydi. Rossiya Xudoyorxon bilan siyosiy diplomatik o'yin olib borib, unga nisbatan makkorlik qiladi. Xudoyorxon 1875 yil avgustida o'z oilasi bilan Toshkentga, rus elchixonasi panohiga qochib boradi. U 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga Turkiston general gubernatori fon Kaufman huzuriga panoh tortib kelgan. Kaufman 40 arava xalq boyligini musodara qilib, Xudoyorxonning o'zini Orenburgga surgan qiladi. Keyinchalik xon Orenburg tutqinligidan qochgan.

Xudoyorxon Qo'qondan chiqib ketishidan oldinoq yuqori tabaqa vakillari Qo'qon taxtiga Nasriddinbekni o'tqazadilar. Lekin Rossiya hukumati uni xonligini tan olmasdan, xonlikni batamom tugatish harakatini boshlab yuboradi. 1875 yil 9 avgustda urush harakatlar boshlanib ketadi. Birinchi harbiy to'qnashuv O'rg'ozida bo'ldi. Bu yerda turgan 800 qo'zg'olonchiga qarshi polkovnik Yegashtin boshchiligidagi yaxshi qurollangan 100 askar hujum qiladi. Qo'zg'olonchilarning asosiy otryadi 14 avgust kuni rus qo'shinlari bilan uzoq kurash olib boradilar, lekin ular mag'lub bo'lib chekinadilar.

1875 yil avgusti o'rtalarida Toshkentdan qo'shimcha rus qo'shini Xo'jandga keladi. Barcha rus qo'shinlari Xo'jandda to'planadi. Bu qo'shin shaxsan fon Kaufman qo'mondonligida Qo'qon tomon yo'lga chiqadi va axram qal'asiga yetib keladi. 1875 yil 22 avgustda qattiq jang bo'ladi. Bu yerda 15 ming vatan himoyachilari bor edi. Ruslar artilleriya yordamida qal'ani zabt etadilar. Qo'zg'olonchilar Sirdaryo tomon chekinadilar. Qochganlarni ayovsiz ta'qib qilib borishgan. Qal'a zambarak o'qlari ostida 10 minutda vayron bo'ladi. Solnomalarda yozilishicha: «Mahram atrofida qo'zg'olonchilar qancha talofot ko'rganini aniq raqamlarda ifodalash qiyin. To'siqlar orqasida va Mahram qal'asi ichida 100 dan ortiq murda topilib, dafn etildi. Mahram orqasidagi maydonda kazaklarning qilichi bilan chopilgan 1000 dan ortiq murdani otryaddagi yigitlar yig'ishtirib olishib, ko'mishdi; general fon Kaufmanning qo'riqchi bo'linmasi daryo yoqalab qochayotganlarni quvib, 100 kishini qilichdan o'tkazdi. Tog'dan tushib kelib otryadlarimizga qo'shilgan chavandozlar ham ko'p qurbon berishdi. Ulardan qanchasi o'lib, qanchasi yarador bo'lgani noma'lum. Juda ko'p qo'qonliklar Sirdaryoga cho'kib ketdi. Ochig'ini aytganda, shafqatsiz qirg'in ro'y berdi, chegaramizni buzishga jur'at etib, yerlarimizga bostirib kirishgani va bizga tobe odamlarning osoyishtaligini buzgani uchun munosib intiqom olindi».

Skobelevning ma'lumotnomasiga ko'ra, jang maydonidan 2000 salla yig'ib olingan; Vereshchagin buni ikkiga bo'ladi, ammo "jang chakki bo'lmadi" deb qo'shib qo'ygan". "Biz 39 zambarak (daryoga tushib ketgan to'p bu hisobga kirmaydi) 1500 miltiq, behisob nayza, qilich, cho'qmor, 50 dan ortiq tug', bayroq, nishonlarni o'lja qilib oldik. Qal'ada o'q-dori, snaryadlar va qo'rg'oshin hamda 1910 pud un, 837 pud guruch, 320 pud jo'xori saqlanayotgan katta omborxonalar topildi, 224 ta ot qo'lga olindi. Ko'rgan talofotlarimiz; 6 kishi o'ldirildi (1 qarorgoh zobiti, 4 oddiy askar va bir yigit), 8 kishi yarador (bir qarorgoh zobiti va 7 quyi amaldagilar) bo'ldi. Dushman talofotini 1200 kishi deyish mumkin. 149 zambarak o'qi, 29 raketa va 9.387 patron ishlatildi.

Jangdan keyin Kaufman Toshkent orqali podsho nomiga g'alaba, qo'lga tushgan o'ljalar va qurbonlar soni ma'lum qilingan telegramma yuboradi: "...dushman to'la mag'lub etildi: uning xonlik aholisiga ta'siri nihoyatda katta bo'ldi, ammo Mahram jangining oqibatlari haqida oldindan bir narsa deyish qiyin. Xo'janddan kutilayotgan qo'shimcha ulov kelishi bilan Qo'qon sari harakatni davom ettiraman. Sizga tobe ulug' imperator qo'shinlari o'z shuhratiga munosib

mardona jang qildi. Vazifa a'lo darajada bajarildi».

A.I.Terentevning bergan ma'lumotiga ko'ra; Aderkas (chor zobiti) Qashqar qishlog'ida dushmanning ot-aravalari bilan kelayotgan to'dalariga duch kelib qoldi. Ko'cha butunlay chang-to'zon bilan qoplangandi. Kazaklar chang to'dasiga qarata multiqlardan o'q uzib, so'ng hujumga o'tishdi. Oqibatda to'rt bayroq, 25 multiq, behisob qilich va nayza, bir qancha ot va yuk ortilgan 10 arava o'lja olindi. Biz talofat ko'rmadik. 40 ga yaqin dushman o'ldirildi». «Dushman (Namangandagi jang tafsiloti) Skobelevning hisobiga ko'ra 3800 kishini yo'qotdi. Uch kun ichida bizning talofatimiz; quyi amaldagilardan olti kishi o'ldi, 29 kishi yarador bo'ldi, 3 zobit yaralandi».

Xullas, 29 avgustda general K.P.Kaufman boshliq rus qo'shini Qo'qon shahriga g'olib sifatida kirib keldi. Qo'qon a'yonlari Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligidan undan kechirim so'raydilar. 1875 yil 22 senyabrda Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasida olib borilgan muzokaralardan so'ng tengsiz va sharmandali bitim imzolandi. Bu bitimga ko'ra Qo'qon xoni o'zini Rossiya saltanatining quli deb tan oldi, qo'shni xonliklar bilan hech qanday aloqalar va munosabatlar qilmaslikka va'da berdi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi barcha yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tadigan bo'ldi. Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan urushda rus armiyasi ko'rgan 600 ming so'm hajmdagi zararni to'lash Qo'qon xonligi yelkasiga yuklatildi. Ayni chog'da shartnomada 1876 yil 1 noyabrdan boshlab Qo'qon xonligi Rossiya xazinasiga har yili 500 ming so'mdan to'lab borishi shart qilib qo'yildi. Bu summa besh yil davomida protsent haqini to'lash hisobidan kuchga kiradigan bo'ldi.

Qo'zg'olonning asosiy aybdori Abdurahmon Oftobachini qo'llab-quvvatlaganliklari uchun marg'ilonliklarga 125 ming tillo hajmida tovon to'lash majburiyati belgilandi. Xalqning og'ir ahvolda yashayotganligini e'tiborga olib 60 ming tilloni 1875 yil 21 oktabrgacha qolgan 65 minggini esa 1876 yil 21 oktabrgacha to'lashga ruxsat berildi. Agar Marg'ilon aholisi ushbu tovonni belgilangan muddatda to'lamasa bu oltinlar Qo'qon xonligi xazinasidan to'lattirib olinadi, deb qayd qilindi, bitimda.

Shunday qilib, Qo'qon zodagonlari mamlakatning erkini berib, faqat o'z jonlarini saqlab qoldilar, xolos.

Qo'qon xoni Xudoyorxonning qochishi, Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasidagi tengsiz va sharmandali bitim xalq ommasining yangidan katta kuch bilan qo'zg'olon ko'tarishiga sababchi bo'ldi. Bu galgi qo'zg'olon markazi Andijon edi. Qo'zg'olonchilar Po'latxon nomi bilan yurgan Ishoq mullani xon deb e'lon qildilar. Po'latxonga qarshi jo'natilgan Kaufman otryadi Andijon ostonasida mag'lubiyatga uchraydi. 1875 yil 7 oktabrda qo'zg'olonchilar xon qo'shinini tor-mor keltirib Qo'qonni egallaydilar. Nasriddinbek Xo'jandga, ruslar panohiga qochadi. 11 noyabrda Skobelev qo'mondonligidagi rus askarlari qo'zg'olonchilarga Baliqchi yaqinida zarba beradi. Terentev bu haqda shunday xabar beradi:

«...Baliqchi shahriga yorib kirib, dushman lageri egallandi. Tong otgandan keyin artilleriya shaharga o'q ota boshladi, shu zahoti Skobelev 2-yondosh batolonga qarashli 2-rota va ellikta kazak otliq o'qchilari bilan hujumga o'tdi, dushmanning chekinishiga yo'l qo'ymaslik uchun butun otliq askarlarni zambaraklar bilan shaharning orqa tomoniga yubordi. Jangga kirgan bo'linmalar uchta istehkomni majaqlagandan keyin bozorni ishg'ol qildilar va shu yerda tor ko'chadan kelayotgan qipchoqlarning katta otliq olomoniga duch kelib qoldilar... Dahshatli ur-yiqit ichida merganlarimiz do'ldek yog'dirayotgan o'qqa uchgan qipchoqlar bor-yo'g'i 20 qadam narida to'da-to'da bo'lib yiqilar, ko'cha yuzi ularning o'ligiga to'lib ketgan edi. Bu dahshatli jahannamdan bir amallab qutulib chiqqanlar narigi yonboshda poylab turgan kazaklarning changaliga tushar edi. Ularni ikki chaqirim joygacha quvib borib, hech qanday rahm-shafqat qilmay qilichdan o'tkazishdi.

Biz tomondan bir quyi amaldagi kishi o'lib, 8 ta yarador (shundan uchitasi og'ir), uch kishi kantuziya olgan edi. Skobelev dushmanning talofatini 2000 kishi deb hisoblaydi».

Skobelev yo'l-yo'lakay barcha qishloqlarga shafqatsizlarcha o't qo'yib yakson qilib olg'a siljib bordi. Ayniqsa u Andijon shahrining kulini ko'kka sovurdi. Bu haqda manbalarda shunday

yoʻzilgan: «Andijonliklar qattiq qarshilik koʻrsatdilar; ular har bir toʻsiqdan foydalanar edilar, tommlar ustidan turib oʻq otishar, koʻchalar, hovlilar, uylar, machitlar ichida yuzma-yuz olishardilar. Ularning qarshilik koʻrsatishlari oldinda hujum qilib borayotganlarni gʻazablantirar, tobora junbushga keltirardi. Bozor maydonida Skobelev kolonnasi yirik xarilardan qilingan toʻsiqqa duch kelib qoldi. Zambaraklarimiz oldinga oʻtkazildi va bir necha oʻq uzilgandan keyin dushman tumtaraqay boʻlib ketdi. Turkistonliklar beshta istehkomdan tashqari, mustahkam qoʻrgʻonchaga aylangan uylarni ham jang bilan qoʻlga kiritdilar. Nihoyat, har uchala kolonna oʻrdaga yetib keldi va saroyini isyonchilardan tozaladi. Qisqa muddatli hordiqdan soʻng manzilgohga qaytildi, darvoqe, yoʻl yoqasidagi imoratlarning hammasiga oʻt qoʻyib borildi. Old qismlar qayerda ketayotganini yongʻinga qarab bilib olish mumkin edi. Otishmalar hali tinmagan, andijonliklarning harbiy uroni-«Ur!», «Ur!» sadolari eshitilib turardi. Andijonni butunlay vayron qilish uchun general Troitskiy Skobelevga oltita zambarak berib, shaharni toʻpga tutishga, bozor va yongʻin boʻlayotgan tomonlarni nishonga olishga buyruq berdi».

9 yanvarda Skobelev vayrona va kultepaga aylangan Andijonga kirib bordi. POʻlatxon qolgan-qutgan kuchlari bilan Uchqoʻrgʻonga chekinishga ulgurgandi. 1876 yil 28 yanvarga oʻtar kechasi Skobelev tomonidan yuborilgan jazo otryadi Uchqoʻrgʻonni egalladi, barcha himoyachilar oʻldirildi. Poʻlatxon bu yerdan qochib ulgurdi, biroq tez orada Margʻilonda qoʻlga olindi.

Rus qoʻshinlarining Qoʻqon xonligiga qarshi olib borgan urush harakatlarida Xudoyorxon tomonidan general Fon Kaufmanga asir sifatida ushlab berilgan Kitob va Shahrisabz beklari Joʻrabek va Bobobek faol qatnashdilar va Xudoyorxondan «oʻch» oldilar. 1880 yili ham Joʻrabek Fargʻonadagi isyonlarni bostirishda ishtirok etadi va tez orada u yerda koʻrsatgan xizmatlari uchun «polkovnik» harbiy unvoniga sazovor boʻladi. 1884 yili polkovnik Joʻrabek 4-darajali muqaddas Vladimir ordeni bilan mukofatlanadi. 1901 yili unga «general» unvoni beriladi. 1904 yilda esa janobi oliylari unga 3-darajali muqaddas Vladimir ordenini hadya qiladi.

Bosqinchi fon Kaufman Qoʻqonda koʻtarilgan xalq harakatini bostirish bahonasida Qoʻqon xonligini batamom tugatdi. 1876 yilning 19 fevralida Qoʻqon xonligi bekor qilindi va uning oʻrniga Fargʻona viloyati tashkil qilindi. Fargʻona vodiysida vahshiylarcha faoliyat koʻrsatgan jazo ekspeditsiyasining boshligʻi general Skobelev Fargʻona viloyatining harbiy gubernatori etib tayinlandi. Xulosa shuki, oʻzbek xalqi mustaqillik uchun kurashining Poʻlatxon rahbarligidagi qoʻzgʻoloni magʻlubiyati bilan uchala oʻzbek xonligi ham rus podsholigiga toʻla qaram boʻlib qoldi. Ammo bu Fargʻona vodiysida Rossiya bosqinchilariga qarshi kurash barham topdi, degan maʼnoni anglatmaydi. Erk, ozodlik va mustaqillik kurashida boy tarixiy anʼanalarga ega boʻlgan oʻzbeklar, qirgʻizlar va tojiklar dushmanga qarshi kurashni davom ettirdilar. Bosqinchilarga qarshi kurash markazi endi Oloy togʻlari xududlariga koʻchdi. Bu yerda qirgʻiz ayoli Qurbonjon dodox oʻz oʻgʻillari bilan qurollanish boʻyicha tengsiz Chor askarlariga qarshi kurashda afsonaviy qahromonliklar koʻrsatdi. Qurbonjon dodox ayol holiga qaramasdan chor generali Skobelevni sulh muzokaralari boshlashga majbur qildi. Chunki Skobelev nopisandlik bilan tinchlik bitimini tuzish uchun Qurbonjon dodox huzuriga mayor Ionovni yuborgan edi. Magʻrur ayol Ionovni qabul qilmadi va mavqei oʻzi bilan teng boʻlgan qoʻmondon bilan muzokara boshlashga rozi ekanligini maʼlum qildi. Natijada general Skobelevning oʻzi Qurbonjon dodox bilan sulh muzokaralari olib borishga majbur boʻldi va uning talablarini inobatga olishdan boshqa chora topolmadi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman faqat 1877 yil yanvaridagina Sank-Peterburgga axborot yuborib, Fargʻona vodiysida tinchlik oʻrnatilganligidan oq podshoni voqif etib, koʻnglini tinchlantirgan edi.

Ammo bu tinchlik nisbiy xarakterda edi, xolos. Amalda dushmanga qarshi kurash davom etdi. Buni biz qirgʻiz va oʻzbek urugʻlariga mansub turli qabilalarning 1877 yil davomida ham Xudoyqul, Abdullabek, Umarbek, Sulaymon udaychi, Taniqul, Valixon toʻra, Abdukarimbek va boshqalar bosh boʻlgan guruhlarining Chor Rossiyasi qoʻshinlariga qarshi kurashni davom ettirganliklarida yaqqol koʻramiz.

9-mavzu: XIX asrning 80-90 yillarida Turkiston o'lkasida xalq harakatlari

(2 soat ma'ruza)

Raja

1. Turkiston o'lkasida mustamlakachilik zulmining kuchayishi.
2. XIX asrning 70-80 yillardagi Farg'ona vodiysidagi xalq harakatlari.
3. 1892 yil Toshkentdagi «Vabo isyoni».

Chor hukumati Turkistonni qonga belab, uni bosib olgandan keyin milliy davlat va qo'shin yo'q qilindi. Mahalliy boshqaruv tizimi tugatildi. O'lkaning eng unumdor yerlari Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Gubernatorlikning oliy va o'rta bo'g'in lavozimlariga rus generallari va ofitserlari tayinlanib, eng quyi mansablarga mahalliy aholi vakillari qo'yildi. Bular rus ma'muriyatining ko'rsatmalarini so'zsiz ado etuvchi kishilar edi. Buxoro va Xiva xonliklari faqat nomigagina mavjud bo'lib, amalda ularning hukmdorlari rus podshosining hizmatkori bo'lgan. Chor hukumati iqtisodiyot bo'yicha ham mustamlakachilik siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. U mintaqadagi yer-suv va tabiiy boyliklarning egasi sifatida ish yuritib, ko'pdan-ko'p mablag'lar hukumat xazinasi va kapitalistlarning cho'ntagiga oqib kelaverdi. Ayniqsa paxta ularga juda katta daromad keltirdi. Mahalliy xalqning ahvoli esa borgan sari og'irlashib bordi.

Turkiston Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilgan edi. Bunday holat o'zbek va boshqa tub aholining ma'naviy hayotini ham qashshoqlashtirdi. Rus ma'muriyati ongli ravishda milliy madaniyat va milliy tilni rivojlanishiga yo'l bermay, xalqni o'rta asr qoloqligida saqlashga harakat qildi. Ayniqsa, xalq maorifiga mablag' ajratilmasdan o'z holiga tashlab qo'yilishi yomon oqibatlarga olib keldi. Ta'qib va nazoratlar avjiga chiqib, islom dini ham siqib qo'yildi. Xalq ommasi og'ir va xilma-xil soliq va majburiyatlarning ham azobini boshidan kechira boshladi.

Chor Russiasining Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati albatta qonuniy suratda mahalliy aholining o'z milliy ozodligi, erki va insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas jangga otlantirdi. Ammo "O'rta Osiyoning Russiyaga ixtiyoriy qo'shilganligi" g'oyasining tarafdori bo'lgan olimlarning ko'pchiligi xalq ommasining chorizmga qarshi, uning mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarini soxtalashtirib, go'yo bu qo'zg'olonlar Rossiyaga qarshi emas, balki mahalliy amaldorlarga, din peshvolari, ulamolarga qarshi ko'tarilgan edi, deb "isbotlamoqchi" bo'ldilar. Biroq "Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" degan naql bor xalqimizda. Shu boisdan ham sekinlik bilan bo'lsada, adolat va haqiqat o'z o'rnini topib olmoqda. Qafasdagi qushning muddaosi bitta - u ham bo'lsa ozodlik, hurlik, erkinlik, qafasni tark etishdir. Shu boisdan chorizm tomonidan asoratga solingan, mustamlaka qilingan halqlar dastlabki kunlardan boshlab o'z milliy mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun muqaddas kurashib keldilar. Agar Turkiston xalqlari Rossiyaga ixtiyoriy suratda qo'shilgan bo'lsalar bunday milliy ozodlik qo'zg'olonlari va harakatlari ko'tarilmidi? Albatta, yo'q. Mana e'tibor bering:

1. Qozog'iston mintaqasida 1783-1793 yillarda Sirim Botir qo'zg'oloni.
2. 1822-1823 yillarda Jo'lomon Tilanchi qo'zg'oloni.
3. 1836-1838 yillarda Isatoy Toyman qo'zg'oloni.
4. 1837-1846 yillarda Sulton Kenasarin qo'zg'oloni.
5. 1856 yillarda Sirdaryoda Jonxo'ja Nurmuhammad qo'zg'oloni.
6. 1868 yilda Samarqand mudofaasi va Buxoro amirligi Buxoro shahri, Shahrisabz bekligidagi harakatlar.
7. 1870 yilda Mang'ishloq qirg'izlarining isyonlari.
8. 1871 yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar.
9. 1871 yildagi Farg'onada Yetimxon qo'zg'oloni.
10. 1872 yildagi Chirchiqdagi isyonlar.
11. 1872-1876 yillardagi Po'latxon boshchiligida Qo'qondagi qo'zg'olon.

12. 1885 yilda Fargʻona vodiysida Darvishxon boshchiligidagi qoʻzgʻolon.
13. 1892 yildagi Toshkent qoʻzgʻoloni.
14. 1898 yilda Andijondagi Dukchi Eshon qoʻzgʻoloni.
15. 1899 yilda Sirdaryo viloyatidagi harakatlar.
16. 1916 yil Jizzax qoʻzgʻoloni va boshqalar yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Chor hukumatining oʻtkazgan siyosatiga qarshi milliy ozodlik kurashlari juda koʻp boʻlgan. Biz yuqorida ularning baʼzilarinigina sanab oʻtdik. 1887-1897 yillar mobaynida Fargʻona, Samarqand va Sirdaryoda, mustamlakachilar idoralariga qarshi 668 marta hujum boʻlgan. 1897-1917 yillar orasida Turkistonda Rossiya imperiyasi bosqinchilariga qarshi 4922 marta isyon boʻlgan. Ana shu qoʻzgʻolonlar va milliy ozodlik kurashlaridan baʼzilarini eslash joizdir.

Turkistonda chorizmning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi harakatlar 19-asrning 70-yillaridan boshlandi. 1879 yilda 600 ga yaqin olomon Fargʻona viloyat boshqarmasi binosini qurshab olib, harbiy gubernatordan Margʻilon tumanidan olinayotgan soliqlarni kamaytirishni talab qildi. Olomonning avzoyi buzuvchiligi koʻrgan harbiy gubernator boʻlajak katta janjalning oldini olish uchun ularning talablarini oʻrganib chiqishga vaʼda beradi. Shu maqsadda xayʼat tuzilib, ish boshlangan. Xayʼat toʻplagan maʼlumotlar viloyatda paxta maydonining kengayib ketgani, natijada yashash uchun zarur boʻlgan boshqa ekinlar maydoni keskin kamayganini koʻrsatadi. Oqibatda oziq-ovqat mahsulotlari narxi 2,5 barobar koʻtarilib, chayqovchilik kuchaygan. Andijon, Margʻilon, Namangan, Oʻsh, Yangi Margʻilon, Qoʻqon tumanlarini oʻz ichiga olgan Fargʻona vodiysida 88 ming 858 tanob yerni egallagan paxta boshqa ekinlarni siqib chiqargan.

1885 yilda Fargʻona vodiysida mustamlakachi hukumatga qarshi umumxalq qoʻzgʻoloniga tayyorgarlik koʻrilayotgani haqida gaplar aholi oʻrtasida keng tarqaladi. Vodiyning bir qator joylarida qoʻzgʻolonga tayyorgarlik koʻrish masalalari yashirin yigʻilishlarda koʻrilayotganidan mustamlakachi maʼmurlar habar topgan edilar. Shunday yigʻilishlardan biri 1885 yil 16 avgustida Asaka qishlogʻida Mullaxoʻja Nazirmirza uyida boʻlib oʻtadi. Vodiyning turli joylaridan kelgan 20 dan ortiq nufuzli kishilar qatnashgan bu yigʻilishda yurtni chet el bosqinchilaridan ozod qilish, oʻlkada milliy davlatni tiklash uchun mustamlakachilarga qarshi birlashib kurash olib borish vazifasi ilgari suriladi. Yigʻilishda qoʻzgʻolon rejasi, uni oʻtkazish vaqti, qoʻzgʻolonga rahbarlik qiladigan shaxs kabi masalalar hal etiladi. Qoʻzgʻolonga rahbarlik qilishga Darvishxon Eshon Toʻra koʻrsatiladi. Bunga sabab bu vaqtda aholining norozilik harakatida faol ishtirok etib el-yurtga ancha tanilib qolgan edi. U Andijon uyezdi Qoʻrgʻontepa volostiga qarashli Chektoʻra qishlogʻi fuqarosi, qoʻzgʻolonga rahbarlik qilgan paytda 45 yoshda boʻlib, Andijon va Qoʻqon uездlarida ancha katta yer mulkka ega boʻlgan. Ammo shunga qaramasdan Darvishxon oʻz manfaatidan xalq, vatan manfaatlarini ustun qoʻyib milliy ozodlik harakatiga boshchilik qiladi. U qisqa vaqt ichida Oʻsh, Andijon uездlari volost va qishloqlarida koʻplab aholini qoʻzgʻolonga jalb eta oladi. U ruslarga qarshi yalpi qoʻzgʻolon koʻtarish maqsadida kichik guruhlarini katta bir qoʻshinga birlashtirishga urindi. Darvishxon toʻraning yaqin yordamchisi Moʻminboy ana shu maqsadga qisman erishib, Fargʻonadagi qoʻzgʻolonchi guruhlardan kattagina lashkar toʻplashga erishdi. Fargʻona harbiy gubernatori ularga qarshi jazo ekspeditsiyasini joʻnatadi. Qoʻzgʻolonchilar yaxshi qurollangan rus qoʻshinlaridan yengilgan boʻlsada, batamom taslim boʻlmay qishloqlarga tarqab ketdilar. Moʻminboy asir olinib dorga osiladi.

Darvishxon boshliq qoʻzgʻolonchilar yangi Margʻilon shahrini Andijon va Qoʻqon bilan bogʻlovchi aloqa simlarini uzib tashlaydi. Bu xodisa toʻgʻrisida keyinchalik mustamlakachi hukumat vakillaridan biri “bu xodisa qoʻzgʻolon boʻlishi muqarrar ekanligini koʻrsatgan edi” deb xotirlagan. Darvishxon boshchiligidagi qoʻzgʻolonchilar koʻlami tobora kengayib bordi. Asaka, Qoʻrgʻontepa, Shahrison, Oltinkoʻl, Jalolquduq, Oʻsh uездining Novqat, Tutlik qishloqlari, Oqboʻyra volosti, Margʻilon kabi joylar ham qoʻzgʻolon girdobiga tortilgandi.

Qoʻzgʻolon shunchalik keskin tus oldiki, uni bostirish uchun mustamlakachi hukumat viloyatni turli joylariga, jumladan Andijon, Oʻsh va Margʻilon uездlariga harbiy kuchlarni yuborishga majbur boʻladi. Vodiy boʻylab borgan sayin avj olayotgan Darvishxon rahbarligidagi

qo'zg'olonni bostirish va uning rahbarlarini qo'lga olish vazifasi Andijon uyezdi boshlig'i kapitan Bryanovga topshirilgandi. Uning ixtiyoriga O'sh uyezdining boshlig'i podpolkovnik Deybner, uning yordamchisi kapitan Glishanovskiylar boshchiligidagi harbiy kuchlar yuboriladi.

Qo'zg'olonchilar bilan Bryanov boshchiligidagi harbiy kuchlar birinchi bor 17 avgust kuni kechqurun to'qnashadi. Kutilmaganda qilingan hujumdan Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar har tomonga chekinishga majbur bo'ladilar. Shundan so'ng Darvishxon Namangan tog'lari tomonida o'z atrofiga 800 ga yaqin odam to'plashga erishdi. Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon to'g'risida Turkiston general-gubernatori O.Rozenbax Rossiya harbiy vaziri P.S. Vannovskiye'ga yozgan xatida "qo'zg'olon viloyatning turli joylarida bir vaqtda boshlanishi va qo'zg'olonchilarning o'g'rilik va talonchilik qilmasdan, barcha aholini bu harakatga chaqirilishi, bu harakatning to'liq ma'noda amaldagi hukumatga qarshi qaratilganligini ko'rsatadi... ular yomon qurollangan, oz sonli bo'lishlariga qaramasdan jiddiy tartibsizliklarni keltirib chiqarishlari..., ayniqsa soliqlar to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi."

1885 yil 7-9 sentabrda Norin volostida Mullashxo'ja Nazarov va Mo'minboy Jabborqulboev boshchiligidagi yangi qo'zg'olonchilar guruhi paydo bo'ldi. Ular soldatlar tomonidan o'qqa tutilib, 3 kishi o'ldirildi va 12 kishi asirlikka olindi.

Chor ma'murlari kuch bilan qo'zg'olonni shafqatsizlarga bostirdilar. Qo'zg'olonchilardan shunchalik darajada ko'p qamoqqa olindiki, xatto ularni qamash uchun joy masalasi muammo bo'lib qolgandi. Qamoqqa olinganlardan 19 kishi katorgaga surgun qilindi. Xususan, 6 kishi umrbod va 13 kishi 18 yilga kesiladi. Qo'zg'olon rahbari Darvishxon 1886 yil 22 fevralda Samarqand viloyatining Sutxona qishlog'i yaqinida qo'lga olinadi, lekin u Jizzax yaqinida qochib qutilib ketadi. Darvishxon akasi Iskandarning bergan ma'lumotiga ko'ra 1889 yili Afg'onistonda vafot etgan. Uning boshchiligidagi qo'zg'olon garchan bostirilsada, biroq u bundan keyingi milliy ozodlik harakatlariga zamin hozirladi.

Mustamlaka ma'muriyati vakillarining hisobiga ko'ra, 1885 yildan 1892 yilga qadar Farg'ona viloyatida dehqonlarning siyosiy tushdagi 205 marta chiqishi qayd etilgan.

Turkiston general-gubernatori mahkamasi maxsus bo'limining ahborotida 1887-1898 yillar mobaynida Samarqand va Sirdaryoda 668 ta xalq chiqishlari yuz berganligi aytiladi. Mustamlaka ma'muriyati mahalliy amaldorlariga bergan ko'rsatmalarida ana shunday isyonga moyil xalq vakillarini ko'proq qamoqqa olish, ularni doimo siquvda tutib turish lozimligini uqtirgan.

1892 yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda ham rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga "Vabo isyoni" yoki "Toshotar voqeasi" sifatida kirgan qo'zg'olon boshlandi. Rasmiy doiralar bu qo'zg'olon vaboga qarshi rus amaldorlari qo'llagan tadbirlardan norozilik tufayli kelib chiqqan, deb aytishgan. Shuning uchun ham uni "Vabo isyoni" deb nomlashgan. Shunchaki qaraganda chindan ham shunday bo'lgan.

1892 yilda Turkistonda vabo tarqalgani xususida habar paydo bo'ladi. May oyida Jizzaxda vabo bilan og'rikan kishilar topiladi. Vaboning Sirdaryo viloyatiga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun Chinoz qishlog'ida Sirdaryodan o'tadigan kechuv oldida chor hukumati tomonidan kuzatish manzilgohi ochiladi. Bunga ko'ra, vabodan o'lgan kishilarning jasadini vrachning ruxsatisiz ko'mmaslik lozim edi. Shuningdek, murdalarni shahar ichidagi eski mozorlarga emas, uning chekkaroq joyida ochilgan yangi qabristonlarga ko'mish tavsiya etildi. Vaboga chalingan ayollarni yoki bu kasallikdan o'lgan ayollar murdasini ham erkak do'xtirlar ko'rishgan. Rus do'xtirlar politsiya vakili bilan mahalliy xonadonlarga bostirib kirib, ayollar yashaydigan xonalarda noo'rin qiliqlar qilganlar.

1892 yil 7 iyunda Toshkent xokimi uzoq o'ylab o'tirmay qator farmoyishlar chiqardi. Murdalarni yuvish va ko'pchilik bilan qabristonga olib borish ta'qiqlandi. Shahardagi 12 mozor yopildi. Uning o'rniga to'rtta maxsus vabo qabristonlari ochilishi ma'lum qilindi. Mustamlakachi ma'murlar marhumlarni eski qabristonlarga dafn etishni ta'qiqlab qo'ydi. Ko'rsatilgan choralar vaboni imkon qadar daf etiga qaratilgan bo'lsada, lekin ularni amalga oshirishda qator

qo‘polliklarga va zo‘ravonliklarga yo‘l qo‘yildi. Buning ustiga Toshkentda rus do‘xtirlari vabo bilan og‘rigan o‘zbekni topsa, dori berib o‘ldirarkan, degan gap tarqaladi. Bu gapning asosli yo asossiz emasligini aniqlash uchun dalillarga murojaat qilamiz.

1892 yili Toshkentning yangi shahar, ya‘ni ruslar yashaydigan qismida 417 kishi, eski shahar qismida esa 1462 kishi ja‘mi 1879 kishi vabo bilan og‘rigan. Shulardan, ya‘ni 417 yevropalikdan 200 nafari sog‘aygan (50 foizi) bo‘lsa, 1462 mahalliy aholidan faqat 22 kishi (ya‘ni-1-1,5 foizi) sog‘aygan.

Vabodan o‘layotganlar ko‘payib borsa ham yangi qabristonlardan atigi bittasi ochildi. Hayotda din hukm surib turgan bir vaziyatda murdalarni yuvmaslik va bir necha kun saqlashlik, hamda ota-bobolar mozorlarini bekkitish tabiiy ravishda xalqning noroziligiga sabab bo‘lardi. Marhumlarni yashirinch a eski mozorlarga ko‘mish boshlandi. Bundan habar topgan politsiya pristavi “gunohkor” marhumlar qarindoshlarini hibsga olib, ularni to‘g‘ri bozor orqali haydab ketadi. Pristav yo‘l-yo‘lakay ularga dag‘dag‘a qilib ko‘milgan jasadlarni go‘rdan qazib olinishini aytdi. Rus ma‘murlarining musulmonchilik odatlarini oyoq osti kilishi va sharoitni poymol etishdan xalq g‘azabga keldi. Olomonning g‘azabi anchadan beri xalqqa zulm o‘tkazib ruslarning nog‘orasiga o‘ynayotgan bosh oqsoqol Muhammad Yoqub Karimberdi o‘g‘liga qarshi qaratildi. U vaboga qarshi qaratilgan choralarni amalga oshirishga boshchilik qilib, xalqning g‘azabiga uchragan edi.

Qo‘zg‘olon 1892 yilning 24 iyunida Sebzor dahasida boshlandi. Qo‘zg‘olonchilar shahar idorasi tomon yo‘l oldilar. Yo‘l-yo‘lakay qo‘zg‘olonchilar soni ko‘paya bordi. Katta oqsoqol Matyoqub sha‘niga tahdid qiluvchi gaplar tobora kuchayib bordi. Oqsoqolning uyiga yaqin qolganda Abulqosim eshon va bozor oqsoqoli Ziyo Muhammad boshchiligida Shayxontovur dahasidan kelayotgan 500 kishilik to‘da asosiy olomonga qo‘shildi. Odamlar oqsoqol shahar boshlig‘ining idorasida ekanligini eshitib, shu idora tomon yurish boshladilar. Xalqning bostirib kelayotganligidan habar topgan shahar boshlig‘i Putinsev Matyoqub bilan xalq oldiga peshvoz chiqdilar. Ular O‘rda bozori yaqinidagi Voronsov hiyobonida uchrashdilar. Matyoqub qamchisini o‘ynatib, xalqni so‘kaverdi, olomon esa uni toshbo‘ron qila boshladi. Bunday xatti-harakatdan kapalagi uchgan oqsoqol Sayfilla mirshab bilan shahar boshlig‘ining idorasiga otda qochib yashirindi.

Putinsev odamlarni tarqatmoqchi bo‘ldi. Lekin olomon oqsoqolni topib berishni talab qildi. Bu talab rad etildi. Xaloyiq Putinsevn ham toshbo‘ron qildi va urib yiqitdi, kaltaklashdi. Qo‘zg‘olonchilar binoning ichiga bostirib kirdilar. Qo‘zg‘olonchilarning Putinsevdan Matyoqubni ushlab berish, xalqni qiynab kelayotgan chora-tadbirlarni bekor qilish haqidagi talablari qondirilmagach, shahar boshlig‘ining idorasini ostin-ustun qilib tashladilar.

Qurolsiz xalq askarlar yaqinlashib kelayotganligini eshitib, tarqala boshladi. Harbiy gubernator Grodekov unchalik katta bo‘lmagan otryad bilan voqea ro‘y bergan joyga yetib kelganidan “tartibsizlik” ishtirokchilaridan hech kim qolmagan edi. Ularni soldatlar va yangi shaharning aholisi ta‘qib qilib borganlar. Qo‘lga tushganlar shafqatsizlarcha kaltaklangan.

Qo‘zg‘olonchilar Matyoqubni uyiga bostirib borib, bu uyni ham ostin-ustun qilib tashladilar. Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda, shu joyning o‘zida o‘nga yaqin kishi o‘ldirilgan. Ammo qancha kishining o‘lganligi haqida ma‘lumot yo‘q. Chunki haloyiq o‘ldirilgan va yarador qilinganlarni o‘zlari bilan birga olib ketib yashirganlar.

Qo‘zg‘olonchilarning yuzga yaqini oq podsho sarbozlari tomonidan Anhor tomonga qisib boriladi va suvga cho‘ktiriladi. Qochganlar ayovsiz qiriladi. Bu yerda shahid ketganlarni soni haqida aniq ma‘lumot yo‘q. Xususiy sanashga ko‘ra, suvdan 80 ta o‘lik olingan. Qo‘zg‘olon vaqtida o‘lganlarning soni 100 kishiga borgan. Bundan tashqari Eski shahar bozorida to‘plangan olomon soldatlar tomonidan o‘qqa tutilgan va bu yerda 9 kishi o‘lgan.

Qo‘zg‘olonga bog‘liq keyingi voqealar ham fojiali kechdi. Soldatlar va politsiya xovlima-xovli yurib, qo‘zg‘olon qatnashchilarini xibsga olgan. Tarixga “Toshotar voqeasi” deb kirgan bu qo‘zg‘olon oqibatida g‘alayon qatnashchilaridan 60 kishi xibsga olinadi. Ularning orasida nufuzli kishilar ham bor edi. Chor ma‘muriyati qo‘zg‘olon sabablarini birinchi navbatda bir guruh yuqori

tabaqa vakillariga ag'darishga harakat qilgan.

1892 yil 15 dekabrda harbiy sud hukmi e'lon qilindi. Unga ko'ra qo'zg'olon qatashchilaridan 8 kishi osib o'ldirishga, mol-mulkini musodara etishga hukm qilindi, 29 kishi turli muddatlarga qamoqqa hukm qilinib, mol-mulki musodara qilinadi. Qo'zg'olon sodir bo'lgan bu joy Toshkentda "Jangob" nomi bilan mashhur.

Chor ma'muriyati garchand vaboga qarshi choralarni ko'rgan bo'lsada, lekin amalda uni daf etishga yetarli e'tibor bermadi. Natijada Toshkent shahrida yuzlab kishilar qurbon bo'ldi. Chunonchi, 1892 yil 7 iyun-9 avgust orasida o'zbeklardan 1428 kishi vabo bilan kasallanib, 1389 kishi o'lgan, ruslardan esa 407 kishi og'rib, 213 kishi vafot etgan. Jami 1835 kasaldan 1602 odam o'lgan edi.

Vabo kasali Farg'ona vodiychida ham yuzaga kelib, undan 10277 kishi vafot etgan. O'lka bo'yicha hisoblaganda o'lganlarning soni 11879 kishiga borgan. Bu o'z davri uchun katta fojia edi.

Qo'zg'olonning aks-sadosi butun o'lkaga, xususan, Farg'ona vodiysiga ham yoyilib, vaziyat keskinlashgan. Shu bois faqat Toshkentda emas, balki Farg'ona viloyatida ham harbiy holat joriy etilib, nazorat va ta'qib avjiga mingan.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I.Grodekov 1892 yil 1 iyulda general-gubernatorga yo'llagan raportida qo'zg'olonning tasodifiy bo'lganini ta'kidlab, uning asosiy tashkilotchilarini topgani va xibsga olganini bayon etgan: "...shaharning osiyoliklar yashaydigan qismi oqsoqoli In'omxo'ja Umarxo'jaevni 24 iyun voqealariga olib kelgan harakatning asosiy rahbari va haqiqiy sababchisi deb hisoblash kerak. U shaxsan o'zi va eng yaqin xodimlari orqali nodon xalq ommasi orasida tashviqot olib borgan, ma'muriyatimizning vaboga qarshi farmonlari va xatti-harakatlari xususida tashvish tug'diradigan habarlar hamda mish-mishlar tarqatgan. Mazkur yerlik kishining eng yaqin sheriklari unga qarindosh bo'lgan yuzboshi Ahmadxo'ja va qudasi Usmonxo'jadan tashqari Shayxontohur dahasining qozisi Sharifxo'ja so'ngra Beshyog'och dahasining yerlik fuqarolari Badalmuhammad Holmuhammedov va Boqijon Dadajonboev bo'lgan. Menga ma'lum bo'lishicha, bu kishilar avvallari ham shaxsan o'zlari va ko'p sonli tarafdorlari orqali olomonga boshchilik qilganlar, olomonni hukumatning tadbirlariga qarshi qo'zg'atganlar. Bu barcha shaxslarning xalq orasidagi zararli tashviiy ta'sirini hisobga olib, 24 iyun voqealari sodir bo'lgan kunning o'zidayoq barchasini qamoqqa olishga farmoyish berdim".

Turkiston harbiy okrugi sudi yuzboshi lavozimida halol hizmat qilib yurt ahlining mustamlaka istibdodiga qarshi ko'targan qo'zg'oloniga bosh bo'lgan Ahmadxo'ja Abdurashidxo'jaevni 1892 yil 10 dekabrda majlisida osib o'ldirishga hukm qildi. Ammo jamoatchilik fikrini hisobga olib bu hukm 15 yil surgun bilan almashtirildi. Sobiq yuzboshi bu muddatni o'tash davomida salomatligini butkul yo'qotib 1907 yili Toshkentga qaytgach, ko'p o'tmay vafot etadi.

N.P.Ostroumov bu qo'zg'olonning asosiy sababi to'g'risida 1892 yil 29 iyunda bir do'stiga yozgan xatida bunday degandi: "Ko'p jihatdan ayb o'zimizda, albatta: ularning fe'l-atvorlarini va qonun-qoidalarini o'rganganimiz yo'q va hali ham o'rganmayapmiz. Bunda ayb faqat vaboning o'zida emas: sabr kosasini to'ldirib-toshirib yuborgan so'nggi tomchidir. Norozilik allaqachondan beri kuchayib, yig'ilib kelmoqda edi, keyin esa boshqa noroziliklar qo'shilishi bilan birdaniga qo'zg'olon boshlanib ketdi".

Umuman, 1892 yili Toshkentda ko'tarilgan "Vabo isyoni" chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'tarilgan navbatdagi xalq qo'zg'oloni edi.

11-mavzu: 1898 yil Andijon qo'zg'oloni

(2 soat ma'ruza)

Reja

1. Farg'ona vodiysida chorizm mustamlakachilik zulmining kuchayishi.
2. Muhammad Ali Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olonning boshlanishi.
3. Qo'zg'olonning bostirilishi va qo'zg'olonchilarning jazolanishi.

Tarixga “Dukchi eshon qo‘zg‘oloni” nomi bilan kirgan Andijon qo‘zg‘oloni 19-asr oxiridagi xalq harakatlarining eng kattalaridan biridir. U Muhammad Ali eshon (1846-1898) nomi bilan mashhur.

Muhammadali Marg‘ilon shahriga qarashli Shahidon qishlog‘ida o‘rtahol dehqon va hunarmand Muhammad Sobir oilasida dunyoga kelgan. Otasi uni bolaligida Buxoroga olib borib Usmoncha Oxund domla maktabiga beradi. Muhammad Ali 16 yoshga to‘lganida Samarqand yaqinidagi Karrux qishlog‘ida mulla Usmon oxund sudur eshon xizmatiga beriladi. To‘rt yildan so‘ng butun vodiya tanilgan ulamo Sultonxon to‘ra eshon xizmatiga kiradi. U o‘zining mehnatsevarligi, aqli, odobi va taqvodorligi bilan eshonning o‘g‘illari qatoridan joy oladi. 1882 yilda Sultonxon to‘ra vafot etadi. Vafoti oldidan u o‘z shogirdi Muhammadaliga “eshonlik” to‘g‘risida xati irshodni (yo‘llanma xat) yozib, muhrlab bergan edi.

Muhammadali 1887-1893 yillarda Makkai Mukarramaga borib haj qiladi, Rossiya va Hindiston shaharlarida bo‘lib qaytadi. Muhlisari Mingtepa qishlog‘idan unga mos xovli-joy olib berishadi. Eshonning yaxshi fe‘l-atvori, kamtarona turmush tarzi, boy hayotiy tajribasi va keng dunyoqarashi uning muhlislari sonini tobora oshirib bordi. Mingtepa tezda ko‘plarning qutlug‘ ziyoratgohiga aylanadi. O‘sha yillari Mingtepa 450 xonadonlik qishloq bo‘lib, unda 1200 nafarga yaqin o‘zbek, tojik va qirg‘izlar istiqomat qilgan. Ular dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Eshon ham ko‘plar qatori otasidan qolgan hunar – yigchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Zamongdoshlari tasvirlashlariga ko‘ra, Muhammadali eshon o‘rta bo‘yli, cho‘qqi soqolli, kamsuxan, kulib turuvchi, ovozi mayin kishi bo‘lgan. O‘zini eshon deb e‘lon qilgan Muhammadali har kuni katta qozonda ovqat pishirib och-yalang‘och, yetim-esirlarni boqa boshlaydi. U dastlab bu ishni qarz olib amalga oshiradi. So‘ng eshonning obro‘-e‘tibori shu darajada ko‘tarilib ketadiki, u qarzlarni ham uzib, har kuni doshqozonda ovqat tayyorlatib 150-200, ba‘zan esa 400-500 kishini ovqatlantira boshlaydi. Muhammadali eshon bo‘lish bilan birga tabiblikdan ham xabari bor edi. Eshonning xalq orasida obro‘-e‘tibori juda tez o‘sib bordi. Uning muridlari faqat Farg‘ona vodiysidagina emas, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa olis-olis joylarda ham bo‘lgan. 1890 yillarga kelib eshonning ziyoratchilari ko‘payib, muridlari unga 500 ot sig‘adigan otxona qurib berishadi, xomg‘ishtli 12 gazli minorasini 34 gazga ko‘tarib, pishiq g‘ishtdan ishlab berishadi.

Chor Rossiyasining xalqqa qarshi mustamlakachilik, zo‘rluk va adolatsiz siyosati Muhammadali xalfaning xalq kurashiga rahbarlik qilishining bosh sababidir. Qo‘zg‘olon boshlanishidan bir yil oldin eshon turk sultoniga maktub yozadi. Maktubda eshon ruslar Qo‘qon xonligini bosib olganlaridan keyin musulmonlar o‘rtasida ahloqan buzilish kuchayganligini, shariat qoidalaridan chekinish ro‘y berib, buzuqlik, ichkilikbozlik, nashaho‘rluk avjiga chiqqanligini yozgan. Bundan tashqari eshon ruslar kambag‘allar uchun zakot yig‘ishni, xajga borishga ta‘qiqqlaganliklarini, eski vaqflarni man qilib, yangilarni joriy etmayotganliklarini ta‘kidlar ekan, turk sultonidan xalqning shariat qonun-qoidalari bo‘yicha turmush kechirishi uchun sharoit yaratishni oq podshodan talab qilishni so‘raydi. “Rus hukumatining shariatni nazar-pisand qilmaganligini Ollohning qahrini keltirmasmikin, deb qo‘rqaman”, deydi eshon ushbu maktubi so‘nggida.

Mingtepalik eshonning tobora ortib borayotgan obro‘-e‘tibori mustamlakachilarning xavotirini oshirdi. Bunga ularning asosi bor edi. 1895 yilda eshon xuzuriga qurbonjon dodho tashrif buyurgani va ub lian mustamlakachilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish masalasini muhokama qilgani mustamlakachilarni talvasaga soldi. Qolaversa norozilik qurbonjon dodho qo‘li ostidagi qirg‘izlarda ham kuchli ekani ma‘lum edi. Ketmontepa, Ko‘gart taraflardagi qirg‘izlar 1896 yilda eshon xuzuriga rus mujiklaridan shikoyat qilib vakillar ham yuborishadi. 1896-1897 yillarda Rossiyaning ichki guberniyalaridan ko‘chirib keltirilgan va hosildor yerlarni egallab olgan rus mujiklari bilan qirg‘izlar o‘rtasida to‘qnashuvlar kuchayadi. Qirg‘izlar ko‘chib keltirilganlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga qaror qilishib, Muhammadali eshondan maslahat so‘rashadi. Muhammadali zudlik bilan chorvador boy Chibil bo‘lis hamrohligida qirg‘izlar

maskaniga yetib keladi va bu yerda bo'lajak qo'zg'olonning rejasi muhokama qilinadi. Muhammadali qo'zg'olon rahnamosi bo'lishiga kelishiladi.

Muhammadali eshon qo'zg'olonga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun murojaatnoma yozib, uni turli joylardagi o'z vakillariga jo'natadi. Murojaatnomada rus bosqinchilariga qarshi qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rilayotgani, xabar yetib kelgani zamon joylardagi vakillar mahalliy kishilarni ergashtirib tegishli joyga yetib kelishlari lozimligi bayon qilingan edi. Mazkur qasamyodga mahalliy amaldorlar va obro'-e'tiborli kishilardan o'n ikki kishi muhrini bosgan.

1898 yil 14 may kuni kechqurun Muhammadali eshon uyida kengash bo'lib, unda Farg'ona viloyatining turli yerlaridan kelgan kishilar qatnashadi. Kengash eshon ma'lum qilgan rejaga binoan vodiydagi uch shahar-Andijon, Marg'ilon va O'shdagi harbiy lagerga bir kunda hujum qilinishi kerak edi. Bu hujum muvaffaqiyatli tugasa, Qo'qonni ham olib, vodiya xonlik tuzumi tiklanardi. So'ngra mustamlakachilar Samarqand, Toshkent va Chimkentdan ham haydab chiqarilardi.

16 may kuni kechqurun yana eshon xonadonida kengash bo'lib, unda mingga yaqin odam qatnashdi. Shu kengashda eshonning o'n to'rt yoshli jiyani Abdulaziz xon qilib ko'tarilajagi, qo'zg'olon qachon boshlanishi aytili.

17 may kuni shom namozida Tojik qishlog'idagi masjidga juda ko'p odam to'plandi. Namoz paytida eshon xalqqa murojaat qildi. Bu murojaat Muso Turkistoniy asarida quyidagicha aks ettiriladi: "Ey muhtaram musulmonlar! Ey birodarlar! Hammangizga ma'lumdirki, yurtimiz musulmon yurti, el musulmon, xalq musulmon, xon musulmon, shariatning hukmi joriy, amri nofiz edi. Hukumatni Alloh taolo o'zi biladur, kofirlarni musallat qildi, yurtimizga o'ris keldi. Xudoyorxon o'rniga Kaufman, Umarxon taxtiga Chernayuf o'ltirdi. Farg'ona xonligi yerida Moskva xonligi - oq podsho hukmron bo'ldi. O'ris vatanimizga istilo etdi. So'ngra tilimizga istilo qildi. Sekin-asta dinimizga istilo qilmoqqa boshladi, bilasizlarki, musulmonlarning ahloqi buzildi. O'risning kelg'oniga o'ttiz yil to'lmay, musulmonlar riboga odatlandi, halol-haromni farq qilmas bo'ldi. Qozilarimiz bo'yniga but taqadig'on bo'ldi. Xulosa (shulki), shariatimiz xor, musulmonchilik g'arib bo'ldi. Hurriyatimiz g'oib bo'ldi, istiqbolimiz mahv bo'ldi, o'zimiz o'tmas, so'zimiz kesmas bo'ldik. Ey voh...

Ey musulmonlar, bunga sabab o'zimiz bo'ldik. Bu asorat va mahkumiyatga kimsa rozi emas, ins ham, jins ham rozi emas. Ey birodarlar, tek turaversak, bu kofir yana battar qiladur. Voy bizning xolimizga. Tarixda o'tgan muazzam bir saltanat qurg'on qahramon pahlavonlar avlodimiz-bu zillatga hech qanday zireh chidamas. Qani bizdagi shijoat, qani ajdodlarimizdagi bisolat, sizlarga nima bo'ldi?

-Ey musulmonlar, ey xudoning bandalari, ey payg'ambar ummati! Chin mo'min bo'lsangizlar, sizlarga jihod lozimdur, jihod. E'tiqod, alloh yo'lida jihod qilamiz, o'lsak-shahid, o'ldirsak-g'ozi bo'lamiz. Jihod qilmaguncha yelkamizga mingan bu ro'dapo o'rusdan qutilish yo'q.

Ey mo'minlar, ko'zingizni oching! g'aflatdan bedor bo'ling! Kofirlardan huquqimizni olaylik. Ey birodarlar, hurriyatimizni olaylik, o'z vatanimiz, o'z yurtimizda o'zimiz hukumat quraylik. Buning uchun bizdan g'ayrat istaydur, himmat istaydur, jihod istaydur, fiysabilliloh jihod vaqti keldi!

Hayyu 'alal jihod, Hayyu 'alal falah.

Shu holda xonaqohni to'ldirgan musulmonlar "Jihod! Jihod!... Jihod hozirmiz, molimiz, jonimiz jihodga fido bo'lsin. Hazrat eshon, amringizga hozirmiz!" deb bir ovozdan baqirdilar.

Xazrat eshon nutqi ohirida: -Hammangiz hozirlaning, bu huftondan keyin hujum!-dedi.

Keyin yaqin qishloqlarga chopar yo'lladi, hazrat eshon amrlari bilan jihod fiysabilliloh e'lon qilindi. Choparlar kimki musulmon bo'lsa, bu oqshomdan qolmay jihodga hozir bo'lsin, deb nido qilishdi".

Huften namoziga odamlar qurollanib kelishdi. Ammo ularning kamdan-kami qilich va miltiq bilan qurollangan, asosiy qismi so'yil, cho'qmor, ketmonsop, panshaxa ko'tarib olishgan edi.

Namoz o'qib bo'lingach, hamma baravar "Jihad! Jihad! Jihad!"-deya hayqira boshladi. Qisqa vaqtda bu ovoz butun qishloqni tutib ketdi.

Bir mahal eshon hovlisining darvozasi ochilib, undan oq otni yetaklab chiqishdi. Muhammadali xalifa: "Bismillohir rahmonir rahim, baniyati jihad!" deb otga mindi. Shundan keyin qo'zg'olonchilar yo'lga tushdilar.

To'plangan odam olti yuz nafarcha edi. Lekin ularning hammasi ham otliq emasdi. Shu boisdan otliqlar piyodalarni mingashtirib olishdi. Qolganlar piyoda yoki aravada yo'lga tushishdi. Yo'lma-yo'l qo'zg'olonchilar safi ortib bordi. Olomon ikki bayroq ostiga uyushgandi, birinchi bayroqqa Mulla Ziyovuddin Maxsum boshchilik qilayotgan edi. Ko'k to'n kiyib, oq salla o'ragan otliq eshon eng oldinda borardi.

17 may kuni kechqurun Tojik qishlog'ida Muhammadali bosh bo'lgan qo'zg'olonchilar telegraf simlarini uzib tashlaydilar. Ular yo'lga Asaka mirshabini uchratib, uni o'ldirishadi. Mulla Ziyoviddin maxsum boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Qo'ng'i qishlog'iga yaqinlashganlarida ularga yana 200 kishi kelib qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar Andijonga yaqinlashganlarida ularga boy savdogar Aliboy qurollantirib yuborgan 150 yigit qo'shiladi.

Qo'zg'olonchilar Andijondagi 20-Turkiston liniya bataloni kazarmasiga bostirib kirishadi. Kazarma piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiqni o'lja olib, uxlab yotgan birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularni pichoq, hanjar bilan urib kaltaklab turishganda ikkinchi qator ichkaridagi soldatlar uyg'onishib, darhol qurollanib qarshilik ko'rsatadilar. Chorak soatga davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'olonchilar to'rt o'lgan sherigini tashlab chekinadilar va soat oltilargacha Eski shaharda turib kengashadilar. Ular tayinli qarorga kelolmay Qorabura tarafi bilan orqaga chekinadilar. Shaharga kirmagan qo'zg'olonchilar esa "Afg'on bog'" degan joyda rus to'rani o'ldirib, tug'larini uning qoniga bo'yashgan edi.

Guvohlarning yozishicha, agar eshon eski shaharda soat 8-10 largacha turganida xalq to'planib, milliy muhoraba boshlanar edi.

Qo'zg'olonning birinchi kunidayoq kuchlarning tarqoqligi ma'lum bo'ldi. Hamma bir vaqtda ko'tarilmadi. Ketmontepa va Ko'gardagi qirg'izlar sardori Chibil bo'lis zudlik bilan eshonga qo'shilish o'rniga "avval shu yerdagi mujiklarni saranjom qilib, keyin boramiz" deya rus dehqonlari posyolkalariga yurish qildi. Inoyatxon eshon Marg'ilonga xujumni uyushtirilmay, asosiy kuchlarini Muhammadali qo'shini bilan birlashtirishga qaror qildi. Umarbek dodhoh ham O'shga yurishning uddasidan chiqqa olmadi. Chunki mingboshi Qorabek Xasanov O'sh tumani boshlig'ini oldindan ogohlantirgan edi.

Dukchi eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Andijon shahrida joylashgan harbiy garnizonga hujum qilib, 22 rus askarini o'ldirdilar, 24 tasini yarador qildilar, 30 tacha miltiqni o'lja oldilar.

Shunday qilib, Muhammadali eshonning qo'zg'oloni puxta tayyorlamay, rejasiz, yaxshi qurollanmagan muridlari bilan 1898 yil 17 mayda chor istibdodiga qarshi kurashga ko'tarilgani rus mustamlakachilari uchun ayni muddao bo'ldi. Endilikda mahalliy xalqni qatliom qilishga dastak topilgan edi.

Rossiya imperiyasi bosh shtabi Turkiston harbiy okrugiga jazo otryadlarini Farg'onaning barcha tumanlariga yuborish, shaharlardagi barcha ruslarni qurollantirish hamda ishonchli yerli amaldorlarga maxsus yorliqlar bilan ov miltiqlarini tarqatish haqida ko'rsatma beradi.

Bosh shtab generali Korolkov zudlik bilan ishga kirishib, 1898 yil 20 mayda qo'zg'olonning oldini ololmaganlikda ayblangan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Povalov-Shveykovskiy, tuman hokimini, Asaka uchastka pristavini ishdan bo'shatadi. Ularning o'rniga general Chaykovskiy Farg'ona gubernatori, general Ionov Farg'ona qo'shinlari qo'mondoni qilib tayinlanadi, ularga mahalliy xalqqa qarshi shafqatsiz choralar ko'rishda cheklanmagan vakolatlar beriladi.

Podsho Nikolay II qo'zg'olonchilarni "namuna" bo'ladigan darajada qattiq jazolash uchun ko'rsatma beradi. Ana shu ko'rsatma asosida qo'zg'olonchilar ustidan olib borilgan sud jarayoni 3 oy davom etdi. Dastlab 447 kishi sud qilindi va 800 ga yaqin kishi guvohlikka chaqirildi.

General-mayor Terentev raisligida o'tgan harbiy sud materiallari "Andijanskoe delo" 20 jildni tashkil qilgan. Ushbu sud ishi bo'yicha 380 kishining ustidan sud hukmi chaqirilgan. Sud hukmi bo'yicha eng asosiy aybdorlar deb topilgan eshon Muhammadali xalfa Muhammad Sobir o'g'li, Kulla bo'lisining sobiq boshlig'i G'oyibnazar Ortiqxo'ja o'g'li, Subxonqul Arabboev, Bo'taboy G'aynoboev, savdogar Rustambek Sotiboldibek o'g'li va Mirzahamdam Usmonboevlar barcha mol-mulkalaridan mahrum etilib, oltovi ham osib o'ldirishga hukm qilindi. Sud harajatlarini barcha sudlanganlardan teng miqdorda undirilishi haqida ham qaror chiqarildi.

Turkiston Bosh harbiy gubernatori Duxovskiy qo'zg'olonning asosiy aybdorlari osib o'ldirilgach, shahar qal'asi ichiga ko'milsin va ustiga xojatxona qurilsin, deb buyruq bergan. Oxirgi paytda bu qaror o'zgargan. Dorlar qurilgan maydon ancha notekis edi. Qo'zg'olonchilar shu yerga ko'milib, ustidan so'ndirilmagan ohak, keyin tuproq tortilgan. So'ng qatl etilganlar qaerga ko'milganligi bilinmasligi uchun butun maydon tekislab yuborilgan.

Sud hukmi bilan 362 kishi otib o'ldirilgan, 341 kishi turli muddat bilan qamalgan. 16 kishi oilasi bilan uzoq va dahshatli Sibirga surgun qilingan. Qo'zg'olon markazi Mingtepa, Tojik, Qashqar qishloqlari uch kun davomida tinimsiz to'pga tutilib kultepaga aylantirilgan. Sudsiz, so'roqsiz o'zboshimchalik bilan yondirilgan qishloqlar qirib yuborilgan, gunohsiz fuqarolar bu hisobga kirmaydi. Marhamatda yashayotgan keksalarning hikoya qilishlaricha, 1898 yil 20 may kuni Andijonga qo'shimcha harbiy kuchlar kelgach, ular jazoga kirishib, O'qchi qishlog'igacha borib, yo'lda uchragan erkakni otishgan. O'qchida bir ayolning voyaga yetgan to'rt o'g'li bo'lib, chor askarlari shu to'rt aka-ukaning hammasini otib tashlashgan. Ona sho'rlik bu fojeani ko'tara olmay jinni bo'lib qolgan.

Chor ma'murlari qo'zg'olonni bostirishda va isyonchilarni ushlashda hizmat qilgan harbiylar, millat va yurtni malaylarga sotgan mahalliy millat vakillarini taqdirlashni ham unutmadi. Qo'zg'olon bo'lishi haqida O'sh uyezdi boshlig'ini o'z vaqtida ogohlantirgan Qorabek Hasanov Oltin medal va yiliga 300 so'mdan bir umrlik nafaqa bilan taqdirlandi. Muhammadali eshonni ushlashda jonbozlik ko'rsatgan Izboskan noibi, shtab-kapitan Og'abekov 4-daraja Muqaddas Vladimir ordeni bilan, uning yigitlari Yoqub Ibrohim o'g'li, Musa Masodiy o'g'li "Jasurligi uchun" yozuvi bo'lgan, ko'krakda Georgiy lentasi qadab taqib yuriladigan kumush medal va yuz so'mdan pul bilan, podporuchik Karcheladze 4-daraja Muqaddas Vladimir ordeni va qilich bilan mukofotlandilar. Andijon harbiy garnizoni boshlig'i Mixaylov podpolkovnik edi, polkovnik bo'ldi. Oddiy askarlaridan ham o'n kishi taqdirlandi.

Ayniqsa, Dukchi Eshonni ushlab berganlarga katta muruvvat ko'rsatildi. Muhammadali eshon Arslonbob yo'lidagi Chorbog' qishlog'ida Qodirqul mingboshi va Qo'rboshi Matyoqub tomonidan hiyla nayrang bilan ushlab berildi. O'shanda Dukchi Eshon bu millat hoinlariga qarata "Ikking o'lar vaqtda jinni bo'lib o'lgin. Bizni rusga tutib bergan qo'llaring bilan o'zingni mushtlab o'lgin" deb qarg'agan edi. Milliy qahramonning qarg'ishiga qolgan Matyoqub besh oy o'tmasdanoq vafot etgan.

1889 yil 12 iyunda Harbiy gubernator, general mayor Siklovskiyning raportida shunday deyilgan: "Andijon uezdining Qo'qon qishlog'ida yashovchi, o'tgan yili mingtepalik Eshonni qo'lga tushirganligi uchun mazkur uezdning Maygir bo'limi boshqaruvchisi lavozimiga tayinlangan Matyoqub Madrahimov besh oy hizmat qilgandan keyin, 1898 yil 14 noyabrda qazo qildi. Uning xotini va ikki bolasining yashash uchun hech narsasi qolmadi. Shuning uchun uning hizmatlarini, oilasining o'ta qashshoqlanib qolganligini inobatga olib, siz janobi oliylariga iltimos qilamanki, o'z tasarrufingizdagi mablag' hisobidan bu bevaga pul nafaqasi tayinlash mumkin, deb hisoblay olasizmi? Yana shuni qo'shimcha qilib aytamanki, men Madrahimovaga favqulodda hollar uchun mablag'idan 25 so'm berdim".

Andijon uyezdi boshlig'i ma'lumotiga qaraganda, Matyoqub Madrahimovning bevasi moddiy jihatdan to'la ta'minlangan bo'lib, unga eridan 10 desyatina yer, uy jihozlari, 500 pudga yaqin guruch meros qoldirgani, marhumning ikki bolasi bo'lib, ulardan biri Qo'qon qishloq bo'limi boshqarmasida hizmat qilayotgani, Madrahimovanning moddiy muhtojligidan emas, balki marhum erining hizmatlari uchun unga 10 so'm miqdorida nafaqa to'lash zarurligi aytilgan.

Andijon uezdi, Farg‘ona viloyati, Turkiston o‘lkasi mustamlakachi ma’murlari, amaldorlari, xatto Rossiya saltanati harbiy vaziri shaxsan imperatorning o‘zi Matyoqub Madrahimov oilasiga 5 yil muddat bilan har yilda 50 so‘mdan nafaqa tayinladi. Bu bilan mustamlakachilar “Farg‘ona aholisining ko‘z oldida rus ma’muriyati o‘ziga sodiq odamlarning hizmatini munosib taqdirlab borishlarini” isbotlamoqchi bo‘ldi.

Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirilgach, o‘lkaga Rossiyadan ko‘plab rus oilalarini ko‘chirish siyosati yanada kuchaydi. Turkiston general-gubernatori Duxovskiy podsho Nikolay II ga yo‘llagan xatida: “Qo‘zg‘olonchilar bizning uyquda yotgan 22 soldatimizni o‘ldirganliklari uchun buning xuniga isyonchilardan 22000 kishiga o‘lim jazosi berilib, 300 kishi katorgaga hukm etildi. Qo‘zg‘olonchilar rahbari yashagan joy tep-tekis qilinib, u yerga 200 oilali rus qishlog‘i qurildi”, degan edi. Ya’ni, Mingtepa qishlog‘ining mahalliy aholisi butunlay boshqa yerga, dashtlikka ko‘chirilib, ularning o‘rniga ruslar ko‘chirib keltirilgan va bu qishloq Marhamat deb nomlangan. Xuddi shuningdek Andijon shahri atrofidagi Xakan, Xartum qishloqlaridan ham yerli aholi ko‘chirilib, ularning yerlari rus oilalariga berildi. Bu yerlar faqat 1925-26 yillardagina o‘z egalari qaytarib berildi.

Xullas, ota-bobo avlod-ajdodlarimiz Chor Russiyasi mustamlakachilik zulmi sharoitida ham erksevar halqimizning tarixiy an‘analarini muqaddas saqlab davom ettirdilar va kelgindi bosqinchiga qarshi qonuniy va adolatli kurash olib borganlar.

11-mavzu: Chor Russiyasi mustamlakachiligi sharoitida Turkiston o‘lkasida madaniy hayot (2 soat ma’ruza).

Reja

1. Turkiston o‘lkasida xalq maorifi va adabiy-ma’rifiy jarayon.
2. Ilm-fan va san’at rivoji
3. Me’morchilik, badiiy xunarmandchilik va tasviriy san’at.

Rus bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o‘choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun o‘sha maktab va madrasalarning g‘oyatda xavfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu bois chorizm o‘lkada ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan boshlab, bu soha bo‘yicha o‘z dasturini ishlab chiqadi. Ayniqsa bu sohada K.P.Kaufman jon kuydirib faoliyat ko‘rsatgandi.

1866 yilda Toshkent Rossiya tomonidan bosib olinganidan bir yil o‘tgach, Toshkent shahrida birinchi rus maktabi ochildi, bundan keyin Turkistonning boshqa shaharlarida ham rus maktablari ochila boshladi. 1876 yildan e’tiboran Turkiston o‘lkasidagi o‘quv yurtlari boshqarmasi tuziladi, shu yili Toshkentda erlar va xotin-qizlar progimnaziylarining quyi sinflari ochildi.

1880 yili Imperiya Davlat Kengashining qarori bilan Turkistonni ruslashtirish siyosatining yangi bir jabhasi xalq maorifiga qaratildi. Kaufman kengashda Turkistonda ruslar bilan mahalliy millat bolalarini birgalikda o‘qitish masalasini ko‘taradi. U musulmon va rus maktablarining ajroalib turishi iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi. Bu g‘oyani Kaufmanning izdoshi general-leytenant N.O. Rozenbax (1884-1889) davom ettirib, ibtidoiy turdagi boshlang‘ich maktablar – rus-tuzem maktablari tarmog‘ini yaratish loyixasini ishlab chiqdi. 1884 yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochildi, ularning soni XIX asr oxirida yuzdan oshib ketdi. Bunday maktablarda o‘quv kuni ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda ikki soatlik mashg‘ulotni rus o‘qituvchisi, ikkinchi qismda esa saboqni o‘zbek muallimi olib borgan. O‘quv yili 125 kundan oshmagan. 1887 yilda rus-tuzem maktablari uchun umumiy tarzda tuzilgan dastur ishlab chiqilgan. Bu maktablar uchun darsliklar sistemasi ham bo‘lmagan. O‘zbek bollarini rus tiliga o‘rgatish metodlari tasodifiy xarakterda bo‘lgan. Mana shular natijasida rus-tuzem maktablarini kamdan-kam mahalliy millat vakillari bitirib chiqqanlar. Maktabni tamomlaaglar ruschani odatda ancha tez va ravon o‘qiganlar, rus grammatikasiga doir biron bir qoidani ham

yoddan aytib bera olganlar, lekin ogʻzaki soʻzlashda qoʻpol xatolar qilganlar.

19-asr oxiriga kelganda Turkiston oʻlkasidagi rus-tuzem maktablari uchun darsliklar sistemasi tuzilgan. Bu sistema koʻrgazmali-ogʻzaki metod asosida tuzilgan edi. Lekin darslikdagi asosiy kamchilik shunda ediki, unda oʻquvchilarning ona tili hisobga olinmagan edi.

1898 yilgi Andijon qoʻzgʻoloni Turkiston maʼmurlari musulmon ruhoniylariga extiyotlik bilan qarashga majbur etdi. Shu munosabat bilan Turkiston maʼmurlari rus-tuzem maktablarining rolini koʻtarmoqchi boʻldi. Bunda avvalo mahalliy oʻquvchilar sinflariga eʼtibor berila boshladi. Fargʻona harbiy gubernatori N.I. Korolkov 1898 yilda imperatorga yoʻllagan hisobotida podsho maʼmuriyatining oʻlkani ruslashtirish borasidagi dasturini bayon etib, tuzemetslarning oʻz bolalarini ixtiyoriy rus-tuzem maktablariga berishiga erishish muhimligiga eʼtiborni qaratgan. Buning uchun u mahalliy maʼmuriyat amaldorlariga yaqin besh yil ichida ish yuritishni rus tiliga koʻchirtirish lozimligini uqtiradi. Korolkov bu tadbir mahalliy millat vakillarini mansabga qiziqib, farzandlarini rus-tuzem maktablariga berish istagini uygʻotadi, deb hisoblagan.

Bu gʻoya oʻz natijasini berib, rus-tuzem maktablari oʻquvchilari soni koʻpaya boshladi. 19-asr oxirida Turkistonda 100 dan ortiq rus-tuzem maktablari boʻlib, xonliklar poytaxtlari Xivada (1891 yilda) va Buxoroda (1894 yilda) ham rus-tuzem maktablari ochildi.

Shaharlarda ochilgan bilim yurtlari ham ruslashtirishning muhim oʻchogʻi boʻlib hizmat qildi. ular rus-tuzem maktablaridan internatlari bilan ajralib turgan. Internatlarda oʻzbek, qirgʻiz, qozoq bolalarining rus tengdoshlari bilan birga yashab, rus tilini yaxi oʻzlashtirayotgani mustamlakachilarga ayon boʻlgan. Shuning uchun ham Turkiston general-gubernatori M.G. Chernyaev (1882-1884) Chimkent shahar bilim yurtini kengaytirish uchun 100 ming rubl ajratgani va bilim yurtida oʻqiyotgan xotin-qizlar uchun pul mukofoti taʼsis etgani bejiz emas.

Ammo rus amaldorlariga ruschani yaxshi bilgan va xalq koʻzini ochib gʻaflat uyqusidan uygʻotadigan ziyolilar kerak emas edi. Mustamlaka maʼmuriyati Turkiston ziyolilari katta mansabga erishsa, oʻz xalqi uchun xizmat qilishlari va mustamlaka tartiblariga qarshi chiqishlari mumkinligidan xavfsirashgan. Shu boisdan ham mustamlaka maʼmuriyati mahalliy millat vakillari orasidan yetishib chiqqan oydin fikrli ziyolilarni doimo taʼqib etishga harakat qilgan. Mahalliy xalq manfaatlari yoʻlida qaygʻuradigan ilm odamlari, millatparvar kishilar mahalliy boshqaruvga umuman yaqinlashtirilmagan. Bunday kimsalar savylovlarda gʻolib boʻlsada, rus maʼmuriyati tomonidan saylov natijalari bekor qilingan. Vaholanki, mustamlaka Turkistonda mahalliy maktab-madrasalarda saboq olgan, bilimli, savodli kishilar ham koʻp edi.

Chor Rossiyasi maʼmurlarining Turkiston oʻlkasida yerli xalq vakillarini qorongʻulik va zulmatda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zoʻrlilik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida oʻlkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti toʻxtab qolgan emas. Ammo ushbu masalada ham sovet davri tarixchilari oʻz asarlarida chorizm davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni maqtab, rus bosqiniga qadar oʻlkadagi ahvolni kamsitib yerga urdilar. Ular 1897 yil oʻlkada savodli oʻzbeklar - 1,6 foizni, qozoqlar - 1 foizni, turkmanlar - 0,7, qirgʻizlar - 0,6 foizni tashkil etgan, aholining savodxonligi shundan keyingi yillarda ham oshmagan, Oʻzbekistonda har 100 kishining 98 tasi savodsiz edi, deb keldilar.

Hatto ayrim olimlar vatanga, oʻz xalqiga xiyonat qilgan va bosqinchi Rossiya hukmdorlari tomoniga oʻtgan Saidazimboy singari savdogarlarni Toshkentda oʻz uyida rus-tuzem maktabi ochdi deb osmonga koʻtarib maqtaydilar. Aslida esa rus-tuzem maktablari asosan tilmochlar-tarjimonlar tayyorlashga moʻljallab tashkil etilgan edi.

Shu bilan birga sovet davrida bu kabi daʼvolarni inkor etuvchi xolisona tadqiqotlar ham eʼlon qilindi. Taniqli tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim oʻzining «Uydirma va haqiqat» maqolasida quyidagicha yozadi:

Xoʻsh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining fahru iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Goʻri Amir, Shohizinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa koʻplab asori-atiqalarni qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qay yoʻl bilan jahonga Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarni yetkazib berdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy, Ulugʻbek, Forobiy, Jomiy va boshqa koʻplab shoiru fozillari bilan olamga

dong taratgannining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi minglab ma'rifatparvarlari bo'lgan xalqning savodsizligiga ishonish mumkinmi?

P.G.Kim yuqoridagi kabi mantiqsiz va kurakda turmaydigan da'volarni inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan o'z maqolasida isbotlab berdi. U bunday yozadi: «Endi manbalarda keltirilgan faktlarga asoslanib, 1897 yili Rossiya, Belorussiya va Turkistonda aholining, maktablarning, ulardagi o'quvchilarning sonlarini kuzatsak, bu o'lkalardagi savodxonlikning darajasi oydinlashadi.

Rossiyada aholining umumiy soni - 126,388,800, maktablar soni - 33,401, o'quvchi soni - 2.318.100, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar 1,8 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi-21 foiz;

Belorussiyada aholining umumiy soni - 6.492.857, maktablar soni - 2.263, o'quvchilar soni - 125.418, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar - 1,9 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi - 24,7 foiz; Turkistonda aholining umumiy soni - 3.792.774, maktablar soni - 6.027, o'quvchilar soni - 64015, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar - 1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi - 19,55 foiz bo'lgan».

Axir mustamlaka Turkistonidagi juda ko'p eski maktablarda oliy ta'lim beradigan o'quv yurtlarida ajdodlarimiz farzandlari ta'lim olganliklari, madrasalarda mudarrislar, mahallalarda savodxon ayollar otinoyilik qilib, shariat (fikh) qonunchiligidan ta'lim-tarbiya berganlari, o'sha o'quv muassasalarida ko'plab yurtdoshlarimiz o'qib, zamonasining savodli kishilari bo'lib yetishganini unutmashlik kerak. XX asr boshlarida butun o'lka bo'yicha jadid maktablarining necha tarmog'i yuzaga kelganini ham e'tibordan chiqarmaslik lozim.

Ehtimol shu boisdan mashhur rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, A.D.Middendorf, sayyoh olim A.L.Fedchenko, sharqshunoslardan V.P.Nalivkin, A.L.Kun va boshqalar o'lkadagi maorif taraqqiyotiga yuqori baho berganlar, xalqimizning madaniyatiga hayron qolganlar va uni olqishlaganlar. A.Middendorfning 1882 yilda chop etilgan «Ocherki Ferganskoy dolini» kitobida shunday satrlarni o'qiydiz: «Farg'ona viloyatida qadimdan o'troq holda yashashni sevgan mehnatkash qabilalar istiqomat qilishadi. Albatta, o'ziga xos betakror sharoiti bo'lgan Farg'ona yuksak madaniyatli mamlakatlar cho'qqisiga ko'tarildi». A.Middendorfning so'ziga qaraganda XIX asrga yevropaliklar yer xo'jaligi ravnaqiga harakat qilib maqsadlariga erisholmayotgan bir paytda Farg'ona vodiysida bu muammo ancha burun hal bo'lgan, u joylarda dalalar sug'orilar, yaylovlar esa o'g'itlantirilarkan».

Olim o'z fikrini davom ettirib yozadi: «Farg'onada qilingan ishlarga havas qildik, bu yerdagi zaminga nisbatan yuksak madaniyat boshqa yerlarga qaraganda ko'proq saqlanib qolganligini ko'rdik. Bir qancha yerlarni ko'zdan kechirib shu xulosaga keldikki, Farg'onada yer xo'jaligini ehtiyotkorona va mohirona olib borishar ekan. Bu esa hayratda qoldiradigan haqiqiy madaniy mehnat eng katta zanjirining bir qismi ekaniga ishonch hosil qildik».

«Golos» gazetasi 1874 yil 29 avgust sonida suv xo'jaligi masalasi haqida bunday yozadi: «amalda ko'pincha tuzemetslardan (ya'ni mahalliy aholidan) ko'p narsani o'rganishga to'g'ri kelmoqda. Irrigatsiya haqida Rossiyada oxirgi vaqtgacha o'ylanmagan edi. Osiyoda esa bu soha yuksak darajada rivojlangan va albatta, dalalarni sun'iy sug'orish bo'yicha biz O'rta Osiyoliklarga hech narsa o'rgata olmaymiz. Bizda Janubiy Rossiyada irrigatsiya borasida tortishuvlar davom etayotgan bir davrda Osiyoliklar tog'larda korizlar orqali kanallar qurishmoqda. Uning tubidan o'nlab sajen yuqori suvlarni chiqarishmoqda, bir qoyadan ikkinchi qoyaga arg'amchi tortib tarnov yordamida suv olishmoqda, bular esa bizdagi donishmandlarning tushiga ham kirmagan».

Rus olimlari, sayyohlari, savdogarlari Qo'qon xonligidagina emas, balki o'lkaning boshqa joylarida ham sun'iy sug'orish usulini o'z ko'zlari bilan ko'rib yuksak baho berganlar.

Turkiston xalqlari madaniyati haqida Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskiyning 1899 yili podshoga yozgan dokladida qiziqarli fikrlar bor. Jumladan, u shunday yozadi: «Uzoq vaqtlar mobaynida Buxoro butun musulmonlar olamida musulmon huquqshunosligi va ilmining mo'tabar markazi sifatida tan olib kelingan, boz ustiga bu obro'-e'tiborni hanuz yo'qotmay

kelayotir. Bir vaqtlar O'rta osiyolik ruhoniylar, qonunshunos arab tili bilimdonlari faoliyatining ahamiyati naqadar ulug' bo'lganini bugungi kunda butun dunyodagi musulmon-sunniylar qo'llayotgan mashhur va mo'ttabar shariat majmualarining ayrimlari O'rta Osiyoda bitilganini eslashning o'zigina kifoya. «Hidoya-i-Sharif» Marg'ilonda, «Aqoid» Buxoroda, «Hikmat-ul-Ayn» Samarqandda yaratildi. Musulmon olamiga shariatning so'nggi talqinini O'rta Osiyo taqdim etdi. Bulardan tashqari, bu o'lka olamga Navoiy, So'fi Olloyor, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi shoir-so'fiylarni berdi».

Xullas Turkistonda Rossiya bosqiniga qadar aholining savodxonlik va madaniyati darajasi ba'zi kimsalar ta'kidlagani singari qoloq bo'lmagan. To'g'ri, hozirgi davrga nisbatan oladigan bo'lsak, savodsizlar Turkiston o'lkasida XIX asrda ko'p bo'lgan. Ammo o'tgan o'sha XIX asrda qaysi mamlakatda ahvol bundan ko'ra yaxshiroq edi? Shuning uchun xalqimizning o'tmish tarixini nodonlarcha qora bo'yoqlarda yoritishga istiqlool tufayli barham berilmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmida o'lkaning ijtimoiy-madaniy hayotida albatta ba'zi bir ijobiy o'zgarish va yangiliklar bo'ldi. Bu o'zgarishlar va yangiliklar mustamlakachilar tomonidan yerli xalqlarning talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida ro'yobga chiqarilgani yo'q. Balki, birinchi navbatda va asosan bosqinchilarning talablari va manfaatlari nuqtai-nazaridan amalga oshirildi. Ana shunday yangilik va o'zgarishlardan biri o'lkada aholiga xizmat qiluvchi madaniy oqartuv muassasalaridir. 1870 yilda Toshkentda kutubxona tashkil qilindi. Kutubxona uchun Peterburg va Moskvadan 1867 yilda yuborilgan dastlabki kitoblar zo'r qiyinchiliklar bilan 1868 yilda Toshkentga yetib kelgan edi. Bu kitoblar asosan Markaziy Osiyoni va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni o'rganishga va boshqa masalalarga aloqador adabiyotlar edi. Kutubxona fondi mutlaqo rus tilida bo'lib, uning o'quvchilari ham asosan rus ofitserlari, amaldorlari, va ularning oilalaridan iborat edi. Dastlabki kitobxonlar to'g'risidagi ma'lumot 1870 yil may oyidan 1871 yil sentabrgacha bo'lgan davrga aloqadordir. Hammasi bo'lib 75 kitobxon bo'lgan, shundan 45 nafari ofitser, 19 nafari amaldor, 4 nafari savdogar, 2 kishi ruhoni, bir kishi mahalliy maktab talabasi edi.

Shunday bo'lsada, kutubxona har holda ma'rifiy ish bilan shug'ullandi va o'lkada XIX asr rus adabiyotining demokratik g'oyalarini tarqatishda ma'lum rol o'ynadi. Biroq 70-80-yillarda Rossiyada madaniyat va xalq maorifi 60-yillarda qo'lga kiritgan demokratik huquqlarni yo'q qilishga intilgan reaksiyaning hujumi boshlanib ketdi. Bu hujumdan kutubxona ham chetda qolmadi. 1882 yil dekabrda Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyaevning buyrug'i bilan alohida ishlar bo'yicha amaldor, «Peterburg xarobalari» asarining muallifi, reaksion yozuvchi V.V.Krestovskiy kutubxonani taftish qildi. U o'zining Chernyaevga yozgan raportida : «Rus mualliflaridan Saltikov, Dobrolyubov, Pisarev, Nekrasov va Shiller (A.Mixaylov) asarlariga talab eng ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi», deb yozdi. Ushbu raportga asosan general Chernyaev 1883 yil 1 yanvardan e'tiboran kutubxona faoliyatini to'xtatish to'g'risida buyruq berdi. Jamoatchilikning talabi bilan 1889 yilda kutubxona yana o'z ish faoliyatini boshladi. Markaziy Osiyoni o'rganish bilan shug'ullangan taniqli rus olimlari arxeolog V.L.Vyatkin, akademik V.V.Bartold va boshqalar kutubxonaga faol yordam berib turishgan, natijada kutubxona qimmatli asarlar va materiallar bilan to'lib borgan.

1868 yilda Toshkentda bosmaxona va litografiya, 1874 yilda Xivada litografiya, keyin esa Samarqand, Farg'ona va boshqa shaharlarda litografiyalarning paydo bo'lishi Turkiston xalqlari hayotida muhim voqea bo'ldi. 1880 yildan boshlab mahalliy tilda chiqadigan "Turkiston viloyati gazetasi" sahifalarida tabiyot, meditsina, tarix, adabiyot va falsafaga oid kichik-kichik xabarlar ba'zan xatto maqolalar chiqa boshladi. Shu tariqa Turkistonda vaqtli matbuot yuzaga keldi. 1898 yilda Toshkentda "Russkiy Turkestan", 1904 yildan boshlab Samarqandda "Samarqand" gazetalarini chiqarish yo'lga qo'yildi. 1880 yilda Navoiyning "Xamsa"si, "Devoni Munis" va "Devoni Roji" asarlari bosilib chiqdi.

1906 yilda Toshkentda o'zbek tilida "Taraqqiy" gazetasi chiqarildi. Shundan so'ng birin-ketin yangi matbuot organlari vujudga kela boshlaydi. Toshkentda "Sadoi Turkiston" gazetasi

jadidlar tomonidan chiqarila boshlaydi. 1916 yildan esa rus demokratlari va jadidlar Andijonda “Turkestarskiy golos” gazetasini chiqara boshlaydilar.

Bu davrda tarix va adabiyot sohasida ijod qilgan maxalliy yozuvchilar o‘z asarlarida mahalliy xalq ommasining ezgu niyatlarni tarannum etdilar.

Axmad Donish (1827-1897) o‘z davrining yirik ma’rifatparvar olimi va faylasufi, yozuvchisi va astronomi, tarixchisi va arxitektori, musavviri va musiqanavisi edi. U “Ulug‘ qonun”, “Tanlangan qarorlar”, “Noyob voqealar”. “Mang‘it amirlari xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” kabi asarlar yozib qoldirgan. Ahmad Donish o‘z asarlarida taraqqiyotda orqada bo‘lgan amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni tanqid qiladi, rus madaniyatini omma o‘rtasida tinmay targ‘ib qiladi va undan o‘rganishga chaqiradi.

Muqimiy (1850-1903) 19-asr oxirida Turkistonda yuzaga kelgan demokratik adabiyotning yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U asosan lirika (g‘azalllar, muhammaslar, ruboiy, tuyuq va fardlar), hajviy, sayohatnomalar, maktubot janrlarida ijod qilgan. U o‘z xajviyalarida mahalliy zolim amaldorlarining kirdikorlarini fosh qilib, mazlum xalqning nochor ahvoriga achinadi. Bu kabi asarlari jumlasiga “Tanobchilar” she’ri misol bo‘la oladi. Shoir Muqimiy “Sayohatnoma” asarida och va yalang‘och dehqonlarni zolimlarcha ezayotgan mingboshilarni tanqid qilgan.

Furqat (1858-1909) o‘zining xalqchil va demokratik ruhda yozilgan asarlar bilan xalq orasida katta obro‘ qozongan. U shoirlar maskani Qo‘qonda tug‘ilgan. Furqat ham dastlabki davrlarda Turkistonni bosib olgan chor ma’murlariga umid ko‘zi bilan qaragan. Xatto u rus ilm fani, texnikasi va madaniyatini tadhib etuvchi asarlar yozib o‘z xalqini unga da’vat etadi. Uning “Gimnaziya”, “Ilm hosiyati”, “Vistavka xususida” kabi asarlari fikrimiz isbotidir.

Zavqiy (1853-1921) o‘zbek demokratik xalqchil adabiyotining Muqimiy va Furqat ijod etgan an‘analarini davom ettirdi. Zavqiy ijod etgan asarlar yo‘nalishini quyidagi to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: 1. Lirik she‘rlar. 2. Hajviyalar. 3. Sayohatnomalar. 4. Dostonlar. Shoir o‘zining “Aylab keling” “Kelmasa kelmasun netay”, “Ofarin”, “Ajab ermas”, “Farg‘ona”, “Ahli rasta hajvi”, “Ajab zamona” kabi lirik va hajviy she‘rlarida insoniy fazilat va sadoqatni tarannum etadi.

Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan ancha ilgariyoq rus olimlari o‘lkani o‘rganish borasida ancha ishlarni amalga oshirgan edilar. 19-asrning 2-yarmida o‘lkani ilmiy jihatdan o‘rganish yanada avj oladi.

N.Ya. Seversov, P.P. Semyonov-Tyan-Shanskiy (1827-1914) lar O‘rta Osiyoni geografik joylashuvi va uning reliefini o‘rganish borasida muhim ishlar qildilar. Rus sayyoxi A.P. Fedchenko Turkistonni tabiiy-tarixiy jihatdan o‘rganib, Farg‘ona va Oloy vodiysini tekshirdi. Shuningdek, u Zarafshon vodiysi va Qizilqumni ham tabiiy tarixini o‘rganadi. 1877-1879 yillarda I.V. Mushketov Oloy, Pomir, Buxoro, Xisor, Amudaryo bo‘ylari va Qizilqumni geologik jihatdan tekshirib, Turkistonning birinchi geologik kartasini tuzdi. U “Turkiston” nomli monumental monografiyasini yozgan.

Chorizm mustamlakachiligi davrida bir qator rus ziyolilari va olimlari tomonidan Turkistonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid turli materiallar “Turkiston to‘plami” nomi ostida jamlana boshlagan. Bu to‘plam Turkiston o‘lkasiga oid asarlar va maqolalarning ajoyib majmuasi bo‘ldi. Bu to‘plam 594 tomdan iborat bo‘lib, Oktabr to‘ntarishigacha bo‘lgan Turkiston haqidagi kitoblardan, ro‘znoma va oynomalardan olingan maqolalardan tashkil topgan. To‘plamning 416 tomi mashhur rus bibliografi V.I.Mejov tomonidan tayyorlangan. Bu tomlarga 1867-1887 yillarga oid materiallar kiritilgan. So‘ngra to‘plam ustida olib borilayotgan ish to‘xtab qolgan va 1907 yildan 1917 yilgacha bo‘lgan davrda har xil bibliograflar to‘plamning 175 tomini tuzganlar.

XIX asrning 80-90 yillarida Toshkent va boshqa yirik shaharlarda turli ilmiy jamiyatlar (arxeologiya, jug‘rofiya, etnografiya kabilar) tashkil etilgan. 1896 yilda Samarqand «Tarixiy

muzey» ish boshladi. Bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Bu borada rus olimlari I.V.Mushketov, N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, P.P.Semenov Tyan-Shanskiy, N.M. Prjevalskiy va boshqalar samarali ishlar olib bordilar. Turkiston xalqlari tarixini o'rganish va yoritish xalqimizning o'tmish madaniyatini ilmiy tadqiqot qilishda sharqshunos olimlar V.V.Radlov, V.V.Bartold, Ye.E.Bertels va boshqalarning xizmatlari oz emas. Shu davr mobaynida bir qator ijodkor rus adiblari asarlarining mahalliy xalqlar tillariga o'girilishi ham ijobiy faoliyatlardan hisoblanadi.

1871 yilda O'rta Osiyo ilmiy jamiyati vujudga keldi, bu jamiyat o'z oldiga O'rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistika va iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tarqatish vazifasini qo'ygan edi. 1874 yilda Toshkentda dastlabki observatoriya tashkil qilindi. Observatoriya xodimlari O'rta Osiyo xududlarida 870 astronomik punktni belgiladilar.

O'lkada ish olib borgan arxeolog xavaskorlar 1895 yilda Turkiston arxeologiya xavaskorlar to'garagiga birlashdilar. Lekin fanning boshqa soxalarida bo'lgani singari arxeologiya soxasidagi ishlar ham plansiz olib borilgan. Arxeologik ishlar asosan qadimgi yodgorliklarni yozma manbalarga qarab tasvirlash va o'rganishdan, ayrim arxeologik yodgorliklarni qidirish va qazuv ishlarini olib borishdan iborat bo'lgan. Bu kabi ishlar asosan Samarqandda olib borildi. 1895 yili arxitektor A.V. Shchusev ishtirokida tashkil etilgan ekspeditsiya natijasida Go'ri amir maqbarasining arxitekturasini albom shaklida nashr etiladi.

Rus olimlari tomonidan o'lka tarxini o'rganish 19-asr ikkinchi yarmida nisbatan avj oladi. O'lka rus mustamlakasiga aylangaitdan keyin qator rus sharqshunoslari o'z faoliyatlarini kengaytiradilar. 19-asrning ikkinchi yarmida bir qancha yodgorliklar to'g'risida ma'lumotlar to'plagan va Xiva tarixi bilan shug'ullangan A. Kun, shuningdek, V. Nalivkinni (Qo'qon xonligi tarixi) ko'rsatib o'tish kerak. O'rta Osiyo tarixiga oid muxim manbalardan biri Narshaxiyni "Buxoro tarixi" asari N.S. Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'lkani boshqarish extiyojlari xalq ommasi hayotini o'rganishda xozir ham muxim manba hisoblangan turli xil statistik ma'lumotlarni to'plash va nashr etishni talab etgan. 1871-1874 yillarda har yili "Turkiston o'lkasini statistik jihatdan o'rganish uchun materiallar" bosib chiqarilgan. Turkiston o'lkasining ayrim oblastlarining, ayniqsa muxim paxtachilik sanoati rayoni sifatida mustamlakachi hokimiyat rasmiy doiralarining e'tiborini o'ziga tortgan Farg'ona viloyatining xar yilgi obzori nashr etilib turgan.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin san'at sohasida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. O'lkaga rus san'ati turli formalarda kirib kela boshladi. O'zbekistonga musiqachilar, rassomlar, arxitektorlar, artistlar kela boshladi. Ular o'lkada Yevropa madaniyati va san'ati ko'rinilarini yoya boshladilar. Mahalliy aholi ularning ijodi bilan tanisha boshladilar. Bu davrda o'zbek san'ati hamma sohada yanada rivojlandi, yangi g'oyalar, yangi texnika imkoniyatlari bilan boyidi. Ijtimoiy fikr sohasida yangi oqimlarning rivojlanishi va ilgari madaniy cheklanishning yo'qolib borishi o'zbek san'atiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Turkiston o'lkasida qadimdanoq yuksak taraqqiy etgan xalq professional teatri 129-asrda asosan ikki xil: qiziqchilar teatri va qo'g'irchoq teatridan iborat edi. Qiziqchilar ham, qo'g'irchoq o'ynatkvchilar ham hunarmandlar kabi rayonlar bo'yicha ayrim sexlarga birlashgan. Xalq artistlari sexi yaxshi uyushtirilgan tashkilot bo'lgan. Ular turli bayramlarda va tadbirlarda xalq o'rtasida o'z san'atlarini namoyish qilganlar.

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin bu yerga rus teatri ham kirib kela boshladi. Dastlabki rus spektakllarini xavaskor mahalliy ziyolilar qo'ygan.

12-mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot.

(2 soat ma'ruza)

Reja

1. Buxoro amirligining hududi va aholisi. Xalq ommasining ahvoli.
2. XIX asr oxirlarida Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
3. XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi umumiy ahvol.

1. 19-asrning 2-yarmida Buxoro amirligining hududi 200 ming kvadrat km bo'lib, aholimi tahminan 3 million kishiga yaqin edi. Asosan o'zbeklar yashaydigan Zarafshon, Qashqadaryoning unumdor vodiylari, tojiklar yashaydigan tog'li Ko'lob, Darvoz, Qorategin va Baljuvon viloyatlari, shuningdek Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Chorjo'y, Qarshi va Karki rayonlaridagi turkman yerlari amirlik tasarrufiga kirar edi. Ma'muriy-hududiy jihatdan Buxoro amirligi 28 viloyat yoki beklikka bo'lingan edi.

Amirlikning poytaxti Buxoro shahri va uning atrofidagi tumanlar alohida ma'muriy birlik bo'lib u qushbegi tomonidan boshqarilgan. Amirlik aholisining yarmidan ko'pini o'zbeklar tashkil etgan, ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida yashaganlar. Ularning asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan.

Amirlikdagi aholining 30 foizdan ko'prog'ini tojiklar tashkil etib, ular Sharqiy Buxoroda, Ko'lob, Qorategin, Darvoz, Qo'rg'ontepa, Baljuvon, Ro'shon, Shug'non va Vaxonda yashardilar. O'zbeklar singari tojiklar ham dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Davlatdagi aholining 10 foizga yaqinini tashkil qilgan turkmanlar Amudaryoning o'ng tomonida Chorjo'y, Qarshi va Karki rayonlarida yashardilar. Turkmanlar asosan chorvachilik bilan shug'ullangan.

Buxoro qo'shinlari Zirabuloqda chor qo'shinlaridan yengilganidan keyin 1868 yil 2 iyunda amir Muzaffar bilan Kaufman o'rtasida sulh tuziladi. Bu sulhga binoan amirlik ustidan chor Rossiyasi protektorati o'rnatiladi. Buning natijasida Buxoroning mustaqilligi tugadi, u chorizmning mustamlakasiga aylanib qoldi.

Protektorat o'rnatilganidan keyin o'tgan dastlabki yillarda Buxoroning ichki hayoti eski izdan bordi. Ammo 19-asrning 80-yillari oxiridan boshlab bu davlatga rus kapitali kirib kelishi bilan unda kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. 1885 yilda Zakaspiy temir yo'li Ashxabodga yetkazildi. Chorjo'y va Buxoro orqali Samarqandgacha qurilgan temir yo'l uning davomi bo'ldi, bu yo'l 1888 yilda qurib bitkazildi.

Temiryo'llar amirlik hududidan o'tgani uchun hakm Turkiston general-gubernatorligi amirlikning ichki ishlariga tobora ko'proq aralasha boshlaydi. Amirlik siyosiy va iqtisodiy jihatdan Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. Shu bilan birga amirlik hududlarida ham rus posyolkalari vujudga kela boshladi. Dastlabki rus posyolkalarining o'rnida Yangi Buxoro, Chorjo'y, Termiz va Karki singari kichik shaharlar vujudga keldi. Bu shaharlarga yoki shaharlarga yaqin yerlarga Turkiston gubernatorligining harbiy qo'shinlari keltirilib joylashtiriladi.

Buxoro chor Rossiyasining iqtisodiy hayotiga tortilagnligi bois, 1895 yilda amirlik rus bojxona doirasiga qo'shildi. Buxoroga karvon yo'llari orqali Afg'onistondan va qisman Hindiston, Erondan tovarlar kelib turar edi. Rossiyaga yuborilgan Buxoro tovarlari va bu yerga keltiriladigan rus tovarlari rus bojxonalarida tekshirilar edi. 1892 yili Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida imzolangan bitim amirlikni mustaqil savdo siyosati yuritishdan mahrum qilib qo'ydi va haqiqatda amirlik Rossiyaning ichki bozoriga aylanib qoldi. Amirlikka Rossiyadan keltirilayotgan tovarlardan va Rossiyaga olib ketilayotgan tovarlardan asosan rus savdogarlari, qisman buxorolik katta savdogarlar katta daromad ko'rardilar. Amirlikka rus kapitalining kirib kelishi esa amirlik tangalari qiymatining tushib ketishiga sabab bo'lardi. Bundan esa oddiy hunarmandlar va dehqonlar katta zarar ko'rardilar. Umumiy holda amirlik tangasi rus pulining 15 tiyinigga teng bo'lib qolgan edi.

2. Buxoro amirligidagi kabi Xiva xonligida ham chor Rossiyasi protektorati o'rnatilagnidan keyin xalq xo'jaligida ma'lum o'zgarishlar bo'ldi, lekin Turkiston o'lkasidagiga va Buxoro amirligidagiga qaraganda bu yerda kapitalistik munosabatlar sekinlik bilan rivojlangan edi. 1873 yilda Chor Rossiyasining qo'shinlari Xiva xonligini bo'ysundirdi. 1873 yil 12 avgustda Rossiya

bilan Xiva xonligi o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Xiva xonligi haqiqatda Rossiya imperiyasining vassali bo'lib qoldi.

Xonlik hududining Rossiyaga qo'shilgan qismida 1873 yilda Amudaryo okrugi tashkil qilindi. U 1874 yilda Amudaryo bo'limi deb o'zgartirildi. Rossiya zabt etishidan avval xonlikka qarashli yerlarning kattaligi 130 590 kvadrat km edi. Protektorat o'rnatilganidan keyin 75 000 kvadrat km qismi (Amudaryo bo'limi) Turkiston general-gubernatorligi qaramog'iga o'tdi. 19-asrning 2-yarmida xonlikdagi aholining jami 500 ming kishiga yaqin bo'lib, Amudaryo bo'limining aholisi 205 ming kishi edi. Xiva xonligida turli xalqlar: o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, eroniylar, arablar va boshqalar yashar edi. Son jihatdan o'zbeklar ko'pchilikni (64,7 foiz) tashkil qilgan.

Xonlikda davlat tuzumining muhim tomoni shunda ediki, unda davlat apparati bir tizimga solinmagan edi va u maxsus idoralarga ajratilmagan edi. Uning yana bir muhim xususiyati shunda ediki, davlat apparatining yuqori va mahalliy organlaridagi amaldorlar xizmatlari uchun xonlik tomonidan maosh olmas edi. Xon xazinasi uchun to'plangan soliqlardan tashqari aholidan yig'ib olingan mablag'lar bu amaldorlarning daromad manbai hisoblanar edi.

1873 yildan keyin xonlikda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan aytarli siljish bo'lmadi. Faqat rus kapitalining ta'siri ostida xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari bir qadar rivojlandi. Aholining asosiy tirikchiligi dehqonchilik edi. Sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'pi xon va amaldorlar qo'lida to'plangan edi. Yirik yer egalari o'z yerlarini kambag'al dehqonlarga og'ir shartlar bilan ijaraga berardilar. Xonlik dehqonchiligida donli ekinlardan bug'doy, jo'xori, sholi, mosh, tariq, arpa va boshqalar, moyli ekinlarodan kunjut, zig'ir, texnika ekinlaridan ro'yon va paxta, tamaki, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilardi.

19-asr oxirida xonlikning jami ekin maydoni 2 005 520 desyatina bo'lib, shundan sug'oriladigan ekin yerlari 324 000 desyatina edi. Sug'oriladigan ekin yerlarining 90 foizga yaqini xonlikning janubida edi. Xonlikning Xiva, Xonqa, Xazorasp, Yangi Urganch, Ambar Manoq, Ko'xna Urganch, Toshovuz, Pitnak, Ilyali, gurlan, Mang'it, Porsu va boshqa rayonlaridan iborat janubiy qismi xonlikning eng unumdor qismi bo'lib, davlatdagi barcha dehqonchilik mahsulotining 80 foizi shu yerlarda yetishtirilardi. Xonlik aholisining 60 foizga yaqini shu janubiy hududda yashardi. Xonlikning janubiy qismida asosan don yetishtirilsada, paxtachilik, pillachilikva qorako'lichilik ham kattagina o'rin tutardi.

Xiva xonligida dehqonchilik Buxoroga qaraganda ko'p darajada yuqori turgan. Qishloq xo'jalik ekinlarini almashlab ekish usuli Xiva xonligida qadimdan ma'lum edi. Ammo dehqonchilik texnikasi juda qoloq bo'lgan. Bu yerda asosan omoch, yog'och mola, ketmon, belkurak bilan dehqonchilik qilingan.

Xonlikdagi yerlarni sug'orish uchun Amudaryodan suv olingan. Xonlikda Shohobod, Yormish, G'azovot, Polvonyob, Qilich Niyozboy, Lovdon va boshqa kanallar qazilgan. Yerlarni sug'orida chig'irdan ham foydalanilgan. Xiva xonligidagi chor ma'murlari yangi kanallar qurishga va eskilarini yaxshilashga harakat qilganlar. Shu maqsadda 90-yillarda injener Gelman loyixasi asosida xonlikning janubida yangi kanal qurila boshladi, u 100 ming desyatina yangi yerlarni sug'orish imkonini berardi. Loyixa asosida 1894 yil boshlangan ishlar 1900 yilgacha davom etdi. Shu davr ichida mo'ljallangan ishlarning faqat bir qismi bajarildi xolos. Mo'ljaldagi 100 ming desyatina o'rniga faqat 1065 desyatina yangi yerga suv chiqarildi xolos.

19-asrning oxirida xonlik ekin maydonlarining 44,2 foiziga don ekinlari, 32 foiziga texnika ekinlari ekildi. Shu davrlardan e'tiboran paxtachilik tez rivojlana boshladi. Xonlikda paxtachilikka ixtisoslagan rayonlar vujudga kela boshladi. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan xonlikda amalda bo'lgan natura solig'i dahyak o'rniga pul bilan soliq olina boshladi.

19-asrning oxirlarida xonlikdagi ekin ekiladigan yerlarning yarmidan ko'pi xon va uning amaldorlari qo'lida edi. Xonlikdagi hunarmandlar va dehqonlar nihoyatda og'ir ahvolda qolgan edi. Aholining bu qatlamli soliq va majburiyatlarning og'irligidan azob chekardi. Ular ayrim hollarda soliqlarni to'lashdan oshkora bosh tortardilar. 19-asrning oxirlarida katta yer egalari qo'lida 1000 tanobdan 5000 tanobgacha yerlar bo'lgan. XX asr boshlarida katta feodallar

dehqonlarning yerlarini, chorvadorlarning yaylovlarini zo'rlik bilan tortib ola boshlaydilar. Buning ustiga xon o'z atrofiga sodiq kishilarni to'plash uchun katta-katta yerlarni o'z odamlariga in'om qilib, ularni soliqlardan ozod qila boshlaydi. 19-asrning 80-yillarida 1800 dan ortiq mulkdorlar soliqlardan ozod qilinganlik haqida yorliq olganlar. Bunday yorliqlarning ko'pi sayyidlar, xo'jalar va boshqalarga berildi. 19-asr oxirlarida 4 mingga yaqin ruhoniylar o'lponlardan ozod qilindi. Ularning har birining yeri 10 tanobdan 400 tanobgacha borar edi. Bu shundan dalolat beradiki, protektorat amalda bo'lgan davrda yerlar katta feodallar qo'lida to'plana borgan. Shu bilan birga yersiz dehqonlar soni tobora ko'payib bordi. Xon va boshqa yer egalarning qo'lida ko'plab koranda dehqonlar ishlar edi.

Manbalarga ko'ra, 19-asr oxirida Xiva xonligida 25ga yaqin turli soliq va majburiyatlar bo'lgan. Bu soliq va majburiyatlar xon va amaldorlarning istagi bilan joriy etilar edi. Soliq va majburiyatlarning ko'pligidan ayrim paytlarda oddiy aholi xonlik tuzumiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarib turgan. Bunday xalq chiqishlari xonning jazo qo'shinlari toimonidan bostirilardi. Dehqonlarning o'z yerlarini tashlab Amudaryo bo'limi hududiga o'tib ketishlari sodir bo'lib turgan.

Xiva xonligida natura xo'jaligi ham birmuncha saqlanib qolgan edi. Xonlikda uy hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlanib bordi. Deyarli har bir dehqon uyida hunarmandchilik ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu qo'shimcha daromad manbai bo'lar edi. Masalan, dehqon xo'jaliklari ip yigirish, to'quvchilik, kiyim-kechak, poyafzal, gilam, sholcha, kigiz va boshqa narsalar tayyorlash bilan shug'ullanardi. Bundan tashqari har bir qishloqlarda hunarmandlar – temirchilar, ko'ncilar, bo'zchilar, elakchilar, kulollar, yog'och ustalari, bo'yoqchilar, juvzokash va boshqalar bor edi. Qishloq hunarmandlarining shahar hunarmandlaridan farqi shunda ediki, ular turli sexlarga uyushmagan bo'lib, shahar hunarmandlariga qaraganda bozor bilan kam aloqada bo'lganlar. Ya'ni ular asosan o'zlari va qishlog'i uchun mahsulot tayyorlaganlar.

Metall ashyolar ishlaydigan katta ustaxonalar Xiva, Yangi Urganch, Chimboy, Xazorasp shaharlarida bor edi. Ular qishloq xo'jalik asboblari ishlab chiqarganlar. Ko'ncilik ustaxonalari Xiva, Xonqa, Yangi Urganch, Xo'jayli va boshqa shaharlarda bor edi. Xiva shahridagi hunarmandlarning mahsulotlari ichki bozorlardagina sotilmay, qo'shni davlatlar – Buxoro va boshqalarga ham chiqarilgan.

Rossiya protektorati o'rnatilganidan keyin tovar-pul munosabatlari va Rossiya bilan savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida hunarmandchilikda keskin o'zgarishlar yuz beradi. Rossiyadan gazlamalar, bo'yoqlar va boshqa narsalar ko'proq keltirila boshladi. Buning natijasida mahalliy hunarmandchilikning ba'zi bir turlari tanazzulga uchradi. Oddiy hunarmandlarning ahvoli tobora yomonlashib bordi.

19-asrning oxirida Xiva xonligining Rossiya bilan bo'lgan tashqi savdosi ham o'sib bordi. Xiva xonligidan Rossiyaga paxta, jun, qorako'l, terilar, ipak, ko'n, gilamlar, choponlar, guruch, baliq, quruq mevalar ko'p miqdorda olib ketilar edi. Rossiyadan Xivaga asosan sanoat mollari – metal ashyolar (qozonlar, idishlar), gazlamalar, poyafzallar, tayyor kiyim-kechak, qand, choy va boshqa mahsulotlar olib kelingan.

Buxorodan Xivaga tamaki, mayiz, oshlangan teri, shohi va ip gazlamalar, kalava ip, ko'rpalar, temir, qog'oz, ranglar va boshqa mollar olib kelib sotilgan. Afg'oniston va Erondan pilla, qo'y ichaklari, choy, qo'rg'oshin, mis va cho'yan qozonlar keltirilgan. Ulgurji savdo asosan Yangi Urganch, Xiva, o'jayli, Xonqa va boshqa shaharlarda bo'lar edi. Xiva savdogarlari ham o'z mollarini Rossiyaning ichki shaharlariga olib borganlar. Masalan, 1880 yilda Xivaning katta savdogarlaridan 7 tasi xonlikdan Rossiyaga 9900 pud paxta, 1210 pud chorva mahsulotlari va 240 pud hunarmandchilik mahsulotlarini olib borganlar.

Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasidagi savdo-sotiq, eksport-import ishlari XX asr boshlariga qadar Rossiyaning "Nobel", "Moskva savdo sanoat jamiyati" firmalari va katta savdogarlardan Donov, aka-uka Maniulovlar, Sozonov, Novikov, Chernikov, aka-uka Safarovlar, Petrosov, Sarkisovlarning qo'lida bo'lgan. 19-asrning 90-yillarida Xiva xonligidan Rossiyaga chiqarilgan

mahsulotlar o'rtta hisobda 278 166 pudni, Rossiyadan xonlikka keltirilgan mollar 238 800 pudni tashkil etdi. 19-asrning so'nggi o'n yilligida Rossiyadan 7 923 600 so'mlik 230 905 pud miqdorida mol keltirilgan bo'lsa, Xivadan Rossiyaga 3 924 600 so'mlik 482 750 pud miqdorida mahsulot chiqarildi.

3. XX asr boshlarida Buxoro amirligining Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari yanada kuchaydi. Buxordan Rossiyaga asosan paxta olib borilar edi. XX asr boshlarida Buxorodan 1200 ming pud paxta eksport qilindi. 1-Jahon urushi arafasida Rossiyaga paxta chiqarish Buxoro amirligi eksportining 40 foizini tashkil qildi. Rossiyaning Buxoro bilan olib borgan savdo ishlari 10 ta vositachi kontora va 50 savdo korxonalari qo'lida to'plangan edi. Bu kontoralar Rossiya savdo sanoat egalariga va mahalliy boylarga xizmat qilar edi. Buxoro xonligining iqtisodiy hayotiga kapitalning kirib kelishi xomashyoga dastlabki ishlov beradigan sanoat korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida Buxoro amirligida paxta tozalash sanoati vujudga keladi. 1905 yilda amirlik hududida 9 ta paxta tozalash zavodi bor edi. Birinchi jahon urushi arafasida Buxoro amirligida kapitalistik tipdagi 60 ga yaqin korxona bor edi. Shu jumladan 26 ta paxta zavodi, 4 ta yog' zavodi, 1 ta jun tozalash zavodi, 3 ta aroq-vino zavodi va 10 ta g'isht zavodi, 3 ta ichpak-chavoq va 2 ta papiros korxonasi, 1 ta gugurt fabrikasi, Yevropa tipidagi 3 ta tegirmon, 1 ta temiryo'l ishxonasi, Amudaryo flotiliyasi korxonalari va tosh bosmaxona bor edi.

Buxoro xonligida tabiiy boyliklar ko'p edi. Darboz bekligida kvars jinslari ichidan oltin olinardi. Panj, Yaxsuv va Vaxsh daryolari xavzalarida sochma oltin konlar bor edi. Darboz va Xisor bekliklarida mis va temir konlari bo'lgan. Kalif va Sherobodda oltingugurt, Darband, Nurota va Xisorda marmar, Boysun, Xisor va Qo'rg'ontepa bekliklarida toshko'mir koni va neft zapaslari bo'lgan. Lekin bu tabiiy boyliklarning ko'pidan deyarli foydalanilmagan. Rus va mahalliy burjuaziya vakillari kon boyliklarini qazib olishga mablag' sarflashni befoyda deb hisoblar edi. Ularni ko'proq savdo-sudxo'rlik ishlari qiziqtirgan, ular sanoat sohasida faqat paxta tozalash bilangina shug'ullangan. Rus kapitalistlari Buxoro amirligida temiryo'llarning qurilishidan manfaatdor edilar. Rus kapitalining Buxoroga kirib kelishi natijasida 1894 yilda Buxoroda davlat bankining bo'limi ochilib uning kapitali 1914 yilda 90 million so'mga yetdi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida sug'oriladigan turli ekinlar o'rnini paxta egallay boshladi. Agar 19-asrning so'nggi 10 yilligida paxta maydonlari barcha sug'oriladigan yerlarning 9 foizini tashkil qilgan bo'lsa, birinchi jahon urushi arafasida paxta maydonlari barcha yerlarning 16, 3 foizini tashkil qildi. Ko'pgina rayonlar tamoman paxtachilikka ixtisoslashdi.

Paxtachilikning rivojlanishi xonlikka rus kapitalining keng kirib kelishini ta'minladi. Ko'pgina savdo firmalari va savdo banklari xonlikda o'z kontoralariga, agentliklariga va savdo omborlariga ega edi. Yangi Urganchda Rabeneksning, Sindelning, Poznanskiyning, "katta Yaroslavl manufakturasi"ning, "Aka-uka Nobellar"ning, "Kavkaz va merkuriy" kabi jamiyatlarning transport kontorolari ish yuritardi. Savdo firmalari dallollar va sudxo'rlar vositasida ish yuritardi. Lekin Xivada kapitalistik munosabatlar Turkiston va Buxorodagiga nisbatan sekinlik bilan rivojlandi. Paxtaning amerika navlari Xivada 1890 yildan tarqala boshladi. 1912 yilga kelganda esa paxtaning amerika navlari ekin maydonining anchagina qichsmi egallaydi. Sug'oriladigan yerlarda paxta donli ekinlarni siqib chiqara boshladi. Natijada g'allaning narxi oshib ketdi. 19-asrning o'rtalarida bir pud g'allaning narxi 50-60 tiyin bo'lgan bo'lsa, 1913 yilda uning narxi 1 so'm 18 tiyinga chiqdi.

20-asr boshlarida Xiva xonligida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish ancha ko'paydi. 1890 yildan boshlab har yili Rossiyaga umumiy qiymati 100 ming so'm bo'lgan 15-16 ming pud mol yog'i, umumiy qiymati 15-20 ming so'm bo'lgan qo'y ichagi chiqarilgan. Tovar pul munosabatlari chorvachilik sohasiga ham kirib kela boshladi.

XX asrning boshida Xiva xonligida bir necha o'nlab paxta tozalash zavodlari bor edi. Shulardan 9 tasi yirikroq bo'lib, ikkitasi Yangi Urganchda, 3 tasi Gurlanda edi. Faqat 3 ta zavodgina mahalliy savdogarlar qo'lida edi. XX asrda paxta zavodlarining soni o'sib bordi. 1914 yilda korxonalarning soni 63 taga yetgan edi.

14-mavzu: Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati va siyosiy harakatlar

(2 soat ma'ruza)

Reja

1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.
2. Turkistondagi jadidchilik harakati namoyondalari va ularning milliy uyg'onishda tutgan o'rni.
3. Jadid maktablari. Jadid milliy matbuoti.

19-asrning ikkinchi yarmida Osiyo, jumladan, Turkiston ilm-fan va texnika taraqqiyoti bo'yicha yevropadan ancha orqada qolib ketgan edi. Qoloqlik vpa jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi va bunday fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo bo'la boshladi.

XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va "Tarjimon" jurnali tashkilotchisi Ismoil G'aspiralining nomi butun Sharqqa mashhur bo'lib ketdi. U Bog'chasaroyda eski maktablarning murakkab o'qish usuliga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib. Unda o'zi dars bergan, darsliklar yozgan, chorizmning Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi asarlari bilan Turkistondagi ilg'or ziyolilarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. Qisqacha aytganda u yangi usul maktablarning vujudga kelishida namuna bo'lgan.

Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o'zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida 19-asr oxiri – 20-asr boshlaridan tarix saxnasiga chiqa boshladilar. Jadidlar Turkistonda 19-asr oxirida paydo bo'lgan ilg'or usullarni yoqlagan ma'rifatparvarlarga bo'lib qolmay, ayni chog'da turkiy-islomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, xurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlool uchun ham kurashni maqsad qilib ko'rgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloqch yoyib rivojlangan bobiylk va bahoiylkdan iborat falsafiy-diniy oqimlar va Turkiyadagi «Ittihad va taraqqiy» («Yosh turklar» harakati) harakatining ta'siri katta bo'ldi. Bobiylk va bahoiylk XX asr boshlariga kelib Kavkazda, so'ngra Toshkent, Ashxobod va Turkistonning boshqa shaharlarida keng tarqala boshlagan va xalqning madaniy-ma'rifiy darajasini ko'tarishda katta ta'sir ko'rsatgan. Birgina Toshkentning o'zida bobiylar va bahoiylar tarafidan "Turkiston", "Islol", "Osiyo" va boshqa kutubxonalar, qiroatxonalar tashkil etilgan bo'lib, ular xalqning turli qatlam vakillari o'rtasida ma'rifat tarqatishda katta rol o'ynadi.

Turkiyadagi «Ittihad va taraqqiy»chilardan Turkistondagi «Ittihad va taraqqiy»chilarning afzallik tomonlari bor edi. Ularda kosmolitik g'oya deyarli yo'q edi, rus imperalizmiga va uning mustamlakachilik tizimiga qarshi kurash g'oyasi va mafkurasi kuchli edi. Hatto 1905 yilgi rus inqilobi va 1908 yilgi Turkiya inqilobida imperiaлизм va mustamlakachilikka qarshi kurash olib borish g'oyasi yo'q edi.

Jadidlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirni ham o'z g'oya va maslaklariga tortishga harakat qildilar. Buxoro jadidlari 1900 yil boshida amirdan yangi usuldagi maktablar ochishga ruxsat olishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo bunday yangi usul maktablarini ochilishi Rossiya manfaatiga zid edi, shu boisdan Rossiyaning amirga bo'lgan tahdidi ortdi, amir jadidlarni siquv ostiga oldi. Rossiya barcha imkoniyatlarni ishga solib jadidlarning musulmon mamlakatlari, xususan Turkiya bilan bo'ladigan har qanday bordi-keldi aloqalarini oldini olishga e'tibor beradi.

Chor mustamlakachilari O'rta Osiyoda ochilgan yangi usul maktablariga qarshi kurash boshlaydi, bu maktablarni «islomiyatga qarshi», «g'ayridin maktablari» deb tashviqot yurgizadilar, josuslik idoralarini ishga soladilar, hatto Buxoro amiriga va Xiva xoniga ham kuchli

tazyiq o'tkazadilar. Ahvol shu darajaga borib yetadiki, bu masala bilan bog'liq ko'plab qurbonlar yuz beradi. Chor ma'murlari islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yuboradilar. Hatto, 1903 yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham farmon bilan man etadi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg'otdi.

1905 yilgi to'ntarish harakatidan keyin Rossiya hududidagi turkiy xalqlar va ularning Turkiya bilan qardoshlik aloqasi kuchaydi. O'z davrida Turk dunyosi markazlaridan biri bo'lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhida adabiyotlar Turkistonga ham keng yoyila boshladi. 1908 yilgi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan "Yosh turklar" harpaktiga muqobil holda Xivada "Yosh xivaliklar", Buxoroda "Yosh buxoroliklar" jamiyatlari yuzaga keldi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oldi. Jadidchilik haraktining bunday siyosiy tashkilotlari qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon kabi yirik shaharlarda kuchli tashkilotlarga aylandi. Turkiston xalqida jadidlarga bo'lgan hayrixohlik, ishonch tobora ortib bordi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik bayrog'ini baland ko'tarib, milliy birlik kuchlarini birligini ta'minlash borasida salmoqli faoliyat ko'rsata boshlagan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb qildi. 1906 yilning bahorida Fransiya respublikasi bosh shtabi ikkinchi byurosi (harbiy razvedka) topshirig'i bilan mayor Lyakost ikki yil davomida Turkistondagi ijtimoiy siyosiy vaziyat bilan yaqindan tanishdi. U o'zining kuzatishlarini hisobot tarzida «Komitet Asiya Fransays» nomli jurnalda chop etadi. Maqola Yevropada katta qiziqish uyg'otdi. Bu maqolada Turkiston general-gubernatorligi hududidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar va partiyalar faoliyati sharhlab berilgan edi. E'tiborli tomoni shundaki, fransuz razvedkachisining o'tkir nigohi bilan Turkistonda qaysi partiya, qaysi siyosiy oqim kuchli ekani shunday aniqlab berildiki, bu hol rus siyosiy politsiyasini g'oyat jiddiy tashvishga soldi. Mayor Lyakost Turkiston o'lkasidagi eng e'tiborli va kelajagi porloq tashkilot sifatida sotsial-demokratlar (bolshevik va mensheviklar), yoki sotsialist-inqilobchilar (so'l va o'ng eserlar), yo kadet va liberallar emas, balki yosh sartlar (rasmiy idoralar Turkiston jadidlarini yosh turklarga qiyoslab «Yosh sartlar» deb atashgan) degan xulosaga kelgan edi. Razvedkachi Turkistonda jadidlar ta'siri kuchli bo'lgan o'z firqasiga ega ekani va u 1906 yilning yanvarida Sankt-Peterburgga, Umumrusiya musulmonlarining qurultoyiga vakil yuborganini ta'kidlab, bu firqa xuddi Qozon tatarlari kabi o'zining milliy dasturiga egaligi va rus istibdodiga jiddiy zarba berishi mumkinligiga ishora qilgan edi.

Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keldi, mukammal bir shaklga kirdi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan kutilish, rus istilosiga qarshi kurash, ma'rifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qo'lga kiritish g'oyalari bilan to'lib-toshgan yangi bir adabiyot shakllandi. Abay bunday adabiyotning ilk namoyandalaridan biri edi. Undan so'ng Shayx Ahmad Mahdum maydonga chiqqan edi.

O'rta asrlarda shunday ulug' zotlarni yetishtirgan Turkiston kabi buyuk bir tabarruk zaminning so'nggi asrlarda jaholat va hurofot azobida inqirozga yuz tutishi, bu yerda kuchli bo'lgan o'rta asrchilik va mustamlakachilik zulmlari, o'lkadagi yangi uyg'onish, yangi ma'rifat va adabiyot uchun borayotgan kurash musulmon xotin-qizlar huquqini himoya qilish haqida Ismoil Gaspirali o'tkir publitsistik maqolalari bilan faol qatnasha boshladi. «Buxoro va Bog'chasaroy», «Bog'chasaroydan Toshkentga» (1893), «Turkistonning yangi tarixi» (1905), «Buxoroda nimalarni ko'rdim?» (1908), «Turkistondan xat» va boshqalar shu jumladandir. Uning ta'siri bilan Turkistonda ham yangi usul maktablari uchun o'quv qo'llanmalari, matbuot va adabiyot namunalari maydonga kela boshladi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1871-1919)dir. U "Turkiston jadidlarining otasi" sifatida tarixda nom qoldirgan. U istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo'jaev Behbudiy haqida bunday degandi; "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak".

Behbudiy Gapirinskiy yo'lga qo'ygan "usuli jadid" maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi. Yangi tipdagi maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozdi. "Qisqa umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Islomning qisqacha tarixi", "Amaliyoti islom", "Aholi geografiyasiga kirish", "Rusiyaning qisqacha geografiyasi" kabi darsliklar yaratdi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma'lum. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Behbudiy 1913 yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqardi. Gazeta dastlab 2, so'ng 4 betlik bo'lib haftada 2 marta chiqqani va moddiy tanglik tufayli 45 sonidan keyin to'xtagani ma'lum. «Oyina» o'lkadagi o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914 yildan esa har o'n besh kunda chiqqan.

Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy matbuotning asoschilaridandir. U 1906 yil sentabrda "Xurshid"("Quyosh") jaridasini nashr etdi va unga muharrirlik qildi. "Najot" (1917 yil), "Kengash" (1917 yil), "Hurriyat" (1917 yil), "Osiyo", "Haqiqat", "Turon" kabi matbuot nashrlarida muharrirlik qildi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) o'zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarning yetuk vakillaridan biridir. Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismdan iborat "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yohud ahloq" kabi darsliklar va o'qish kitobini yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi "Jamiyati hayriya" tashkil etdi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochgan. U 1913 yilda tashkil etilgan professional "Turon" nomli teatr to'garagining tashkilotchilaridandir.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) jadidchilik haraktining yirik namoyondalaridan biridir. U Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kirishadi. Fitrat adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib keldi. U "Munozara" nomli drama yaratgan. Shuningdek, "Sayxa", "Sayyohi hindi", "Rahbari najot", "Tarixi islom" kabi asarlarini 1908-1913 yillarda yaratdi. Fitrat o'z ona diyorini ozod va hur ko'rishni orzu qildi. U ana shunday ilg'or g'oya va fikrlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik, isyonkorlikda ayblandi, chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura hukmron bo'lgan qizil saltanat davrida esa millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, «xalq dushmani» degan uydirma tamg'a bilan aybladilar.

Turkistonning milliy shoiri, Andijonda jadidchilikka asos solgan Cho'lpon (1898-1938) shaharda «Turon kutubxonasi» va uning yonida katta bir qiroatxonani tashkil qilgan.

Xulosa shuki, rus mustamlakachilari Turkiston zamini uzra o'z hukmronliklarini o'tkazgan kezlarda yurtning jonkuyar, millatsevar, erksevar farzandalri jadidlar harakati ta'sirida milliy istiqlol uchun, mustaqil Turkiston uchun, ekspluatatsiya, zo'rlik va zo'ravonlikka qarshi xalqni otlantirdilar. Faqat o'lkada so'nggi asrlar davomida ishlab chiqarish kuchlari va taraqqiyotning orqada qolganligi oqibatida, xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-nazariy saviyasi ham yetarli darajada davr talabiga monand bo'lmaganligidan bu kurash birlashgan katta kuch sifatida muvaffaqiyat qozonildi. Siyosiy-ijtimoiy tarqoqlik, «o'zingni bil, o'zgani qo'y» kayfiyati milliy kayfiyatga, milliy birlikka putur yetkazdi.

Jadidchilik harakatini o'lka xalqlari ommaviy sur'atda qo'llab quvvatlamadilar. Bu harakat faqat xalq orasiga ma'rifat va madaniyat g'oyalarini tarqatishdan nariga o'tmadi, o'zining tor biqiq doirasida o'ralib qoldi, siyosiy kurash partiyasi darajasiga ko'tarila olmadi va ommani zulm va istibdodga qarshi dasturiy kurashga torta olmadi... Jadidlar harakatining nazariy va siyosiy barkamollik darajasiga o'sib yetmaganlikdan rus bolsheviklari ustalik bilan foydalandilar va ularni ikkiga bo'lib yubordilar. Jadidlarning bir guruhi bolsheviklarning yolg'on va quruq va'dalariga ishonib, ular tomoniga o'tdilar, «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» guruhiga

uyushdilar. Natijada milliy-ozodlik va istiqloq uchun kurash olib borayotgan kuchlar kuchsizlandi va parokandalikka uchradi.

15-mavzu. **Birinchi Jahon urushining Turkiston o'lkasiga ta'siri. 1916 yil milliy-ozodlik harakati**

(2 soat ma'ruza)

Reja

1. Birinchi jahon urushining boshlanishi va Turkistondagi favqulodda choralar
2. 1916 yil qo'zg'olonining boshlanishi va uning sabablari
4. 1916 yil xalq qo'zg'olonining yakunlari va tarixiy ahamiyati.

1910-1914 yillarda Turkiston o'lkasida milliy o'zlikni anglash jarayoni kuchaydi. Mustamlaka ma'muriyati idoralari 1911 yilda Farg'ona viloyatida "idora tartiblariga va jamoat osoyishtaligiga qarshi kurashdan guvohlik beruvchi" 833 ta, 1913 yilda 1220 ta "jinoiy ish" qayd qilganlar.

1914 yil yozida Rossiya imperiyasi birinchi jahon urushiga qo'shildi. Bu urush butun Rossiya imperiyasi, shuningdek, Turkiston o'lkasi aholisining ham ahvolini og'irlashtirdi. 1914 yil 26 iyulda Turkiston o'lkasi "favqulodda muhofaza holatida" deb e'lon qilinib, mirshablik nazorati kuchaytirildi. Har qanday tashviqot, targ'ibot ta'qiqlanib, tartib buzganlarga Maxsus qo'mita tomonidan 500 rublgacha jarima solish, yo o'n oy muddatga qamash huquqi berildi. Ammo bunga qaramay yangidan paydo bo'lgan sotsial-demokratlar va eserlar tashkilotlarining yashirin faoliyati davom etib, korxonalarda ish tashlashlar to'xtamadi.

Mavjud tuzumdan norzilik o'zbek ishchi, hunarmandlari o'rtasida ham kuchaydi. Xozirgi O'zbekiston hududida joylashgan 425 sanoat korxonasidan 220 tasi paxta tozalash, 76 tasi ko'n-teri tayyorlash, 32 tasi pilla quritish zavodlari bo'lib, ularda 18 ming ishchi kuniga 12-14 soatdan og'ir sharoitda mehnat qilgan. Temir yo'l ishchilari safida tub millat vakillari 4,5-5 mingni tashkil qilgan.

Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli nihoyatda og'irlashgan edi. Rus sanoati mollarning raqobati ularni xonavayron qilib, ko'pchiligini oxiri ishchilar safiga olib borib qo'shgan. O'lkadagi hunarmandlar soni 100 mingdan oshiq edi. Urush o'lkaning qoloq qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyotiga ham katta zarar yetkazdi. Natijada o'lka aholisining 90 foizini tashkil etgan dehqon va chorvadorlarning ahvoli ham mushkullashdi. 1916 yilda paxta ekin maydoni ham, xosildolrligi ham pasayib ketdi. Chor imperiyasi yetishtirilgan praxta uchun qat'iy narxlarni belgilab qo'ygan bo'lib, bu narx juda past edi. Bu esa paxtakor dehqonlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Paxta topshirishdan ommaviy bosh tortish avj oldi.

Urush munosabati bilan dehqonlardan olinadigan soliqlarning hajmi ham kun sayin ortib bordi. Turkistonda 1914 yilda yer solig'i 6859021 rubl bo'lgan bo'lsa, 1916 yilga kelib bu ikki barobar ko'tarildi. 1915 yilda esa maxsus harbiy soliq ham joriy qilindi. 1913 yilda paxtaning narxi 50 foiz oshirilgan bo'lsa, boshqa zarur mollar narxi 400-500 foizga ko'tarildi. Non narxi esa 6 barobar oshdi. Chayqovchilik avj olib, sudxo'rlik kuchaydi. Oziq-ovqat ta'minotining qiyinlashuvi sababli mehnatkashlarning noroziligi kuchayib bordi. Rus mustamlakachilari urush yillari Turkistondan 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketishdi. Frontga aholidan 70 ming ot, 12 ming tuya, 38 ming kv metr gilam-namatlar, 2400 ming rubl naqd pul yig'ib olindi. Xuddi shu davrda guruch, go'sht, qand, poyafzal va gazlama narxi bir necha barobar ko'tarilib, dehqonu-hunarmand va ishchi ro'zg'orini mushkul holga soldi. Aynan shu sharoitda podshoning bu oilalarni boquvchisiz qoldiradigan mardikorlikka safarbarlik haqidagi farmoni xalq sabr kosasini to'ldirgan so'nggi tomchi bo'ldi.

1916 yil 25 iyunda rus imperatori Nikolay II ning «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida»gi farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Turkiston o'lkasidagi rus

bo'lmagan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan jami 250 ming erkakni front orqasidagi ishlarga safarbar qilish ko'zda tutilgan edi. Lekin farmonning bunday tarzda Turkiston o'lkasiga mutlaqo tatbiq etib bo'lmashligini tajribali podsho amaldori, sobiq harbiy vazir A.N.Kuropatkin ham tushungan edi. U vazir yordamchisi general Frolovga Rossiyada ikki yildan beri davom etib, nihoyasi ko'rinmagan bu tadbirni, ya'ni urushga 19-43 yoshli aholini safarbar qilish masalasi hal bo'lmagan holda uni chekka o'lkalarga tadbiq etish noo'rirligini ko'rsatgan edi.

Farmonga ko'ra Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Farg'onaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Podshoning o'sha farmoni haqidagi bu shum habar yashin tezligida butun Turkiston o'lkasiga tarqaldi va azob-uqubatlardan alamzada Turkiston mehnatkashlarini larzaga soldi. Chunki mardikorlikka faqat kambag'allarning farzandlarini olish rejalashtirilgan edi. Mardikorlik ro'yxatlarini tuzish volost boshqaruvchilari, oqsoqollar va ellikboshilarga yuklatilgan edi. Ular bundan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar. Mahalliy ma'murlar katta pora evaziga boy va amaldorning arzandalarini safarbarlikdan qoldirar, ko'proq kambag'al oilalarning farzandlarini ro'yhatga qo'shib qo'yar edilar. Bundan tashqari mustamlakachi ma'murlar ijozati bilan boylar va amaldorlar o'z o'g'illari o'rniga mardikorlikka boshqa kishilarni yollashlari ham mumkin edi. Bunday nohaqlik, adolatsizlik va firibgarlik busiz ham nochor xayot kechirayotgan xalq ommasining sabr-kosasini toshirib yubordi, ular bosh ko'tarishga majbur bo'ldilar.

Shu tariqa Turkistonda tarixda Jizzax qo'zg'oloni nomi bilan ma'lum bo'lgan umumxalq qo'zg'oloni sodir bo'ldi. Dastlab qo'zg'olon Samarqand viloyatining Xo'jand shahrida 1916 yil 4 iyulda boshlandi. Bu yerda to'plangan 6-7 ming kishilik olomon politsiya idorasini qurshab oldi va mardikorlikka bormasliklarini izhor qildi. Qo'zg'olonchilarning oldingi saflarida Abdumadaminov, Dadaboy Masharipov, Yaxyoxon Qori Olimxonov, Eshonxon Mirza O'rinov kabi xalq vakillari bordilar. Qo'zg'olonchilar safida ayollar va bolalar ham bor edi. Politsiya qo'zg'olonchilarni o'qqa tutdi. Uch kishi o'ldirildi, to'rt kishi yarador qilindi. Bu habar tez orada butun Samarqand viloyatiga va boshqa xududlarga ham tarqab ketdi. Jumladan 7 iyulda Xo'jand voqeasidan habar topgan Samarqand viloyatining Dahbed qishlog'ida qo'zg'olon ko'tarildi. Bir necha ming kishi qatnashgan bu qo'zg'olonga mulla Usmon Abdurasulov, Gadoy Abduqodirov, Xolmo'min Xolmurodov, Azizqul Murodov, Muxtor Xafizov singari xalq fidoyilari boshchilik qildilar. Qo'zg'olonchilar bo'lim boshqaruvchisining mirzasi Qobulovni o'ldirdilar. Qo'zg'olon qatnashchilaridan Usmon Abdurasulov boshchiligida 30 kishi hibsga olindi va turmaga tashlandi. Qo'zg'olonning asosiy markazi Jizzax shahri va uezdi edi. Qo'zg'olon ko'targan Jizzax xalqi chor ma'murlarining kamsituvchilikdan iborat mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashga otlandilar. Podsho farmoniga ko'ra Jizzax viloyati bo'yicha 10531 kishi mardikorlikka safarbar etilishi kerak edi. Ammo podshoning safarbarlik tadbirlari mehnatkash xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi, aksincha ommaning qahru-g'azabi kuchayib, ommaviy qo'zg'olonga aylanib ketdi. Bu qo'zg'olon davomida o'zining butun qalbi-vujudini mehnatkash xalq baxtiga baxshida etgan haqiqiy qahramonlar yetishib chiqdilar.

Jizzax qo'zg'olonining chor Rossiyasining milliy mustamlakachilik zulmiga qarshi umumxalq qo'zg'oloni ekanligini tasdiqlaydigan adolatli qarashlari 1916 yildagi boshqa rasmiy xujjatlarda ham tan olingan. Jumladan, chor hukumat tomonidan qo'zg'olonchilarni jazolash uchun tuzilgan favqulodda sud aybnomalarining birida Jizzax volostidagi qo'zg'olon xalq xarakati ekanligi e'tirof etilgan. Ana shu aybnomada bayon qilinganidek 12-13 iyul kunlari Jizzax uezdi Yom volosti aholisi qo'zg'alib, otliq va yayov bo'lib, mustamlaka ma'murlari, volost boshqaruvchisi va oqsoqollarga qarshi shiddatli hujum boshladi. Qirq qishlog'ida Karim Orziqulov boshliq olomon ellikboshilardan Norcha va Qulbeklarni o'ldirishdi. Qo'zg'olonchilarni Turdibek Xudoynazarov boshchiligidagi 500 kishilik yana bir guruxi Chuqurtoqqishloq oqsoqoli Mulla Mahkamboy Mulla Ro'ziqulovni toshbo'ron qilib o'ldirdi. Zomin pristavi Sobolev qurolli qo'zg'olon soqchilar va tarjimoni bilan Yom volostiga kelib qo'zg'olon tashabbuschilaridan yetti kishini, shu jumladan Karim Orziqulov bilan Turdibek Xudoynazarovni qo'lga tushirib Zominga jo'nadi. Lekin ular yo'lda 800 kishilik qo'zg'olonchilarning xujumiga duch keldi. Yom

volostidagi singari qo'zg'olon harakatlari Yangi Qo'rg'on, Zomin va boshqa volostlarda ham bo'lgan.

Mana shunday eng og'ir va hal qiluvchi damlarda mahalliy hokimiyat vakillari mustamlakachi chor ma'murlariga yordam berganlar va o'z millatlarining manfaatlariga hiyonat qilganlar. Buni quyidagi dalil yorqin ifoda etadi. Jizzax shaxri mehnatkashlarining qo'zg'olonlaridan tashvishga tushgan Jizzax uezdi hokimi Rukin Eski shahar aholisining bir qismini katta machitga to'plab, agar ular hukumatga qarshilik ko'rsatsa, hammaning mol-mulki musodara qilinib, uylari yakson qilinajagini aytgan. Mahalliy ma'muriyat vakillari Akrom to'ra, Muhtorxon to'ra, Abdusamad Mahsum va boshqalar uezd boshlig'iga ta'zim qilib, podsho farmonini to'la ma'qullab, uni shubhasiz bajarish va xalq harakatini bostirishda chor ma'murlariga yordam ko'rsatishga va'da berishdi.

Mustamlakachi va mahalliy ma'murlarning o'zaro til biriktirib xalq ommasiga nisbatan ishlatgan zo'ravonlik, do'q-po'pisa siyosati mehnatkashlarning nafrat va nadomatini yanada battar oshirdi. Mehnatkash xalq milliy zulm va zo'rlikka qarshi yoppasiga qo'zg'olonga ko'tarildi.

Qo'zg'olonni bostirish uchun uezd hokimining yordamchisi polkovnik Avansev o'z qo'shini bilan yetib keldi. Olomon Avansev otryadini qurshab olmoqchi bo'ldi. Ammo ketmon, belkurak, tayoq va toshlar bilan qurollangan qo'zg'olonchilar harbiy qismning yalpi o'q uzishiga bardosh berolmadi. Qo'zg'olonchilardan 11 kishi halok bo'ldi.

Jizzax qo'zg'oloni chor ma'murlari va mahalliy hokim to'ralarni vahimaga soldi. Ular qo'zg'olonni qonga belash va bostirish maqsadida Toshkentdan yordam so'radilar. Toshkentdan to'plar va pulemyotlar bilan qurollangan otryad Jizzaxga yetib kelgach, qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi. Jizzaxning eski shahar qismiga harbiylar o't qo'yib, yer bilan yakson qildi, yoshu-qari otib, chopib tashlandi. Shahar aholisi qishloq va ovullar tomon qochdilar. Harbiylar qishloq va ovullarga ham hujum uyushtirdilar. Ko'plab dehqonlar va batraklarni dorlarga osdilar yoki otib o'ldirdilar.

Jizzax qo'zg'olonida ishtirok etgan va qamoqqa olinganlar ustidan shoshilinch suratda harbiy dala sudlari tashkil etilib, tegishli choralar ko'rildi. Jumladan, Jizzax qo'zg'olonining rahbari Nazirxo'ja Abdusalomov boshchiligida 76 kishi ustidan 1916 yil 23 avgustda Zakomolskiy raisligida yopiq harbiy sud majlisi bo'ldi. Sud ishi yakuniga ko'ra 32 kishi otuvga hukm qilindi. 1916 yil 10 sentabrda hukm ijro etilib, Nazirxo'ja Abdusalomov, Jaynoq Abdurahmonov, Ziyoqori Abdullaev, Muhammadrahim Abdurahimov va boshqalar osib o'ldirildi, ko'plari Sibirga surgun qilindi.

Jizzax shaxrida boshlangan qo'zg'olon tez orada shahar atrofidagi Bog'don, Zomin, Sangzor, Yangiqo'rg'on, Yom, Ravot, Qoratosh, Usmat va boshqa volostlarga ham yoyilib ketdi. Qo'zg'olonchilar son jixatdan kun sayin ko'payib bordi. 14-17 iyul kunlari Bog'don mintaqasidagi beklklarga ishonchli vakillar jo'natildi. Natijada Forish, Narvon, Majrum va boshqa beklklarning vatanparvarlari ham oyoqqa turdilar. Bu yurishga Ilonchi, To'qay, Anamuna, Yomchi qishloqlarining mingboshisi Jaynoq Abdurasulov boshchiligida qurollangan 200 otliq dovyurak yigitlar ham kelib qo'shildilar. Jizzax tomon yurgan qo'zg'olonchilar Abdurahmon Jevachi o'zining yetti o'g'li - Norbek, Doston, Islom, Qorabek, Dovil, Sorabeklar bilan birga bosh bo'lib bordi. Bog'donlik qo'zg'olonchilar yetib kelganga qadar chor qo'shinlari Jizzaxdagi qo'zg'olonni bostirib bo'lgan edi. Shunga qaramasdan Abduraxmon Jevachi boshchiligidagi vatanparvarlar Qili arig'i yonida podpolkovnik Afanasev boshchiligidagi rus qo'shinlarini qurshovga oldilar. Natijada bosqinchi kuchlar qattiq otishmalarga chiday olmay shaharga chekindilar. Ana shunday paytda rus qo'shinlariga Ivanov boshchiligida qo'shimcha yordamchi kuchlar yetib keladi. Bu vaziyatni dushmanlar foydasiga o'zgartirib yubordi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi. Dushmanning qattiq ta'qibiga bardosh bera olmagan qo'zg'olonchilar Nurota tog'lari, Samarqand, Buxoro va boshqa tomonlarga qochdilar. Jizzaxga yashirincha qochib kelgan Bog'don pristavi Borilla jazo otryadiga boshchilik qiladi va qo'zg'olonchilardan shavqatsiz o'ch oladi. Jazo otryadlari qishloqma-qishloq, ovulma-ovul, tog'

va qirlar osha kezib yo'l-yo'lakay yoshu qari, erkak, ayol demasdan duch kelgan odamni otib, chopib o'ldiradilar.

Faqat 26-27 iyul kunlari Bog'don muzofotining o'zida sudsiz-tergovsiz 120 dan ziyod kishi otib tashlandi. Jazo otryadi Yangiqishloq, Mixin, Ilonchi, To'qay, Yom, Ota, Yotoq, Nurak, Qoratosh, Anamuna, Sarimsoq, Sharilloq, Safarota, Mojirin va boshqa o'nlab qishloq va ovullarga batamom o't qo'yib kulini ko'kka sovurdilar. Ana shu tariqa Bog'don qo'zg'oloni chor ma'murlari tomonidan ayovsizlarcha shafqatsizlik bilan bostirildi. Qo'zg'olon ishtirokchilarining ko'pchiligi osib o'ldirildi, qamoqqa olindi, otib tashlandi va Sibirga surgun qilindi. Qo'zg'olonning rahbari Abdurahmon Jevachi sud qilinib Jizzaxning Quturbuloq mavzesida osib o'ldirilgan. Qo'zg'olon qatnashchilaridan ko'pchiligi o'n yil muddat bilan Sibirga surgun qilindi.

Jizzax bilan bir vaqtning o'zida Kattaqo'rg'on shahar va uezdida ham xalq qo'zg'olon ko'tarib ko'chalarga chiqqan edi. Kattaqo'rg'on uezdining Mingariq volosti aholisi 18-19 iyul kunlari qo'zg'olon qilib oqsoqollarning uylariga o't qo'yidilar. Qo'zg'olonning keng tus olayotganligidan tahlilga tushgan uezd hokimi N.M. Ross viloyat harbiy gubernatoriga 22 iyulda yuborgan xabarnomasida, Kattaqo'rg'on volostidagi O'zbekkent va Arabxona qishloqlarida qo'zg'olon ko'targan olomon qozining uyiga hujum qilib, uni o'ldirgani to'g'risida ma'lumot beradi. Tobora keng quloch yozayotgan g'alayonning oldini olish uchun N.M.Ross «jinoyatchilarni» qidirib topgandan ko'ra, ularning uylariga yalpisiga o't qo'ygan ma'qul deydi.

1916 yilgi xalq harakatlari Farg'ona viloyatining beshta uezdiga; Andijon, Qo'qon, Namangan, Skobelev (Farg'ona) va O'sh uezdlariga yoyildi. Rasmiy hujjatlarga ko'ra Farg'ona viloyatida kamida 107 joyda, Samarqand viloyatida 25 joyida, Sirdaryo viloyatida 20 joyida qo'zg'olon va g'alayonlar bo'lib o'tganligi qayd etilgan. 1916 yilning iyul o'rtalarida bo'lib o'tgan Marg'ilon qo'zg'olonida 25 mingdan ortiq xalq qatnashdi. Ularning aksariyati kambag'al dehqonlar, kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular tengsizlik va haqsizlikka qarshi kurashga chiqqan edilar. Biroq mahalliy hukumat ma'murlari harbiy qo'shinlar yordami bilan bu qo'zg'olonn bostirishga erishdi. Qo'zg'olonchilardan 63 kishi katorgaga va surgunga jo'natildi. Bular orasida Nurmuhammad Ma'zumov, Tojiboy Miraliev, Layliboy Qosimboev, Shermuhammad Habibullaev, Qodirjon Mamasodiqxo'jaev, Kamoliddin Xollijev va boshqalar bor edi.

Mustamlaka ma'muriyati bergan ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatining 17 joyida aholining harbiy qismlar bilan qonli to'qnashuvi bo'lib o'tgan. 9 iyul kuni Andijonda ham odamlar qo'zg'aldi. Mahalliy amaldorlarni do'pposlagan ulkan olomon eski shahardan yangisiga - Skobelev nomli katta ko'cha orqali yo'l oldi. Andijonliklar 1898 yildagi voqealarni unutmagan, intiqom o'ti endi baralla alanga olgan edi. Ular Gultepa maydonida tumanboshi I.Brjezitskiy bilan uchrashishadi. U kazaklar va politsiyachilar qurshovida turib, olomonning talablarini eshitib, kazaklarga ularni o'qqa tutishni buyuradi. Natijada uch kishi halok bo'lib, 12 kishi yaralanadi.

9 iyul kuni Andijon shahrining ikkinchi qismida Gultepa maydonidagi isyonni bostirish chog'ida alohida Ural kazak yuzligidan Kuntaev boshiga tosh tegib jarohat ko'rdi, qo'zg'olonchilardan uch kishi o'ldi, 8 kishi yarador bo'ldi. Qo'zg'olon boshliqlaridan 22 kishi ushlandi, tergov organiga topshirildi. 10 iyulda Oltinko'l bo'lisiga qarashli Dalvarzin qishlog'ida qo'zg'olonchilar bo'lis boshlig'i Mulla Xakimbek Mulla Ro'zibekov va uning hamrohlarini o'ldirdilar. Qo'zg'olon boshliqlaridan 32 kishi ushlanib qamoqxonaga topshirildi.

11 iyulda Maygir bo'lisining Chuvama qishlog'ida ko'tarilgan qo'zg'olonda Chuvama ellikboshisi Qipchoqboy Boymirzaev o'ldirildi. Qo'zg'olon rahabarlaridan 16 kishi hibsga olinib, tergovga berildi. 12 iyulda Baliqchi bo'lisidagi Xolmurod-Qo'rg'oncha qishlog'ida qishloq oqsoqoli Eson Ali Rahimqulov o'ldirilib, qo'zg'olon tashkilotchilaridan 2 kishi qamoqqa olingan. Xuddi shunday qo'zg'olon Yorboshi bo'lisidagi Bekobod qishlog'ida, Sultonobod jabhasidagi So'fiqishloq, Norin bo'lisidagi Cho'ja qishlog'ida ham bo'lib o'tdi. Andijon tumanining Kapa,

Hindimozor, Ko'tarma, Elaton, Mirobod, Xo'jaobod (Baliqchi bo'lisidagi), O'rmonbek qishloqlarida ham qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Qo'zg'olon qatnashchilaridan talaygina qismi hibsga olindi.

Marg'ilon bilan bir vaqtning o'zida Namangan shahrida ham qo'zg'olon ko'tarilgan. 11 iyulda Namangandagi Labbaytog'a dahasidagi Kurashxona maydoniga 1500 odam to'plandi. Labbaytog'a dahasining qozisi xalq qo'zg'oloni haqida darhol pristavga xabar yetkazdi. Pristav V.Dombrovskiy tish-tirnog'igacha qurollangan harbiy qism bilan yetib keldi. Erkaklar, ayollar va bolalardan iborat olomon V.Dombrovskiydan mardikorlikka safarbarlik qiluvchi ro'yhatni tuzishni to'xtatishni talab qildi. G'alayon kengayib ketishidan xabar topgan kapitan Rumyansev o'z rotasi bilan yetib keldi. Bu ashaddiy millatchi kapitan dab-durustdan aholini o'qqa tutishga buyruq berdi. Pristav Dombrovskiyning e'tirof etishicha, qo'zg'olonchilar qurollsiz va katta talofat berilishiga qaramay harbiy va politsiyachilar bilan qattiq olishgan. Ular politsiyaga xujum qilib, pristav Fedorovning to'ppanchasini tortib olmoqchi bo'lishgan, hatto qo'zg'olonchi Jamollidin Uvaysov bir politsiyachining qilichini tortib olgan.

Namangan qo'zg'oloni qatnashchilaridan 84 kishi turli muddatlarda qamoq jazosiga hukm qilingan.

Farg'ona vodiysining 17 joyida bo'lib o'tgan to'qnashuvlarda ikki tomondan ayniqsa, mahalliy aholi juda ko'p qurbonlar bergan; 5 kishi o'ldirilgan, 109 kishi yarador qilingan. Yarador bo'lganlardan keyinchalik yana 28 kishi vafot etgan. Ammo bu raqamlarning ataylab kamaytirib ko'rsatilganligini keyinchalik mustamlaka ma'murlarning o'zlari tan olishgan. Jumladan, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori, g'alayonlarda o'lgan va yarador bo'lganlarning ko'pchiligini aholi tez fursatda jang maydonidan olib ketganligi sabali aslida qancha talofat berilganligini bilish qiyin, deb yozgan edi.

11 iyulda Toshkentning Eski shahar qismida xalq harakati to'liqini ko'tarildi. To'plangan olomon: «O'lsak o'lamiz lekin bolalarimizni bermaymiz!», «Zolim podshoning o'zi o'lsin!», «Qachongacha u bizni ezadi?» deb har tomondan baqirardi. Qo'zg'olonni bostirish uchun Kolesnikov boshchiligidagi jazo otryadi yetib keldi. Qo'zg'olon vaqtida polkovnik N.Ye.Kolesnikov bir necha martoba olomonni tinchlantirishga harakat qildi. Qo'zg'olonchilardan biri qo'lida qilichi bilan N.Ye.Kolesnikovga tashlanganida u bu kishini to'pponchadan otib o'ldiradi. Shundan keyin haloyiqning qoni qaynab «Ur» degan ovozlar yangradi. Olomon orasida Mahmud Mirsoatov ismli gimnaziya o'quvchisi «Mirshablarni uringlar!» deb odamlarni hujumga chaqirgan. Qo'zg'olonchilardan Mirqosim Isamuhammedov sherigi bilan telefon simini uzgan. Olomonning boshqarma idorasiga bostirib kirishi havfi tug'ilganidan keyin N.Ye.Kolesnikovning buyrug'iga ko'ra ularga o'q uzildi. Natijada 11 kishi o'ldirildi va 15 kishi yarador qilindi. Ayollardan Rizvonbibi Ahmadxonova o'ldirildi, Zo'rbibi Musamuhammedova yarador qilindi. Boshqarma hovlisida ro'y bergan fojeadan keyin ko'p o'tmay Toshkent shahar boshlig'i O.O.Kochin yetib keldi. U o'zi ko'rgan voqeani shunday bayon etgan; «Men politsiya boshqarmasiga kelganimda ko'chada, boshqarma atrofida va qisman hovlida erkagu xotinlardan tashkil topgan olomonga duch keldik. Olomon bir necha ming kishidan iborat bo'lib, ular orasida o'lganlar va yaradorlar yotardi. Politsiya boshqarmasiga boradigan ko'chada ayrim kishilar menga yig'i-sig'i aralash nimalarnidir tushuntirib, kimlarningdir ustidan shikoyat qilmoqchi bo'ldilar. Bu yerdagi erkaklar va xotinlarning hammasi xo'rlangan va ezilgan ko'rinadi. Politsiya boshqarmasiga kirganimda Eski shahar mirshablarining hammasi qo'llarida to'pponcha ushlab turganlarini ko'rdim. Boshqarma binosi oldida telefon simi uzilgan holda yotibdi. Idoraning ichida g'isht va tosh parchalarini, eshik va derazalar singanini ko'rdim. Hali harbiy qismlar kelmagan edi. Olomonning tarqalishini so'rab qilingan taklif inobatga olinmay, shovqin-suron eshitilib turdi. Ko'p o'tmay o'liklarni va yaradorlarni olishga va tibbiy yordam ko'rsatishga kirishildi. Shu paytgacha boshqarmaga harbiy bilim yurtining bo'linmasi va Toshkent yangi shahrining mirshablari kelishdi. Shundan keyin harbiy qismlar ham yetib kelib, olomonni ko'cha

tarafdan o‘rab oldi va ularni tarqatishga muvaffaq bo‘lindi. Qo‘zg‘olonchilardan bir guruhi mirshab Mirkomil xonadoniga xujum qilish uchun Beshyog‘och tomonga ketishgan ekan».

Chor hukumati qo‘zg‘olonni bostirgandan keyin ko‘p kishilarni hibsga oldi va sud qildi. g‘alayonning faol qatnashchilaridan etikdo‘z Abdurahmon Qayumso‘fiev va qora ishchi Mirqosim Shomammedov osib o‘ldirishga hukm etildi. Ishchilardan Tojiboy Yunusxo‘jaev, G‘ulom Kamolov, Yo‘lchi Ibrohimov, Nizomiddin xo‘ja Zayniddin Xo‘jaev, kambag‘al dehqon Murodxo‘ja Mahmudali Xo‘jaev, Yoqub Murodjaboev va boshqalar uzoq muddatli surgun yoki qamoq jazosiga tortildi.

Chor ma‘muriyati jo‘natilishi kerak bo‘lgan 200470 kishi o‘rniga amalda 123 mingdan ortiq mardikorni safarbar qila oldi. Ulardan 101600 tachi Rossiyaning g‘arbiy qismiga, 4000 kishi Sibirga, 7405 kishi Kavkazga yuborilgan. 10000dan ortiq kishi Turkiston o‘lkasining o‘zida ishlatilgan. Mardikorlar harbiy va sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo‘llar qurilishida, o‘rmonlar va ayrim kapitalistlarning xo‘jaliklarida qattiq nazorat ostida betinim ishlatilganlar. Ular ochlikdan, ho‘rlikdan, mashaqqatli mehnatdan ko‘p aziyat chekdilar. Ko‘plari sovuq urishidan, turli kasalliklardan o‘lib ketdilar yoki bir umrga nogiron bo‘lib qoldilar.

16-mavzu. 1917 yil fevral inqilobi va Oktabr to‘ntarishi

(2 soat ma‘ruza)

Reja

1. 1917 yil Fevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy uyg‘onish.
2. Turkistonda muhtoriyatchilik harakatining shakllanishi.
3. Oktabr to‘ntarishi. Turkistonda mustabid sovet rejimining o‘rnatilishi.

1. 1917 yil 28 fevralda Petrogradda Qishki saroy va Petropavlovsk qal‘asini bosib olish bilan inqilobiy voqealar nihoyaiga yetdi. 2 martda ishchi va solat deputatlari Petrograd sovetining burjua partiyalari va tashkilotlari vakillaridan iborat bo‘lgan hamda “Progressivniy blok” nomi bilan birlashgan Davlat dumasida Muvaqqat qo‘mitasi bilan kelishuv asosida Rossiyada muvaqqat hukumat tuzildi. Rossiyada ikki hokimiyat – ikki diktatura: Muvaqqat hukumat siymosida demokratik diktatura va Sovetlar siymosida proletariat va dehqonlarning inqilobiy-demokratik diktaturasining o‘ziga xos qo‘shiluv yuzaga keldi.

Muvaqqat hukumat 3 martda e‘lon qilgan Bayonnomasi va 6 martda e‘lon qilgan Rossiya fuqarolariga murojaatnomasida o‘z davsturini bayon qilib berdi. Hukumat siyosiy erkinliklar – so‘z, matbuot, ittifoqlar tuzish, yig‘ilishlar va ish tashlashlar erkinligi joriy etilganligini; barcha tabaqa, diniy va milliy cheklashlarning bekor qilinganini, teng va yashirin ovoz berish bilan o‘z-o‘zini boshqarish organlariga saylov o‘tkazish, politsiyani xalq militsiyasi bilan almashtirish, to‘la siyosiy avfnoma berish lozimligini e‘lon qildi.

Demokratik inqilob Turkiston o‘lkasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. O‘lkada yangi jamiyatlar barpo etish harakatlari boshlandi. Jadidlar vujudga kelayotgan milliy-demokratik kuchlarning o‘zagi bo‘ldi, ular bu vazifani bajarishga o‘zlarining ilgarigi faoliyatlari davomida tayyorgarlik ko‘rgan edilar. Avj olayotgan demokratik jarayonlarda mahalliy xalqlar siyosiy manfaatlarining ustuvorligini himoya qilish fevralning dastlabki kunlaridanoq siyosiy maydonda ular faoliyatining asosiy yo‘nalishini belgilab berdi.

Turkistonda ham Rossiya markazidagiga o‘xshash qo‘sh hokimiyatning tarkib topish tamoyili yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Bir tomondan ishchi deputatlari Sovetlari bilan soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshladi. Ko‘p o‘tmay ular ishchi va soldat deputatlari yagona Toshkent Sovetiga birlashdilar. Ana shu sovetning chaqirig‘i bilan Turkiston shaharlarida Sovetlar tashkil qilina boshladi. 1917 yil mart ohiriga borib, o‘lkada ishchi va soldat deputatlarining 75 Soveti bor edi. Sovetlarning saylangan deputatlari asosan yevropalik millat vakillaridan iborat edi.

Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lkada muhtoriyati masalasi asosiy o'ringa chiqdi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida, hatto oddiy odamlar o'rtasida ham ancha ommalashgan edi. 1917 yil 14 martda xalq vakillarining birinchi majlisi bo'ldi. Unda aholining tatar va qozoq vakillari bilan to'ldirilgan 61 kishidan iborat bo'lgan yangi tashkilotning tarkibi tasdiqlandi. Bu organ "Sho'roi islom" degan nom oldi. Aprel oyining boshlarida mahalliy jadidlarning tashabbusi bilan O'sh, Andijon, Skobelev, Turkiston, Mari, Samarqand, Namangan va Qo'qonda uning mahalliy tashkilotlari tashkil qilindi.

"Sho'roi islom" tashkilotining xalq o'rtasida ta'sining kuchayib borishi Turkistonda markazga o'xshab ikkihokimiyatchilik emas, balki siyosiy maydonda uch hokimiyatni yuzaga keltirgan edi:

- Turkiston Sovetlari – bular inqilobiy demokratiyaning xoxish-mirodasini ifodalovchi yevropalik ishchi va soldatlarning organlari edi.

- Ijroiya qo'mitalari – Sovetlarga natsiyabitan aholining ancha keng milliy guruhlari namoyandalari bo'lib, ular tarkibida turli partiyalar bo'lgan va ular joylarda Muvaqqat hukumat organlari rolini o'ynagan.

- "Sho'roi Islom" tashkiloti – musulmon aholining xoxish-irodasini ifoda etdi va uning manfaatlarini himoya qildi.

1917 yilning mart-aprel oylari o'lkada siyosiy uyg'onishida burilish davri bo'ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilari va islom ulamolarining yetakchilari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Munavvarqori (1878-1931), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev (1882-1938), Fitrat (1886-1938), Fayzulla Xo'jaev (1896-1938), Mustafo Cho'qay (1886-1941), Muhammadjon Tinishboev (1879-1939), Sherali Lapin (1868-1919), Ahmad Zaki Validiy (1890-1970), Obidjon Mahmudov (1858-1936) o'lkada yangi tashkil qilingan "Sho'roi Islom" (1917 yil mart), "Sho'roi Ulamo" (1917 yil iyun), "Turon" jamiyatlari va "Turk adami markaziyat firqasi" (1917 yil iyul), "Ittifoqi muslimin" (1917 yil sentabr) siyosiy partiyalarining tuzilishida muhim rol o'ynadilar.

1917 yil 7 aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N. Shchepkin raisligida Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti tashkil qilindi. Uning tarkibiga 9 kishi kirgan bo'lib, ularning 4 tasi mahalliy millat vakillari edi. Bu davrda jadidchilik ma'rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga ko'tarilgan edi. 1917 yilning o'zida 4 marta Butunturkiston musulmonlarining qurultoyi o'tkazildi. 1917 yil 17-21 aprelda Toshkentda bo'lgan 1-qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston muhtoriyatini tashkil etish g'oyasi ilgari surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi davtlabki qadami edi. Qurultoyda Markaziy rahbar organ – Turkiston o'lkada musulmonlari sovetini tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Sovetga Mustafo Cho'qay rais, Validiy bosh kotib, Munavvarqori, Behbudiy, U. Xo'jaev, O. Maxmudov, T. Norbo'tabekov, Islom Shoahmedov va boshqalar a'zo qilib saylandi. Sovetning Toshkent, Samarqand, Farg'ona bo'limlari ham tashkil qilindi. Markaziy sho'roning organi sifatida "Najot", "Kengash" gazetalari chiqa boshladi. O'lkamussovetning 1917 yil 12 iyunda bo'lib o'tgan majlisida Nizom qabul qilindi va unga muvofiq barcha shahar, uezd, volost, musulmon sovetlari va "Sho'roi islom", "Ravnaq ul-islom", "Mirvaj ul-islom", "Muallimlar jamiyati" singai boshqa jamoat tashkilotlari volost, uezd va shahar Sho'rolariga birlashishlari, ularning hammasi birgalikda musulmon deputatlari Turkiston Markaziy sho'rosiga bo'shunishlari lozim edi.

2. Shunday qilib, 1917 yil bahorida Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Turkiston o'lkasiga muhtoriyat berish masalasi birinchi bor musulmonlarning 1-Butunturkiston se'zida (1917 yil aprel) qo'yildi. Shuningdek, bu masala "Sho'roi islom" Markaziy Qo'mitasi doirasida ham muhokama qilingan edi. Muhtoriyat masalasi musulmonlar orasida 1917 yil may oyi boshida Moskvada bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining 1-se'zidan keyin yanada faol qo'yila boshladi. 1917 yilning 12-14 iyulida skobelev shahrida viloyat musulmon tashkilotlarining qurultoyi bo'lib o'tdi. Se'zda qabul qilingan dasturiy hujjatda se'zda tuzilgan "Turk adami markaziyati" partiyasi Turkiston, Qozog'iston, kavkaz va

Boshqirdiston uchun milliy-hududiy muhtoriyatni, Volgabo'yi, Qrim tatar va boshqa turkiy xalqlar uchun esa milliy-madaniy muhtoriyatni talab qiladi, degan rezolyutsiya kiritildi. Dasturda yozilishicha, muxtor jumhuriyatlar parlamenti va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv tashkilotlariga saylovlar umumiy asosda, yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Dasturda fuqarolarning huquqlariga bag'ishlangan bo'lim e'tiborga loyiq bo'lib, unda "Jumhuriyatning butun aholisi, dini va millatidan qat'iy nazar qonun oldida bir hil javobgardir", deb maxsus qayd qilingan edi. Yer masalasida esa barcha davlat mulklari musodara qilinib, aholiga ijaraga berish yoki fuqarolarga sotish taklif etiladi. Bundan tashqari dasturda fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklariga, mehnatkashlar mehnatini muhofaza qilishga doir bandlar ham bor edi.

Muhtoriyatchilar tomonidan maorif masalasi juda puxta ishlab chiqilgan edi. Bilim olish huquqi barcha uchun himoya qilinishi ta'kidlangan. Dasturda maktab mustaqilligi e'lon qilinib, boshlang'ich ta'lim bepul, umumta'lim majburiy bo'lishi belgilangan edi. 1917 yil avgust oyida "Kengash" gazetasida Muhtoriyat dasturining loyihasi e'lon qilindi. Bu loyiha Turkistonda mashhur siyosiy arboblardan, huquqshunos va ulamolar tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Farg'onada bo'lib o'tgan va unda qabul qilingan Turkiston o'lkasining demokratik yangilanish g'oyalari erkin qarashlardagi ziyolilar va musulmon ruhoniylari o'rtasida jiddiy qiziqish uyg'otdi. Bu esa o'ta keskin kayfiyatdagi millatchilar va islom mutaassiblarining g'ashini keltirmay qolmadi. Ular islom dini nomidan so'zlab jamiyatda demokratik islohotlar o'tkazish yo'lidagi har qanday urinishlarga keskin qarshi chiqishdi. Turkistonning ilg'or jadid ziyolilari va qadimchilari orasidagi bu ziddiyat milliy ozodlik kuchlari safida parchalanishga olib keldi. 1917 yil iyun oyida Munavvarqori boshchiligidagi "Sho'roi Islom" tashkilotidan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent sho'basiga asos soldi. Ko'p o'tmay Qo'qon shahrida ham "Sho'roi Ulamo" jamiyati tuzildi. Lekin ikki jamiyat o'rtasida doimiy ixtiloflar bor edi. "Sho'roi ulamo" jamiyati a'zolari ruhoniya tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdilar. "Sho'roi Ulamo" jamiyati tomonidan "Al-Izoh" jurnali chiqarila boshlangan. Jurnal sahifalarida asosan diniy masalalarga ko'proq e'tibor berilib, ahloq, madaniyat, ijtimoiy hayot ruhoniya nuqtai nazaridan targ'ibot qilindi.

G'oyaviy jihatdan ajralish milliy ozodlik harakatidagi kuchlar nisbatining o'zgarishiga olib keldi. "Sho'roi ulamo" a'zolari asosan ruhoniylardan iborat bo'lib, ular aholi o'rtasida katta ta'sir kuchiga ega edi.

1917 yil kuzida davom etayotgan urush natijasida mamlakatda ocharchilik, ishsizlik avj oldi. Bu o'z navbatida mehnatkash ommaning noroziligini kuchaytirdi, joylarda hokimiyatning inqiroziga olib keldi. Bunday vaziyatdan foydalangan Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetga kirgan bolsheviklar "Butun hokimiyat sovetlarga" degan shiorni ko'tarib chiqdilar. 1917 yil 10 sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining 2-qurultoyi ochildi. "Sho'roi Islom" tashabbusi bilan chaqirilgan ushbu qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Qurultoyda faqat Milliy markaz – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin degan fikr qat'iy qilib qo'yildi.

1917 yil 20 sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining qurultoyi "ulamochilar" bilan "sho'roi islomchilar" o'rtasidagi bahslarga qaramay o'zaro murosaga keldi. Qurultoyda "Sho'roi islom", "Sho'roi Ulamo", "Turon" va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston mintaqasi uchun umumiy bo'lgan "Ittifoqi muslimin" degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi. Qurultoy ishidagi asosiy masala o'lkaning bo'lajak siyosiy tuzumini belgilash edi. Qurultoy Turkiston Muhtoriyatini tashkil etish haqida qaror chiqaradi. Qurultoy muhtoriyatga "Turkiston Federativ Respublikasi" degan nomni qo'yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lgusi davlat tuzumining bosh tamoyil va me'yorlarni belgilab berdi. Shu tarzda Turkistonda muxtoriyat hukumati yuzaga kelmasdan ancha oldin uning poydevorini yaratishga zamin xozirlangan edi.

Shunday qilib, 1917 yilning oktabr oyiga kelib Turkistonda hokimiyat masalasida ikki muqobil yo'nalish yuzaga keldi. Birinchisi – milliy demokratlarning o'lkadagi boshqa yerlik

bo'lmagan millatlar vakillari ishtirokida demokratik ruhdagi Turkiston Muhtoriyatini tashkil etishga bo'lgan intilishlari, ikkinchisi esa – bolsheviklar tomonidan muhtoriyatchilarning bu intilishlarini inkor etib zo'rlik bilan hokimiyani egallab, unga mutlaq hukmron bo'lish edi.

3. 1917 yil 25 oktabrda qurol kuchiga tayangan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar Petrogradga Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni zo'rlik bilan egalladi. Rossiya markazida yuz bergan voqealarning aks-sadosi ko'p o'tmay Turkistonga ham yetib keldi. 28 oktabrda Toshkentning yangi shaharida yevropalik ishchilar va soldatlar bolsheviklar qutqusi bilan qurolli to'qnashuvlarni boshlab yubordilar. Shaharning tub yerli aholisi bo'layotgan voqealarga aralashmasdan betaraf pozitsiyada turdi. Qo'zg'olonchilar Muvaqqat hukumatning general Korovichenko boshchiligidagi harbiy qismlaridan ustun keldi. 1 noyabrda Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti qamoqqa olindi. ko'cha janglari vaqtida faqat Sovetlar tarafdorlaridan 80 ga yaqin kishi halok bo'ldi. Shunday qilib, Toshkent bolsheviklari va so'l eserlari shaharda bo'lib o'tgan qurolli qo'zg'olon kunlarida begunoh halok bo'lganlar qoni evaziga hokimiyat tepasiga keldilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1917 yilning kuzida Turkistonning turli uezd va shaharlarida hokimiyatning sovetlar qo'liga o'tishi haqidagi faol talablar sodir bo'lmagan. Aksincha, aholining aksariyati muvaqqat hukumatni qo'llab-quvvatlagan holda, mamlakat taqdirini hal qiladigan ta'sis Majlisini chaqirish g'oyasini ilgari surganlar.

Qurolli qo'zg'olon natijasida Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi ag'darildi, yangi hokimiyatning o'lka organi darhol tuzilmadi. Uning vazifasini dastlabki vaqtda Toshkent kengashi bajarib turdi. Hokimiyatning sovetlarga o'tishini o'lkadagi taniqli musulmon jamoat arboblari qattiq qoraladilar. Mahalliy aholi bolsheviklar ilgari surgan sinfiy kurash, proletar inqilobi va proletar diktaturasi, boylardan yer va boshqa mol-mulklarni tortib olish kabi g'oyalardan juda uzoq edi.

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan o'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining 3-s'ezdida 15 kishidan iborat hukumat – Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Unda 8 o'rin so'l eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Hukumat faqat yevropaliklardan iborat bo'ldi. Turkiston XKS raisi lavozimini kasbi chizmakash bo'lgan bolshevik F.Kolesov egalladi, xarbiy komissar qilib izvoshchi Perfilev, boshqa komissarliklarga ham shunga o'xshash kishilar tayinlandi. Bolsheviklar hokimiyat masalasini amalda mahalliy millat vakillari ishtirokisiz hal qildilar. Muhimi, hukumat tarkibiga birorta ham mahalliy millat vakillari kiritilmadi. Shuni aytib o'tish kerakki, se'zddagi ayrim fraksiya vakillari o'lkaning rahbar organlari tarkibiga mahalliy aholi vakillarini ozroq miqdorda bo'lsada kiritish haqidagi fikr bildirib, o'lkadaning yangi organida 18 ta o'rindan 3 tasini musulmon ishchi vakillariga berishni taklif qildilar. Lekin bu taklif inobatga olinmadi.

Se'zd bolsheviklarning tazyiqi bilan o'lkadagi yangi hokimiyatning rahbar organi tarkibiga ko'p millionli mahalliy aholining birorta ham vakilini kiritmasdan, bu aholiga nisbatan adolatsizlik qildi. Bundan tashqari bolsheviklar o'zlarining shovinistik siyosati bilan chorizm zamoniga nisbatan bir qadam orqaga qaytdilar. Chunki chorizm zamonida Turkiston xalqlari vakillari Davlat Dumasiga saylangan edilar va muvaqqat hukumat mavjud bo'lib turgan qisqa vaqt davomida ular Turkiston qo'mitasi tarkibiga kirgan edilar.

Ushbu hukumat boshidanoq mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qildi. Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga, avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Mulkdorlar – ekspluatatorlar, ezuvchilar, milliy ziyolilar, o'qimishli xalq vakillari – milliy burjuaziya korchalonlari va malaylari, islom dini rahnamolari – reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlandi.

Turkistondagi dastlabki sovet hukumati mintaqada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Yo'qotilishi intizorlik bilan kutilgan mustamlakachilik yangi ko'rinishda boshlanib ketdi. Mahalliy millatlarning siyosiy jarayonga aralashtirilmaganligi o'lka xalqlarining sovet hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi. Hatto Turkistondagi

yevropalik aholining demokratik qatlamlari ham bolsheviklar va soʻl eserlarning bunday makkorona siyosatiga qarshi chiqdi.

Hokimiyat bolsheviklar qoʻliga oʻtishi bilan oʻlkada Muvaqqat hukumatning barcha boʻgʻinlari tugatilib, oʻrniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi oʻrnatildi. Turkiston XKS 1917 yil 28 noyabrda oʻlkada qizil gvardiya boʻlinmalari tuzish haqida qaror qabul qildi. Bu boʻlinmalar sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi koʻtarilgan dastlabki stixiyali chiqishlarni bostirishda faol ishtirok qildi.

Shunday qilib, dastaval Rossiya markazida qaror topgan sovet rejimi Turkiston oʻlkasida ham oʻrnatildi. Zoʻrovonlik va xalqlarni ezishga qaratigan sovet rejimi oʻzining ilk kunlaridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiasining mustamlakachilik tizimi sovet rejimi davrida yanada takomillashtirildi.

17-mavzu: Turkiston muhtoriyati - milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi

Reja

1. Turkiston muhtoriyatining tashkil etilishi
2. Muhtoriyat tarkibi va uning faoliyati
3. Muhtoriyatning xalq ommasi tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi.
4. Turkiston muhtoriyatining zoʻrlilik bilan tugatilishi.

1917 yil fevral inqilobidan keyin turkichstonda siyosiy partiyalar tuzilishi, ular tomonidan dasturiy hujjatlar qabul qilinishi oʻlkada milliy harakatning keng quloch yoyganidan dalolat berar edi. Biroq, Petrogradga bolsheviklar tomonidan Oktabr toʻntarishi amalga oshirilishi oqibatida 1917 yil oktabr-noyabr oylarida Turkiston oʻlkasida, xususan Toshkent va Qoʻqonda yuz bergan voqealar milliy ozodlik harakatini butunlay boshqa yoʻnalishda ketishga majbur qildi.

1917 yil 26-28 noyabrda Qoʻqon shahrida Turkiston oʻlka musulmonlarining fvaqulodda 4-qurultoyi boʻlib oʻtdi. Qurultoy ishining butun tafsilotlari oʻsha davr gazetalarida toʻla aks etgan. Mustafo Choʻqayev qurultoyini ochar ekan, Rossiya va Turkistonning siyosiy va iqtisodiy ahvoli xususida qisqacha maʼlumot beradi. Uning aytishicha, Markazda yuz berayotgan voqealar chekka oʻlkalarni, hususan, Turkiston oʻlkasini ham mustaqil boshqaruvini tashkil etishni taqozo etadi. Oktabr xunrezligini boshdan kechirgan Rossiya va Turkiston oʻz tqdiri haqida mulohaza yuritishi lozimligini aytib oʻtdi.

Maʼlumki, musulmonlarning ushbu nufuzli qurultoyida qabul qilingan qarorlar uzoq vaqt davomida millatchilar guruhining yigʻinida eʼlon qilingan burjua muhtoriyati deb notoʻgʻri talqin qilib kelindi. Hujjatlar esa ushbu holning butunlay aksi boʻlganligini isbotlaydi. Masalan, Turkiston jadidlarining otasi sanalgan Behbudiy oʻz maʼruzasida qurultoyning Turkiston xalqlari tarixida ulkan ijobiy, tarixiy xodisa va burilish davri ekanligini taʼkidlab, “qurultoy qabul qilayotgan qarorlar shuning uchun ham ahamiyatliki, unda Turkiston aholisining yevropalik vakillari ham ishtirok etmoqdalar” degan. Behbudiy va Obidjon Mahmudov qurultoy xayʼatida musulmonlar bilan bir qatorda boshqa milliy guruhlarining ham vakillari boʻlishini yoqlab chiqdi.

Turkistonni boshqarish shakli uch kun davom etgan qurultoning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida soʻzga chiqqanlarning koʻpchiligi Turkistonning muhtor respublika deb eʼlon qilinishi oʻlka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqan va unga mos tushishini uqtirdi. Muhtoriyat va mustaqillik eʼlon qilish fikrini hamma qoʻllab-quvvatladi.

Qurultoyda 1917 yil 27 noyabr kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi daʼvat etgan xalqlarning oʻz huquqlarini oʻzlari belgilash xususidagi irodasini bayon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muhtor deb eʼlon qiladi, shu bilan birga muhtoriyatning qaror topish shakllarini Taʼsis Majlisiga xavola qiladi”. Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda eʼlon qildi.

28 noyabrda tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston Muhtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kuni yig'ilishda Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerpak, deb qaror qabul qildi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muhtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov – bosh vazir o'rinbosari, Mustaf Cho'qaev – tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xo'jaev – harbiy vazir, Xidoyatbek Yurg'uli Agaev – yer va suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri, Abdurahmon O'razaev – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, Solomon Abramovich Gersfeld – moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Mustaf Cho'qaev bosh vazir lavozimini bajarishga kirishadi. Vazirlikdan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi o'rta malakali xuquqshunos ekanligi muhtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi.

Qurultoyda 28 noyabr kuni Turkiston Millat Majlisi ochilishi to'g'risidagi qaror ham tasdiqlandi. Millat majlisi 54 a'zodan iborat bo'lib, qurultoy qaroriga binoan 36 nafar musulmonlar va 18 nafar g'ayri musulmonlardan saylanishi belgilandi. 36 nafar musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan bo'lib: Farg'ona – 10 nafar, Samarqand – 5 nafar, Sirdaryo 9 nafar, Yettisuv – 6 nafar, Zakaspiy – 2 nafar; 4 nafar esa butun Turkiston shahar dumlari tarpafidan saylanishi belgilandi. 18 nafar o'rin esa o'lkaning yevropalik tashkilot va fuqarolariga, jumladan, temiryo'chilar ittifoqi, ishchi va soldat deputatlari soveti, sotsial-demokratlar, dashnoqsutyun, yerlik juhudlar, yaxudiylar, eserlar, ukrainlar, polyaklar vakillari va boshqalarga berilishi ko'zda tutilgan edi. Demak tashkil etilayotgan hukumat tarkibiga turli siyosiy va milliy guruhlar vakillarining qatnashuvi ko'zda tutildi. Demokratik ruhdagi milliy ziyolilar qurultoyda qabul qilingan dasturiy hujjatlarga o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan xalqchil va demokratik g'oyalarni kiritishdi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Milliat majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. “Sho'roi ulamo” rahbari Sherali Lapin Milliat Majlisi tarkibiga uning raisi sifatida kirgan bo'lsada, ammo uning o'zi buni rad etdi.

Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muhtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu murojaatnomada Turkistondagi barocha aholi irqi millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qrt'iy nazar yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi.

Oradan ko'p o'tmay Millat majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilindi. Shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. “El bayrog'i”, “Birlik tug'i”, “Svobodniy Turkestan”, “Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana” kabi hukumat gazetolari o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshladi. Avval chiqayotgan “Ulug' Turkiston” gazetasi ham o'z sahifalarida muhtoriyat hukumat faoliyatiga alohida o'rin bera boshladi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O. Mahmudovning bosmasxonasi hukumat ixtiyoriga o'tdi. Muhtoriyat hukumati milliy qo'shin tashkil etishga kirishdi. 1918 yil boshida bu qo'shin saflarida bir mingdan ortiq askar bo'lgan. Harbiy vazir uyu. Xo'jaev ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 taga yetgan. Bundan tashqari Qo'qonda tahminan shuncha mirshablar ham bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 million so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga qo'ydi. Chunki gazetalarni nashr qilish, muhtoriyat qo'shinlarining ta'minoti va hukumatning ichki harajatlari uchun mablag' zarur edi. Shuningdek, hukumat a'zolari ochlik changalida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi. Turkiston Muhtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Yangi hukumat faoliyati faqat Qo'qonda yoki Farg'ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Fitrat, Cho'lpon, Xamza muxtoriyat hukumatini maqtab she'rlar bitdilar.

Turkiston xalqining muhtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo'lib o'tgan fojiali voqealar muhim o'rin tutdi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar axolisi "Muhtor Turkiston uchun!" shiori ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdi. Ammo Toshkent Sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib o'rnatishga buyruq berdilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi.

Muhtor hukumatning xalq o'rtasidagi obro'si bolsheviklarni tashvishga solib qo'ygan edi. 1918 yil 19-26 yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining favqulodda 4-se'zida muhtoriyat masalasi asosiy o'rin tutdi. Se'zd Turkiston muhtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb, hukumat a'zolarini qamoqqa olish to'g'risida qaror chiqardi. Bolsheviklar o'zlarining bu qabih va mudhish hukmini amalga oshirishga zudlik bilan kirishdilar.

30 yanvarda Turkiston XKS muhtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnaksutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli to'dalardan ham keng foydalandilar. Ularga qarshi dastlabki jangda muhtoriyatning milliy qo'shinidan tashqari qo'qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho'kich, tayoq ko'targan haloyiqning soni 10 ming kishiga yetdi. Shunga qaramay, quolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo'qon shahriga bo'lgan hujumini uch kun mobaynida mardonavor qaytardilar. Shahar ustiga uch kun davomida to'plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Muhtoriyat qo'shinining tirik qolgan qismi Kichik Ergash qo'rboshi boshchiligida shahardan chiqib ketdi.

Turkiston muhtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlarning qonli hujumi oqibatida ag'darib tashlandi. Ammo Qo'qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, o'ldirish avjiga chiqdi. Faqat Qo'qonning o'zida uch kun davomida 10 ming kishi o'ldirildi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi.

Hukumat boshlig'i Mustafo Cho'qaev shaharni tark etib yashirinishga majbur bo'ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo'ldi, ba'zilarini bolsheviklar qo'lga olishdi. Nihoyat, 1918 yil 22 fevralda Qo'qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan "tinchlik shartnoma" imzolandi. Turkiston Muhtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko'rgan bo'lsada, u erksevar halqimizni milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashga da'vat etdi. 1918 yilning erta bahorida avval Farg'ona vodiysida, so'ngra butun Turkistonda istiqloqlolchilik harakati boshlandi. Ammo bu davrga kelib Turkiston Muhtoriyatini tor-mor etib, o'lkada yakka hukmron bo'lgan, qurl va zo'ravonlikka tayangan bolsheviklar mintaqada sovetcha andozadagi avtonomiya tashkil etishga kirishgan edi.

1918 yil yanvar oyidayoq bolsheviklar Turkiston Muhtoriyatiga qarshi Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini ko'tarishgan edi. Bu muammo faqat Turkiston Sovetlarining 5-se'zida (1918 yil 20 aprel-1 may) hal qilindi. Se'zd Rossiya Sovet Sotsialistik federatsiyasi tarkibida Turkiston Respublikasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Turkiston Respublikasining Markaziy Ijroiya Komiteti va XKS saylandi. Ular tarkibiga ilk marta tub millatlarning vakillari kiritildi. Shuningdek, se'zda sanoat korxonalarini musodara qilish va boshqa ayrim masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Shunday qilib, sovet Rossiyasi tarkibida Turkiston avtonom respublikasi tashkil qilindi.

Turkiston Respublikasi XKS va MIK ichida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, mojarolar va janjallar avjiga chiqdi. Oktabr oyida Turkiston XKS raisi F. Kolesov va boshqa ayrim amaldorlar egallagan lavozimlaridan bo'shatildi.

1919 yil 19 yanvarda harbiy komissar k. Osipov boshchiligida Toshkentda isyon ko'tarildi. K. Osipovning buyrug'i bilan 14 komissar otib tashlandi. Isyonchilar tomonidan sovet hokimiyati ag'darildi, hokimiyat masalasi Ta'sis majlisida hal qilinadi deb e'lon qilindi. Biroq isyon Toshkent temiryo'l ustaxonalari ishchilari va boshqa harbiy qismlar tomonidan tezda bostirildi. K. Osipov avval Farg'ona vodiysiga, so'ngra Buxoro amirligiga qochib ketdi. Bu isyon

bahonasida bolsheviklar 1919 yil mart oyi boshida soʻl eserlarni hukumatdan chiqarib yakka oʻzlari hukmron boʻlib oldilar.

1919 yil 8 oktabrda Moskvada Turkkomissiya tashkil qilinib u Toshkentga yuborildi. Turkkomissiya, keyinchalik tuzilgan Turkbyuro va Oʻrta Osiyo byurosi kabi turli komissiya va byurolar muntazam ravishda Rossiya markazidan Turkistonga joʻnatib turildi. Markaz oʻzining bu favqulodda organlari orqali Turkiston mintaqasini boshqarishga, mahalliy xalqlarni mustamlakachilik asoratida ushlab turishga intildi.

Bu paytda butun Rossiyada boʻlgani kabi Turkiston Respublikasida ham “harbiy kommunizm” siyosati joriy qilindi. Bu siyosat oʻz mohiyatiga koʻra xalqqa qarshi qaratilgan edi. U xususan dehqonlarga katta zarba boʻlib tushdi. Turkistonda ham sovet rejimi bir qator dekretlar chiqarib oziq-ovqat razvyorskasini joriy qildi. Aslini olganda dehqondan u yetishtirgan mahsulotning deyarli hammasi tortib olindi. Bozorlar yopildi, savdo-sotiq taʼqiqlandi. 16 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan barcha erkak va ayollar uchun mehnat majburiyati joriy qilindi. Sovet rejimining bunday mustamlakachilik siyosati oqibatida istiqloлчаilik harakati mintaqada kuchayib avj oldi.

18-mavzu: Turkistonda mustabid tuzumga qarshi qarshilik harakati

Reja

1. Istiqloлчаilik harakatining boshlanishi va uning sabablari
2. Fargʻona vodiysida sovetlarga qarshi qurolli harakat va uning mohiyati
3. Qurolli qarshilik harakatining butun Turkiston mintaqasiga yoyilishi
4. Buxoro va Xorazmdagi qurolli muholifat harakati
5. Sovetlarga qarshi qurolli kurashning yengilishi va uning sabablari

Turkistonda oktabr toʻntarishidan keyin sodir boʻlgan voqealar jarayoni shuni koʻrsatdiki, bolsheviklar oʻrnatgan sovet rejimi oʻlka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muhtoriyatni ham ravo koʻrmadi. Mustaqillik osonlikcha qoʻlga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qoʻliga qurol olib bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qurolli harakat boshladilar. Biroq soqvet rejimi va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida ularga “bosmachi” degan nohaq tamgʻa bosildi. Bu atama aynan bolsheviklar tomonidan oʻylab topilgan atama boʻlib, milliy istiqloлчаilar oʻzlarini bu nom bilan atamaganlar. Bu harakat haqida soʻz yuritilgan 1918-1919 yillardagi arxiv hujjatlarida ham bosmachi degan soʻz uchramaydi. Bu hujjatlarda “qaroqchi”, “shayka” yoki “bosqinchi” degan iboralar ishlatilgan. 1919 yilning oʻrtalaridan boshlab ayrim rasmiy hujjatlarda, keyinchalik esa sovet vaqtli matbuotida “bosmachi” iborasini qoʻllash boshlangan. “Bosmachi” va “bosmachilik” iboralari milliy ozodlik harakatining mohiyatini pasaytirish uchun milliy shovinistlar tomonidan oʻylab topildi va “banditlik”, “qaroqchilik” soʻzlari bilan bir qatarga qoʻyildi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin “bosmachi” yorligʻi yopishtirilgan ota-bobolarimizning muborak nomlari qayta tiklandi va ularning haqiqiy qiyofalari milliy istiqloлчаilar sifatida namoyon boʻldi.

Sovetlarga qarshi qurolli harakat Turkiston muhtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlandi. Zotan bu bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat boshlanishini muqarrar qilib qoʻygandi. Shu bilan birga bu harakatning boshlanishi uchun muhtoriyatning tor-mor qilinishi bilan birga boshqa bir qator jiddiy sabablar ham bor edi.

Birinchidan, 1917 yilda sodir boʻlgan oktabr toʻntarishi natijasida hokimiyatni qoʻlga olgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu gʻoyani avval boshdanoq oʻziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati oʻrnatilgan dastlabki davrda hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy gʻururi, haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda bolsheviklar tomonidan oʻrnatilgan sovet rejimi chor Rossiyasi mustamlakasiligining yangi shakli ekanligi oʻsha

dastlabki kunlardan oshkor bo'lgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum o'rnatilgan ilk kunlardan mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy qadriyatlar toptaldi. Shariat asoslari va qozixonalar bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning turli shakllariga chek qo'yildi.

Turkiston Muhtoriyati hukumatining tugatilishi bu harakatning butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadi. Chor Rossiyasining mustamlakasilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi qurolli harakat (istiqlolchilik harakati) 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo'lgan. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, unga asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashgan. Ularga shahar aholisining aksariyat qismi – o'ziga to'q badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda ba'zi boylar ham qo'shildi. Harakat qatnashchilari safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar – ziyolilar ham ko'pchilikni tashkil qilardi va ular jadidlar orasidan yetishib chiqqan Turkiston munavvvarlari edi. Bir so'z bilan aytganda ular safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

Dastlabki qurolli guruhlarining tashkil topishi Kichik Ergash (taxminan 1885-1918) va Katta Ergash (taxminan 1880-1921) ning nomlari bilan bog'liq. 1918 yil 27 fevralda Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'ida bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash Farg'ona vodiysida bolsheviklar rejimiga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'taradi. Qo'qon uezdida harakatning dastlabki tayanch nuqtasi Bachqir edi. 1918 yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketadi.

Marg'ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi. U o'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muhtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan edi. Madaminbek usta siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega bo'lgani hatto bolshevik rahbariyati tomonidan ham tan olingan edi.

Farg'ona vodiysida 1918 yilning o'rtalariga kelib taxminan yuzga yaqin qo'rboshilar o'z guruhlarini qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib borar edilar. Bu guruhlarda 15 000 yigit bor edi. Turkistondagi bu harakatning o'ziga xos milliy ko'rinishi va xususiyatlari mavjud bo'lgan. Bu xususiyatlar harakatdagi qo'rboshilar dastalari va guruhlarining faoliyatida, ularning maqsad va istaklarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda islom shariati qonun-qoidalari asosidagi milliy davlat barpo qilishdan tortib, milliy demokratik tartibdagi mustaqil davlat tuzishgacha bo'lgan g'oyalar mujassamlashgan edi.

Turkiston mintaqasidagi mazkur harakatning muhim xususiyati shundaki, bu harakatda maqsadlar va vazifalar qanday bo'lishidan qat'iy nazar boshdan oxirigacha bir ustivor g'oya – Turkistonning milliy mustaqilligi yotadi. Bu harakat gox kuchayib, goh pasayib turishiga qaramay, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi o'zgarib turishi va ikkilamchi manfaatlar o'rtada turganligi hamda ob'ektiv va sub'ektiv omillar kuchlar muvozanatiga salbiy ta'sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo'lib qolaverdi.

Turkistondagi bu harakatning uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida qo'rboshilar ko'rsatgan g'ayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Qo'rboshilar harakatining harbiy rahbarlari bo'lib, ular o'z jangovarliklari bilan mashhur edilar. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaniminbek, Shermuhammadbek, Muhiddinbek, Islom Polvon, Yormat Maxsum, Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek, Buxoro respublikasida Ibrohimbek, Mulla Abduqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Fuzayl Maxsum, Xorazm respublikasida Junaidxon kabi qo'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o'z qo'llariga olsalarda, lekin Turkiston mintaqasidagi qurolli harakat boshdan oxirigacha yagona markazga to'liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirlari esa fojiali tugadi.

Farg'ona vodiysidagi bu harakat 1919 yil yozning oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi istiqolchilar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlari armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi. Sentabr

oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O‘Sh shaharlarini egallashdi. Ular 13 sentabrda Eski Marg‘ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar – Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo‘shinning hujumi Farg‘ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919 yil 22 oktabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo‘lgan anjumanda Madaminbek boshchiligidagi Farg‘ona muvaqqat muhtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 tub aholi va 8 yevropalik kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig‘i bo‘lish bilan birga Farg‘ona vodiysidagi bu harakatning Oliy bosh qo‘mondoni etib ham saylandi.

1919 yil kech kuziga kelib Madaminbek qo‘li ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglar olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo‘li ostida 20 ming, Katta Ergash qo‘rboshida 8 ming askar bo‘lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdilar.

Madaminbek siymosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga hos xshifatlar uyg‘unlashgan edi. U vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishdagi o‘z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. Turkistondagi bu harakat 1920 yilning yozi va kuzida o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Xorazm va Buhoro respublikalaridagi muholifatchilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi kurashga otlandilar. Kurash bayrog‘ini vodiya Madaminbek o‘rniga endi Shermuhammadbek ko‘tardi. Vodiydagi qo‘rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanidagi G‘oyibota qishlog‘ida o‘zlarining navbatdagi qurultoyiga to‘planib, 1920 yil 3 mayda Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston turk mustaqil islom jumhuriyati yoki qisqa qilib aytganda Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi.

Shermuhammadbek Farg‘ona vodiysidagi kurashchilarning Oliy bosh qo‘mondoni ham qilib saylandi. Bolshevik rahbarlarning e‘tiroficha, “Madaminbek qo‘rboshilar ichida eng kuchlisi bo‘lgan bo‘lsa, shermuhammadbek shubhasiz eng xavflisi edi.”

Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni tashkiliy jihatdan uyushtirishda Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi qo‘rboshilarning mazkur davrda bo‘lib o‘tgan 30 dan ortiq qurultoylarining ahamiyati katta bo‘ldi. Bu qurultoylarda harakat rahbarlari saylangan, qo‘rboshilar yagona qo‘mondonlik ostida birlashtirilgan. Ammo bunga har doim ham amal qilinmas edi. Shuningdek, qurultoylarda qo‘rboshilar guruhlar harakat qiladigan joylar va ularning ta’sir doirasi belilab olingan. Ba’zi qo‘rboshilar oliy bosh qo‘mondonga bo‘ysunmay, o‘zlaricha mustaqil harakat qilganlar. Shuningdek, bu paytdagi beqaror vaziyatdan foydalangan ba’zi kishilar talonchilik guruhlar tuzib xalqni talaganlar.

Turkistondagi bu harakatning g‘oyaviy rahnamolari yetarli darajada mavjud bo‘lib, ular asosan jadid vpakillari va islom ulamolari edi. Harakatga g‘oyaviy rahbarlik qilish uchun jadidlar bilan ulamolar o‘rtasida o‘zaro raqobat mavjud bo‘lgan. Namanganlik Nosirxon to‘ra, toshkentlik muftiy Sadridinxon Maxsum, Turkiston MIK raisining sobiq o‘rinbosari To‘raqul Jonuzoqov, Ahmad Zaki Validiy va boshqalar bu harakatning g‘oyaviy mafkurachilari edilar. Haraktga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviyliuk va naqshbandiylik tariqatining pirlari ko‘p bo‘lgan.

Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalaridagi jadidlarning bir qismi bu paytda sovet tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatishsada milliy mustaqillik to‘g‘risidagi o‘z g‘oyalaridan voz kechishmagan edi. 1921 yil avgustda buxoro shahrida Validiy boshchiligida tuzilgan Turkiston Milliy Birligi tashkiloti butun Turkiston mintaqasidagi bu guruhlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz vazifasini bajardi. Bu davrda “Milliy ittihad”, “Milliy istiqlol” tashkilotlari tashkil etilgan bo‘lib, ular harakatning keyingi rivojida muhim o‘rin tutdi.

Farg‘ona vodiysidagi vatanparvarlar qo‘shiniga 1923-1924 yillarda oldin Islom Polvon, so‘ngra Yormat maxsum kabi qo‘rboshilar rahbarlik qildilar. Bu paytda qo‘rboshilarning kichik-kichik guruhlar jang harakatlarini olib bordilar. Farg‘onada ularning soni 1923 yilda 350-400 atrofida edi. Lekin qo‘rboshilar kurashning mazkur bosqichida turli sabab va mahalliy shart-sharoitlar sababli doim ham bir-birlari bilan kelishib ish ko‘rmadilar.

1920-1924 yillarda bu harakat Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro va Xorazmdagi milliy muholifatning ozodlik kurashlari alohida, o‘ziga xos yo‘nalish va xususiyatga ega bo‘lib, o‘ta murakkabligi va ziddiyatligi bilan Turkiston respublikasidagi sovetlarga qarshi qurolli

harakatdan ajralib turadi. Bolsheviklar qizil armiya yordamida Buxoro amirligi va Xiva xonligini kuch bilan ag'darib, hokimiyatni Buxoroda asosan Yosh buxoroliklardan, Xorazmda esa Yosh xivaliklardan iborat demokratik kuchlar qo'liga berdi. Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalarida yuzaga kelgan qurolli muholifat shu boisdan ham bir yo'la ikki kuchga qarshi, qizil armiya qismlariga va bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan demokratik kuchlarga qarshi olib borildi. Bu urushning Turkistondagi, xususan Farg'ona vodiysidagi harakatdan farqi ham ana shundadir.

Biroq Buxoro va Xorazmdagi bu kurashga uning mohiyati va yo'nalishi nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, u ham umumiy sovetlarga qarshi harakatning bir ko'rinishi edi. Buxorodagi muholiftchilik harakatining o'ziga xos xususiyati bir guruh qo'rboshilarning Buxoro respublikasi hukumati rahbarlariga yo'llagan maktubida aniq ifodasini topgan edi. Maktubda vatanparvarlar Buxoroning mustaqilligi uchun kurashayotganliklari, bunday vatanda kommunistlar bo'lmasligi lozimligi, chunki ular xalqni yolg'on va'dalar bilan aldab kelayotganligi aytib o'tilgan edi. Shuning uchun ham Buxorodagi bu harakat qisqa muddat ichida ommaviy tus olib hatto Farg'ona vodiysidagi harakatga nisbatan ham kuchayib bordi. Fayzulla xo'jaevning ta'kidlashicha, "sharqiy Buxorodagi bosmachilik o'zining strategik mavqei jihatidan qaraganda Farg'ona bosmachilariga nisbatan kuchliroq edi".

Buxorodagi qo'rboshilar o'rtasida Ibroximbek (1889-1932) alohida o'ringa ega. Ibroximbek amirlik tuzumi ag'darib tashlanganidan keyin Sharqiy Buxorodagi qo'rboshilar guruhlariga umumiy rahbarlik qilib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurash boshladi. U o'z oldiga buxoro tuprog'ini qizil askarlardan tozalab, sobiq amirlik tuzumini qayta tiklash va saltanatni sobiq amir Said Olimxon (1881-1944) qo'liga olib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Shuning uchun ham u kurashga kirgan dastlabki kunlardan o'q sobiq Buxoro amiri tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi.

Ibrohimbek 1921 yil sentabrda bo'lgan Buxoro qo'rboshilarining qurultoyida "Islom lashkarboshisi" unvoniga sazovor bo'ldi va Buxorodagi barcha qurolli kuchlarning oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi. U qisqa muddat ichida o'n ming nafardan ortiq askar to'plab Qorategin va Darvoz viloyatlarini qizil askarlar qo'lidan ozod qilishga muvaffaq bo'ldi. Uning qo'l ostidagi Sharqiy Buxoro hududida o'z boshqaruv usulini joriy etdi. Joylardagi yangi tuzum tugatilib uning o'rniga amilik davridagi boshqaruv tizimi joriy qilindi. Ibrohimbekni bu yerdagi mahalliy aholi, xususan laqaylar qo'llab-quvvatlashdi.

Buxoroning markaziy va g'arbiy viloyatlarida ham kurash shiddatli tus oldi. Qisqa muddat davomida Mulla Abduqahhor boshchiligida poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to'plandi va jangovar harakatlar olib borildi. Shuningdek, Mulla Abduqahhor rahbarligida Buxoro, karmana va Nurotada o'nlab qo'rboshi guruhlar faoliyat ko'rsatdi. Ma'lumotlarda aytilishicha, G'arbiy Buxoroda uning qo'li ostida 20 ta qo'rboshi birlashgan. O'rmon Polvon, Xayit Amin, Oston Qorovulbegi, Hamro Polvon, Azimxo'ja, Metan Polvon uning eng nufuzli qo'rboshilari bo'lgan. Ular asosan G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari va Nurotada o'z faoliyatlarini kuchaytirdilar. Ularning katta armiyasi 1922 yil mart oyining boshida poytaxt Buxoro shahriga yurish qildi. Ular qizil askarlar bilan shahar atrofida bo'lgan ikki kunlik shiddatli janglardan so'ng Buxoro shahrining katta bir qismini egalladilar va bir necha soat mobaynida o'z qo'llarida saqlab turdilar. So'ngra shahar atrofida Bahouddin Naqshband ziyoratgohini bosqinchilardan tozaladilar.

Buxorodagi qurolli qarshilik harakatiga qizil armiya katta kuch sarflashga majbur bo'ldi. Moskva, Toshkent, Buxoroda 1923 yil may-iyun oylarida o'tkazilgan oliy darajadagi rasmiy anjumanlarda bu masala eng dolzarb muammo sifatida kun tartibida turdi.

Buxorodagi istiqlolchilik harakati qizil armiya va bolsheviklarning tajovuzkorligi, zo'ravonligi va talonchilikka qarshi qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Mujohidlarning asosiy maqsadi qizil qo'shinni xaydab chiqarish, milliy qadriyatlar, asriy e'tiqod va urf-odatlarining poymol qilinishi, xo'rlanishiga barham berish edi. Bir guruh vatanparvarlar Fayzulla Xo'jaev boshliq buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoro tuprog'idan bosqinchi qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar. Afsuski, Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvarlar bilan muholifatdagi qurolli

guruhlarning yo'lboshchilari o'rtasidagi ochiq bitishuv amalga oshmadi.

Xorazm respublikasida ham 1920 yil bahoridan boshlab qizil askarlarning misli ko'rilmagan talonchilik va zo'ravonliklariga qarshi harakat boshlandi. Qurolli kurashni turkmanlarning yovmut urug'i boshlig'i qurbon Mamed Sardor – Junaidxon (1857-1938) boshchiligidagi guruhlar ko'p yillar davomida olib bordi. Uning qo'shini safida o'zbek, qoraqalpoq va qozoqlar ham ko'pchilik edi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20 ming kishiga yetkazdi. O'zbek dehqonlari va hunarmandlaridan iborat guruhlariga Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qildilar. Xususan, ko'xna Urganch, Ilyali, Toshhovuz, Mang'it, Qo'shko'pir, Chimboy, qo'ng'iro't va To'rtko'lda harakat qilgan o'nlab sardorlarning guruhlari qizil askarlarga jiddiy zarbalar berdi. Junaidxon boshchiligidagi armiya hujumga o'tib 1920 yil yozida Ko'xna Urganch, Xo'jayli, Ilyali va Taxtani qayta egalladi, ko'plab qizil askarlarni asir oldi. Junaidxon sovet qo'mondonligiga maxsus maktub yuborib agar qizil armiya Xorazmdan chiqib ketmasa, askarlarni otib tashlashini bildirdi. Biroq sovet qo'mongdonligi Junaidxonning haqli talablarini rad qilgach, u bosqinchilarni otib tashlashga buyurdi.

1921 yil yozida qo'ng'iro'tda qo'zg'olon ko'tarildi. Bunday ommaviy ko'tarilishlar tez-tez takrorlanib turdi. Qishloq va shaharlarning aholisi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatga xayrixoxlik bildirgan. 1922-1923 yillarda Xorazmda olib borilgan jangovar harakatlar qizil armiya qo'mondonligini tang ahvolga solibgina qolmay, balki respublikadagi siyosiy muhitga ham jiddiy ta'sir qildi.

Sovet rejimi 1923 yil oxirida Junaidxon bilan sulx muzokaralarini boshlashga urinib ko'rdi. Biroq Junaidxon o'zining oldingi talabini Ya'ni: 1) Rossiya qo'shinlarini Xorazmdan darhol olib chiqib ketish; 2) shariatga to'la erkinlik berish; 3) barcha sobiq hokimlar va oqsoqollarni yana o'z lavozimlariga tiklash; 4) soliqlar va patentlarni bekor qilishni qat'iy talab qildi. Biroq bu talablarni sovet hukumati rad qilgach, muzokaralar to'htab qoldi.

Bu paytda Junaidxon qo'lida katta kuch to'plangan edi. Bundan tashqari Xorazm respublikasining bir qator rayonlarida sovet rejimiga qarshi dehqonlarning ommaviy qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Qo'zg'olonchilar joylardagi sovet tashkilotlarini tugatib, mamlakat poytaxti Xiva shahri ustiga yurish qildilar. Qoraqumda turgan Junaidxon qo'shini ham shahar tomon harakat qildi. 1924 yil 10 yanvardan boshlab Junaidxonning 15 ming kishilik piyoda va otliq qo'shini Xiva shahrini qamal qilishga kirishdi. 16 yanvarda Xorazm respublikasida harbiy holat joriy qilindi.

Xorazm respublikasida sodir bo'layotgan voqealarning bunday jiddiy tus olishidan tashvishga tushgan RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi 1924 yil 6 yanvarda Junaidxon boshchiligidagi kuchlarga qarshi kurashish uchun E. Berzin (rais), Gorodetskiy, Adinaev va Xidiralievlardan iborat favqulodda komissiya tashkil qildi. Xorazmga zudlik bilan qo'shimcha harbiy kuchlar keltirildi. Natijada Junaidxon qo'shini qariyb bir oy davom etgan qamalni to'xtatib orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Katta harbiy kuch to'plagan qizil armiya qo'shinlari muholifatchilarga qarshi hujumga o'tdi. Mart-aprel oylarida bo'lgan janglarda Junaidxonning piri bo'lgan Og'ajon eshon va boshqa qator sardorlar asir olindi.

Xorazm voxasidagi qurolli qarshilik harakati ayrim guruhlar tomonidan 1935 yilgacha olib borildi. Harakat Sharqiy Buxoro va Farg'ona vodiysida ham ba'zi uzilishlar bilan shu davrgacha davom etdi. Turkiston mintaqasidagi sovet rejimiga qarshi qurolli harakat tarixiga yakun yasar ekanmiz bu harakatni keng xalq ommasi, birinchi navbatda dehqonlar va hunarmandlar qahr-g'azabi hamda noroziligining yuksak darajada ko'tarilganligi ifodasi deb e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbekiston SSR XKS raisi F. Xo'jaev 1927 yilda bu harakatga baho berar ekan, quyidagilarni aytgan edi: "Bosmachilik harakati shiddatli siyosiy, aksilsovet xususiyat kasb etdi va butun O'rta Osiyoning mavjud uch respublikasi – Buxoro, Turkiston va Xorazmdagi dehqon aholisining ommaviy harakatiga aylandi. Harakatning dohiylari faqatgina Ko'rshermat, Ibrohimbeklar bo'lib qolmasdan, balki unga mahalliy milliy ziyolilar, mulla va boylar ham rahbarlik qildilar."

Bu harakatga aloqador bo'lgan umumiy xususiyat – bosqinchi qizil armiyani, bolsheviklarni vatanimiz hududidan olib chiqib ketish talabi edi. Bu talab butun harakat tomonidan ilgari surildi. Shunday qilib, qizil armiyaning bosqini va mustabid sovet rejimiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakat

1935 yilga kelib butun Turkiston mintaqasida tamomila mag'lubiyatga uchradi.

19-mavzu: Turkistonda boshqaruv tizimining shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar va madaniy hayot

Reja

1. Sovetlar bosqini arafasida Buxoro va Xivadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.
2. "Yosh buxoroliklar" tashkilotining yuzaga kelishi va uning faoliyati.
3. "Yosh xivaliklar" tashkilotining faoliyati.

1. 1917 yil Oktabrda Rossiyada amalga oshirilgan harbiy to'ntarish oqibatida butun mamlakatda, shu jumladan Rossiyaning mustamlakasi bo'lgan Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududidagi xalqlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ma'lumki, bu davrda Buxoro va Xivada monarxistik tuzum hukmron edi. Ya'ni amir va xon bu yerda cheklanimgan hukmronlik mavqeiga ega edi. Buxoro amiri Abdulahad (1885-1910) dan so'ng taxtga o'tirgan uning o'g'li Amir Olimxon davri (1910-1920) da amirlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumida ibrat olarliq darajada biron bir yangilik amalga oshirilmadi. Amirlik poytaxti Buxoro tipik o'rta asr shahri edi. Amirdan keyingi shaxs qushbegi bosh vazir hisoblangan. Undan keyingi mansabdor shaxs devonbegi bo'lgan. Sudlov ishini qozikalon boshqargan. Qo'shinga lashkarboshi bosh bo'lgan. Bu davrda amirlik 25 ta beklikka bo'lingan. Beklar amir tomonidan tayinlangan, amirlikda Qarshi, Chorjo'y, Karki, Xisor, Ko'lob va boshqalar yirik bekliklar sanalgan.

Buxoro amirligida aholi ro'yxatga olinmagan. Sovetlar bosqini arafasida bu yerda tahminan 3 millionga yaqin aholi yashagan. Aholi tarkibiga ko'ra bu yerda o'zbeklar (50,7 foiz), tojiklar (31,1 foiz), turkmanlar (10,3 foiz), qozoqlar, qoraqalpoqlar, buxoro yaxudiylari, arablar, eroniylar va boshqalar yashaganlar. Aholining asosiy qismi daryo voxalarida yashagan. Amirlik hududlaridan chor Rossiyasi hukmronligi yillarida temiryo'l tizimlari o'tkazilgan va bu yo'llar yoqasida yangi shaharlar paydo bo'lgan. Yangi Buxoro (Kogon), Chorjo'y, Termiz shular jumlasidandir. Bu shaharlarga asosan, rus millatiga mansub aholi joylashtirilgan.

Xiva xonligida ham Buxoro amirligidagi kabi tuzum hukmron edi. 1910 yilda Muhammad Rahimxon Feruz vafotidan keyin taxtga Asfandiyorxon (1910-1918) o'tiradi. Xiva xoni ham Buxoro amiri kabi har qanday huquqlardan mahrum bo'lib, u Rossiya imperiyasiga to'la qaram edi. Xondan keyingi mansablar mehtar, devonbegi va boshqalar bo'lgan. Xonlik asosan Turkiston general-gubernatorligi nazorati ostida faoliyat ko'rsatgan. Xonlikning asosiy shaharlari – Xiva, Toshxovuz, Pitnak, Ko'hna Urganch, Xazorasp va boshqalar edi.

20 beklik va 2 noiblikdan iborat bo'lgan Xiva xonligida 600-900 ming aholi yashagan. Milliy tarkibiga ko'ra ularning 60 foizini o'zbeklar, 28 foizini turkmanlar, qolganlarini qozoqlar, qoraqalpoqlar, eroniylar va boshqalar tashkil qilgan.

Buxoro va Xiva hududlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda juda orqada edi. Bu yerda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Buxoroning ruslar yashagan "Yangi Buxoro" (Kogon) qismida bir qator mayda sanoat korxonalari qurilgan bo'lsada, bu amirlik hududidagi kapitalistik munosabatlar haqida so'z aytishga asos bo'la olmas edi. Buxoro va Xiva aholisi asosan dehqonchilik, hunarmandchilik, kosibchilik va boshqa ishlar bilan shug'ullangan. Bu davlatlarda xalq ommasining iqtisodiy turmush sharoiti haddan tashqari og'ir edi. Eng yaxshi yerlar, katta-katta podalar, sug'orish manbalari bo'lgan ariqlar va quduqlar boylar va ruhoniylar qo'lida bo'lgan. Mehnatkash xalq ularga ko'p miqdordagi soliq va majburiyatlarni to'lab turgan. Shu boisdan aholining kichik bir guruhi to'q va farovon hayot kechirgan bo'lsa, asosiy ko'pchilik qashshoqlik va faqirlikda kun kechirgan. Shaharlardagi kosib va hunarmandlarning ahvoli ham nihoyatda nochor edi.

Bu davlatlarda mehnatkash omma amir va xonga qarshi bir necha bor bosh ko'targan. Ammo bu qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Jumladan, 1912-1913 yillarda Xiva xonligida turkmanlarning chiqishlari, 1916 yilgi Jizzax qo'zg'oloni ta'sirida Buxoro amirligining Murg'ob,

Vobkent, Yakkatut, G'ijduvon, Bahovuddin, Ziyovuddin, Xatirchi va boshqa bekliklarida yuz bergan qo'zg'olonlar bungi misol bo'la oladi.

1914-1918 yillardagi jahon urushi, 1917 yilda Rossiyada amalga oshirilgan fevral inqilobi va undan keyingi voqealar Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotni keskinlashtirib yubordi. Xar ikkala davlatda iqtisodiy tanglik kuchaydi, narx-navo mislsiz darajada o'sdi, qashshoqlik, ochlik avj oldi. Ayniqsa ekin maydonlari keskin qisqarib ketdi. Masalan, Buxoro amirligida paxta ekilgan maydonlar 1918 yilda 1913 yildagiga nisbatan 50 foizga, 1919 yilda esa 20 foizga tushib qoldi. Rossiyaga olib borib sotilayotgan paxta, jun va qorako'l terining miqdori keskin qisqarib ketdi. Shuningdek, bu mahsulotlarning harid narxlari ham juda pastlab ketdi. Ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi keskin ko'tarildi. Buning ustiga xalqdan olinadigan soliqlar miqdori ham tinimsiz ko'payib bordi, soliqlar xajmi ko'tarildi. Bu ham yetmagandek mehnatkash aholi qo'lidagi g'alla zo'rlik bilan tortib olina boshladi. Bu tadbirlarning hammasi sovetlarning amirlikka hujum qilishi xavfi tufayli amalga oshirilgan edi. Yana buning ustiga amir qo'shinlariga aholidan ommaviy safarbarlik e'lon qilinishi dard ustiga chipqon bo'ldi. Natijada sabr kosasi to'lgan xalq amirga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. 1919 yilning fevral oyida qo'zg'olon amirlikning bir qator bekliklarini qamrab oldi. Amir qo'zg'olonni bostirish uchun harbiy kuch safarbar qiladi. Qo'zg'olonchilarga qarshi shafqatsiz choralar ko'rildi, 5 ming kishi zindonga tashlandi, faol ishtirokchilardan 63 kishi Registon maydonida qatl etildi. Albatta bu tadbirlar xalq ommasining amir va xon zulmidan norozilik harakatining yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

2. Buxoro amirligi va Xiva xonligida sodir bo'layotgan xalq kurashining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati tashkil qilardi. Buxoro va Xivada vujudga kelgan jadidchilik harakatida 1905-1907 yillarda Rossiyada yuz bergan inqilobning va yosh turklarning 1908 yilda o'z hukmdorlariga qarshi bosh ko'tarishlari katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan edi. Buxoro va Xiva jadidlari jamiyatni isloh qilish tarfdorlari sifatida maydonga chiqqan edi. Buxoro va Xiva xalqlari uchun mustamlakachilik zulmi yo'q edi. Bu yerda mahalliy boylar va amaldorlarning zulmi kuchli edi. Mehnatkash xalq arz-dodini eshitadigan kimsa yo'q edi. Xalq ommasi amir va xon o'rniga insofliroq va adolatliroq hukmdorga ega bo'lishni xoxlar edi. Xalqning bu intilishi va qiziqishini Buxoro va Xiva jadidlari idrok etdilar va ko'tarib chiqdilar. Ular amir va xonga qarshi kurashni bosh maqsad sifatida belgiladilar. Yosh turklar faoliyati Buxoro va Xiva jadidlari faoliyati uchun namuna va o'lchov mezoni bo'ldi. Shuning uchun ular o'zlarini yosh turklarga nisbat berib "yosh buxoroliklar" va "yosh xivaliklar" deb atay boshladilar. Ularning pirovard maqsadlari konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi edi. Ular ana shu tuzum doirasida islohotlar o'tkazish yo'li bilan adolatli va insonparvar jamiyat qurish mumkin deb ishonardilar. Lekin bu mo'tadil talablar amir va xon tomonidan e'tiborga olinmas edi. Bu talabni ilgari surganlar hukmron tabaqa vakillarining keskin qarshiliga duch keldi, shu bois ular yashirini faoliyat olib bordilar.

Amir va xon hokimiyati chor Rossiyasi nazorati ostida bo'lsada, xali ancha mustahkam edi. U asosan konservativ va yangilikni yoqtirmaydigan kuchlar: beklik hokimlari, boshqaruv va idora amaldorlariga tayanar edi. Bunday monarxistik idora tartibi islom dini g'oyaviy-mafkuraviy asosiga qurilgan edi. Bu mafkuraga asosan davlat hukmdori "xudoning yerdagi soyasi" edi.

Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar xalq ommasi o'rtasida tayanch bazaga ega emasdi, ular o'zlariga ittifoqchini chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan katta xatoga yo'l qo'ydilar.

1916-1917 yillarda yashirin "Yosh buxoroliklar" tashkiloti va uning 12 kishilik markaziy qo'mitachsi tashkil topdi. Uning tashkil bo'lishida "Yosh turklar"ning "Ittihod va taraqqiy" partiyasi, Rossiya va Turkistondagi sotsial-demokratik partiyalarning ta'siri katta bo'ldi. "Yosh buxoroliklar" partiyasining markaziy qo'mitasi raisi Abduvohid Burxonov, kotibi Usmon Xo'jaev, xazinadori Muso Saidjonov edi. Bulardan tashqari partiyaning tashkil topib rivojlanishida Abdurauf Fitrat (1886-1938), Ota Xo'jaev (1894-1938), Mukomil Burxonov, Fayzulla Xo'jaev (1896-1938), Sadridin Ayniy (1870-1954), Fazlitdin Maxsum, Abduraxim Yusufzoda va boshqalarning xissasi katta bo'ldi.

"Yosh buxoroliklar" partiyasi o'z faoliyatida Buxoroda o'tkazilishi zarur bo'lgan islohot loyixasini ishlab chiqqan. Unda yer-suv masalasiga katta e'tibor berilgan. Bundan tashqari harbiy, moliya, ichki ishlar va davlat boshqaruv organlari kabi masalalarga ham katta o'rin berilgan. Maorif

sohasida davlat mablag'i hisobiga maktab va oliy o'quv yurtlari ochish, ularni zamonaviy o'quv qurollari, dasturlar, jihozlar bilan ta'minlashga e'tibor berilgan.

Islohotda davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayot masalalari qamrab olingan. Buni unda ko'rsatilgan 10 ta nozirlik isbotlaydi. Mana shu nozirliklar asosida Nozirilar Kengashi tashkil qilinishi nazarda tutilgan. Islohotdan kutilgan maqsad yakka amir hukmronligini yevropacha konstitutsion monarxiya bilan almashtirish, maorif va madaniyatni, ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish, ilm-fan va texnikani taraqqiy ettirishdan iborat bo'lgan. Buning uchun "Yosh buxoroliklar" partiyasi dastlab Amir Olimxonga har xil yo'llar bilan tinch demokratik ta'sir va hatto, kuch bilan tazyiq o'tkazishga harakat qildilar. Bularning hammasi Rossiya va Turkistondagi inqilobiy harakat bilan bevosita bog'liq edi.

Fevral inqilobidan keyin Buxoroda ham siyosiy vaziyat tezlik bilan o'zgara boshladi. Ruslar yashaydigan joylarda hokimiyat Muvaqqat hukumatning Ijroiya qo'mitalari qo'liga o'tdi. 1917 yil 12 martda Yangi Buxoroda Ijroiya qo'mita saylandi. "Yosh buxoroliklar" partiyasi rahbarlari o'z maqsadlarini Rossiya muvaqqat hukumati orqali amalga oshirish uchun unga murojaat qilib, amirni isloh o'tkazishga ko'ndirishni iltimos qildilar. Lekin unga javob kelmadi. Shunda "Yosh buxoroliklar" partiyasi Fitrat va Usmonxo'ja Po'latxo'jaevdan iborat delegatsiyani Petrogradga yuboradilar.

Ana shundan keyin Amir Olimxon Rossiya muvaqqat hukumati va uning Buxorodagi vakili Miller ta'sirida 1917 yil 7 aprelda islohot o'tkazish to'g'risida Manifest e'lon qiladi. Unda amir sud va soliq ishlarini tartibga solish, savdo va sanoatni rivojlantirish, barcha amaldorlarni nazoratga olish, poytaxt Buxoroni obodonlashtirish, fuqarolar sog'lig'i haqida g'amho'rlik qiluvchi maxsus komissiya tuzish haqida va'da qilingan edi. Shuningdek, manifestda moliya ishlarini taribga solish aniq byudjetni tashkil qilish, xalqqa yengilliklar berish, maorif va fan-texnikani rivojlantirish, bosmaxona tashkil qilib matbuotga asos solish, qamoqxonalardagi erkin fikrlilarni ozod qilish ko'rsatildi.

Bu manifest Buxorodagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Uni din peshvolari va mutaassiblar shariat qonunlarining buzilishi deb qabul qildilar. Buning ustiga "Yosh buxoroliklar" o'rtasida qat'iy birlik yo'q edi. Shu bois partiya markaziy qo'mitasining 12 a'zosi o'rtasida ajralish yuz beradi. Abduvoxid Burxonov "qizillashgan" F. Xo'jaev va uning guruhi nuqtai nazarini ma'qullaydi. F. Xo'jaev va uning tarafdorlari tabiatan rus inqilobchilari ta'siriga berilgan, asosiy maqsadga esa faqat Rossiya yordamidagina erishishga ko'r-ko'rona ishonar edi. Ularning o'z mustaqil mahalliy imkoniyatlarni hisobga olgan, qat'iy yo'li va dasturi yo'q edi.

Manifest e'lon qilinishi munosabati bilan "Yosh buxoroliklar" tomonidan tashkil qilingan 1917 yil 8 apreldagi namoyish ruxoniylarning keskin qarshiligiga uchradi. Ularning talabi bilan namoyish qatnashchilari va jadidlardan 30 kishi qamoqqa olindi va kaltaklandi. Namoyish fojia bilan tugadi, jadidlarni ta'qibga olish va jazolash boshlandi. Bu esa namoyishga boshchilik qilgan Markaziy qo'mita ichida yana bo'linishga sabab bo'ldi. Yangi saylangan Markaziy qo'mita Yangi Buxoroda turib rus armiyasi va hukumati yordamida amirga tazyiq o'tkazishga, uni jadidlarga amnistiya e'lon qilishga, ta'qibni to'xtatishga majbur qilishga harakat qildi. 14 aprel kuni amir Olimxon manifestni bekor qildi. Jadid vakillari esa o'z xomiylari – Yangi Buxoodagi bolsheviklar oldiga keladilar. Shu davrdan e'tiboran F. Xo'jaev guruhi bolsheviklar yo'lini o'z yo'li sifatida tanladi.

3. "Yosh xivaliklar" tashkiloti 1917 yilda Xiva jadidlarining so'l qanotidan ajralib chiqdi. Uning tashkilotchi va asoschilari Xusaynbek Matmurodov, Boboxxun Salimov, Polvonniyoz xoji Yusupov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar edi. Ular rus podshosi istibdodi bilan uyg'unlashgan mustabid xon zulmi, mutassiblik, xurofot, soliqlarning ko'pligidan azob chekayotgan xalqni erkin va farovon turmushga olib chiqish, vatanni iqtisodiy va madaniy taraqqiy ettirish yo'lida bosh qotirdilar va demokratik islohotlar o'tkazishni yoqlab chiqdilar. Bu muholifatchilar orasida xonlikdagi yirik ulamo va amaldor vakillari ham bor edi. Jumladan, Boboxxun Salimov shayxulislom va qozikalon mansabida edi. U o'z lavozimidan foydalanib Xiva xoni Asfandiyorxonni adolatli va insofli bo'lishga chaqirdi.

1917 yil 4 aprelda Xiva shahridagi rus askarlari deputatlari soveti va B. Salimov rahbarligidagi "Yosh xivaliklar" namoyish o'tkazadilar. Bundan cho'chigan Asfandiyorxon 5 aprelda "yosh xivaliklar" qo'mitasi tomonidan yozilgan manifestga imzo chekishga majbur bo'ldi. Bu hujjat asosida Xivada xon boshchiligida konstitutsiyaviy monarxiya qaror topishi e'lon qilinadi. Saylov yo'li bilan

deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi. 8 aprelda bo'lgan Majlisning 1-yig'ilishida majlis raisligiga B. Salimov, Nozirlar kengashining raisligiga Xusaynbek Matmurodov saylandi. Ana shundan so'ng majlis va hukumat butunlay "Yosh xivaliklar" qo'liga o'tdi.

Majlis nomidan e'lon qilingan manifestga ko'ra xonlikda vaqf, xususiy mulk va podsholik yerlari daxlsizligicha saqlanib qoldi, xazinaning kirim-chiqimlari ustidan nazorat o'rnatildi shariat sudlari davlat ta'minotiga o'tkazildi, yangi usuldagi jadid maktablari ochila boshladi. Majlis a'zolari orasiga turkman va qoraqalpoq vakillari ham kiritildi. Ammo bu g'alaba uzoqqa bormadi, u bor-yo'g'i 2 oy umr ko'rdi. Asfandiyorxon Rossiya muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general Mir Badalovga suyangan holda 1917 yilning iyun oyining boshlarida jadidlar boshliq majlisga qarshi fitna uyushtirdi. Bu paytda B. Salimov va "Yosh xivaliklar"ning boshqa yirik namoyandalari Toshkentga Sho'ro hukumatidan yordam so'rash uchun ketgan edi. Xon Nozirlar kengashining raisi X. Matmurodov boshliq jadidlarning 17 vakilini qamoqqa oldi. Ularning ko'pchiligi otib tashlandi, bir qismigina qochib qutulishga muvaffaq bo'ldi. Jadidlar "shariatga hiyonat qilganlikda" ayblanib ta'qib ostiga olindi.

Xiva xoni majlisga yangidan "saylov" o'tkazdi. Uning raisi qilib Ortiq Oxun saylandi. Nozirlar kengashining raisi lavozimi Bosh vazir deb qayta nomlandi va unga Isoqxo'ja tayinlandi. Bu amalda o'ziga xos davlat to'ntarishi edi. Bu ishni amalga oshirishdagi xizmatlari uchun xon Mir Badalovga 40 000 so'm pora beradi. B. Salimovning boshi uchun katta miqdorda pul va'da qilindi, singlisi tutib olinib, qiynab o'ldirildi. Shundan keyin B. Salimov va boshqa jadidlar yashirin faoliyat ko'rsatishga o'tdilar.

Asfandiyorxon xalq noroziligini bostirish va jadidlarni ta'qib qilishda rus askarlaridan keng foydalandi. 1917 yil iyulda Rossiya muvaqqat hukumati Xiva xonligida maxsus harbiy ma'muriyat tashkil qildi. Xalq ommasining haq-huquqlari rus askarlari tomonidan toptaldi. Buning ustiga 1917 yilda xonlik hududida ocharchilik boshlandi. Xivada may oyida qo'zg'olon ko'tarildi.

Mana shunday og'ir bir sharoitda 1917 yil sentabrida Junaidxon o'z qurolli to'dalari bilan Xivaga qaytib keladi. U 1916 yildagi qo'zg'olon davrida Afg'onistonga o'tib ketgan edi. Junaidxon xonlikda juda katta o'zgarishlar yasashga muvaffaq bo'ldi. Junaidxonning shaxsiyati juda murakkab bo'lib, unga bir tomonlama baho berishning imkoni yo'q. Junaidxon o'z yigitlari bilan to'g'ridan-to'g'ri Xiva xonligiga xavf solib turgan kommunistik bosqinga, ya'ni sho'ro hokimiyatiga qarshi bosh ko'tardi. Uning bu maqsadi na faqat Asfandiyorxonga, balki chor Rossiyasining Xivadagi barcha aksilsovet harbiylariga va umuman milliy mustaqillik uchun kurashayotgan kuchlarga ayni muddao edi. Asfandiyorxon 1918 yil yanvarida Junaidxon bilan aloqa o'rnatib, xonlikni birgalikda idora qilish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish maqsadida Xivaga taklif qildi. Xon Junaidxonni qo'shinlar qo'mondoni qilib tayinladi. 1918 yil sentabr oyida Junaidxon odamlari Asfandiyorxonni o'ldirib, o'rniga xonning tog'asi irodasiz Abdulla To'raxonni xon qilib ko'taradilar. U nomigagina xon bo'lib, amalda butun hokimiyat Junaidxonning qo'lida edi.

Bu paytda Turkistonda sovet hukumati Xivaga qarshi harbiy-inqilobiy tayyorgarlikni boshlab yuborgan edi. Shu bois Junaidxon va qo'g'irchoq xon Said Abdullaxon sovetlarga qarshi harbiy tayyorgarlikni boshlab yubordilar. Qurolli yoki oti bo'lgan har bir kishi navkarlikka chaqirildi, qurolli yoki oti bo'lmagan har uch xonadon esa bitta otliq navkarni qurollantirishga majbur qilindi. Oldingi soliqlar saqlab qolingan holda dehqonlar qo'shimcha 10-12 tillo pul va 10-12 pul don solig'i to'lashi shart qilib qo'yildi.

Junaidxon vaqtidan foydalanish uchun 1919 yilning aprelida sovet hukumatiga sulh tuzish to'g'risida taklif kiritdi. 9 aprelda Taxtaqal'ada RSFSR bilan Xiva xonligi o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Unda har ikkala tomon ham har qanday harbiy harakatlarni to'xtatishi, sovet hukumati Xiva xalqining o'z taqdirini o'zi belgilashini tan olishi qayd qilindi. Xiva xonligi Rossiya vassaligidan chiqdi, 1873 yilgi Gandimiyon shartnomasi o'z kuchini yo'qotdi. Lekin birinchi npavbatda sovet hukumati shartnomaga rioya qilmadi. Sovet hukumati Xiva xonligining ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashdi, qurolli harbiy yurishlar qildi. Bu yo'l Xiva xonligida ham qo'llanildi. Bolsheviklar xonlikdagi ichki nizolardan ustalik bilan foydalandi. Rus sotsial-demokratik partiyalari, ayniqsa bolsheviklar o'z e'tiboini Xivaga qaratadilar. To'rtko'l shahrida "Yosh xivaliklar"ning 15 kishidan

iborat qo‘mitasi tashkil qilinadi. 1919 yilning boshida bu tashkilot a‘zolarining soni 600 taga yetdi, 200 kishilik o‘z harbiy qismiga ham ega bo‘ldi.

Asli jadidlardan bo‘lgan “Yosh xivaliklar”ning dasturiy talablari keskin o‘zgarib, endi ular xon hokimiyatini ag‘darib, Xivani RSFSR tarkibiga birlashtirishni maqsad qilib qo‘ydilar. Xullas, “Yosh xivaliklar”ning bolsheviklar ta‘sirida inqiloblashuv jarayoni kuchayadi. Bu borada “yosh xivaliklar”ning islohotchi tashkilotini komfirqaga aylantirish va mahalliy inqilobchilarni ko‘paytirish zarur deb hisoblandi.

20-mavzu: Xiva xonligi va Buxoro amirligining qizil armiya tomonidan tugatilishi. XXSR va BXSРning tashkil topishi

Reja

- 1.Qizil armiya kuchlari tomonidan Xivaning bosib olinishi.
- 2.XXSRning tashkil etilishi va undagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar.
- 3.Buxoroga qizil armiyaning bosqini va amir hokimiyatining ag‘darilishi.
- 4.Buxoro Xalq Sovet respublikasidagi hokimiyat tizimi va g‘oyaviy-siyosiy vaziyat.

1. 1919 yilning oxirlariga kelib sovet hukumati Xiva xonligini bosib olish bo‘yicha tayyorgarlik ishlarini nihoyasiga yetdi. Bolsheviklar doimgidagidek Xivani bosib olish jarayonida tub yerli aholi o‘rtasida birlik va hamjihatlikning yo‘qligidan, qabila va urug‘lar o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklardan foydalandi. Bu o‘rinda Junaidxonga qarshi bo‘lgan turkman urug‘ boshliqlari Qo‘shmamedxon, G‘ulomalixon va Yaxshigeldilarning aldanib, 1919 yil noyabrida bolsheviklar tomoniga o‘tishlari muximdir. Xiva xonligi hududlarini bosib olish Moskva va Toshkentdagi sovet hukumati tayyorlagan dastur asosida amalga oshirildi.

Turkiston Respublikasi Harbiy inqilobiy Kengashi 1919 yil 22 dekabrda Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlash haqida qaror qabul qiladi. Qarorga asosan qizil askarlardan ikkita otryad tuzilib, Janubiy otryadga Shcherbakov, Shimoliy otryadga Shaydakov qo‘mondonlik qildi. Shu kuni qizil askarlar Amudaryo bo‘limida qo‘zg‘olgan kazak otryadlarini tor-mor keltirib Amudaryodan o‘tdi va Xiva xonligi yerlariga bostirib kirdi. Shimoliy otryad qo‘shinlari Janub yo‘nalishi bo‘yicha urush harpakatlarini davom ettirib xonlikning asosiy yirik markazlarini egallab bordi. 29 dekabrda Xo‘jayli, 9 yanvarda Ko‘hna Urganch, Omonqal‘a, 14 yanvarda Porsu, 16 yanvarda Ilolli, 18 yanvarda Toshxovuz bosib olindi. 20 yanvarga kelib G‘oziobod va Badirkent egallandi. Janubiy otryad esa 24 dekabrda Amudaryoni kechib o‘tdi va u ham bosqinchilik harakatlarini boshlab yubordi. Bu otryad qo‘shinlari siquvi ostida Junaidxon lashkarlari G‘oziobod va Paxtaqal‘a tomon chekindilar, bu yerda qattiq jang bo‘ldi. Junaidxon mazkur jangda o‘zining 400 ga yaqin jangchilarini yo‘qotdi.

Junaidxon bu mag‘lubiyatdan keyin Qoraqumga qochib o‘tishga majbur bo‘ldi. Qizil armiya xonlik poytaxtini 1920 yil 1 fevral kuni egalladi. Asosiy hukmronlik Junaidxon qo‘lida bo‘lsa ham Sayyid Abdullaxon Xivaning rasmiy xoni edi. U xali Xivaga bosqinchilar kirmasidan oldinoq qizil armiyaning bosh qo‘mondoniga vakil yuborib, urushni to‘xtatishni talab qilgan edi. 2 fevralda u xonlikdan voz kechdi. Qizil armiya xonlik poytaxti Xivani deyarli qarshiliksiz egalladi. “Yosh xivaliklar”ning Toshkent va Chorjo‘y qo‘mitalari Xivaga hokimiyat bosib olinganidan ancha keyin keldilar. Xiva inqilobiy qo‘mitasi hatto “Yosh xivaliklar”ning Toshkent tashkiloti raisi Polvonniyoz Yusupovni maxsus chaqirib oldi.

RSFSR Markaziy ijroqo‘mi va Rossiya komfirqasi markaziy qo‘mitasining Turkiston komissiyasi va Turkiston inqilobiy harbiy kengashining maxsus vakili G. Skalov Muvaqqat hukumatni tuzdi. Uning guvohlik berishicha, bu hukumat tarkibiga kirgan a‘zolari Said Abdullaxon taklif etgan. Shundan so‘ng muvaqqat hukumat tarkibiga mulla Jumaniyoz Sultonmurodov (“Yosh xialiklar”ning To‘rtko‘l qo‘mitasi raisi), Muhammadjonbiy, Bobooxun Salimov, Jaloloxun, Mulla Abdulxay qori, turkmanlardan Mulla O‘roz va Mulla Navro‘zlar kirgan.

Birinchi kundan boshlab Xivada Rossiya hukumati, kompartiya va uning Turkkomissiyasi hamda Turkfront harbiy kengashi a‘zolari G.Broyda, A.Izmaylov, G. Skalov va boshqalar hukmronlik qila

boshladilar. Lenin boshliq bolsheviklar Petrogradga to'ntarish qilib sovet hukmronligini o'rnatish uchun qanday noqonuniy va harbiy to'ntarishni amalga oshirgan bo'lsalar, Xivada ham ayni shu ishlar takrorlandi. Mahalliy o'ziga xos sharoit, tarixiy an'ana va urf-odat, xalqning xoxish-irodasi umuman e'tiborga olinmadi. Xonlikda bosh vazir lavozimida ishlagan Davlatmurod Tozamahrash otib tashlandi, hukumatning boshqa a'zolari qamoqqa olindi.

2. 1920 yil 27-30 aprel kunlari Xiva shahrida xalq vpakillarining Butunxorazm 1-qurultoyi bo'lib o'tdi va unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Qurultoyda respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho'rosi tuzilib, hukumat raisi etib Polvonniyoz xoji Yusupov, rais muavinligiga Boboxun Salimov va 15 nafar nozir (vazir) saylandi. Bu saylanganlarning 10 tasi “yosh xivaliklar”ning vakillari edi. Ular mamlakatda demokratik tuzumni o'rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshira boshladilar. Ular hukumatni mahalliy sharoit, shariat va mustaqillik asosida boshqarishga harakat qildilar. P. Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o'rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edi. XXSRning konstitutsiyasida ham xususiy mulk e'tirof etilgan edi. Bu esa rus sovet hukumatining Xivadagi vakillariga yoqmadi. Shu boisdan ham ularning faoliyati uzoqqa bormadi. Sovet hukumati XXSRning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralasha boshladi, uning mustaqil ish olib borishiga deyarli imkon bermadi.

Sovet hukumatining Xivadagi vakillari 1920 yil avgust oyida Qo'shmamedxon va G'ulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga va bu bilan mahalliy o'troq aholi va turkman chorvadorlari o'rtasida nizo tug'dirishga harakat qilishdi. G'ulomalixon qochib qutulgan bo'lsa ham, Qo'shmamedxon va uning yigitlari qatl qilindi. Biroq bu holatlarning hammasi “Yosh xivaliklar” hukumati zimmasiga yuklandi. Natijada 1921 yil 6 martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, inqilobiy qo'mita tuzildi va Polvonniyoz xoji Yusupov boshliq hukumat a'zolari qamoqqa olindi. Polvonniyoz xoji Yusupov va Nazir Sholikorovlar qochib yashirinishga ulgurdi.

XXSRda kommunistlar olib borayotgan siyosat mahalliy kadrlarni, ziyolilarni, mustaqil fikrga ega bo'lgan kishilarni yo'qotishga qaratilgan edi. Xorazm respublikasi mavjud bo'lgan atigi 5 yilga yaqin muddat ichida respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho'rosi va Xorazm MIK raislari o'n martadan o'zgartirilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Xorazm respublikasi tuzilgan dastlabki oylardan boshlab g'oyaviy-siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Yosh xivaliklar hukumati, demokratik kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlarini va qadriyatlarini e'zozlab ish olib bordilar. Ammo Xivani bosib olish jarayonida kirib kelgan qizil armiya, uning qo'mondonlari respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Ular mahalliy sharoitni, xalq ommasi kayfiyati va qarashlarini nazar-pisand qilmay tezkorlik bilan inqilobiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xorazm Kompartiyasi (1921 yil dekabrda tuzilgan) ularning eng yaqin yordamchisiga aylandi.

“Yosh xivaliklar” hukumati tez orada o'zlarining aldanganliklarini anglab yetdilar. Natijada ular rus kommunistik bosqiniga qarshi istiqloлчаilik harakatiga otlandilar. “Yosh xivaliklar” qizil armiyaga qarshi kurash olib borayotgan Junaidxon va boshqa kuchlarga yordam berdilar.

Xorazm respublikasida keyingi yillarda ham g'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Respublikaning ko'plab rahbarlari mustaqillik uchun kurashni to'xtatmadilar. 1923 yil bahorida savdo-sanoat noziri Nurullaev Moskvada RSFSR bilan bo'layotgan muzokaralarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Sovet Rossiyasining ko'rsatmalari asosida 1923 yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to'ntarish amalga oshirildi. 1923 yil oktabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) ga aylantirildi. XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiya davlatning sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonunan mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, 1923 yil kuzidan boshlab Xorazm respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga butunlay chek qo'yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu holat 1924 yilning oxirigacha davom etdi.

3. Turkiston XKS Buxoro davlatiga g'animlik qilib, amirlik tuzumini ag'darishga harakat qilar edi. Bolsheviklar shu maqsadda Yosh buxoroliklarni qo'llab-quvvatlab turdi. 1918 yil mart oyida

amirlik poytaxti Buxopro shahriga hujum qildilar. Ularning hujumi muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsa ham, Buxorodagi siyosiy tuzumni o'zgartirish uchun urinish to'xtamadi. Amir Olimxon mamlakat taqdiri hal qilinayotgan bu paytda yosh buxoroliklar bilan til topisha olmadi. Amirlikning turli hududlarida jadid vakillaridan juda ko'pchilik o'ldirildi va ta'qibga olindi. Yosh buxoroliklarning bir qismi 1918 yilning yozida Toshkentda Buxoro Kompartiyasini tuzishdi. 1920 yil yanvarda esa Toshkentda F. Xo'jaev boshchiligidagi inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tuzildi. Mazkur byuroning 1920 yil 13-14 iyunda bo'lgan konferensiyasida F. Xo'jaev tuzgan dastur qabul qilindi. Dasturda amirlik tuzumini qurol kuchi bilan ag'darib tashlash va Buxoroni demokratik xalq respublikasi deb e'lon qilish talabi qo'yildi. Yosh buxoroliklar katta boylar qo'lidagi yerlarni musodara qilish, bepul boshlang'ich ta'limni joriy qilish, shuningdek, qishloq xo'jaligi, hunarmandlar sanoati, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo'lida amaliy chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ta'kidladi.

1920 yil 25 avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M. Frunze qizil askarlarga Buxoroni bosib olish uchun buyruq berdi. Keskin janglardan so'ng 2 sentabrda Buxoro shahri bosib olinib, said olimxon hokimiyati ag'darib tashlandi. Qizil askarlar poytaxt Buxoro shahrini vayron qilib tashladilar. Shafqatsiz bombardimon natijasida shahar obidalarining beshdan bir qismi vayron qilinib, minglab begunoh odamlar nobud bo'ldi. O'sha dpavr manbalaridan birida yozilishicha: "Buxoroni bosib olish natijasida 34 guzar, 3000 dan ortiq do'kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib harob bo'ldi. Minorai kalonga ham zarar yetib, Olimxon va Mirarab madrasalari yonib ketdi".

Shaharga kirgan qizil askarlar arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qushbegi va boshqa amaldorlarning boyligini musodara qilganlar. Askarlar va qo'shin boshliqlari talon-taroj evaziga katta boyluk orttirdilar. Sentabr oyining boshida amirlik xazinasini va boshqa boyluklar ortilgan 2 eshelon yuk Samarqand va Toshkent orqali Moskvaga yo'l oldi. Buxoro shahroidan keyin qizil armiya birin-ketin 27 beklikni ham egallab Buxoro amirligiga barham berdi.

1920 yil 14 sentabrda bo'lgan Xalq Nozirlar Sho'rosi, Revkom va Buxoro kompartiyasi MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan biorat Butunbuxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati – 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar sho'rosi (raisi Fayzulla Xo'jaev) tuzildi. Bu paytga kelib inqilobchi Yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari Buxoro kompartiyasi safiga kirgan edilar. Asosan jadidilardan tashkil topgan Buxoro hukumatining deyarli barcha a'zolari o'qimishli kishilar edi. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

4. 1920 yil 6-8 oktabrda Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1-qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi e'lon qilindi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirish vazifasi qo'yildi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro inqilboiy qo'mitasi. Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi – dastlabki hukumat tarkibini tasdiqladi. Ularning vakolat muddati 2-qurultoygacha uzaytirildi. 1920 yil oktabr-noyabr oylarida BXSR va RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy shartnoma imzolandi. 1921 yil 4 martda har ikki davlat o'rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklanishiga olib keldi. Ittifoq shartnomasiga ko'ra Buxoro hududida sovet qo'shinlari doimiy turishi qonunan belgilangan edi.

Buxorodagi yangi tuzum va undagi chora-tadbirlarni aholi xursandlik bilan kutib oldi. Biroq yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar tabaqasiga nisbatan ko'rilgan choralar, ya'ni ularga tegishli mol-mulk, yer-suvlarning musodara qilinib, egalarining otib tashlanishi, amirlik xazinasining Moskvaga olib ketilishi, oziq-ovqat razvyorstkasi, islom dini va ulamolarga nisbatan dushmanlik siyosati, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchilik xarakatlari xalqning kuchli noroziligini keltirib chiqardi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ham keskinlashdi. Buxoroda amir hokimiyati ag'darib tashlangan dastlabki xaftalardayoq mamlakatning g'arbiy, markaziy va sharqiy qismlarida qizil armiyaning bosqinchilik siyosati va bolsheviklar zulmiga qarshi boshlangan qurolli harakat avj olib ketdi.

Yosh davlat yetakchisi F. Xo‘jaev murakkab va og‘ir sharoitlarda ishlashga majbur bo‘ldi. Buxoro hukumati ichida siyosiy bo‘linish kuchaydi. Bir tarafdin Buxoro kompartiyasi ichidagi so‘l va o‘ng kommunistlarga qarshi g‘oyaviy jihatdan kurash olib borishga to‘g‘ri kelsa, ikkinchi tarafdin RSFSR va uning favqulodda organlari bo‘lgan Turkkomissiya, Turkbyuro, O‘rta Osiyo byurosi yosh davlatning har bir qadamini kuzatib turar edi. Shunday bo‘lsada, Buxoro hukumati a‘zolari mo‘‘tadil turib faoliyat olib borishga harakat qildi. Ular BXSР amalda mustaqil bo‘lishi, e‘tiqod erkinligi, islohotlar o‘tkazish zarurligini yoqlab chiqdilar.

1921 yil 18-23 sentabrda bo‘lgan Butun Buxoro xalq vakillarining 2-qurultoyi demokratik ruxdagi BXSР konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyada davlatni idora qilish uchun xalqning barcha tabaqa vakillari ishtiroki ta‘minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari unda o‘z ifodasini topdi. BXSР Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlik yo‘qotildi. 2-qurultoyda Butun Buxoro MIK tashkil qilinib, uning raisligiga Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev (1887-1968) saylandi. 1922 yil avgustda bo‘lgan 3-qurultoyda bu lavozimni Porso Xo‘jaev egalladi.

Biroq Buxoro respublikasidagi demokratik jarayonlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923 yil 3 iyunda Buxoroga SSSR Qurolli kuchlarining qo‘mondonlari tashrif buyurib, ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq aytib, sotsialistik o‘zgartirishlarni jadallashtirishni talab qildilar. Sovet hukumati Buxoroga turli vakillarni yuborib, Buxoro hukumati oldiga turli talablarni qo‘ya boshladi. F. Xo‘jaevning eng yaqin safdoshlari bo‘lgan yosh buxorolik jadidlar – tashqi ishlar noziri Otaulla Xo‘jaev, maorif noziri Fitrat, moliya noziri Sattor Xo‘jaev va boshqalar lavozimlaridan chetlashtirilib, Buxoro davlati hududidan chiqarib yuborildi. Buxoro hukumati Moskva va Turkistondan yuborilgan sovet vakillari bilan to‘ldirildi. Hukumat ichida markazdan kelgan emissarlarning ta‘siri kuchayib ketdi. 14 avgustda bo‘lgan Buxoro MIK favqulodda sessiyasida Buxoro Konstitutsiyasiga ham o‘zgartirishlar qilindi. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Jamiyat hayoti tobora siyosiylashib bordi. Buxoroda o‘tkazilayotgan demokratik islohotlar xavf ostida qoldi. Markaz talabi bilan sun‘iy rpavishda sotsialistik qayta qurishlarni amalga oshirishga kirishildi. Respublikadagi bunday keskin vaziyatda qurolli muholifatchilik kuchayib bordi.

Shunday qilib, 1923 yil yozida sovet rejimi Buxoroda o‘ziga xos davlat to‘ntarishini amalga oshirdi. Milliy qo‘shin va milliy valyuta bolsheviklar tomonidan tugatildi. 1924 yil 18-20 sentabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro xalq vakillarining 5-qurultoyida BXSР Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR) ga aylantirildi. Natijada taraqqiyotning demokratik yo‘li bekor qilinib, sotsialistik yo‘l tanlandi. Markazdagi bolshevik rahbarlarning Buxoro va Xorazm respublikalarini sotsialistik respublikalarga aylantirishdan ko‘zlagan maqsadi mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish va ruslashtirish, xalq ongiga kommunizm mafkurasini majburan singdirish edi. 1924 yil noyabr oyi oxirida xuddi Xorazm respublikasi singari Buxoro SSR ham tugatilib, uning hududi yangi tashkil etilgan O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSRga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalarining demokratik islohotlar tomon bosib o‘tgan yo‘li o‘sha davr uchun ham, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qarganda ham mashaqqatli yo‘l bo‘ldi. Buxoro va Xorazm respublikalari atigi 4-5 yil ichida dunyoviy islohotlar joriy qilinayotgan demokratik davlatga aylana boshladi. Afsuski, bu jarayonlar mustabid sovet rejimi tomonidan zo‘rlik bilan to‘xtatib qo‘yildi va nisbatan mustaqil bo‘lgan bu davlatlarning mavjudligiga ham barham berildi.

Buxoro va Xorazm respublikalarining tugatilishi bilan kamida 3 ming yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining milliy davlatchilik xalqasi deyarli uzib tashlandi. O‘zbekiston SSR tuzilsa ham (1925 yil fevral) oradan ko‘p o‘tmay u SSSR tarkibiga kiritildi. O‘zSSR amalda hech qanday mustaqil siyosiy huquqlarga ega bo‘lmay, yangi shakldagi mustabid sovet rejimining bir qismi bo‘lganligi uchun ham mustaqil davlat vazifasini o‘tay olmadi.